

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN BA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**FAYZULLAYEVA OBIDAXON XOLBEKOVNA**

**SHE‘R ILMI TA‘LIMI**  
**(She‘riy turkumlar poetikasi)**

**O‘QUV QO‘LLANMA**

**60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)**

**“BOOKMANY PRINT”  
TOSHKENT – 2024**

**UO‘K: 00**

**KBK: 00**

**F 00**

Fayzullayeva Obidaxon Xolbekovna.

She‘r ilmi ta‘limi (She‘riy turkumlar poetikasi) [Matn]: o‘quv qo‘llanma / O.X. Fayzullayeva. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 178 b.

Mazkur o‘quv qo‘llanma 60230100 – filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta‘lim yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, “She‘r ilmi ta‘limi” tanlov fani dasturi bo‘yicha tayyorlangan. Unda o‘zbek adabiyotida she‘riy turkumlarning badiiy-estetik xususiyatlari uning janr tarixi, genezisi, tendensiyalari, tadrijiy taraqqiyoti, estetik tabiati, turkumlarda badiiy tasvir vositalarini qo‘llash mahorati masalalari orqali ochib berilgan. Turkumlilikning yetakchi shakliy belgilari, turkumlilik yuzaga kelishidagi hayotiy, tarixiy va adabiy omillar, ulning genezisi va taraqqiyot xususiyatlari, turkumlilikning badiiy o‘ziga xosligi, realistik tasvir prinsiplari, tarixiylik va badiiylikning uyg‘unligi masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Shakl va kompozitsiyadagi o‘ziga xosliklar va badiiy shartlilik shakllari asoslangan, kechinma tiplari va lirik syujet qurilishidagi prinsiplar aniqlangan, shoirlar ijodiy uslubidagi o‘ziga xosliklar Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asari tarkibidagi turkum she‘rlar, Alisher Navoiyning “Sittai zaruriya” va “Fusuli arbaa” qasidalar turkumlari, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yaratilgan she‘riy turkumlar, shuningdek, XX asrning yetuk ijodkorlari bo‘lgan Oybek, Mirtemir, Hamid Olimjon, Zulfiya, Shuhrat, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi va istiqlol davrida yaratilgan turkum she‘rlar misolida ochib berilgan. Qo‘llanmaning ilovalar qismida nazorat savollari, testlar banki, shu sohaga tegishli terminlardan iborat glossariy berilgan.

**Mas‘ul muharrir:**

**Qozoqboy Yo‘ldoshev** – filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchi:**

**Muzaffar Mamatqulov** – filologiya fanlari doktori, professor

O‘quv qo‘llanma Guliston davlat universiteti o‘quv-uslubiy kengashining 2023-yil 20-dekabrda 5-sonli bayonnomasi hamda universitet rektorining 2023-yil 21-dekabrda 193-sonli buyrug‘iga asosan nashrga ruxsat etildi.

**ISBN 978-9910-761-71-3**

© **Fayzullayeva O.X.**

© **“Bookmany print” nashriyoti, 2024.**

## KIRISH

Yurtimiz mustaqilligi hayotimizning ijtimoiy va madaniy sohalaridagi turli o'zgarishlar qatori badiiy adabiyotga, she'riyatga bo'lgan e'tiborni ham yanada kuchaytirdi. Bugungi adabiyot ilmda adabiy janrlarning tarixiy hayotini o'rganish, ildizlari – genezisini aniqlash, tipologik xususiyatlarini, badiiyatini tadqiq qilish, o'ziga xos qonuniyatlarini ko'rsatish umummilliy qadriyatlarni o'rganishga qo'shilgan muhim hissa bo'ladi.

“Ayni shu nuqtai nazardan qaraganda, o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, katta ahamiyatga ega”<sup>1</sup>. Shulardan kelib chiqib, o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti namunalarini turkumlilik jihatiga ko'ra o'rganish, shoirlarimizning hayotimizda ro'y berayotgan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy muammolarga munosabati hamda ularning she'riy turkumlar yaratishdagi mahorati kabi masalalarni yanada chuqurroq tadqiq etish zarurati mavjud.

Milliy she'riyatimiz tarixida turkumlilikning janr xususiyatlari, genezisi, tendensiyalari, shakliy va poetik izlanishlar, turkum she'rlarning talqini va tahlili doirasida o'rganish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Dunyo adabiyotshunosligida lirik turkumlar yaratish an'analari, turkumlar yaratishdagi novatorlik, lirik qahramonning sayyorlik xususiyatlari, turkumlar strukturasi, kompozitsiya va syujet masalalari, lirik turkumlarning badiiy-estetik xususiyatlari, she'riy turkumlarning guruhlanishi, mustaqil she'rlarning lirik turkumlar tarkibidagi o'rni, turkumlardagi poetik obrazlar, she'riy turkumlarning shakllanishi va taraqqiyoti qonuniyatlarini tahlil qilish, o'ziga xos takomilini o'rganish kabi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy ishlar olib borilmoqda.

O'zbek adabiyotida she'riy turkumlarning badiiy-estetik xususiyatlarini uning janr tarixi, genezisi, tendensiyalari, tadrijiy taraqqiyoti, estetik tabiati, turkumlarda badiiy tasvir vositalarini qo'llash mahorati masalalarini ochib berishga zarurat bor.

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига табриги // Халқ сўзи, 2018-йил, 8-август.

Bunda turkumlilikning yetakchi shakliy belgilarini, turkumlilikning yuzaga kelishidagi hayotiy, tarixiy va adabiy omillarni aniqlash, o‘zbek adabiyotida mazkur shaklning genezisi va taraqqiyot xususiyatlarini ko‘rsatib berish, turkumlilikning badiiy o‘ziga xosligini, realistik tasvir prinsiplarini ko‘rsatish, tarixiylik va badiiylikning uyg‘unligi masalasiga baho berish, shakl va kompozitsiyadagi o‘ziga xosliklarni va badiiy shartlilik shakllarini asoslash, kechinma tiplari va lirik syujet qurilishidagi prinsiplarni aniqlash, shoirlar ijodiy uslubidagi o‘ziga xosligini ochib berish kabilar muhim.

O‘zbek adabiyotida yaratilgan she’riy turkumlar, ularning genezisi, taraqqiyot tendensiyalari, turkum she’rlarning badiiy-estetik xususiyatlarini tadqiq qilish muhim. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asari tarkibidagi turkum she’rlar, Alisher Navoiyning “Sittai zaruriya” va “Fusuli arbaa” qasidalar turkumlari, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yaratilgan she’riy turkumlar, shuningdek, XX asrning yetuk ijodkorlari bo‘lgan Oybek, Mirtemir, Hamid Olimjon, Zulfiya, Shuhrat, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi va istiqloq davrida yaratilgan turkum she’rlari kabilar mavjudligi bunga asos bo‘ladi.

Mazkur qo‘llanmada turkumlilikning jahon adabiyotshunosligida tutgan mustaqil asarlarning yangi ko‘p komponentli badiiy birligi sifatidagi mustahkam o‘rni, uning yuzaga kelishidagi hayotiy, tarixiy va adabiy omillar, she’riy turkumlar genezisi, turkumlanishga asos bo‘lgan she’r shakllarining spetsifik belgilari, she’riy birlik holatiga kelgan lirik janrlarning yetakchi shakliy xossalari individualligi, janr formalarining o‘ziga xosligi bilan birgalikda mazkur shaklning o‘zbek adabiyotidagi taraqqiyot xususiyatlari, turkumlilikning badiiy o‘ziga xosligi, realistik tasvir prinsiplari aniqlanib, tarixiylik va badiiylikning uyg‘unligi masalasi ko‘rsatib berilgan.

Turkumlilikning adabiy janrlar tarixi va nazariyasini yaratishdagi badiiy-estetik ahamiyati, shakl va kompozitsiyadagi tarkibiy unsurlarning o‘ziga xosliklari, badiiy shartlilik shakllarini asoslashda o‘zbek she’riyati taraqqiyotida turkum she’rlar mualliflari, o‘zbek she’riyati vakillari bo‘lgan ijodkorlarning qarashlari, san’atkorning badiiy niyati asosida turkumning shakllantirilishi va ularning o‘zbek adabiyotidagi tutgan o‘rni misollar bilan asoslangan.

Turkumlilikda realistik tasvirning o‘ziga xosligi hamda tarixiylik tamoyillari ijodkorlarning badiiy niyatiga, tuzilmaning yaxlitligiga asoslangan bo‘lishi, kechinma tiplari va lirik syujet qurilishidagi tamoyillar, shoirlar ijodiy uslubidagi estetik butunlik, konseptual birlik,

badiiy-estetik umumiylik, sarlavha, epigraf, mavzu, janrlar, mazmun, vaqt va joy birligi, unsurlarning matniy bogʻliqligi, ichki gʻoya birligining mavjudligi aniqlangan.

Turkum sheʼrlarda yangicha tafakkur tarzining namoyon boʻlishi, ushbu shakldagi sheʼrlarda muallif pozitsiyasi, turkumlilikdagi badiiy shartlilik masalalari, sheʼrlarda hayotiy va adabiy omillar, uning asosiy gʻoyasi va mavzusi, matnning subyektiv tashkil etilishi, intertekstuallik aloqalari, kompozitsiyasi, mavzu dinamikasi va xronotopida yaxlitlikning mavjudligi, oʻziga xos spetsifikasi dalillangan.

Turkum sheʼrlarning adabiy janrlar tarixi va nazariyasini yaratishdagi badiiy-estetik ahamiyati, oʻzbek sheʼriyati taraqqiyotida turkum sheʼrlar mualliflari boʻlgan ijodkorlarning oʻrni haqida ham xulosalar bayon qilingan.

Turkumlilikda realistik tasvirning oʻziga xosligi, ularda yangicha tafakkur tarzining namoyon boʻlishi, ularda muallif pozitsiyasi, badiiy shartlilik masalalari atroflicha oʻrganilib, tadqiqot natijasida chiqarilgan xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi va vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi, hal etilishi lozim boʻlgan muammolarning jahon sheʼrshunosligi va adabiyotshunosligining eng soʻnggi yutuqlari asosida hal etilganligi kabilar koʻrsatilgan. U oʻzbek lirikasi silsilasiga oid oʻquv adabiyotlari uchun muhim manba vazifasini oʻtashi mumkin.

# 1-MAVZU: SHE'RIY TURKUMLARNING O'ZIGA XOS TAMOYILLARI

## REJA:

1. She'riy turkumlarning genezisi va taraqqiyot tamoyillari
2. She'riy turkumlarda shakl va mazmun uyg'unligi
3. Turkumlar tarkibidagi she'rlarga xos xususiyatlar va badiiy g'oya ifodasi

**Tayanch so'z va birikmalar:** Turkum she'rlar, sonet turkumlari, poetik struktura, g'oya, mavzu, estetik butunlik, semantika, vazn, qofiya va bo'g'inlar miqdori, dialektik butunlik, spetsifik xususiyatlar, tadrijiylik va izchillik she'rlar qurilishi, kechinmalar tavsifi va h.k.

## Mavzuning bayoni:

### 1. She'riy turkumlarning genezisi va taraqqiyot tamoyillari

O'zbek adabiyotshunosligida turkum nomi bilan atalib kelinayotgan ushbu tushuncha jahon adabiyotshunosligida ko'proq turkum deb yuritiladi. "Sikl (grekchada κύκλος – aylana) adabiyotga nisbatan umumiy syujet va personajlar tarkibi bilan bog'langan asarlar turkumini anglatadi"<sup>1</sup>.

Turkum she'rlarning ilk ko'rinishi qadimgi va o'rta asrlar she'riyati uchun xarakterlidir. Bunga misol sifatida yunon xudolari va qahramonlarining jasoratlarini tasvirlaydigan turli mualliflarga tegishli ko'plab she'rlardan iborat bo'lgan yunon turkum she'riyatini eslash kifoya. Xususan, "Iliada", "Odisseya", G'arbdagi "Roland qo'shig'i" kabi she'rlarning kelib chiqishini o'rganish, ulardagi qismlarning mazmunan birlashtiruvchi g'oyalarga ahamiyat berish ularning turkumlilikning ilk namunalari ekanligini ko'rsatadi.

"Adabiy sikl – bir muallif yoki mualliflar tomonidan yaratilgan umumiy yoki bog'liq mavzudagi adabiy asarlar turkumi. Bir qator asarlarni birlashtirgan umumiylik, harakat, mavzudan tashqari, janr, harakat joyi va vaqti, personajlari, bayon qilish shakli va uslubi ham bunga kiradi"<sup>2</sup>.

Jahon adabiyotida xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq turkumlargamisol sifatida qirol Artur va aylana stol ritsarlari haqidagi afsonalarturkumi (Artur turkumi) va markaziy qahramonlar (Ilya Muromes,

<sup>1</sup> Краткая литературная энциклопедия / Под ред. А.А. Суркова. – М.: Сов. энциклопедия. 1962-1978. Т.1-9. Т.8. – С. 398-399.

<sup>2</sup> [https://gufo.me/dict/literary\\_terms/pg3](https://gufo.me/dict/literary_terms/pg3).

Dobrinya Nikitich va boshqalar) bilan bogʻlangan rus dostonlari syujetlaridagi turkumlarni misol qilish mumkin.

Adabiy turkum deganda odatda muallifning oʻzi tuzgan va birlashtirgan va badiiy bir butunlikni ifodalovchi asarlar toʻplami tushuniladi. Adabiy turkum keng tarqalgan tushuncha boʻlib, odatda tarixiy jihatdan asarlarni badiiy birlashtirishning asosiy shakllaridan biri nazarda tutiladi. Uning boshqa shakllari: toʻplam, antologiya, sheʼriy kitoblar va boshqalardir.

Jahon adabiyotida I.S.Turgenevning “Ovchi haqida eslatmalar” hikoyalari, Artur Konan Doylning Sherlok Xolms haqidagi hikoyalari badiiy nasr sohasidagi turkumlarga misol boʻlishi mumkin. Sheʼriyatda A.A.Blokning “Qor niqobi”, Pushkinning kichik fojialari, M.Prustning “Yoʻqotilgan vaqtni izlashda” asarlari, shuningdek, ilmiy va adabiy-tanqidiy nasr sohalarida bir qator turkumlar mavjud.

Adabiyotshunoslik sohasida turkum tushunchasi XVIII-XIX asrlar oxirida paydo boʻlgan. “Gyote estetikasi va XIX asr boshlarining barcha romantik impulslarini oʻziga singdirgan keyingi psixologik, psixologik estetika oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik toʻgʻrisida” tadqiqotida ham maʼlumotlar mavjud (Mixaylov A.V.Gyotening “Gʻarbu-Sharq devoni”: maʼno va shakl // Gyote I.V. Gʻarbu-Sharq devoni. – M., 1988. – S. 641). Nemis romantizmi nazariyotchilaridan biri V.Shlegel “Sheʼrlar uchun chizmalar toʻgʻrisida” nomli maqolasida turkumlilik hodisasi uzviylik shaklida paydo boʻlishi mumkinligi xususida fikr yuritgan, “ular faqat oldingi yoki keyingilari tufayli toʻlaqonli boʻladi”<sup>1</sup>, degan fikrni ilgari surgan.

“Turkum” soʻzining oʻzi aksar hollarda romantizm arboblarning oʻzaro yozishmalarida, ularning adabiy-tanqidiy qarashlari aks etgan asarlarda koʻp uchragan. Lekin shu davrdagi koʻplab asarlarda turkumlilik hodisasi uchrasa-da, ular bu nom bilan atalmaganligiga guvoh boʻlish mumkin. Hozirda turkumlar deb atayotgan shaklni XI asrning birinchi yarmida “maxsus sheʼr”, “lirik roman”, “bir butun sheʼr” va boshqa nomlar bilan ham ataganlar.

“Turkumlilik xususidagi anchayin mufassal tadqiqotlardan biri L.Y.Lyapinaning “Lirik sikl yaxlitligi muammosi” nomli asaridir. Unda sheʼriy turkumni yuzaga keltiruvchi xossalar sifatida quyidagilar keltiriladi:

“a) tarkibni tayinlash;

b) lirik turkumga kiritilgan sheʼrlarning mustaqilligi;

<sup>1</sup> Schlegel B. Artikel "Über Zeichnungen zu Gedichten" // Ateneum. 1799. Bd 2. – C. 202.

- v) “bir markazli” lirik turkumning markazlashtirilgan tarkibi;
- g) lirik turkumda she’rlarni birlashtirishning lirik tabiati;
- d) tasvirning lirik prinsipi”<sup>1</sup>.

L.Y.Lyapina lirik turkumni “nisbatan mustaqil lirik she’rlar yuqori darajadagi yaxlitlikka birlashtirilganda va yuqoridagi xususiyatlar bilan tavsiflanganda yuzaga keladigan poetik birlikning o‘ziga xos janr shakli”<sup>2</sup> sifatida ko‘rib chiqishni taklif qiladi.

L.Y.Lyapina “XIX asr rus adabiyotida siklizatsiya”<sup>3</sup> nomli boshqa bir kitobida lirik turkumning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish tarixiniko‘rib chiqadi. “Turkumlar juda keng tarqalgan hodisa, ularni e’tibordanchetda qoldirib bo‘lmaydi”<sup>4</sup>,– degan fikrni ilgari suradi.

V.G.Belinskiy tomonidan yozilgan “Zamonamiz qahramoni” haqidagi tadqiqot<sup>5</sup>da turkum tabiati (ammo “turkum” so‘zini ishlatmay) XX asrga xos turkumlashtirish deb tushunilgan, uning nazariy va adabiy, tarixiy qiziqishlarning mustaqil muammosi sifatida nafaqat mahalliy, balki jahon adabiyoti miqyosida ommalashganligi ta’kidlangan.

1932-yilda Germaniyada I.Myuller lirik turkumga bag‘ishlangan “She’riyatdagi siklik tamoyil” (“Das Ziklische Prinzipinder Lyrik”) maqolasini nashr etgan. Maqolada lirik turkumning tuzilishi, o‘ziga xos tamoyillari xususida so‘z borib, Shekspir, Novalis, Gyote, Rilke turkum she’rlari namunalaridan misollar keltirilgan. Bundan o‘n yillar o‘tib, Amerikada X.M.Mustardning XV-XX asrlardagi nemis lirik turkumlari tarixiga bag‘ishlangan batafsil tadqiqoti<sup>6</sup> nashr etilgan. XX asrning 50-yillarida nemis tadqiqotchisi V.Fridrix ham o‘z tadqiqot ishini shu mavzuda olib borib, Amerikada yaratilgan nasriy turkumlarni o‘rgana boshlagan.

Turkumlilik masalasi boshqa xorij tadqiqotchilari tomonidan ham keng o‘rganilgan. Xususan, Nensi Lin Kuperning “Aleksandr Blokning “Shahar” lirik turkumi: talqinlar” mavzusidagi dissertatsiya ishi (“Providence” nashriyoti, 1990-yil), Olivia Xolmsning “Kansodan

---

<sup>1</sup>Ляпина Л.Е. Проблема целостности лирического цикла.//Целостность художественного произведения и проблемы его анализа в школьном и вузовском изучении литературы. – Донецк, 1977. – с. 165. (tarjimalar muallifniki)

<sup>2</sup>Lyapina. O‘sha manba. – B. 165.

<sup>3</sup>Ляпина Л.Е. Циклизация в русской литературе XIX века. СПб. 1999. – С. 12.

<sup>4</sup>Lyapina. O‘sha manba. – B. 12.

<sup>5</sup> <http://www.litra.ru/composition/get/coid/00077701184864017602/> Роман М.Ю. Лермонтова «Герой нашего времени» в оценке В.Г.Белинского. (В.Г.Белинский. «Герой нашего времени. Сочинение М. Лермонтова» 1940 г.) pg.3.

<sup>6</sup> Helen Meredith Mustard. Dissertation "Lyric Cycle in German Literature". Columbia University. – New York: Kings Crown Press, 1946 .



kanzoniyeregacha: avtobiografik lirik turkumning paydo bo‘lishi” mavzusidagi tadqiqot ishi (“Imprint” nashriyoti, 1994-yil. – 442 b.), Jonatan S. Burgessning “Gomerdagi Troya urushi an’anasi va epik turkum” (“HUPress” nashriyoti, 2003-yil. – 320 b.), Kristin Greys Borovekning “Erta rus simvolizmidagi lirik turkum: Balmont va Bryusov” nomli dissertatsiya ishi (Garvard universiteti, “Proquest” dissertatsiyalar nashriyoti, 1991-yil). Lourensning “Robert Xunter lirikasidagi hayot turkumi tasvirlari” nomli tadqiqoti (“Lars” nashriyoti, 1995-yil) kabi ko‘plab ilmiy ishlar shular jumlasidan.

Bular orasida eng ko‘p obyekt sifatida tanlanadigan mavzulardan biri, albatta, Troya urushi haqida yaratilgan Jonatan S. Burgessning “Gomerdagi Troya urushi an’anasi va epik turkum” nomli tadqiqoti<sup>1</sup>dir. Unda tadqiqotchi “Iliada” va “Odisseya” kabi Troya urushi va undan keyingi voqealarga bag‘ishlangan lirik she’riyatining butun majmuasini Gomerding keyingi yozgan she’rlari bilan taqqoslaydi va ular ilgari o‘ylanganidan ko‘ra ko‘proq ta’sir ko‘rsatganligini aniqlaydi.

XX asrning 60-yillarida alohida davrlarga xos bo‘lgan adabiy turkumlar tadqiqiga e’tibor kuchaydi. Turkumlilikni xoslaydigan jihatlarni aniqlashda ijodkorlar asarlarining badiiy xususiyatlarini atroflicha tahlil qilish tamoyiliga amal qilgan holda, A. Blok, V. Bryusov she’riy turkumlari, shuningdek, ularning zamondoshlari yozgan turkumlari tadqiqotlar uchun asos vazifasini o‘tadi.

XX asrning 90-yillariga kelib, adabiy turkumni o‘rganish ikki yo‘nalishda bordi. Birinchidan, XIX-XX asrlarning turli ijodkorlari turkumlarini o‘rganish, ikkinchi yo‘nalish turkumlilik hodisasini nazariy jihatdan tekshirish. Turkumlilikka qiziqish kuchayib, tadqiqot mavzulari va ko‘lamdorligi ortib bordi. Xususan, “yakka ijodkor, alohida adabiy yo‘nalish, turkumning yaratilish davri shular jumlasidan”<sup>2</sup>. Shu kabi tadqiqotlarning asosida adabiy tur yoki janrlar yotishi tabiiy hol bo‘lgan. Xususan, A.S. Yanushkevich 1820-1830-yillar rus nasriy turkumlariga bag‘ishlangan ilmiy ish, Y.V. Lebedev 1840-1860-yillarga, M.N. Darvin Pushkin davridagi turkumlarga, I.V. Fomenko she’riy turkumlarning janr xususiyatlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar yaratishgan. Ular, asosan, ma’lum bir ijodkor poetik turkumlarining badiiy xususiyatlarini o‘rganishgan.

---

<sup>1</sup> Jonathan S. Burgess. The Tradition of the Trojan War in Homer and the Epic Cycle. – Baltimore & London. The Johns Hopkins University Press. 2001. – 92 pg.

<sup>2</sup> Гареева Л.Н. Вопросы теории цикла (лирического и прозаического) // “Стихотворения в прозе” И.С. Тургенева: Вопросы поэтики. – Ижевск: УдГУ, 2004. – С. 19-27; 81-82.

Rus tadqiqotchisi N.N.Stariginaning bu boradagi nazariy qarashlariga e'tibor qaratilsa, adabiyotshunoslikda turkumning uch xil konsepsiyasi mavjudligi ta'kidlanadi: "Ko'pgina tadqiqotchilar: Y.V.Lebedev, V.F.Kozmin, A.S.Bushmin, G.I.Sobolevskayalar turkumni janr yoki "janr ilmi" deb hisoblashgan. S.Y.Shatalov, A.V.Chicherin va boshqalar turkumni "super-janr birlashmasi" sifatida o'rganganlar. Ko'p olimlar – A.Belevskiy, B.M.Eyxenbaum, U.Fokst, G.M.Fridlender, Y.V.Lebedev va boshqalar turkumni "yangi janrlarning badiiy laboratoriyasi" deb hisoblash mumkin degan g'oyani ilgari surishgan"<sup>1</sup>.

Yana bir rus tadqiqotchisi I.V.Fomenko o'zining "Lirik sikl poetikasi" nomli ilmiy ishida turkumga janr sifatida yondashishni ma'qul ko'radi: "Tor, terminologik ma'noda turkum tushunchasi turkumlilik xususiyatiga ega asarlar jamlanmasini anglatadi, keng ma'noga esa "seriyalar", "guruhlar", "doiralalar" tushunchalarining sinonimi sifatida qo'llaniladi"<sup>2</sup>.

Alfiya Kasimovaning tadqiqot ishida lirik turkumga o'ziga xos ta'rif beriladi: "Lirik turkum – bu badiiy tizim, yaxlitlik, uning mazmuni uni tashkil etuvchi asarlarning o'zaro ta'siridan kelib chiqadi. Turkum qismlari orasidagi o'zaro bog'liqlik turkumlilik hosil qiluvchi elementlar tomonidan quvvatlanadi"<sup>3</sup>. Shuningdek, tadqiqotchi, turkumni shakllantiruvchi komponentlar tilning badiiy vositalari tizimi orqali estetik funksiyani, ijtimoiy va strukturaviy vazifalarni ham bajarishini ta'kidlab o'tadi. Turkumning mavzulik darajasi, uning subyektiv tashkil etilishi, fazoviy vaqt darajasi, tarkibi, shuningdek, tilning barcha darajalarigacha bo'lgan davriy tuzilish mantig'iga bo'ysunishini ham ta'kidlab o'tadi.

Viktoriya Yakovlevaning tadqiqotlari<sup>4</sup>da lirik turkum ijodkorning qarashlari va yaxlitlik mezonini yangilaydigan tuzilishga asoslanganligi haqidagi fikrlarini ilgari surilgan. Olima, asosan, yoqut elatishe'riyatidagi turkumlarni tadqiq etganligidan ularning tarixiy rivojlanishidagi xos jihatlari, xususan, janr holati, tarkibiy qismlari o'rtasidagi xilma-xil munosabatlarga asoslanganlik, muallifning niyati va

---

<sup>1</sup> Старыгина Н.Н. Проблема цикла в прозе Лескова / Н.Н. Старыгина // Жанр и композиция художественного произведения. – Петрозаводск, 1984. – С. 146-162.

<sup>2</sup> Фоменко И.В. Поэтика лирического цикла: автореф. дисс. доктора филол. наук. – М., 1990. – 31 с.

<sup>3</sup> Касимова А.Р. Лирический цикл как идиостилевая константа в творчестве Анны Ахматовой. Диссертация кандидата филологических наук: – М., 2011.

<sup>4</sup> Яковлева В.Д. Циклы лирических стихотворений в якутской поэзии: типология и поэтика. Автореферат диссертации кандидата филологических наук. – Новосибирск, 2006.

strukturaning yaxlitligi bilan belgilanishini alohida ta'kidlaydi. Turkumning yoqut she'riyatida o'ziga xos milliy xususiyatlardan biri ekanligini ham ta'kidlab, shu sababli shoirlar ijodidagi lirik turkum nafaqat alohida janr shakli, balki o'ziga xos munosabatlarni ham anglatishiga urg'u beradi.

“Lirik siklning rivojlanishi uzluksiz tarixiy va adabiy jarayon bo'lgan barcha yoqut adabiyotining shakllanishi bilan bog'liq. Binobarin, uning she'riy va tipologik xususiyatlarining shakllanishiga ham ijtimoiy-tarixiy hodisalar, ham milliy she'riyat rivojlanishining asosiy yo'nalishlari ta'sir ko'rsatdi. Bunda, avvalo, folklor, keyin klassikaning an'analari va shubhasiz rus va jahon she'riyati tajribasi muhim rol o'ynadi”<sup>1</sup>. Ko'rinadiki, yoqut lirik turkumlari shakllanishida muhim omillar sifatida o'sha millatning og'zaki adabiyoti hamda jahon she'riyatining ta'siri tadqiqotchi tomonidan alohida urg'ulanadi.

Mana shu kabi tadqiqotlar turkum she'rlar tadqiqi masalasining xorijda atroflicha o'rganilayotgan mavzularning biri ekanligini dalolatlaydi.

XIX asrda ham o'rganilishi qiziqish uyg'otayotgan ushbu mavzu ijtimoiy hayot qiyinchiliklari, tashvishlari, lirik qahramonning murakkab kechinmalari kabi ko'plab mavzular davomlilik uchun zarurat hisoblanganligidan turkumlilik hodisasini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ham kuchayib borgan.

Turkumlilik “mustaqil asarlar guruhlarini yangi ko'p komponentli badiiy birliklar – turkumlarga birlashtirish” jarayoni sifatida muhim ahamiyatga ega. Chunki turkumlilikdan foydalanib, ijodkor dunyoning yaxlit suratini tasavvur qilish uchun janr chegaralarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lishi ularga keng imkoniyatlar tug'diradi. Shuningdek, turkumlar nisbatan barqaror tuzilishga va doimiy xossalarga ega bo'lgan janrlar birligi sifatida ham anglashiladi. U adabiyotshunoslar tomonidan badiiy asarlar uchun alohida badiiy imkoniyat sifatida ham qabul qilingan, chunki turkum tarkibidagi har bir she'r mustaqil badiiy asar sifatida baholanishi, biroq turkum tarkibidan alohida chiqarilsa, g'alizlikka uchrashi ham ayni haqiqatdir.

She'riy turkumlilikning shakllanishi uzoq o'tmish bilan bog'liq bo'lsa-da, uning o'rganilishi XX asrga to'g'ri keldi. Bugungi kun o'zbek adabiyotshunosligida ushbu masala atroflicha tekshirilmagan. Lekin jahon adabiyotshunosligida, xususan, rus adabiyotshunosligida masala turfa jihatlariga ko'ra o'rganilgan va bu mavzuga daxldor aksar badiiy

---

<sup>1</sup> Yakovleva V.D. O'sha manba (tarjima mallifniki).

asarlar tadqiq etilgan. Xususan, XX asrning 2-yarmi adabiyotida Turkumlilik hodisasi va tadqiqot obyektlari ham aynan aksar holatda nasriy asarlar ekanligi kuzatilgan (V.Shukshin, A.Bitov, F.Iskander, V.Astafyev, V.Belov, L.Petrushevskayalar tadqiqotlari shular jumlasidan). Bundan tashqari, ayrim yirik tadqiqotlar tarkibidagi fasllarda ham bu hodisaga qaysidir darajada munosabat bildirilgan, ularning nazariy jihatlariga ahamiyat qaratilgan o‘rinlar mavjud. Xususan, V.Y.Xalizev<sup>1</sup>ning “Adabiy tanqidning tarkibi va uning metodologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari haqida” nomli, “XX asr adabiyotshunosligi: Tarix, metodologiya, adabiy jarayon” nomli maqolalarida, A.N.Veselovskiyning ayrim asarlarida “Turkumlilik” tushunchasi XIX–XX asrlarda adabiy tanqid va adabiyotshunoslikka kiritilib, uni ijtimoiy ongning eng qadimgi obrazli va she’riy shakllaridan biri deb ataganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, Veselovskiy aynan marosim qo‘shiqlarining liro-epiklik xususiyati turkumlilik bilan bog‘liq ekani, ular qo‘shiqchilar tomonidan birlashtirilgani, qo‘shiqlarning bir-biridan ajratganda undagi keng ko‘lamli tasvir yo‘qolishi va umumiy mazmun-mohiyatga putur yetishi xususida so‘zlagan<sup>2</sup>.

Yana bir adabiyotshunos L.Y.Lyapina “Adabiy turkumlilik (o‘rganish tarixi bo‘yicha)” nomli tadqiqotida ushbu hodisaning o‘sha paytgacha o‘rganilish tarixiga atroflicha to‘xtalgan<sup>3</sup>. Shoir Sergey Dovlatov o‘zining qarashlarida turkumlilikni ijodkorning ichki kechinmalarining bir butunlikdagi ifodasi yoki aniq ko‘rinishlaridan biri sifatida baholaydi. Turkumlilikni nasrda yaxlit birliklar yaratish uchun qulay usul sifatida ko‘rib chiqishni ma’qul ko‘rganligi, ushbu jihatni nazmda ham tekshirish dolzarbligini dalolatlaydigan muhim muammo ekanini qayd etadi.

Y.B.Borev<sup>4</sup> ham o‘zbek xalqi durdonalari bo‘lgan Alisher Navoiy “Xamsa”si va “Shashmaqom” tarkibidagi g‘azallarni turkumlar sifatida qiyoslab o‘rganib, ularning g‘oyaviylik xususiyatiga ko‘ra mushtarakligi, voqelik va ohang dinamikasi nuqtai nazaridan tadqiq etadi.

---

<sup>1</sup> Хализев В.Е. Русское академическое литературоведение. История и методология (1900 – 1960-е годы). – М.: Нестор-История, 2015 г. (2-е изд. 2017; в соавт. с О.В.Никандровой и А.А.Холиковым).

<sup>2</sup> Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа. 1989. – С.209.

<sup>3</sup> Ляпина Л.И. Адабий туркумлилик (ўрганиш тарихи бўйича). //“Рус адабиёти” журналы, 1998, 1-сон. – Б. 170.

<sup>4</sup> Боров Ю.Б. и другие. Теория литературы. Том IV. Литературный процесс.— М., ИМЛИ РАН, “Наследие”, 2001. – С. 90.

Turkumlilikning badiiy xususiyatlari sifatida badiiy asarlar strukturasi, turkum tarkibida qoʻllanilgan estetik vositalar tizimi tushuniladi. “Bunda asarning badiiy gʻoyasi va tasviriy vositalar jamlanmasi oʻrtasidagi munosabatni oʻrnatish ham muhim ekanligi nazarda tutiladi”<sup>1</sup>.

Turkumlilik haqida koʻplab nazariyotchilar tadqiqotlarida ham fikr bildirilgan oʻrinlar mavjud. Turkumlilik nazariyasi va tarixiga oid tadqiqotlarni rus adabiyotshunoslaridan A.N.Veselovskiy, B.V.Tomashevskiy, V.M.Jirmunskiy, Y.N.Tinyanov, B.M.Eyxenbaum, Y.M.Lotman, L.Y.Ginzburg, M.N.Darvin, I.V.Fomenko, Y.V.Lebedev, A.G.Kovalenko, V.Fridrix, N.D.Tamarchenko, B.O.Korman, V.P.Skobelev, V.Kramov, M.Landor, V.V.Agenosova boshqalarning ilmiy ishlarida koʻrish mumkin.

Turkum asarlar yozgan ijodkorlarga bagʻishlangan tadqiqotlar, ularda yozuvchilarning janrlar tizimi xususiyatlari, muallif qoʻygan muammo, munosabat va uslub asosi sifatidagi yumor xususiyatlari va boshqalar koʻrib chiqilganligi N.Vigon, V.Toporov, M.Lipoveskiy, N.Anastasyev, A.Arev, A.Karpov, L.Losev, B.Kuller, A.Genis kabilarning ishlarida kuzatilgan.

Yuqoridagilardan koʻrinadiki, turkumlilik oʻrganilishining dolzarbligi, XX asrning ikkinchi yarmi adabiyotini bu kabi nazariy tushunchaning rivojlanish tarixini hisobga olgan holda chuqur va har tomonlama tadqiq etish zarurati bilan belgilanadi.

XX asr adabiyotshunosligida “turkum” tushunchasining nazariy mazmuni butun yaxlitlikning bir turi sifatida turkumning tipologik xususiyatlari, shakllarini oʻz ichiga olganligi maʼlumlashadi. Yuqoridagi tadqiqotlardan turkumning xos xususiyatlari sifatida ulardagi mazmunan bir-biri bilan bogʻlangan bir nechta asarning mavjudligi; ikkilamchi tarkibiy yaxlitlikning mavjudligi; matnlar oʻrtasida assotsiativ bogʻliqlik; turkumdagi sheʼrlarning tartibi va muallifning atrofdagi olamga munosabati; markaziy motivga, gʻoyaga asoslanish; turkumning bir qator tizimli elementlari: uslubiy, ritmik, majoziy-metaforik, intonatsion umumiyliigi bilan XX asr poeziyasining “katta shakli” hisoblanishi kabilar nazarda tutiladi.

Turkumning eng muhim vazifalari kompensatorligi, yaʼni badiiy asarlarni bir-biriga bogʻlay olishi va kommunikativligi, yaʼni turkumning tarkibiy xususiyatlari, turkumning barcha elementlarini bir-biriga oʻzaro bogʻlay olishi hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> Краткая литературная энциклопедия. Т.5. – М.: Советская энциклопедия. 1968. – С. 936.

Turkumni shakllantirish jarayoni o‘quvchining san’at asarlari jami, turkumga uning muallifi tomonidan kiritilgan intertekstual aloqalar tizimi va turkumni tashkil etuvchi unsurlari to‘g‘risida xabardor bo‘lish jarayonidir.

Turkum – bu muallif tomonidan ma’lum tartibda to‘plangan va tartibga solingan asarlar to‘plami. Matnlarning o‘ziga xos jihatlari badiiy yaxlitlikni birlashtirishga imkon beradigan xususiyatlarga ega deyish mumkin.

“Turkum” atamasini keng tushunish taklif etiladi: matnning kontekstual tabiatning estetik butunligi<sup>1</sup>, konseptual birlik, unsurlarning matniy bog‘liqligi, badiiy olamning umumiyliigi, sarlavha va turkum shakllanishining ehtimoliy mezonlari (nomi, epigraf, bag‘ishlanish, mavzu birligi, janrlar) umumiy mazmun, vaqt birligi, joy birligi, ichki g‘oya birligining mavjudligi va boshqalar.

Turkumlilikni shakllantirishning o‘ziga xos mezonlari sifatida turkumlar mazmunidan anglashilayotgan umumiy kayfiyat, tabiat tasviri, she’riy matnlarni tashkil etishning o‘xshashligini ham ko‘rsatish mumkin.

O‘zbek adabiyotshunosligida turkumlilik haqida ayrim nazariy manbalarda umumiy jihatlar u yoki bu darajada qayd etilgani bilan ushbu holat alohida shaklda tadqiq etilmagan. Bunday asarlarga ba’zi hollarda o‘rganilayotgan mavzu doirasida, ba’zan esa biror asarning turkumlilikka bog‘liq jihatlari o‘rganilishi asnosida munosabat bildirilgan, xolos. Hatto, o‘zbek lirikasida alohida hodisa deya baholangan turkum she’rlar haqida ham fundamental tadqiqot mavjud emas. Turkumlilik hodisasiga u bilan bog‘liq janrlar tadqiqi jarayonida qaysidir jihatiga ko‘ra ayrim munosabatlar bildirib o‘tilgan.

Xususan, “Go‘ro‘g‘li” eposi silsila dostonlar jamlanmasi ekanligi, unda asosiy obraz Go‘ro‘g‘li cheksiz kuch-qudratga ega bo‘lganafsonaviy qahramon sifatida talqin etilishi, silsila dostonlar bo‘ylab ko‘chib yurishi va ularning asosiy mazmuni uchun qaysidir jihatidan asos vazifasini o‘tashi haqidagi ma’lumotlar, ya’ni turkumlilik xalq og‘zaki ijodidanoq boshlanganligi haqidagi fikrlar professor va yirik folklorshunos olim To‘ra Mirzayev tadqiqotlarida mavjud<sup>2</sup>. Yana bir folklorshunos olim Salimaxon Mirzayeva o‘z monografik tadqiqotida o‘zbek xalq eposlarida ularning spesifik xususiyatlariga ko‘ra tadrijiylik

<sup>1</sup> Ляпина Л.Е. Литературный цикл в аспекте проблемы жанра// Проблемы литературных жанров. – Томск, 1990. – С. 47.

<sup>2</sup> Мирзаев Т. Силсила дostonлар. (“Ўзбек халқ дostonлари” китобига сўзбоши). – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б.6.

va izchillik kabi jihatlar mavjud ekanligi xususida fikr yuritadi<sup>1</sup>. Shuningdek, tadqiqotda unda asosiy qahramon atrofidagi umumiylik, izchillik va turkumlilik epik qonuniyatlar asosida yuzaga keltirilganligi xususidagi fikrlar alohida ta’kidlanadi.

Liro-epik janr namunalari bo‘lgan she’riy dostonlarda ham turkum asarlar tajribasini kuzatish mumkinligi haqidagi mulohazalar adabiyotshunos olim, professor No‘mon Rahimjonov tadqiqotlarida<sup>2</sup> uchraydi. Mumtoz ijodkorlardan bo‘lgan Usmonxo‘ja Zoriy ijodida she’riy turkumlar mavjudligi haqidagi ma’lumotlar Dildoraxon Abdullayeva tadqiqotlarida uchraydi<sup>3</sup>.

Turkumlilik borasida izlanish olib borgan Hamid Mirzayev o‘zbek adabiyotida sonetlar turkumi haqida fikr yuritib, unga quyidagicha ta’rif beradi: “Turkumda mavzuning yangi qirralari ochila boradi, lirik kechinmalar esa ana shu turkumning yadrosi. Mavzuga taalluqli barcha narsa shoir kechinmalaridan kuch oladi, emotsional ta’sir quvvatiga erishadi. Biz barcha narsani shoir shaxsiyati orqali qabul qilamiz, mavzuga uning nigohi orqali qaray boshlaymiz”<sup>4</sup>. Hamid Mirzayev ta’kidlaganidek, o‘zbek sonetnavisligida turkumlilik hodisasi tipologik xususiyatlarni mujassamlashtirgan. Turkum tarkibidagi sonetlarni mohiyatan izchil va ketma-ket bog‘liqlikda tushunish mumkin. Ular biri-birini mazmunan to‘ldirib, xulosa sari tushib boradi. Kompozitsiya va syujet elementlarining joylashishida ham o‘zaro bog‘liqlik kuzatiladi.

Sayyora Rahmonovanning sonet janri tadqiqiga bag‘ishlangan dissertatsiyasining bir fasli “Sonetlar turkumida poetik struktura va badiiy konsepsiya” deb nomlanib, unda o‘zbek sonet turkumlari haqida mulohaza yuritiladi: “Sonetlar turkumi mustaqil sonetlarni struktura, semantika va badiiy konsepsiya singari aniq poetik komponentlar asosida uyushtirgan mustaqil asardir. Turkumdagi sonetlar poetik struktura: semantika, vazn, qofiya va bo‘g‘inlar miqdori jihatidan moslik asosida dialektik butunlikni saqlaydi. Sonetlar turkumida ham alohida sonetdagi singari tezis-antitezis va sintez tartibi talab qilinadi”<sup>5</sup>. Ushbu fikrlarga qo‘shilgan holda yana shuni ta’kidlash mumkinki, sonetlarda kompozitsiya va syujet unsurlarining joylashuvidagi moslik ham

---

<sup>1</sup> Мирзаева С. Ўзбек халқ романик дostonлари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2004. – 246 б.

<sup>2</sup> Раҳимжонов Н.К. Бадий тафаккурдаги эврилишлар. – Тошкент: Тамадун, 2008. – 248 б.

<sup>3</sup> Абдуллаева Д.З. Усмонхўжа Зорий ҳаёти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – 64 б.

<sup>4</sup> Мирзаев Х. Ўзбек шеърятда сонетлар туркуми // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. 1-сон. – Б.65.

<sup>5</sup> Раҳмонова С.Р. Ўзбек сонетлари: поэтик структура ва бадий образ. Филол. фанлари номзоди дисс... автореф. – Т.: 2010. – Б.17.

turkumlilikni asoslaydi. Sonetlar miqdoridan qat'iy nazar, ularni bog'lab turuvchi umumiy kompozitsion tuzilish mavjud. Bunga mos ravishdagi syujet unsurlarining shartli joylashuvini ham sezish mumkin. Ya'ni sonetlar lirik qahramon kechinmalari tavsifiga ko'ra biror unsur vazifasini bajaradi. Har bir turkumda o'zining yakka lirik qahramoni mavjud bo'ladi. Markazda esa aynan shu lirik qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlar jarayoni va undan kelib chiqadigan oqibatlar turadi.

Hamid Mirzayev Rauf Parfi she'riyatidagi sonetlar turkumlari xususida so'zlab, ularda, asosan, falsafiy ruh yetakchi ekanligini ta'kidlaydi va ushbu turkumlarga shoirning "Sunbula", "Barnobonu", "Og'riq", "Mikelanjelo sevgisi" kabi sonet to'plamlarini kiritadi.

Shirin Aldashevaning "70-80-yillar o'zbek lirikasida to'rtlik, sakkizlik va she'riy turkum tabiati"<sup>1</sup> deb nomlangan tadqiqot ishining 3-bobi "She'riy turkumlar va epiklik tamoyillari"ning birinchi fasli "She'riy turkum haqida" bo'lib, unda turkumlilik atamasiga turli izohlar berish bilan cheklanilgan. "She'riy turkumlar tabiati: epiklik va lirik kechinma uyg'unligi" deb nomlangan 2-faslda esa Erkin Vohidov va Abdulla Oripov qalamiga mansub she'riy turkumlarda shoir kechinmasi ijtimoiy voqelik bilan uyg'un holatda turkumlar tabiatida ichki sifat o'zgarishlariga olib kelganligi xususida so'z boradi.

Turkum she'rlarni yozishdan asosiy maqsad inson ruhiyatidagi evrilishlar jarayonini tasvirlash, undagi insoniylik tushunchasining o'ta murakkab hamda dialektik qirralarini aks ettirish orqali moddiyat olamidagi odam deb atalgan mavjudotning qanday ishlarga qodir ekanligini yana bir bor isbotlab berishdan iborat, deyish mumkin. Turkumlilikning badiiy-estetik tabiati uning paydo bo'lishi, rivojlanishi va bu boradagi poetik izlanishlar asnosida atroflicha o'rganish maqsadga muvofiq.

S.Rahmonovanning sonet janri tadqiqiga bag'ishlangan dissertatsiyasi ikkinchi bobidagi bir fasli "Sonetlar turkumida poetik struktura va badiiy konsepsiya" deb nomlangan va bu faslda ham o'zbek sonet turkumlari haqida mulohaza yuritiladi. Unda ham "Nil va Rim" dastlabki sonetlar turkumi ekanligi ta'kidlanadi. Asoslash maqsadida keltirilgan N.Ochilovning G'arbda oltita sonetdan iborat turkumlar

---

<sup>1</sup> Алдашева Ш.Ж. 70-80-йиллар ўзбек лирикасида тўртлик, саккизлик ва шеърий туркум табиати. Филол. фанлари номзоди дисс... автореф. – Т.: 2019. – Б.18.



ommalashganligi<sup>1</sup> haqidagi fikrlari ham uni sonet deya da'vo qilish uchun yetarli emas.

Bir mavzu doirasidagi bir qancha she'rlar turkumlilikni tashkil etarkan, umumtipologik xususiyatlardan tashqari yana umumiy g'oya mushtarakligi, mustaqil kechinma xususiyatlari mavjud bo'lishi shart ekanligi ham kuzatiladi. Shu ma'noda, Oybekning "Chimyon turkumi", Mirtemirning "Qoraqalpoq daftari" turkumi, Erkin Vohidovning "Donishqishloq latifalari" turkumi kabilar mukammal tajriba namunalari sifatida e'tirof etiladi.

Rauf Parfi va Faxriyorlar yozgan sonet turkumlari mazmun-mohiyati va badiiyati yuksakligi bilan o'zbek sonetnavisligining ajoyib yutuqlari bo'la oladi. Rauf Parfi she'riyatida ko'p sonet to'plamlari mavjud. Hamid Mirzayev maqolasida shoir she'riyatidagi sonetlar turkumlari xususida to'xtalib, ularda, asosan, falsafiy ruh yetakchi ekanligini ta'kidlaydi va turkumlarga shoirning "Sunbula", "Barnobonu", "Og'riq", "Mikelanjelo sevgisi" kabi aksar sonetlar majmualarini kiritadi. Mazkur fikrlarga qo'shilamiz. Sonet turkumlarining o'ziga xos jihatlardan biri unda kompozitsion yaxlitlik ham shaklga, ham mazmunga taalluqli bo'lishida. Rauf Parfining "Sensiz", "Tangri sog'inchi", "Qora devor", "Thakurning oxirgi she'ri", "Yo'lovchi", "Hamlet", "U dunyoga onamga maktub" kabi majmualarni ham sonetlar turkumi deyish mumkin. Shoirning "Sensiz" turkumi tarkibiga uchtasonet jamlangan. Rauf Parfi yaratgan sonet turkumlarining o'ziga xos jihati shundaki, har bir sonetda mavjud bo'lgan kompozitsion yaxlitlik unsurlari turkum uchun ham xos bo'ladi: a-b-a-b, d-e-d-f, g-h-g, h-i-h.

Faxriyor turkumdagi she'rlarning qofiyalanishida turli xillikka yo'l qo'yadi. Ya'ni o'nta sonetning asosiy qismi – 5, 7, 9, 10- sonetlar a-b-a-b, d-e-d-f, g-h-g, i-j-i shaklida qofiyalangan. Qolganlari qofiyalanish tizimida xilma xillik kuzatiladi. Lekin aksari sonet spetsifikasi qoidalariga javob beradi. Qofiyalanish tartibidagi har xillik kechinma tasviri evrilishlari bilan bog'liq bo'lganligidan sonetlarning umumiy saviyasiga u darajada salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Bu holatni shoirning o'ziga xos uslubi deya qabul qilish mumkin.

Faxriyorning yana bir turkum "Nomozshomgul" deya atalgan beshta sonetni o'z ichiga olgan majmuasi bo'lib, bunda ham muhabbat hajrining ramzi sifatida tongda ochilib, shomda yopiladigan nomozshomgul tanlanadi. Lirik qahramon bo'lgan muallif gulning

---

<sup>1</sup> Раҳмонова С.Р. Ўзбек сонетлари: поэтик структура ва бадий образ. Филол. фанлари номзоди дисс... автореф. – Т.: 2010. – Б.17.

ochilishi va shomda yopilib to'kilib ketishidan iztirobga tushadi va gulga nisbatan dardkashlik hissini izhor etish orqali gul dardini yengillatishga urinadi. Ushbu turkumdagi sonetlarda Rauf Parfi majmualaridagi kabi tugun, kulminatsiya, kechinma rivoji, yechim va xotima tushunchalarini aniqlash mumkin.

Faxriyor sonet turkumlarida garchi muhabbat iztiroblari, qalb tug'yoni o'zgarishlari hukmronlik qilsa ham, lekin unda hayot falsafasining ayrim jihatlariga o'ziga xos munosabat va xulosa fikrlar ham ko'zga tashlanadi. "Sensizlik", "yo'qlarim", "borlarim" atamaları ostida o'ziga xos yasama so'zlar borligi, yangicha tashbehlar silsilasini qo'llanganligini esa she'rlardagi "ketmoq baxtiyorligi", "qolmoq azobi", "ketmaslik zorligi", "o'zingdagi men", "g'am ilinjlari", "visol xoki", "hajr darvozasi", "unutilmoq ozori", "umid hamlasi" va boshqa ko'plab jumalarda ko'rish mumkin. O'ziga xos yasama fe'l shakllari "chorlarman", "yorlarman", "zorlarman"ni ham poetik mushohadakorlikning o'ziga xos namunaları sifatida baholash mumkin. Xullas, turkumlarda o'ziga xos ko'chib yuruvchi so'zlar o'ni-o'ni bilan takrorlanishi ham ularning o'zaro aloqadorligidan dalolatdir.

O'zbek sonetnavisligida turkumlilik hodisasi H.Mirzayev ta'kidlaganidek, tipologik xususiyatlarni mujassamlashtirgan. Sonet turkumlari hajman u darajada ko'p emas, ya'ni ular uch sonetdan yuz sonetgacha birlashadi. Turkum tarkibidagi sonetlarni mohiyatan izchil va ketma-ket bog'liqlikda anglash mumkin. Ular mazmunan biri-birini to'ldirib, xulosa sari yetib boradi. Kompozitsiya va syujet unsurlarining joylashuvida ham o'zaro mutanosiblik kuzatiladi.

O'zbek sonetnavislaridan Abdulla Sher ijodida "Sevgi olmoshi" nomi ostidagi "Men", "Sen", "U", "Biz" nomli har biri o'n bitta sonetni jamlagan o'ziga xos turkumlar mavjud. Mirpo'lat Mirzo ijodida esa yigirma sakkiz sonetni jamlagan "Onajon" sonetlar turkumi ham mavjud bo'lib, ushbu turkumlar barcha xususiyatlarga ko'ra shakllantirilgandir. Xullas, sonetlar turkumi o'zbek sonetnavisligida shakllanib, qaror topayotgan hodisalardandir.

Sonetlardagi turkumlilik hodisasi xususida so'z borar ekan, sonet – gulchambarlar haqida ham so'z yuritish zarur. Sonet – gulchambar yaratish shoirdan juda katta mahorat, yuqori saviya, did, tajriba talab qiladi. Gulchambarda 14 ta sonet bo'ladi. O'n beshinchi sonet magistral, chamberak (yig'ma) she'r deyiladi. Gulchambardagi she'rlarning barchasi yagona mazmun va shakl orqali bir-biri bilan chambarchas bog'lanishi kerak. Har bir sonetning oxirgi o'n to'rtinchi misrasi

navbatdagi yangi sonetning birinchi misrasi bo‘lib kelishi va magistralda bularning barchasi jamlanib mustaqil bir sonet sifatida jaranglashi lozim. U o‘n besh sonet ikki yuz o‘n misradan iborat she‘rdir.

S.Rahmonovanning yuqorida keltirib o‘tgan dissertatsiyasida “Sonetlar gulchambarining badiiy xususiyatlari” deb nomlangan fasli mavjud bo‘lib, unda ham ushbu shakl xususida fikr yuritiladi. Bunda gulchambarlar sonet shakliga amal qilib yozilsa-da, kompozitsion talablariga javob bera olmasligi ta’kidlanadi. Ya’ni “tezis – antitezis – kechinma rivoji – sintez” qoidasini umuman qo‘llab bo‘lmasligi uqtiriladi. Bizda bu borada o‘zgacha qarash mavjudligini yuqorida ham aytib o‘tdik.

O‘zbek she‘riyatida B.Boyqobilovning “Samarqand” va “Oltin to‘y” nomli sonet-gulchambarlari mavjud. Mana shular bu shaklning taraqqiyotini ko‘rsatadi. Turkumilik mana shunday o‘ziga xos shakllarni yuzaga chiqishiga sabab bo‘lganligi uning takomil tadrijini ko‘rsatadi.

Xullas, she‘riy turkum – bu yaxlit badiiy tizim, uning mazmuni va turkumni tashkil etuvchi asarlarning o‘zaro bog‘liqligi turkumlilikni hosil qiladi. Turkumni tashkil etuvchi unsurlar estetik, ifodaviy va tuzilmaviy vazifalarni ham bajaradi. Lirik turkum ijodkorning qarashlari, janr holati, tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlik, muallifning badiiy niyati va tuzilmaning yaxlitligiga asoslanadi.

O‘zbek sonetnavisligida turkumlilik badiiy-estetik xususiyatiga ko‘ra ham, nazariy jihatdan asoslanganligiga ko‘ra ham shakllanib ulgurgan hodisa sifatida tan olingan. Rauf Parfi va Faxriyorlar ijodida mavjud sonet turkumlari badiiyati yuksakligi bilan milliy she‘riyatimizning yutuqlari bo‘la oladi. Mazkur sonet turkumlarining har birida yakka lirik qahramon mavjud bo‘ladi va uning kechinmasi tavsifi sonetlar birligini tashkil etadi.

O‘zbek sonetnavisligida turkumlarining o‘ziga xos tipologik xusiyatlari sifatida turkum tarkibidagi sonetlarnig uch sonetdan yuz sonetgacha, birlashtirilganligi, mazmunan bir-birini to‘ldirishi, kompozitsion tuzilmasining o‘zaro mutanosibliги kabilarni ko‘rsatish mumkin. XX asrga kelib turkumning keng miqyosda tarqalishi uning adabiy asar uchun munosib shaklligini, shu davrda so‘z san‘atida ro‘y berayotgan jarayonlarga mos keladigan kompozitsion tuzilma ekanligini ko‘rsatadi.

## 2. She'riy turkumlarda shakl va mazmun uyg'unligi

Barcha badiiy asarlarda shakl va mazmun munosabati muhim jihatlardan biri bo'lgani singari turkumlilikda ham bu masalaga alohida yondashuv talab etiladi. Shakl poetik janrlar yoki she'r bandi ko'rinishlari, turlari bilan bog'liq bo'lsa, mazmun tanlangan mavzu, badiiy niyat bilan bog'liqdir.

O'zbek she'riyati tarixiga nazar tashlansa, Mahmud Qoshg'ariyning "Devon"i hamda Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat"i tarkibidagi ilk shartli she'riy turkumlar to'rtlik va ikkilik shaklida bo'lgani anglashiladi.

Alisher Navoiyning "Sittai zaruriya" ("Olti zarurat") va "Fusuli arbaa" (To'rt fasl) nomlari bilan ma'lum bo'lgan ikkita qasidalar turkumi mavjud. "Sittai zaruriya" olti qasidadan iborat bo'lsa, "Fusuli arbaa" o'z nomidan kelib chiqqan holda to'rtta qasidadan tashkil topgan.

Ogahiyning turkum masnaviylari geografik obyektlar haqida bo'lib, ularda shoir Xorazm vohasida mavjud joylar: bog'lar, imoratlar, qal'alar, daryolar tasvirini aks ettiradi. Shuningdek, "Kurash", "Poyga", "Poyga ta'rifida", "Ziyofat", "To'ynoma", "Shikor", "Ov ta'rifi", "Qush ovi", "O'rmonda ov", "To'qayda ov" kabi masnaviylari yuqorida nomlari keltirilgan turfa marosimlar haqidagi turkumlar sanaladi. Ogahiyning "Ta'rixlar" turkumida ham yigirma sakkizta masnaviy shaklidagi ta'rix-she'rlar o'rin olgan.

XIX asrning 2-yarmi, XX asr boshlari turkumlarida har xil janrlar, xususan, masnaviy, muxammas, qit'a, g'azal kabilardan unumli foydalanilgan.

Zavqiy va Muqimiylarning "Pashshalar" sarlavhasi ostidagi she'rlari, Muqimiyda mavjud bo'lgan "Ot" turkumi Zavqiy ijodida ham "Oting" va "Otim" sarlavhalaridagi turkumlari, Sidqiy Xondayliqiyda esa "Dar hajvi toy" shaklidagi turkumlari, asosan, g'azal va masnaviy shaklida yaratilgan.

Muqimiy ijodidagi "Ko'sa" turkumi, Zavqiy ijodida "Dar mazammati zamona" turkumi, Is'hoqxon Ibrat ijodida "Shikoyati zamona" turkumi ham g'azal va masnaviy, Sidqiy Xondayliqiy ijodidagi "Rabo(t)chiylar namoyishi" va "Rabo(t)chiylar kelishi", "Sizlarga mujda" turkumlari g'azal, muxammas, savol-javob shaklida, shoirning "Toza hurriyat" turkumi esa g'azal janrida shakllantirilgan. Abdulla Avloniy to'plagan "Mardikorlar ashuvlasi" nomi ostidagi to'rtta she'rlar g'azal va qit'a shakllarida, Hamza Hakimzoda Niyoziy she'riyatida "Mardikorlik she'rlari" ("Sog'inib", "Salom ayting") turkumi to'rtlik – murabba' va qit'a-tarkibband shakllarida yaratilgan.

Jadid adabiyoti vakillari, xususan, Usmon Nosir “Nil va Rim” asarida o‘n to‘rt qatorlik band shaklidan foydalangan bo‘lsa, Abdurauf Fitrat o‘zining “Yurt qayg‘usi” nomli turkumida sochma she‘r shaklidan foydalangan.

Cho‘lpon ijodidagi “Nil qizi”, “Tabiat kitobidan” kabi kichik turkum she‘rlariga barmoq tizimidagi an‘anaviy shakllar tanlangan.

Oybekning “Chimyon turkumi”, Mirtemirning “Qoraqalpoq daftari” turkumi, Shuhratning “Jangchi bloknoti”, “Kavkaz daftari”, “Dunay sohillarida”, “Odamlar va obidalar” turkumlari, Zulfiyaning “Vodiy tuhfası”, H.G‘ulomning “Qit‘alar uyg‘oq”, Shuhratning “Kavkaz daftari” kabi turkumlari, Erkin Vohidovning “Donishqishloq latifalari”, “Kavkaz she‘rlari” “Kanada turkumi” kabi turkumlari, Abdulla Oripovning “Haj daftari”, “Hikmat sadolari” turkumlari ham barmoq tizimidagi she‘rlar jamlanmasi hisoblanadi.

Rauf Parfining “Sunbula”, “Barnobonu”, “Og‘riq”, “Mikelanjelo sevgisi” “Sensiz”, “Tangri sog‘inchi”, “Qora devor”, “Thakurning oxirgi she‘ri”, “Yo‘lovchi”, “Hamlet”, “U dunyoga onamga maktub” she‘rlari sonet janridagi she‘rlar jamlanmasidir. Faxriyorning “Nomozshomgul” va “Sensizlik” turkumlari ham sonetariylar turkumi, ya‘ni sonet jarni namunalari majmuasi hisoblanadi.

Shoir Abdulla Sher ijodida “Sevgi olmoshi” nomi ostidagi “Men”, “Sen”, “U”, “Biz” nomli har biri o‘n bitta sonetni jamlagan o‘ziga xos turkumlar ham mavjud. Mirpo‘lat Mirzo ijodida esa yigirma sakkiz sonetni jamlagan “Onajon” sonetlar turkumi ham sonet janridagi she‘rlardan tashkil topgan.

Usmon Azimning “Turmush suratlari”, “Tazarru bog‘lari”, “Bolalikdan ikki xotira”, “Sevgi haqida”, “Yana sevgi haqida she‘rlar”, “Chapani yoki jaydari she‘rlar”, “Xamsa”ga tatabbu”, “Ko‘ngil”, “Erk haqida she‘rlar” kabi turkumlari ham barmoq tizimidagi she‘rlardir.

Rustam Musurmonning “Nilufar guldasta” turkumi barmoq tizimidagi to‘rtlik, oltilik bandlardagi she‘rlardan tashkil topgan bo‘lsa, shoirning “Qaro ko‘zim” turkumi ikkilik, to‘rtlik, g‘azal kabi shakldagi yetti she‘rdan tashkil topgan. Shoir Bahrom Ro‘zimuhammadning “Xatlar”, “Navoiyga tatabbu” kabi turkumlari sarbastdan foydalanib yozilgan.

Farida Afro‘zning “Tasbehlar” turkumi tarkibidan 33 tadan uchlik o‘rin olgan. Yana bir taniqli shoir O‘tkir Rahmatning “Manzaralar” nomli turkumi to‘rtliklardan tashkil topgan bo‘lsa, “Tungi mashqlar” to‘rtlik,

sakkizlik, o‘n ikkilik shaklidagi she‘rlardan, “Bog‘ suvratlari” turkumi esa faqat sakkizliklardan tashkil topgan.

“Turkum – bu muallif tushunchasini ifodalashning eng munosib shakli, chunki u rassomning dunyoning turli tomonlaridagi g‘oyalari birligiga asoslangan yaxlit adabiy tizimni yaratishga bo‘lgan ongli istagi natijasida paydo bo‘ladi”<sup>1</sup>. Ushbu ta‘rifga asoslanadigan bo‘lsak, yuqoridagi ma‘lumotlardan o‘zbek she‘riyatida turkumlilik zamon va makon munosabatlari asosida (xronotop) yoki shoirning badiiy niyati, asar g‘oyasidan kelib chiqib shakllantirilganligiga guvoh bo‘lamiz.

Ko‘rinadiki, o‘zbek she‘riy turkumlari tarkibidagi she‘rlar miqdori ham, ularning janr yoki shakllari ham chegaralanmagan. Ular ikkidan to yuztagacha she‘r jamlanganligini ko‘rish mumkin. Turkum tarkibidagi she‘rlar ham turli shakl va janrlarda bitilgan. Xususan, ularda ham barmoq tizimidagi ikkilik yoki masnaviy shaklidan tortib, tarji‘band yoki g‘azalgacha mavjud. To‘g‘rirog‘i, bu turkumlar ikkilik, uchlik, to‘rtlik, murabba‘, muxammas, musaddas, oltilik, sakkizlik, o‘nlik, o‘n ikkilik, sonet, o‘n to‘rtlik, rondel, tarji‘band, g‘azal kabi janr va band turlaridan tashkil topgan.

Ushbu turkumlarda muayyan shakl asarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib tanlangan. Shuningdek, ularda amaldagi qaysi she‘riy janrdan foydalanganiga ham e‘tibor qilinadigan bo‘lsa, bu ko‘p jihatdan qaysi davrda qanday poetik janr ko‘proq qo‘llanganiga bog‘liq bo‘lganini kuzatish mumkin. Xususan, Qoshg‘ariy xalq og‘zidan yozib olingan she‘riy parchalarni, xususan, to‘rtliklarni jamlagan. Ularning ayrimlariga “shoir shunday degan” jumlasini, ayrimlariga “donishmand shunday degan” kabi izohlarni berib borganligidan to‘rtliklar ham muallifga ega, ham og‘zaki ijod namunasi ekanligi haqida xulosa qilish mumkin. Bu haqida professor Nasimxon Rahmonovning quyidagi qarashlari mavjud: “Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asaridagi she‘rlar ham xalq og‘zaki ijodiga, ham individual she‘riyatga mansub. Matnlar islomdan oldingi davrga aloqador”<sup>2</sup>. Demak, “Devon”dagi she‘riy parchalarning biror muallif qalamiga mansublari ham, xalq og‘zidanyozib olinganlari ham mavjud ekan.

Abdurauf Fitrat to‘rtliklarni mazmuniga ko‘ra o‘n to‘rt bo‘limga ajratishni taklif qilgan ekan. Ular Alp Erto‘nga marsiyasi, Yoz-Qish

<sup>1</sup> Воронцова-Маралина А.А. Проза Сергея Довлатова: поэтика цикла: диссертация ... кандидата филологических наук. – Москва, 2004. – С. 47.

<sup>2</sup> Раҳмонов Н.А. Кўҳна битиктошлар. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси. 1991. – Б.14.

munozarasi, bir urush maydoni haqida, Yoz o‘yunlari, Ovdan urushg‘a, Tog‘ush begining urushi, Uyg‘urlar bilan urush, Ikki savdogar orasida, Ayriqliq(hijron), sevgiga oid parchalar (7 parcha), Uch urush (5 parcha) bir urush, Doston boshlang‘ichi (6 parcha) va Bir marsiya (3 parcha).

Biz ham “Devon”da mavjud to‘rtliklarni turkumlilik xususiyatlarini aks ettirishiga ko‘ra, shartli ravishda, bir necha guruhga ajratish mumkin deb hisoblaymiz. Bular:

- a) pand – o‘git tarzidagi to‘rtliklar;
- b) urushlar mazmunidagi to‘rtliklar;
- c) tabiat tasvirlari aks etgan to‘rtliklar;
- d) muhabbat mavzusidagi to‘rtliklar kabilar shular jumlasidan.

Asardagi to‘rtliklar joylashish o‘rni turfa xil bo‘lishiga qaramay, mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lganlari olimlar tomonidan birlashtirilganligi ma’lum. Bular orasidan faqat “tabiat tasvirlari aks etgan to‘rtliklar”ning ayrimlarini ko‘rib o‘tish maqsadga muvofiq.

Qaqlar qamug‘ ko‘lardi  
Tag‘lar bashi ilardi  
Azin tini-yilirdi  
Tu-tu chechak cherkashur

(Ma’nosi: Qoq yerlar ko‘lga aylandi, tog‘ boshlari ko‘zga tashlandi, dunyo iliq nafas oldi, turli chechaklar bosh ko‘tarib tizilishdi).

Yamg‘ur yag‘ib sachildi  
Turlug‘ chechak suchuldi  
Yunchu qapi achildi  
Chindan yipar yug‘rushur.

(Ma’nosi: Yomg‘ir tomchilari sochildi, yerlardan gullar unib chiqdi, dur va marjon qutichalari, ya’ni daraxtlarning oppoq gullari ochildi. Xuddi mushk va iporlar bir-biriga qo‘shilib hid sochayotganday).

Keldi esin esnayu  
Qadg‘a tugal usnayu.  
Kirdi bodun qusnayu  
Qara bulut ko‘krashur.

(Ma’nosi: Shamol esib keldi, bu shamol sovuradigan bo‘ronga o‘xshaydi. Xalq sovuqdan titradi, qora bulutlar gulduradi).

She’rlardagi ma’no bahor faslining kelishi va tabiatdagi o‘zgarishlar mazmunida ekanligi yuqoridagi parchalardan anglashiladi. Birinchi parchada bahor kelib, qorlar erishi tasvirlanayotgan bo‘lsa, ikkinchi parchada yomg‘irlar yog‘ib, gul-chechaklar unganligi, daraxtlarga gulga burkanganligi haqida. Uchinchi to‘rtlikda esa sovuq shamol elga

sovuqlikdan darakchi ekanligi xususidadir. Ko‘rinadiki, bu to‘rtliklar har xil o‘rinda kelsa-da, ularning tabiat mavzusida ekanligi va ularning mazmunidagi ham izchillik mavjudligi, ularning turkum hosil qilishi mumkinligini dalolatlaydi.

Professor Hamidulla Boltaboyev “Devon...” tarkibidagi she‘riy parchalar bo‘yicha quyidagi ma‘lumotlarni keltiradi. “Devon...”da umumiy hajmli 764 misra bo‘lgan 289 to‘rtlik va ikkilik (bayt) she‘riy namunalar berilgan (I.V.Kormushinning hisobiga ko‘ra, 163 to‘rtlik va 57 bayt ikkilik) adabiy namuna sifatida keltirilgan) Shu faktning o‘ziyiq “Devon...”ga qadar turkiy she‘riy shakllar va muqaddimada tilga olingan janr shakllanganligini ko‘rsatadi”<sup>1</sup>. Ko‘rinadiki, to‘rtliklar ikkiliklardan ko‘p miqdorda va ularda ham shakl, ham janr bo‘yicha shakllanishlar yaqqol namoyon bo‘lgan.

Fitrat ikkiliklarni ham o‘ziga xos tarzda tasnif qilganligi ma‘lum. Xususan, nasihat, mehmon kutish, tarbiya, sevgi, dunyodan shikoyat, maqtanish, boylik to‘g‘risida, diniy nasihat, o‘gut kabilar shular jumlasidan. Lekin ikkilik – masnaviylarni ham mazmuni va mavzular birligiga ko‘ra quyidagicha turkumlash mumkin:

- a) pand-nasihat mazmunidagi ikkiliklar;
- b) ilmga da‘vat mazmunidagi ikkiliklar;
- s) sevgi mavzusidagi ikkiliklar;
- d) tabiat mavzusidagi ikkiliklar.

Quyidagi ikkilik pand-nasihat mazmunida bo‘lib, unda mansabga erishgan inson o‘zini emas, balki xalqning dardini o‘ylaydigan, ularga yaxshilik qiladigan inson bo‘lishi kerakligi haqida aytilgan.

Ulug‘luqug‘ bulsa-sen edgu qilin,  
Bo‘lg‘il kisig beglar qafin yaxshi ulan<sup>2</sup>.

Ma‘nosi: daraja yoki martaba topsang, xulqingni chiroyli qil, amirlar oldida yaxshilik yetkazuvchi, xalqning ishlarini yaxshi qabul (qiluvchi bo‘l).

Kichig bulup yag‘ini yergu emas,  
Edgurmadiq qobsa ani elni qunar<sup>3</sup>.

Ma‘nosi: Yov kichik bo‘lsa ham, nazarga ilmaslik yaxshi emas, uni nazarga ilmay, mensimay qo‘yilsa, u shaharni sendan tortib oladi. Ya‘ni yovga bepisand bo‘lish yaxshilikka olib kelmasligi uqtirilmoqda.

<sup>1</sup> Болтабоев Х. Илми адаб ибтидоси.(сўз боши) / Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. – Т.: MUMTOZ SO‘Z. 2016. – В. 14.

<sup>2</sup> Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи. 2017. – В.39.

<sup>3</sup> Mahmud Koshg‘ariy. O‘sha kitob. – В. 34.



Ilmga da'vat mazmunidagi ikkiliklarda ham yosh avlodning ulug'lardan ilm o'rganishi joizligi ta'kidlanadi:

Alg'il o'gut mendin, o'g'ul, erdam tila,  
Boyda ulug' bilga bo'lup, bilging ula<sup>1</sup>.

Ma'nosi: O'g'il, mendan o'git ol, fazilat tila. El-yurt orasida ulug' olim bo'l, ilmingni tarqat. Ya'ni, ilmni o'zi o'rganib bo'lgach, boshqalarga ham ulashishi va buning natijasida elu yurt orasida obro' orttirishi xususida so'z boradi.

“Devon...”dagi sevgi mavzusidagi ikkiliklarda esa bu tuyg'uning ta'rifi, tizginsiz kuchi va qudrati aks ettirilgan:

Udik o'ti tutunup,  
O'pka, yurak qog'rulur<sup>2</sup>

Ma'nosi: Qachon sevgi o'ti yonsa, undan yurak, o'pka va uning tevaragidagi a'zolar kuyib qovruladi. Ya'ni inson sevgi oldida ojiz qoladi, tanasi o't bo'lib yonadi, qovriladi.

Asardagi tabiat mavzusidagi ikkiliklarda ham o'ziga xos tavirlar aks ettirilgan. Xususan:

Qorday qug'u anda uchup yumg'in o'tar,  
Quzg'un yangan sayrap anin uni butar<sup>3</sup>.

Ma'nosi: bu yerda qorday qug'u va boshqa qushlar suv atrofida har xil yoqimli ovozlari bilan sayrashadi, yirik qarg'alar, chipor qushlar sayrayverib, ovozlari bitib qoladi. Ya'ni chiroyli ovoz bilan sayraydigan qushlarga tenglashaman deb, qarg'a, chipor qush kabilarning ovozi bo'g'ilib qoladi.

Demak, “Devon...”dagi oltmishga yaqin ikkiliklarni mavzular birligiga yoki umumiylikiga ko'ra yuqoridagi turkumlarga birlashtirish va shu guruhlar doirasida tahlil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asaridagi hikmatlarni ham she'riy turkumning ilk shakllaridan biri deb atash mumkin. Chunki undagi hikmatlar ham mavzuning birligi, lirik qahramonning yagonaligi, mazmundagi umumiylik jihatlari ko'ra birlik tashkil etadi.

Alisher Navoiy ijodida ham turkumlilik hodisasi kuzatiladi. Xususan, shoirning forsiy tilda yozilgan “Sittai zaruriya” va “Fusuli arbaa” nomlari bilan ma'lum bo'lgan ikkita qasidalar turkumi mavjud. “Sittai zaruriya” olti qasidadan iborat bo'lib, Navoiy ularning mavzu

---

<sup>1</sup> Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи. 2017. – В.34.

<sup>2</sup> Mahmud Koshg'ariy. O'sha kitob. – В. 251.

<sup>3</sup> Mahmud Koshg'ariy. O'sha kitob. – В. 406.

ko‘lami haqida: “Bu olti qasida hamd va na‘t va sano va ma‘vizotdur va ahli tasavvuf va haqiqat tili bila ma‘rifat”, – deb yozgan edi.

“Sittai zaruriya”ning olti qasidasidan biri Allohning yaratuvchilik qudrati vasfida (“Ruh ul-quds”), ikkinchisi Muhammad s.a.v. payg‘ambarimizning na‘ti, ulug‘vor siymosining ta‘rifiga bag‘ishlangan. Qolgan to‘rt qasida (“Tuhfat ul-afkor”, “Qut ul-qulub”, “Minhoj un-najot”, “Nasim ul-xuld”) Sharqda shuhrat tutgan qasidavislarga, xususan, Xisrav Dehlaviy, Jomiy, Anvari, Xoqoniy, Salmon Sovajiy va boshqalar asarlariga tatabbu, nazira tarzida yaratilgan. Shoir ushbu qasidalar mazmuni orqali Haq yo‘li Haqiqat yo‘li ekanligini ta‘kidlaydi, shu bilan birga o‘z davrining ma‘naviy-axloqiy va ijtimoiy muammolariga ham diqqat qaratadi.

“Fusuli arbaa” – Alisher Navoiyning turli vaznlarda yozilgan to‘rt forsiy qasidadan iborat turkumidir. “Fusuli arbaa” (“To‘rt fasl”) degan umumiy nomdan kelib chiqib, uning qismlariga shartli ravishda sarlavhalar qo‘yilgan: “Bahor” 57 baytdan, “Saraton” 71 baytdan, “Xazon” 33 baytdan, va “Day” 70 baytdan iborat. To‘rttalovi ham zamon podshohi – Sulton Husayn Boyqaroni podshoh va shaxs, yaxshi do‘st va yaxshi inson sifatida vasf etishga bag‘ishlangan. Shu sababli bu to‘rttala qasida ham birgalikda yaxlitlik, tugallik kasb etadi. So‘nggi to‘rtinchi qasidadagina Foni taxallusi keltirilgani ularning yaxlitligining yana bir isbotidir.

Mazkur qasidalar turkumida yil fasllarining go‘zal manzarasi tasviri qalamga olinadi. Har bir faslning insonga olib keladigan quvonchlari bilan bir qatorda bir olam tashvishlar keltirishi ham turfa xil obrazlar, majozlar orqali tasvirlanadi. Tabiatni mavjud jamiyat bilan uyg‘unlikda tasvirlash, ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va bog‘liqlikka e‘tiborni jalb qilish, ushbu qasidalarining asosiy mazmuniga singdirilgan. Shoir qasidalaridagi har bir tashbihga alohida e‘tibor bilan yondashgan. Asar tantanavor uslubda yozilgan va badiiy tasvir vositalarining qo‘llanilishi bo‘yicha ham yuqori darajadadir. Qasidalar mazmun va shakl uyg‘unligi bilan ham ajralib turadi.

Ogahiyning “Imorati oliy”, “Rafinak bog‘i tasviri”, “Rafinak bog‘idagi bino tasviri”, “Xiva bog‘i tasviri”, “Ko‘hna Urganchdagi bog‘ tasviri”, “Bayramali qal‘asi”, “Jayhun to‘lqini”, “Dosh hovli tasviri”, “Toshovuz bog‘i”, “Xazorasb tasviri”, “Chandir daryosining tasviri” kabi qator masnaviylar geografik obyektlar haqida bo‘lib, ularda shoir Xorazm vohasida mavjud obyektlar: bog‘lar, imoratlar, qal‘alar, daryolar tasvirini aks ettiradi. Mazkur she‘rlarni aynan shu kichik guruhlar bo‘yicha tasnif etish mumkin.

Shuningdek, “Kurash”, “Poyga”, “Poyga ta’rifida”, “Ziyofat”, “To‘ynoma”, “Shikor”, “Ov ta’rifi”, “Qush ovi”, “O‘rmonda ov”, “To‘qayda ov” kabi masnaviylari yuqorida nomlari keltirilgan turfa marosimlar haqida tasavvur hosil qilishga ko‘maklashuvchi tushunchalarga ta’rif berilgan, ularning tafsilotlari bayon qilingan.

Xususan, “Imorati oliy” she’rida

Bo‘lmish andoq imorati oliy –

Ki, bori aybu nuqsdan xoli<sup>1</sup>.

Yoki Xiva bog‘i tasviri:

Pishib har taraf mevalar behisob,

Jahon lazzatidin bo‘lib komyob.

Yashil yaproq ichra qizartib qator,

Zumurrad aro la’l o‘lub oshkor<sup>2</sup>.

“Jayhun to‘lqini” tasviri ham o‘ziga xos:

Ajab daryoki, ko‘rguzgach talotum,

Qolur qa’rida oning charxi anjum.

Erur mag‘ribg‘a mashriqdan ravona,

Xirad topmay kanoridin nishona<sup>3</sup>.

Joylar tavsifidagi she’rlardagi umumiylik, mavzu va shoirning g‘oyaviy niyati bitta ekanligida, ularda shoirning o‘zi ta’rif berayotganligida, ya’ni lirik qahramon o‘zi ekanligida, bir hudud – Xorazmdagi joylar ta’riflanayotganida, barchasida tavsif usulidan unumli foydalanilganligida ko‘rinadi.

Marosimlar haqidagi she’rlardan biri bo‘lgan “Poyga” she’rida quyidagicha tasvir bor:

Bo‘lib otlar oningdek tez ravlik –

Ki, sarsar ila qilmay garmravlik

Oningdek tuyog‘idin choqilib o‘t –

Ki, otashgahg‘a go‘yo yoqilib o‘t<sup>4</sup>.

Yoki “Shikor” she’rida:

Yeru ko‘k sari necha qilsang nazar,

Shikor o‘lg‘usi sar-basar jilvagar<sup>5</sup>...

<sup>1</sup> Oga‘iy. Танланган асарлар. 4 жилдлик. 2-жилд. –Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 309.

<sup>2</sup> Oga‘iy. O‘sha kitob. – B. 318.

<sup>3</sup> Oga‘iy. O‘sha kitob. – B. 321.

<sup>4</sup> Oga‘iy. O‘sha kitob. – B. 331.

<sup>5</sup> Oga‘iy. O‘sha kitob. – B. 333.

kabi tasvirlar orqali shu davr saroy ahli ishtirok etadigan marosimlar va ularga xos tafsilotlar haqida atroflicha ma'lumotga ega bo'lamiz. Marosimlarga oid she'rlarning o'zini yana kichik guruhlariga, xususan, kurash va poyga tavsifi, to'y va ziyofat tavsifi, ov tafsilotlari kabi turlarga ajratib o'rganish mumkin. Bu guruhdagi she'rlarning turkumlanishida ham yuqoridagi ta'riflardan tashqari marosimlar tafsilotlarining atroflicha yoritilganligiga ham tayanish mumkin.

Shuningdek, Ogahiy qalamiga mansub yigirma sakkiz ta'rix she'r ham o'ziga xos turkumni hosil qiladi. Ulardagi turkumlilik xususiyatlari she'rlarda Ogahiy yashagan davrdagi Xorazm vohasi hayotidagi muhim voqealar bayon etilganligida ko'rinadi. Xususan, Olloqulixon vafoti va Rahimqulixonning taxtga chiqish ta'rixi, Muhammad Aminxon, Abdullaxon, Sayyid Muhammadxon va Muhammad Rahimxonlarning taxtga chiqish ta'rixlari, Muhammad Aminxon Rahmonberdi Biy, Muso To'ra, Muhammad Rahimxon, Muhammadniyoz Devonbegi, Sayyid Mahmud To'ra madrasalari ta'rixi, Qozi Muso eshon va Qozi Ibrohim eshon vafotlari, ayrim imoratlarning qurilishi va boshqa tarixiy voqealar bilan bog'liq she'rlar mumtoz janrlardan qit'aga xos qofiyalanish tartibidagi she'riy shakllar va g'azal shaklidan foydalanib yaratilgan. Xususan,

Hokimlar aro ul o'ldi odil,  
Ko'p mushfiq, sohibi saxodil.  
Pok nomiga tut quloq, Sayyid  
Mahmud amir erur u oqil<sup>1</sup>.

Bundagi qofiyalanish tartibi a-a, b-a, d-a tarzida davom ettirilgan, ya'ni g'azalga xos. Keyingisida:

Xoni saxovatpesha Muhammad Amin,  
Xayr ani osmonu, ufq der saxo<sup>2</sup>,

shaklida qofiyalangan va asli fors tilida yaratilgan bu ta'rix she'rlar bir mavzu doirasida yaratilgan va bir davrning tarixiy voqeligini aks ettirganligi uchun, shuningdek, she'rlar ham ta'rix san'ati asosida vujudga keltirilgani uchun ham ularni bir turkumga mansub, deyish mumkin.

XIX asr oxiri va XX asr boshlari ijodkorlari yaratgan turkumlar turli janrlarda va turfa shakllarda yaratilgan bo'lib, ularda mazmun va shakl uyg'unligi mavzu va shoir g'oyaviy niyatidan kelib chiqib tanlangan janrlarda ko'rinadi.

<sup>1</sup> Azizlar anjumani. /Матназар Абдулҳаким таржималари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 257.

<sup>2</sup> O'sha kitob. – B. 243.

Adabiyotshunos D.Abdullayeva tadqiqotida bu davr adabiyotning mazmun doirasi yangi-yangi – o‘tmish she’riyatimizda qalamga olinmagan mavzular bilan yanada kengayib rivojlangani xususida so‘z boradi. “Davr adabiy hayotining xos belgilaridan biri shundaki, bir necha xalqchil ijodkorlarning ijodiy tashabbusi bilan zamona hayotida ro‘y bergan qator ijtimoiy-siyosiy voqea-hodisalar bilan bog‘liq dolzarb mavzularda bir necha she’riy turkumlar paydo bo‘ldi”<sup>1</sup>. D.Abdullayevaning ta’kidlashicha, “O‘lkada ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy mavzudagi she’riy turkumlardan bir mavzu, bir g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishda turli janr va shakllarda yaratilgan bu asarlar davr ijodkorlarining o‘zaro yakdilligi va yagona pozitsiyada turganliklarini anglatadi”<sup>2</sup>. Ya’ni bu davr ijodkorlari o‘z zamonasining muammolariga befarq emaslar. Shu sababli she’riy turkumlarni ajratib tasnif etish mumkin:

1. Qo‘qon xoni Xudoyorxon haqidagi turkumlar: “Afsusnoma”, “Darig‘noma” kabi muxammaslar va marsiya ohangidagi she’rlar. Zoriyning “Tavsifi o‘rdai oliyi Xudoyorxon”, “Qo‘shiqlar”, “Aylayin bir qissa...” muxammaslari, Ketti, kim qoldi” musaddasi, Ashur Muhammad Ho‘qandiyning “Tarixi Shohruhiy” asaridagi Xudoyorxon o‘rdasiga bag‘ishlangan qasidasi, Zavqiyning “Demish xon” muxammasi, Shavkat “Pandnomai Xudoyorxon” masnaviysi va boshqalar.

2. 1898-yildagi Andijon qo‘zg‘oloni (“Dukchi eshon voqeasi”) mavzuidagi she’riy turkumlar: Rojiyning “Yigchi eshon haqida hajv”, Umidiy Havoiyning “Yigchi eshon hajvi”, Zavqiyning “Hajvi Yigchi eshon”, “Pashshalar” va “Uy puli” kabi satiralari.

3. Ma’rifatparvarlik yo‘nalishidagi turkumlar: Furqatning “Ilm xosiyati”, “Gimnaziya”, “Vistavka xususida”, “Akt majlisi xususida”, “Toshkent shahrida bo‘lg‘on nag‘ma bazmi xususida”, “Suvorov” va boshqa asarlari, G‘urbatning “Gimnaz” radifli g‘azali.

4. Tovlamachi Viktor va Lyaxtinlar haqidagi hajviy turkumlar: Muqimiy, Zavqiy, Muhyi, Zoriy, Rojiy, G‘urbat, Pisandiyalar qalamiga mansub she’rlar. Muqimiyning “Hajvi Viktorboy”, “Moskovchi boy ta’rifida”, Zoriyning “Laxtun hajvi” muxammasi, Zavqiyning “Voqelai Viktor” she’ri.

5. Ot, burga, pech, pashshalar haqidagi yumoristik turkumlar: Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Sidqiy Xondayliqiylar she’rlari.

<sup>1</sup> Абдуғафуров А. Мухйининг “суддан ҳам олдинроқ чиқарган ҳукми”// ЎзАС. 1997, 5 сентябр.

<sup>2</sup> Абдуллаева Д.З. Усмонхўжа Зорий хаёти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 64.

6. Ismoyil naychi yoki xonanda Makaylik ta'rifidagi turkumlar. Muqimiy ("Ko'samen", "Devonamen"), Zavqiy, Furqat kabi ijodkorlar she'rlari.

7. Andijon zilzilasi haqidagi turkumlar: Muqimiy, Muhyi, Ibrat, Kamiy, Zoriy, Nasimiy, Haziniy, Pisandiy, Hamza, Saidabdulmajid Shavqiy, Fayoz, Xatmiy, Dabiriy, Shohiy, Mirsolih Mirzohidboy o'g'li, qozi Rahimxo'ja eshon, Olim Nuriylar o'zbek va tojik tillarida muxammas, g'azal, manzuma, ta'rixlar yaratdilar. Zoriy "Voqelai Andijon" muxammasi, Muqimiyning "Tarixi zilzilai Andijon az mavlono Muqimiy Ho'qandiy" asari, Muhyining "Andijona" radifli muxammasi, Nasimiyning "Bechora andijonlik" radifli g'azali, Muqimiyning "Tarixi zilzilai Andijon" she'ri, Pisandiyning "Ta'rix i zilzilai shahri Andijon" she'ri, Haziniyning "Gunohimni xudoyo..." musaddasi.

8. "Saylov" turkumi yoki riyokor dindorlar haqidagi hajviy turkumlar: Muqimiyning "Saylov", Zavqiyning "Voqelai qozi saylov" va Rojiyning "Saylov" nomli she'rlari.

9. Mardikorlik voqealariga bag'ishlangan turkumlar: Sidqiy Xondayliqiy, Hamza yaratgan turkumlar.

10. Mahalliy amaldorlar va din peshvolari hajv qilingan turkumlar: Muqimiyning "Tanobchilar", "Dodxohim", "Voqelai ko'r Ashurboy hoji", "Avliyo", Umidiy Havoiyning "Hajvi Musakal bazzoz", "Hajvi Obid halifa".

11. "Naylayin" radifli asarlar: Zoriy va Nodim musaddaslari.

Tadqiqotchi mazkur turkumlarning yozilishi xususidagi G'.Karimov, H.Razzoqov, A.Abdug'afurov, H.Boltaboyev, R.Tojiboyev kabi adabiyotshunoslarning tadqiqotlari mavjudligini ta'kidlab o'tadi.

Darhaqiqat, professor Hamidulla Boltaboyevning "Yollangan adabiyot sirlari" maqolasida Muqimiyning "Hajvi xalifai Mingtepa", "Dar mazamati qurbaqa" she'rlari G'ulom Karimovning "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligida Andijon qo'zg'oloniga boshchilik qilgan Dukchi eshon (Madali eshon)ni qoralashga bag'ishlangan shu turkumdagi she'rlar ekanligi<sup>1</sup> aytib o'tilganligi, aslida esa bu she'rlar mazkur voqealarga daxlsizligi xususida so'z boradi. Xususan, darslikda "Muqimiydan so'ng o'sha davr shoirlari birin-ketin bu temada satiralar yoza boshladilar. Natijada "Dukchi eshon sikli yaratildi"<sup>2</sup>, - deyiladi. Ushbu turkumning davomchilari sifatida Sulton Ahmad, Zavqiy, Nodim Namangoniy va Rojiylar sanab o'tiladi.

<sup>1</sup> Каримов Ф. Ўзбек адабиёти тарихи. 3-китоб. – Т.:Ўқитувчи, 1975. – Б. 57.

<sup>2</sup> O'sha kitob. – B. 122.

Professor H.Boltaboyev Dukchi Eshonni qoralash aslida chor hukumatining maxsus topshirig'iga ko'ra Zavqiy tomonidan "Hajvi Yigchi eshon", "Pashshalar" va "Uy puli" kabi satiralar orqali aks ettirilganligi xususidagi faktik ma'lumotlar keltirish orqali bu vazifaga Muqimiyning aloqasi yo'qligini isbotlab beradi. "Muqimiyning pokiza nomi "Dukchi eshon sikli"ning boshlovchisi va yaratuvchisi sifatida tilga olinishi tarix haqiqatiga ham, adabiy mantiqqa ham zidligini shoir satirik merosining o'zi anglatib turibdiki, u dastlab tanqid qalamini mamlakatga bosqinchilik va mustamlakachilik olib kelgan chor amaldorlariga va harbiylariga qarshi qaratgan. Mustamlakachilik siyosatini fosh qilgan "Voqelai Viktor", "Veksel" singari qator asarlari bunga guvoh"<sup>1</sup>. Tadqiqot muallifi adiblarning ijodlariga bir tomonlama yoki zo'raki va yollangan talqinlarga qarshi bo'lib, barcha qonli hodisalar halol va xolisona yoritilishi tarafdori ekanligini yana bir bor ta'kidlagan.

Muqimiy ijodidagi "Dar mazamati iskab topar" va "Pashshalar" sarlavhasi ostida she'rlari chivin va qora pashsha nomi bilan yuritiladigan hashoratlar haqidagi kichik turkum she'rlaridir.

Aytayin bir qissayekim, dod qo'ymas pashshalar,  
Kimga borib dod aytay, bedod qo'ymas pashshalar  
Mubtalo bo'lg'il iloho tortanakning torig'a,  
Uchrasa anga yana hargiz qutulmas pashshalar<sup>2</sup>.

Chivin haqidagi she'ri quyidagicha:

Turfa maxluqi vujudiddur zahar iskab topar  
Bir milit uxlatmadilar to sahar iskab topar<sup>3</sup>.

Ko'rinadiki, har ikkala she'r ham g'azal janriga xos qofiyalanish tartibiga ega va birida maqta'da shoirning taxallusi qo'llanilgan, lekin ikkinchisi – "Pashshalar"da qo'llanilmagan.

Muqimiy ijodida, shuningdek, "Loy", "Hayron qildi loy" , "Shikoyati bezgak", "Behad yomon bezgak", "Aravang" va "Aroba qursin" nomlari bilan ikki she'rli turkum, "Ko'samen", "Hayron ko'samen", "Parishon ko'samen" "Devonemen" nomlari bilan to'rtta she'rli hajviy turkumlar ham mavjud. Ular uchun ham tanlangan shakl asosan g'azal janrining qolipi, lekin bularda ham ayrimlarining maqta'sida Muqimiy taxallusi qo'llanilgan, ayrimlarida umuman qo'llanilmagan. Ushbu she'rlar sarlavhalaridan ham ko'rinib turganidek, kundalik turmushda uchraydigan muammolarni yengil kulgi bilan bayon

<sup>1</sup> Болтабоев Х. Ёлланган адабиёт сирлари //ЎзАС. 1998, 4 декабр. 49-сон. – Б. 3.

<sup>2</sup> Муқимий. Танланган асарлар. 2 томлик. 2-том. – Тошкент: Ўздавнашр, 1960. – Б. 84.

<sup>3</sup> Muqimiy. O'sha kitob. – B. 74.

qilish mazmunida bo‘lsa-da, lekin barchasi ijtimoiy hayotdagi qoloqlik, yetishmovchilikdan shikoyat mazmunini aks ettirgan. Xususan, “Loy”, “Hayron qildi loy” she’rlarida loyni quyidagicha ta’riflaydi:

Ko‘chaga chiqmoqqa lekin saxt hayron qildi loy,  
Qor yog‘ib, qaytib bahor erdi – zimiston qildi loy<sup>1</sup>.

Keyingi she’rida:

El halokig‘a bu qish chun Nuhi tufon qildi loy,  
Madrasa masjidni aylab g‘arqu pinhon qildi loy<sup>2</sup>,

deyish orqali yog‘ingarchilik tufayli yuzaga keladigan loygarchilik holatini bayon etsa-da, insonlar buning chorasini o‘ylamayotganlariga ham ishora qilmoqda.

“Shikoyati bezgak”, “Behad yomon bezgak” she’rlarining har ikkalasi ham hayotiy asosga ega bo‘lib, birinchisi, Muqimiyning o‘zi bezgakka chalingan holati aks ettirilgan she’r bo‘lsa, ikkinchisida uning Moskvadan kelgan jiyanining bezgakka chalinishi holati aks ettirilgan she’rlardir.

Ilohim, yuzi bo‘lg‘ay qozondin ham qaro bezgak,  
Tutib, rangimni qildi, ozdurub, chun qahrabo bezgak<sup>3</sup>.

Yoki:

Iloho, saqla sharridin Muqimiyga jiyandur bu,  
Bahaqqi chor yoru hurmati payg‘ambaron, bezgak<sup>4</sup>,

deyish orqali Muqimiy kabi ozg‘in insonni ozdirib, sarg‘aytirib yuborayotgan bu kasallikning o‘zining yuzi qaro bo‘lishini tilasa, ikkinchisida Moskvaday joydan kelgan, necha yilda topishgan jiyani R.Do‘stmatov oldida hijolat bo‘lib yozilgandek taassurot qoldiruvchi she’rlardir. Har ikkalasida ham bu kasallikni tezda davolatishga imkoniyat cheklangani anglashiladi.

Shoirning “Aravang” va “Aroba qursin” turkumlaridagi she’rlarda ham ijtimoiy hayotdagi yana bir muammo, davr o‘zgarishlarining hayotda aks etmayotganligi va insonlar ham rivojlanish sari yetarlicha odimlamayotganidan shikoyat mazmuni ham aks ettirilgan:

Oqibat qildi dardisar aravang,  
Ham quloqlarni saxt kar aravang<sup>5</sup>.

Muqimiyning “Ko‘samən”, “Hayron ko‘samən”, “Parishon ko‘samən”, “Devonamen” nomli turkumdagi she’rlar o‘sha davrdagi

<sup>1</sup> Муқимий. Танланган асарлар. 2 томлик. 2-том. – Тошкент: Ўздавнашр, 1960. – Б. 72

<sup>2</sup> Muqimiy. O‘sha kitob. – B. 73.

<sup>3</sup> Muqimiy. O‘sha kitob. – B. 75.

<sup>4</sup> Muqimiy. O‘sha kitob. – B. 76.

<sup>5</sup> Muqimiy. O‘sha kitob. – B. 70.



san'atkor – naychi Ismoil ota haqida bo'lib, she'rlarda ushbu san'atkorning nochor ahvolini ko'rsatish orqali o'z davridagi chin san'at ahliga yoki o'ziga o'xshagan ijodkorlarga munosabat yomon bo'lganligini, ularning qadri juda past ekanligini ko'rsatmoqchi bo'lgan. Shuning uchun ham “Ko'samen” she'rining maqta'sida:

Bir faqirdin bir baqarni, do'stlar, tutmang darig',

Bir duogo'yi Muqimiy men qadrdon ko'samen<sup>1</sup>,–

deyish orqali o'zining ham ahvoli qadrdoninikidan qolishmasligiga ishora qiladi. Bu turkumdagi she'rlar ham asosan g'azal shaklida yaratilgan.

Muqimiyning yana bir nisbatan yirik she'rlar turkumi “Ot” turkumi bo'lib, uning tarkibiga “Ot”, “Hajvi ot”, “Bu otingiz”, “Otim”, “Dar sifati asbi toji tilgrofchi...” deya nomlangan beshta she'r kiradi. Ushbu turkum tarkibidagi she'rlar har xil janrda yozilgan. Xususan, turkumdagi “Ot” nomli birinchi she'r muxammas shaklida yozilgan bo'lib, unda o'z otining barcha nojo'yaliklarini o'n bandda aks ettiradi. Ushbu otning bozorda ham xaridori bo'lmaganligini aytish orqali undan qutulish imkoni ham yo'qligini uqtiradi:

Kimsa bozora suzib dum, ey Muqimiy solmadi,

Bir xaridori chiqib, olg'an puling'a olmadi,

Nechakim badbaxt tadbir ayladim sotilmadi,

Tobu toqat menda egarlab minarga qolmadi,

Kelganiga olsa sot, emdi harom o'lsun bu ot.<sup>2</sup>

Navbatdagi she'r “Bu otingiz” deb nomlangan bo'lib, ushbu she'r g'azal janrida yaratilgan. Unda ham yuqoridagi muxammaslardagi kabi otning noraso qiliqlari fosh etiladi. Bu safar she'rda shoirning o'zi so'zlamaydi, balki boshqa bir kishi tilidan muallifning otiga ta'rif beriladi:

Ey afandi, saxt beraftor ekan bu otingiz,

Turfa, lekin, dog'uli, ayyor ekan bu otingiz<sup>3</sup>.

Turkumdagi keyingi she'r “Otim” deb nomlangan va ushbu she'r muallifning o'z tilidan bayon qilingan. Bu safar shoir qit'a janriga xos shakl, ya'ni qofiyalanishi b-a, c-a, d-a usulidan unumli foydalangan:

Yetmagaymankim, piyon bozorig'a,

Ertadin to kechgacha qilsam jadal<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Muqimiy. O'sha kitob. – B. 57.

<sup>2</sup> Muqimiy. O'sha kitob. – B. 70.

<sup>3</sup> Muqimiy. O'sha kitob. – B. 70.

<sup>4</sup> Muqimiy. O'sha kitob. – B. 67.

Milliy uygʻonish davrining yana bir shoiri Zavqiyning “Pashshalar” sarlavhasi ostida ikkita sheʼri mavjud boʻlib, ularning har ikkalasi ham hajviy-yumoristik sheʼr ekanligi, shoir tanlagan obyekt ham pashsha ekanligi, lirik qahramon shoirning oʻzi boʻlib, ushbu hashoratning qilmishlaridan ozurdajon boʻlganligi kabilar ushbu sheʼrlarning umumiy mazmunidir. Har ikkala sheʼrda ham gʻazalga xos qofiyalanish tartibi qoʻllanilgan. Xususan,

Kimga borib arz etaykim, dod, qoʻymas pashshalar,  
Oʻtkarur jabrini, yuz faryod, qoʻymas pashshalar.  
Piru murshidi bilan boshing uza gʻavgʻo qilib, Odam  
oʻgʻlin bir nafas dilshod qoʻymas pashshalar<sup>1</sup>.

Zavqiy ijodiga “Ot” turkumidagi “Oting” va “Otim” sarlavhalaridagi sheʼrlarida ham gʻazal janridan foydalangan:

Olgʻa yurmasdan Qaroqchiqunda qildi tangdil,  
Qorakash, xingi asov, har ishda xom, oʻlsun oting<sup>2</sup>,  
deganida birovdan olingan otning yomon qiliqlarini taʼriflash orqali hajviyaning mazmunini ochib beradi. Gʻazal maqtaʼsida esa:

Zavqiyga hamroz Muqimiy, Oʻsh kelib Mirzo Umar,  
Qori Akramjongʻa tanbehi mudom oʻlsun oting,  
deyish orqali bu hajviy sheʼrning Muqimiy bilan hamroz kishi yozayotganligini va Oʻsh yoʻliga sababchilarga bu sheʼr tanbeh boʻlib xizmat qilishini eslatib oʻtmoqda.

Zavqiy ijodida “Zamona” turkumiga “Dar mazammati zamona”, “Quloq soling, yoronlar”, “Sigʻmas mani hasratim...”, “Boʻl” kabi sheʼrlarni shartli ravishda kiritish mumkin. Chunki ushbu sheʼrlarda shoirning oʻzi yashayotgan zamondan shikoyat ohangi yetakchilik qiladi.

Sidqiy Xondayliqiy ijodidagi “Rabo(t)chiylar namoyishi” va “Rabo(t)chiylar kelishi”, “Sizlarga mujda” sheʼrlari bir turkumni tashkil etgan boʻlib, ular gʻazal, muxammas, savol-javobli muxammas shakllarida yaratilgan. “Rabo(t)chiylar namoyishi” sheʼrida:

Dema holing nechuk, sharhi bayonidin adashganman,  
Qarini dardu gʻam, shodi jahonidin adashganman<sup>3</sup>,  
deya mardikorlar holini bayon etgan boʻlsa, “Rabo(t)chiylar kelishi” sheʼri orqali ularning kelishini quyidagi shaklda ulugʻlaydi. Savol:

<sup>1</sup> Завкий. Ажаб замона. – Т.: Шарқ, 2003. – Б. 111.

<sup>2</sup> Zavqiy. Oʻsha kitob. – B. 112.

<sup>3</sup> Сидкий Хондайликий. Навбахор. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1984. – Б. 94.

Muncha muddatlarda qoldingiz qayon, xush keldingiz?  
Qaysi joyga bordingiz bermay nishon, xush keldingiz?  
Yig‘lamoqdin bo‘ldi ko‘zlar yoshi qon, xush keldingiz!  
G‘amda qad bo‘ldi duto, tan notavon, xush keldingiz!  
Emdi g‘amgin dil uyiga mehmon, xush keldingiz!

Javob:

Muncha muddatlarda biz ketduk urush maydoniga,  
Ba‘zimiz to‘p zovutiga, ba‘zimiz mis koniga.  
Po‘rma kiyduk, olduk o‘zni onda soldat soniga,  
Bo‘ynumiz sunduk bu zolim shohning farmoniga.  
Siz so‘rang bizdin deb: “Ey, zindoniyon, xush keldingiz!”<sup>1</sup>

Savol mazmunidan mardikorlikka olinganlarning hech qanday xat-xabarsiz, bedarak ketganliklarini, javobdan esa ularning Rossiya hududidagi urush maydonida, to‘p tayyorlaydigan zavodda og‘ir ishlarda va askarlikda bo‘lganliklarini, u yerlarda zindonda yashaganday hayot kechirganlarini, ya‘ni erklari o‘z qo‘llarida bo‘lmaganligini anglash mumkin.

Shoirning “Toza hurriyat” turkumi esa asosan g‘azal shaklidagi she‘rlardan iborat. Uning tarkibidagi “Saodatlu hurriyatimiz uchun tabrik”, “Hozirgi namoyishchi taraqqiyparvar yoshlarimiz haqida”, “Hoy” kabi she‘rlar ko‘p baytlik g‘azallar shaklida bo‘lsa, “Hurriyat iydigaga tabrik” she‘ri ko‘p bandlik g‘azallar yig‘masi shaklida ifodalangan. Ya‘ni, bir nechta besh baytlik g‘azallar va bir dona ikki baytlik bitik yig‘masidan tashkil topgan.

Abdulla Avloniy to‘plagan “Mardikorlar ashuvlasi” nomi ostidagi to‘rtta she‘r masnaviy va g‘azal shakllarida bitilgan. Bu turkumda 1916-yilgi mardikorlik voqealarini ifodalovchi “Bir mardikorning otasi o‘g‘liga aytgan so‘zlari”, “Onasining o‘g‘liga aytgan so‘zlari”, “O‘g‘lining onasiga aytgan so‘zlari”, “Xotuniga aytgan so‘zlari” kabi she‘rlar jamlangan. Bu she‘rlarda ona yurtdan uzoqda, shimolning qorli-muzli yerlariga, front orqasidagi qora xizmatga olib ketilgan yurt farzandlarinig xayrlashuv onlari, haqsizliklar yoritilgan. Bu she‘rlarning ohang va uslubi xalq qo‘shiqlariga o‘xshab ketsa-da, “Bir mardikorning otasi o‘g‘liga aytgan so‘zlari”, “Onasining o‘g‘liga aytgan so‘zlari” she‘rlari masnaviy shaklida, “O‘g‘lining onasiga aytgan so‘zlari”, “Xotuniga aytgan so‘zlari” kabi she‘rlar esa g‘azal janrida yaratilgan. Xususan, “Bir mardikorning otasi o‘g‘liga aytgan so‘zlari” she‘rida otaning o‘g‘lini kuzatish chog‘ida aytganlari bayon qilingan.

---

<sup>1</sup> Sidqiy Xondayliqiy. O‘sha kitob. – B. 96.

San ketarsan, man qolurman ko‘zlarim giryon bo‘lub,  
Bu judolig‘ otashig‘a o‘rtanib, biryon bo‘lub<sup>1</sup>.

“Onasining o‘g‘liga aytgan so‘zlari” she‘rida:

Jon bolam, jonim bolam, Oллоh sani yoring bo‘sun,  
Kecha-kunduz yo‘lda-cho‘lda Tangri g‘amxoring bo‘sun<sup>2</sup>.

“O‘g‘lining onasiga aytgan so‘zlari” she‘rida farzandning mushtipar onasiga xayrlashuv so‘zlari, unga bo‘lgan mehri bilan birgalikda izhor qilinmoqda:

Ey vujuding‘a sabab bo‘lgan mushfiq onam,  
Jismiming ruhi – hayoti, jovidonim sen eding<sup>3</sup>.

“Xotuniga aytgan so‘zlari” she‘rida mardikorlikka jo‘nayotgan yigitning xayrlashuv so‘zlari aks ettirilgan:

Yaxshi qol, ey munisi g‘amxo‘r, ko‘rsam-ko‘rmasam,  
Ey ko‘zumning nuri puranvor, ko‘rsam-ko‘rmasam<sup>4</sup>.

Ko‘rinadiki, mardikorlik mavzusi Avloniy she‘riyatida alohida ahamiyat kasb etgan. Bundan tashqari, Avloniyning “Millat holindan bir ya’s”, “O‘z millatimdan rijoyi ojizonam”, “Turkiston tufrog‘indan bir sado”, “Turkiston tufrog‘iga xitob”, “Maktab” (ikki she‘r), “Maorif nadur”, “O‘z maishatimizdan”, “Maishatimizdan bir manzara” kabi qator she‘rlari ham kichik-kichik ma‘rifiy mazmundagi turkumlarni tashkil etgan. Ularning hammasi deyarli bir xil mazmunda bo‘lib, Turkistonning rivojlanishdan orqada qolgan holatini ko‘rsatish, o‘z millati farzandlarini ma‘rifat orqali Vatan ravnaqi uchun o‘z hissalarini qo‘shishga da‘vat etishdan iborat.

Hamza Hakimzoda Niyoziy she‘riyatida “Mardikorlik she‘rlari” (“Sog‘inib”, “Salom ayting”) turkumi barmoq tizimidagi to‘rtlik va ikkilik shakllarida yaratilgan. Hamzaning “Sog‘inib” she‘ri murabba‘ shaklida qofiyalangan. Qofiyalanish tartibi ham a-a-a-b, d-d-d-b shaklida.

Qattiq tegma menga muncha yuzboshim,  
Oquzma ko‘p g‘amim uzra ko‘z yoshim,  
Yurak-bag‘rim o‘zi hadsiz ezilgan,  
Yurtu vatan, ellarimni sog‘inib<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Abdulla Avloniy. Saylanma. /Jadid adabiyoti namoyondalari seriyasidan. – T.: Zabarjad Mediya, 2022. – B. 162.

<sup>2</sup> Abdulla Avloniy. O‘sha kitob. – B. 162.

<sup>3</sup> Abdulla Avloniy. O‘sha kitob. – B. 163.

<sup>4</sup> Abdulla Avloniy. O‘sha kitob. – B. 164.

<sup>5</sup> Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Танланган асарлар. 1-том. – Т.: Ўзбекистон давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1958. – Б. 50.

“Salom ayting” she’rida o‘z mahallasidan bo‘lgan bir kishini uyiga kuzatib qo‘yayotgan yigit nomidan aytilgan bo‘lib, unda yigitning o‘z Vatani va oilasiga bo‘lgan kuchli sog‘inchi aks ettirilgan:

Og‘a, sog‘ borsangiz, avval  
Dadamlarga salom ayting.  
Yugurib chiqqan ul mushfiq  
Onamlarga salom ayting<sup>1</sup>.

Hamzaning bu she’ridagi shakl qit’alardagi kabi qofiyalanish tartibi va tashqi tuzilmasini esga soladi. Bundagi birinchi besh bayt bir xil qofiyalangan bo‘lsa, qolgan bandlarning oxirgi bandi birinchi bandniki singari qofiyalanishda davom etgan. Ya’ni a-b-a-b-a-b-a-b-a-b, d-d-d-d-d-d-d-d-a-b shaklida. Bu qit’ali tarkibband deyiladigan yangicha shaklni yuzaga keltirgan.

Usmon Nosirning “Nil va Rim” asarida 14 qatorlik shakldan foydalanilgan. Chunki she’rdagi oltita qismning barchasi masnaviyga xos qofiyalanish tartibi bo‘lgan a-a, b-b, d-d, e-e, f-f, g-g, h-h shakldan foydalanib yaratilgan. Bunday qofiyalanish tartibi oson shakl bo‘lib, bundan yirik asarlarni yaratishda foydalanishgan.

Abdurauf Fitrat o‘zining “Yurt qayg‘usi” nomli turkumini sochma she’r shaklida “Yurt qayg‘usi”, “Bir o‘zbek tilidan”, “Temur oldinda” kabi qismlardan iborat qilib shakllantirgan. She’rlarda jadidlarga xos ona Vatanning ulug‘ o‘tmishini eslab, uning kelajagi haqida qayg‘urish aks etgan:

Ey Ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi!  
Senga ne bo‘ldi? Holing qalaydir?  
Nechuk kunlarga qolding?  
Ey Chingizlarning, Temurlarning, O‘g‘uzlarning, Atillalarning  
shonli beshiklari!  
Qani, u chiqdig‘ing yuksak o‘rinlar?  
Qullik chuqurlarig‘a nedan tushding?  
Dunyoni “urho”lari bilan titratkan yo‘lbars yurakli bolalaring  
qani?<sup>2</sup>

Fitrat ijodidagi ushbu turkum she’rlar sarbastda ham turkum yaratish mumkinligini tajriba sifatida isbotlagan namunalardan biridir.

Cho‘lpon ijodidagi “Tabiat kitobidan” deb nomlangan kichik turkum “Birinchi bet” va “Ikkinchi bet” kabi qismlardan iborat.”

<sup>1</sup> Hamza Hakimzoda Niyoziy. O‘sha kitob. – B. 51.

<sup>2</sup> Abdurauf Fitrat. Saylanma. /Jadid adabiyoti namoyandalari seriyasidan. – T.: Zabarjad Mediya, 2022. – B. 32.

Cho‘lponning “Nil qizi” kichik turkumidagi ikkita she‘r ham xuddi shu tarzda qarshilantirish orqali ikki xil tasvirdan foydalanib yaratilgan. “Birinci qo‘shiq” nomli ilk she‘rda Falloh qizining yoshlikdagi baxtiyorligi va keyinchalik sevganidan ayrilgandan so‘nggi baxtsizlik holati, undan keyin “Ikkinchi qo‘shiq”da esa erkidan ayrilgan, mehnatidan baxt topa olmagan baxtiqaro sifatida aks ettiriladi. She‘rlarning biri barmoq tizimidagi to‘rtlik bandda, ikkinchisi shu tizimdagi ikkilik banddan foydalanib shakllantirilgan.

XX asr 30-yillaridan keyin o‘zbek she‘riyatida shakllantirilgan she‘riy turkumlarni tom ma‘nodagi turkumlar deyish mumkin. Shu sababli turkumlilik bo‘yicha tadqiqotlarning aksari mana shu davr mahsullari bo‘lgan durdona asarlar misolida olib borilgan.

Bu davrdagi yirik ijodkorlardan biri bo‘lgan Oybek qalamiga mansub “Chimyon daftari” turkumi alohida tadqiq obyektini bo‘lib kelgan asarlardandir.

“Oybekning 1936-yili yozilgan “Chimyon daftari” turkumini tashkil etgan she‘rlarida Oybek, Cho‘lpondan keyin, barmoq vaznining aruz singari, hatto aruzga nisbatan ham katta badiiy imkoniyatlarga ega ekanini isbotlab berdi. U o‘zbek she‘rining musiqiy-ritmik ohanglarini boyitib, nafis tashbehtar bilan bezangan tiliga yanada sayqal berdi”<sup>1</sup>. Akademik Naim Karimovning mazkur so‘zlaridan asarga munosabat juda yuqori bo‘lganligini anglash mumkin.

Turkum tarkibidagi “Chimyonda bir kecha”, “Go‘zal Chimyon”, “Pushkin”, “Tog‘ sayri”, “Yulduzlar chaman-chaman”, “Deydilarki, she‘r – yulduz kiprigi”, “Ko‘nglimda yashaydi ikki yoqimtoy”, “Bo‘sh kunim bog‘ma-bog‘ kezaman”, “Yulduzlarning ro‘yosini”, “Oltin sepkilli qopqora kecha”, “Bir kunlik kezishdan” kabilar tabiat va ruhiyat hamohangligidagi ko‘ngil kechinmalari aks ettirilgan she‘rlar jamlanmasidir. “Bir kunlik kezishdan” she‘rida shoirning vatan go‘zalliklaridan hayrati barmoq tizimidagi peyzaj lirikasi namunasi bo‘lgan she‘r orqali aks ettirilgan:

Yurdim, oshdim/ tepalardan//8

Toshlardan,/ jardan...//5

Qanday zangin,/ rangdor, porloq, //8

Go‘zaldir/ Vatan!<sup>2</sup>//5

Ushbu she‘rga shoir qo‘shma vazni tanlagan. Turoqlanish tartibi: toq satrlarda 4+4=8, juft misralarda 3+2=5 shaklida. Oybekning

<sup>1</sup> <https://www.facebook.com/groups/pg2/naim-karimov/oybek-cho-qqisi/20.03.2020>

<sup>2</sup> Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. – Т.: Фан, 1975. – Б. 22.

“Chimyonda bir kecha” she’ridagi quyidagi satrlarga e’tibor qaratsak, u ham barmoq tizimining to’rt qatorlik band turida yaratilganligini ko’ramiz.

Bir lahzada/ tunni yirtaroq//9  
Asabiy chir/pinar samoda//9  
Otash ilon/ singari chaqmoq...//9  
Kiydiradi/ tog’larga hola<sup>1</sup>//9

Bu she’ning turoqlanish tartibi: 4+5=9 shaklida. “Go’zal Chimyon” she’rida ham shoir 4+4=8 turoqlanish tartibidan foydalangan:

Go’zal Chimyon,/ xayr, xayr!//8  
Yurdim qancha/ erkin, quvnoq, //8  
Qanday sevdim/ seni qalban, //8  
Kunlar kechdi/ go’zal, nodir<sup>2</sup>//8

She’rda yuqorida ham ta’kidlaganimizdek, barmoq tizimidagi to’rtlik bandlardan foydalanilgan. Qofiyalanish tartibi esa an’anaviy shakllardan farqli o’laroq birinchi bandda a-b-b-a, keyingi bandda ham d-e-d-e shaklida ifodalangan. Turkumdagi “Pushkin” she’rida Oybek barmoq tizimidagi boshqa bir turoqlanish tartibi, ya’ni 6+5=11 tartibidan foydalangan.

Oltin misralarga/ naqshlangan fikr, //11  
Qalbing quyoshidan/ quyulgan tuyg’u – //11  
So’nmaydi, ey shoir,/ o’tsa yuz asr, //11  
Haykaling singari/ chidamli, tunj u<sup>3</sup>//11

Umuman, “Chimyon daftari” turkumidagi she’rlar shoirning g’oyaviy maqsadiga ko’ra turli turoqlanish tartiblaridan foydalangan holda bitilgan. Oybek ushbu turkumdagi she’rlarda har bir tasvirni aniq bo’yoqlar bilan chizgan. Shoirning har bir so’zi, rassomning bo’yoqlari kabi manzaralarni aniq gavdalantirib bergan.

Mirtemir ijodida “Qoraqalpoq daftari”<sup>4</sup> va “Qirg’iz she’rlari” kabi turkumlar mavjud. Shoirning “Qoraqalpoq daftari” she’rlar turkumi o’zbek she’riyatining 60-yillardagi yutug’i bo’lgani ko’pchilik tomonidan e’tirof etilgan. Ushbu turkum tarkibida yigirmata she’r mavjud bo’lib, ulardan “Daryo jimir-jimir, osmon lojuvard”, “Amu qirg’oqlari”, “Ertagi kun”, “Askar estaligidan”, “Olim”, “Ko’l bo’yida”, “Amu balig’i”, “Kegaylidan”, “Yangajon”, “Qorasoch”, “Bulut”, “Suluv yoz” kabi

<sup>1</sup> Oybek. O’sha kitob. – B. 32.

<sup>2</sup> Oybek. O’sha kitob. – B. 33.

<sup>3</sup> Oybek. O’sha kitob. – B. 38.

<sup>4</sup> Миртемир. Асарлар. 4 жилдлик. 3-жилд. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 68.

she'rlar shoirning bu o'lkaga qilgan safari taassurotlari sifatida shakllantirilgan.

Mirtemirning "Qoraqalpoq daftari" she'rlar turkumi tarkibidagi "Daryo jimir-jimir, osmon lojuvard" deb boshlanuvchi she'rida shoir Amudaryo tasviring o'ziga xos manzarasini yaratadi:

Daryo jimir-jimir,/ osmon lojuvard,//11  
Bog'lar mudramoqda,/ dala bepoyon,//11  
Kuyla, to'lib-toshib,/ ko'rmagin hech dard,//11  
Kuylasang balqiydi/ zaminu zamon;//11  
Bog'lar mudramoqda,/ dala bepoyon<sup>1</sup>//11

Shoir ushbu she'rni barmoq tizimidagi besh misralik band turidan va  $6+5=11$  turoqlanish tartibidan foydalanib yaratgan.

Ko'rinadiki, she'rda Amudaryo bo'ylarining so'lim tabiati shoir tomonidan yuksak darajada tasvirlangan. Fusunkor tabiat lavhalari atroflicha aks ettirilgan. Turkumdagi yana bir "Askar esdaligidan" deb nomlangan she'r ikki qismdan iborat bo'lib, ushbu she'r qo'shma vaznda yozilgan. She'rning turoqlanish tartibi toq misralarda  $4+3=7$ , juft misralarda esa  $3+2=5$  tartibida shakllantirilganligini ko'rish mumkin.

Olis, suvsiz/ cho'llarda//7  
Yuz bor a/dashdim://5  
Xoli, so'qmoq/ yo'llarda//7  
Ovulga/ shoshdim<sup>2</sup>//5

Ushbu turkumdagi she'rlarning aksari 5, 7, 9, 11 bo'g'inli ekani, ularning xalqonaligi, sodda va ravon tilda, xalq baxshilarining uslubiga yaqin uslubda yaratilganligini dalolatlaydi.

Shoirning "Qirg'iz she'rlari" turkumiga kiruvchi "Men seni...", "Chag'alay", "Qirg'iziston", "Qirg'iz xalqiga", "Bovurdoshlik" kabi o'n bir she'ri kiritilgan. Ushbu she'rlarning aksari qardosh qirg'iz xalqining o'ziga xos urf-odatlar va xalqlar o'rtasidagi mushtaraklik xislatlari tarannumiga bag'ishlangan.

Shoir Shuhratning "Jangchi bloknoti", "Kavkaz daftari", "Dunay sohillari", "Odamlar va obidalar" turkumlari alohida ahamiyat kasb etadi. Uning "Jangchi bloknoti" turkumiga "Sening albomingga", "Gul", "Ukrain qiziga", "Jangchi qabri", "Men tirik!", "Umid uzmadim", "Balki" kabi o'n uch she'r kiritilgan.

<sup>1</sup> Миртемир. Асарлар. 4 жилдлик. 3-жилд. – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 68.

<sup>2</sup> Миртемир. О'sha kitob. – В.75.



“Kavkaz daftari” turkumiga esa “Va’daga shoshgandek”, “Boku”, “Samad Vurg‘unga”, “Jim turing, hoy yellar”, “Armani raqqosasi”, “Esdalik xanjar”, “Tbilisi”, “Kazbek”, “Tamara qal’asi”, “Xotira chashmasi”, “Kavkaz go‘zali”, “Dengiz yo‘li”, “Burgut”, “Kavkaz bahori”, “Aragva qirg‘og‘ida”, “Yaxshi qoling” kabi o‘ttiz to‘rtta she’r kiritilgan.

Shoirning “Dunay sohillari” turkumiga “Nimadir demoqchi bo‘lganding”, “Yaxshi qol, ona yer!”, “Praga”, “Tank № 23”, “Bir siqim tuproq”, “Chex shishasi”, “Noma’lum soldat qabri”, “Dunayda tong kutdim”, “Gullar”, “Yo‘qolgan qabr”, “Venaning xayrlashuvi”, “Major qiziga deganim”, “Daryoga iltimos”, “Vatanga qaytish” kabi yigirma olti she’ri keltirilgan.

Shuhratning “Odamlar va obidalar” turkumida “Turist”, “Gilza”, “Buxoro go‘zali”, “O‘lim minorasi”, “Zarafshon” kabi yetti she’ri jamlangan bo‘lib, turkumlar ichida eng kichigidir.

“Jangchi bloknoti” turkumining umumiy lirik qahramoni sarlavhasidan ham ma’lum bo‘layotgan jangchi bo‘lib, undagi ilk she’r urushga ketayotgan yigitning o‘z sevgilisiga murojaati shaklidagi “Sening albomingga” she’ri bilan boshlangan:

Bir tikanni/ ko‘r madim ravo, //9  
Dardlaringga/ bo‘ldim qayg‘udosh; //9  
Jangga ketsam,/ baxting qo‘riqlab, //9  
Hijronimga/ berasanmi dosh?<sup>1</sup>//9

She’r barmoq tizimida yozilgan bo‘lib, uning qofiyalanish tartibi a-b-a-b, d-e-d-e tarzidadir. Turoqlanish tartibi esa 4+5=9 shaklidadir. “Ukrain qiziga” she’rida lirik qahramon xaloskor jangchi sifatida namoyon bo‘ladi:

U mahal o‘zingni/ qiynama, nigor, //11  
Mungli kuylamasin/ qalbingning tori, //11  
Yetarmi, ismimsiz/ demaging takror: //11  
“Xaloskor yigitim,/ o‘zbek shunqori!”<sup>2</sup>//11

Ko‘rinadiki, ushbu she’rda ham turoqlanish tartibi 6+5=11 tartibida an’anaviy tarzda shakllantirilgan. “Balki” she’rida shoir:

Jangovar-yillarning/ ertagi uzun, //11  
Har o‘qning uchishi/ o‘zi bir doston. //11  
So‘rama, qo‘y. Erkam,/ o‘yla kelgusin. //11  
Qo‘y, ko‘zin yashnatsin/ istiqbol – bo‘ston<sup>3</sup>. //11

<sup>1</sup> Shuhrat. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. 1-jild. – T.: Faqur Fulom nomiдаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – B. 288.

<sup>2</sup> Shuhrat. O‘sha kitob. – B. 289.

<sup>3</sup> Shuhrat. O‘sha kitob. – B. 293.

deyishi orqali jangchi daftari turkumiga yakun yasaydi. Ushbu turkumdagi she'rlarning aksari bir xil turoqlanish tartibiga egaligi ulardagi lirik qahramon bo'lgan jangchi kayfiyatini izohlaydi.

“Kavkaz daftari” turkumidagi “Va'daga shoshgandek” nomli she'ri shoirning o'z umr yo'ldoshiga bag'ishlab yozilgan. Unda turmush o'rtog'ini Kavkaz safariga kuzatgan ayolga maktub mazmuni anglashiladi:

Kuzatding,/men ketdim/ uzoq safarga,//11  
Ko'zingda/-yiltillab/ qoldi hijron – yosh.//11  
Xayolan/ o'zingni/ otma g'am – jarga, //11  
O, umr/ yo'ldoshim,/ mehri bir quyosh!<sup>1</sup>//11

Ushbu she'rda shoir 3+3+5=11 shaklidagi turoqlanish tartibidan foydalangan. Turkumdagi “Koshki yana adashsam...” she'ri qo'shma vaznda yozilgan bo'lib, toq misralari 4+4=8 bo'g'inli, juft misralari 2+3=5 bo'g'inli turoqlar qo'llanilgan.

Tog'da yurib,/ chechak terib//8  
Birdan/ adashdim/. 5  
O'z izimga/ tushmoq bo'lib//8  
Necha/ tog' oshdim//. 5

Turkumdagi “Kavkaz go'zali” she'ri 4+5=9 shaklidagi turoqlanish tartibiga ega. Undagi mazmun aynan mana shu tartibni talab etgan. Ya'ni she'r mazmuni kavkazlik go'zal qizga murojaat va uni so'roqlash orqali qizning go'zalligini ta'rif etishdan iborat.

Daralarda/ sharqirab oqqan//9  
Suvlaringmi,/ buloqlaringmi?//9  
Yo bo'saga/ intizor boqqan//9  
Qo'shiq aytgan/ dudoqlaringmi?<sup>2</sup> //9

Ushbu turkumdagi “Yaxshi qoling...” she'riga shoir xalq og'zaki ijodidagi qahramonlarning tezkor harakatlarini aks ettiruvchi turoqlanish tartibidan foydalangan. Ya'ni 4+3=7 tartibi lirik qahramonning safar nihoyasidagi hissiyotlarinig ifodasi uchun xizmat qilgan.

Yaxshi qoling/ zo'r tog'lar, //7  
Oyna ko'zli/ buloqlar. //7  
Yaxshi qoling,/ irmoqlar, //7  
Tegrasi gul/-gulbog'lar<sup>3</sup>. //7

<sup>1</sup> Shuhrat. O'sha kitob. – B. 294.

<sup>2</sup> Shuhrat. O'sha kitob. – B. 298.

<sup>3</sup> Shuhrat. O'sha kitob. – B. 333.

Turkumdagi aksar she'rlar o'n bir bo'g'inli vaznda shakllantirilganligi Shuhratning Kavkaz safari taassurotlari ifodasi uchun shoir tomonidan tanlangan qulay shakl hisoblangan. Shoirning yuksak badiiy mahorat sohibi ekanligi she'rlarda qo'llanilgan badiiyat unsurlaridan anglashiladi.

Shuhratning "Dunay sohillari" turkumidagi "Nimadir demoqchi bo'lganding" she'ri xuddi "Kavkaz daftari" turkumidagi birinchi she'r kabi shoirning o'z rafiqasiga murojaati, u bilan xayrlashuvi sifatida shakllantirilgan. Har ikkalasida ham ko'zda yoshi bilan turmusho'rtog'ini olis yurtlarga safarga kuzatayotgan ayolning xavotirigayupanch tarzidagi mazmuni kasb etgan.

Turkumdagi keyingi she'rlardan biri "Praga" deb nomlangan bo'lib, ushbu she'rda lirik qahramon bo'lgan shoir o'z safarining ilk taassurotlarini aks ettirgan. Bunda ko'hna Praga shahrining ta'rifi keltiriladi:

Praga,/ men seni/ bilaman yaxshi,//11  
Ta'rifing/ shahrimga/ borib yetgandir.//11  
Bu keksa/ jamoling/ husni va naqshi//11  
Bir yaxshi/ qo'shiqday/ elni tutgandir<sup>1</sup>. //11

Ushbu she'rda shoir 3+3+5=11 shaklidagi turoqlanish tartibidan foydalangan. Turkumdagi "Chex qiziga" deb nomlangan she'rda shoir o'zining aksar she'rlarida mavjud bo'lgan usulini qo'llagan, ya'ni ushbu she'rda syujet tasviri mavjud. Unda bir chex qizining choy nima ekanligini tushunmasdan "timsiyoh" qahva keltirganligi va o'z yurtidagi qadrdon go'shalar va choyni sog'ingan lirik qahramonning chex qizni o'z yurtiga taklif qilib o'z o'lkasi choyini bir ichib ko'rishga da'vat qilishi aks ettirilgan.

Turkumdagi "Bir siqim tuproq" she'rida ham o'ziga yarasha syujet mavjud bo'lib, unda muzeyda oyna ostiga qo'yilgan bir siqim tuproqqa uni ko'rgan har kishining har xil munosabati aks ettirilgan:

Goh uni/ ko'rganlar/ ko'zda yosh bilan//11  
O'pkasin/ tutolmay/ xomush o'tadi.//11  
Goh uni/ ko'rganlar/ qalbda tosh bilan//11  
Qo'llari/ tugilib/ bir musht o'tadi<sup>2</sup>.//11

Ya'ni tuproq Vatanning ramzi, shu ma'noda tuproqni ko'rgan kishilar uni ko'tarib yurgan jangchining albatta musofir ekanligini va halok bo'lgan

<sup>1</sup> Шухрат. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 1-жилд. – Т.: Гафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б. 339.

<sup>2</sup> Shuhrat. O'sha kitob. – B. 344.

ekanligini anglaganidan xomush o‘tadi, boshqalar esa urushni boshlagan va ko‘plab insonlarning boshiga yetgan mal’unlarga nisbatan o‘z nafratini bayon qiladi. Bu she’rda ham shoir o‘n birlik turoqlanish tartibidan foydalangan.

Shuhratning “Dunay sohillari” turkumidagi she’rlariga shoirning yana o‘nta alohida shakldagi ruboiylari kiritilgan. Bizga ma’lumki, ruboiy mumtoz adabiyotimizning hazaj bahrining axram va axrab shajaralaridagina yoziladigan janr hisoblanadi. Shuhrat yozgan ruboiylar aruz vaznida emas, barmoq vaznida bitilgan va qofiyalanish tartibi ruboiynikiga o‘xshab ketadi, xolos.

Budasi tepada,/ Pesht esa pastda, //11

Ikkisi qosh kabi/ tutash payvasta. //11

Dunayda tashlangan/ azamat ko‘m-ko‘k //11

Ko‘prigi bandiyu,/ pesht bir guldasta<sup>1</sup>. //11

She’rning turoqlanish tartibi  $6+5=11$  shaklidir. Demak, bu she’rlar barmoq tizimidagi to‘rtliklar ekan.

Shoirning yana bir turkumi “Odamlar va obidalar” deb nomlanadi. Ushbu turkumning ikkinchi nomi Buxoro turkumi bo‘lib, unga Buxorodagi qadimiy yodgorliklar tavsifi va o‘tmishga nigoh mazmuni yetakchilik qiladi. Turkumdagi “Buxoro go‘zali” nomli she’r besh misralik band shaklidan foydalanib yaratilgan bo‘lib, undagi mazmun Buxoro yurtining go‘zal qizi tavsifiga bag‘ishlanganligida ko‘rinadi.

Sharqimiz shoiri tilga olganday //11

Husningdan bir nuqson/ topmoqlik mahol. //11

Lab degan. La’lidan/ quyib solganday, //11

Ko‘rkingning gavhari/ – labing uzra xol, //11

Ko‘zlarni yondirib,/ deydi: – Qochib qol!<sup>2</sup> //11

Ushbu she’rda ham shoir  $6+5=11$  tartibidagi turoqlanishdan foydalangan. Turkumning so‘ngidagi “Yantoq” she’rining ham turoqlanish tartibi yuqoridagi yo‘sinda. Ushbu she’r olti qatordan iborat. Bunday hajmning tanlanishi undagi mazmunga mos kelgan. Chunki she’rda yantoqning ildizi yigirma metrga yetsa-da, u hech qachon chinor yoki archa bo‘la olmasligi fikri aks ettiriladi.

Xullas, Shuhrat qalamiga mansub “Jangchi bloknoti” turkumi uning jang maydonidagi kechmishlari tavsifiga bag‘ishlangan she’rlarni qamrab olgan bo‘lsa, “Kavkaz daftari”, “Dunay sohillari” turkumlari esa shoirning mana shu o‘lkalarga qilgan safarlari taassurotlari sifatida

<sup>1</sup> Shuhrat. O‘sha kitob. – B. 61.

<sup>2</sup> Shuhrat . O‘sha kitob. – B. 376.

shakllantirilgan. “Odamlar va obidalar” turkumida esa ijodkor qadimiy Buxoroning koʻhna yodgorliklari aks ettirilgan.

Zulfiyaning “Aziz tuygʻular” nomli turkumi mavjud boʻlib, unda “Bahor boʻlmasaydi”, “Nevara”, “Majnuntol”, “Nazdimda”, “Bogʻlar qiygʻos gulda”, “Orzu”, “Bagʻringdan qoʻyma” kabi yettita sheʻr oʻrin olgan. Ushbu sheʻrlarning misralar miqdori bir xil, yaʼni hammasi 18 qatordan qilib shakllantirilgan. Ular toʻrtta toʻrt misralik va bitta ikki misralik band shakllarida boʻlib, oxirida kelayotgan ikki qator sheʻr tasvirning mazmuniy xulosasi sifatida kelgan. Bunday qurilma qatʼiy tizimli sonetni eslatsa-da, lekin misralar miqdori oʻn sakkizta ekani bu janrga aloqadorlikni inkor qiladi. Sheʻrlarning qofiyalanishi ham oʻziga xos boʻlib, a-b-a-b, d-e-d-e, f-g-f-g, h-i-h-i, j-j shaklida amalga oshirilgan. Eng qizigʻi, turkum tarkibidagi yetti sheʻrning barchasining oxirgi ikki qatori bir xil qofiyalanish tartibiga ega. Ushbu ikki qatorliklarning birinchi qatoridagi birgina tushuncha oʻz sheʻriga moslab almashtirilgan, ikkinchi misrasi esa aynan takrorlangan. Bu shakl mumtoz adabiyotimizdagi tarjiʼbandni eslatadi:

Bahor boʻlmasaydi,/ odamzod albat,//11

Oʻzi kashf etardi,/ kashf etganday baxt...//11

Yoki

Nevara boʻlmasa,/ odamzod albat,//11

Oʻzi kashf etardi,/ kashf etganday baxt<sup>1</sup>. //11

Erkin Vohidovning “Donishqishloq latifalari”, “Kanada turkumi”, “Kavkaz sheʻrlari” kabi turkumlari mavjud. “Donishqishloq latifalari” turkumi qator ilmiy ishlarda alohida tadqiq etilgani uchun unga toʻxtalib oʻtirmaymiz.

“Kavkaz sheʻrlari” turkumini “Yelkan”, “Ararat choʻqqisiga”, “Azganush”, “Ayrilish”, “Fuzuliy haykali qoshida”, “Xayrlashuv” sheʻrlari tashkil etadi.

Erkin Vohidovning “Kanada turkumi” tarkibidagi sheʻrlarga “Kalgarida soat oʻn ikki”, “Auksion”, “Arslon oʻrgatuvchi”, “Koʻcha chetidagi ayol” kabi sheʻrlarini kiritish mumkin. Shoir ushbu sheʻrlarda ham barmoq, ham erkin vazndan aralash foydalangan.

- Ojiz odam!!

Bas, boshimdan qamchi oʻynatma! ... Bor!

Olovdan sakramasman!

Boʻlma ovora!

---

<sup>1</sup> Зулфия. Асарлар. 3 жилдлик. 1-жилд. – Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б. 365.

Bilasanmi –

Men kimmanu sen kim, bechora!<sup>1</sup>

Abdulla Oripovning “Haj daftari” va “Hikmat sadolari” keyinchalik yozilgan “Ranglar va ohanglar” turkumlari ham barmoq tizimidagi she’rlar jamlanmasi hisoblanadi. “Ranglar va ohanglar” turkumi uchun shoir xuddi Dante Aligerining “Ilohiy komediyasi”dagi singari uchlik band shaklini tanlagan.

Oq dengizdan/ oq shamollar/ essalar, //11

Qizilidan/ kelsa alvon/ shabboda, //11

Qora dengiz/dan-chi, tim qo/ra nasim<sup>2</sup>. //11

She’rlarning turoqlanish tarzi barmoq tizimidagi 4+4+3=11 tartibida amalga oshirilgan.

Rauf Parfi qalamiga mansub sonet janridagi she’rlar jamlangan turkumlarning qofiyalanish tartibi ham, turoqlanish tizimi ham sonetlarga xos tarzda shakllantirilgan. Faxriorning “Nomozshomgul” va “Sensizlik” turkumlari, Abdulla Sher ijodidagi “Sevgi olmoshi” va Mirpo‘lat Mirzo ijodidagi “Onajon” sonetlar turkumlari haqida ham xuddi shu fikrlarni aytish mumkin.

Mirpo‘lat Mirzoning “Onajon” turkumidagi sonetlarda ona obrazi o‘ziga xos tarzda yaratilgan bo‘lib, turkum mazmunidan bu siymosiga topinish g‘oyasi ilgari surilganligi anglashiladi. Bunday mavzudagi sonet namunasi Rauf Parfi she’riyatida ham mavjud bo‘lib, ushbu turkum “U dunyoga onamga maktub” deya nomlangan. Turkumda uchta sonet jamlangan bo‘lib, ushbu sonetlar yadro vazifasini o‘tovchi asosiy g‘oyaga bo‘ysundirilgan. Ya’ni onaning buyuk mehri va qadri tavsiflangan. Xuddi mana shu maqsadning mushtarakligi “Onajon” turkumining ham yadrosini tashkil etadi. Bu turkumda sonetlar ham yagona maqsadga bo‘ysundirilgan. Uning mazmunidan mushfiq hilqat bo‘lgan Onaga nisbatan yuksak ehtirom kuzatiladi.

Ilk sonetda lirik qahramon bo‘lgan farzandning onani yod etmay yashagan kunini yashalmagan kun deya hisoblashga da’vatini ilg‘ash mumkin. Bu fikr sonet qulfida aniq bayon etilgan.

Onajon, yashadim demam men mutloq

Sizni yod etmayin o‘tkargan kunni<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Эркин Воҳидов. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2016. – Б. 293.

<sup>2</sup> Абдулла Орипов. Ранглар ва оҳанглар. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2012. – Б. 94.

<sup>3</sup> Мирпўлат Мирзо. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2004. – Б. 83.

Demak, lirik qahramon bo‘lgan farzand Ona vafotidan so‘ng bu mavzuga qo‘l urmoqda va onaning qadriga yetib, uning mehr quyoshi taftini endi qo‘msamoqda. Har bir daqiqa har bir on uning yodi bilan o‘tayotganiga ishora qilmoqda.

Sonet qulfi bo‘lgan distixda esa shoir lirik qahramon bo‘lgan farzand uchun ona barhayot ekanligi haqidagi xulosa fikr bayoni bilan turkumga yakun yasagan.

Men uchun yo‘q bo‘lib ketmassiz zinhor,  
Qo‘llaysiz har ishda bo‘lib madadkor<sup>1</sup>.

Turkumlarning o‘ziga xos jihatlaridan biri unda kompozitsion yaxlitlik ham shaklga, ham mazmunga taalluqli bo‘lishidir. M.Mirzoning “Onajon” turkumida ham aynan o‘sha kompozitsion yaxlitlik farzand kechinmalari tavsifi orqali bayon qilingan. Ushbu sonetlar turkumida she‘rlar yakka holda sonetning spetsifik talablariga o‘ziga xos tarzda javob beradi. Lekin sonetlar badiiyatini ta‘minlash borasida kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yilgan. Xususan, sonetlarda muallifning oila muhiti ifodasi lirik qahramonning kechinmalari tasviridan ustunlik qilgan o‘rinlar mavjud. Shoir shaxsiyatidan she‘riyatni ayri tasavvur qilib bo‘lmasligini hisobga olganda, ushbu o‘ziga xos turkumni shakliyl izlanishlar yo‘lidagi muvaffaqiyatli tajriba deya hisoblashga asos bor.

Sonetlar turkumlarining mohiyati ularda shoir kechinmalarining izchil va o‘ziga xos ketma-ketlikda bayon qilinishi imkoniyati kengligida, muallif o‘y-fikri, mavzudan kelib chiqqan holda jarangdor tarzda bayon qilinishida. “Onajon” turkumi onalarga bag‘ishlangan muvaffaqiyatli asarlardan biri sifatida baholanishga arziydigan jihatlariga ega asardir.

Usmon Azimning “Turmush suratlari”, “Tazarru bog‘lari”, “Bolalikdan ikki xotira”, “Sevgi haqida”, “Yana sevgi haqida she‘rlar”, “Chapani yoki jaydari she‘rlar”, “Xamsa”ga tatabbu”, “Ko‘ngil”, “Erk haqida she‘rlar” kabi turkumlari ham barmoq tizimidagi turkum she‘rlardir.

Shoir Bahrom Ro‘zimuhammadning “Xatlar”, “Navoiyga tatabbu” kabi turkumlari sərbastdan foydalanib yozilgan. Farida Afro‘zning “Tasbehlar” turkumi tarkibida yettita o‘ttiz uchta uchlik o‘rin olgan. Taniqli shoir O‘tkir Rahmatning “Manzaralar” nomli turkumi to‘rtliklardan tashkil topgan bo‘lsa, “Tungi mashqlar” to‘rtlik, sakkizlik, o‘n ikkilik shaklidagi she‘rlardan, “Bog‘ suvratlari” turkumi esa faqat sakkizliklardan tashkil topgan.

---

<sup>1</sup> Mirpo‘lat Mirzo. O‘sha kitob. – B. 96.

Xulosa qilib aytganda, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” va Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asarlari tarkibidagi to‘rtliklar ilk shartli turkumlar deyish mumkin. Alisher Navoiyning “Sittai zaruriya” va “Fusuli arbaa” nomli asarlari qasidalar turkumlari bo‘lsa, Ogahiy majmualari masnaviylar turkumidir. Milliy uyg‘onish davri turkumlari turli janr va shakllarda yaratilgan. Jadid adabiyoti vakillari o‘z turkumlariga barmoq tizimidagi an‘anaviy shakllar tanlanganligi kuzatildi. XX asr o‘zbek adabiyotida Oybek, Mirtemir, Shuhrat, Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov yaratgan turkumlari original turkumlar bo‘lib, ular ham barmoq tizimidagi she‘rlar jamlanmasi hisoblanadi.

Umuman, o‘zbek she‘riyatida turkumlilik shakl va mazmun jihatdan takomillashgan va bu dialektik aloqa asarlarning badiiy barkamolligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan.

### **3. Turkumlar tarkibidagi she‘rlarga xos xususiyatlar va badiiy g‘oya ifodasi**

She‘rlar turkumi muallifga muayyan mavzuning turli qirralarini ochib berish imkonini beradigan o‘ziga xos poetik shakl hisoblanadi. She‘riy turkumlar yaxlit bir tizim sifatida ko‘riladi. Bunday yaxlitlik uni tashkil etuvchi asarlarning o‘zaro ta‘siridan kelib chiqadi. Turkum she‘rlar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik ularni hosil qiluvchi unsurlar tomonidan amalga oshiriladi. “She‘riy turkum – bu muallif tomonidan ma‘lum bir ketma-ketlikda birlashtirilgan mustaqil asarlar to‘plami bo‘lgan badiiy tizim”<sup>1</sup>. Turkumning umumiy qiymati har doim uning tarkibiy qismlari qiymatlarining yig‘indisidan kattaroq, chunki turkumni tashkil etuvchi unsurlar, ularning o‘zaro badiiy-estetik uyg‘unlashuvi butun turkumda yangi ma‘no keltirib chiqaradi, o‘ziga xos poetik yaratq hosil qiladi.

She‘riy turkumlarda uning asosiy mavzusini o‘z ichiga olgan yoki uning talqinini chuqurlashtiradigan asosiy unsurlardan biri – sarlavha hisoblanadi. Masalan, Erkin Vohidovning “Donishqishloq latifalari” sarlavhasi turkumning asosiy g‘oyasini aks ettiradi: Matmusa nomi turkumning tuzilishini va poetik shaklning xususiyatlarini belgilaydi. Ushbu turkumning navbatdagi muhim unsuri she‘rlarning tematik birligidir.

---

<sup>1</sup> Касимова А.Р. Лирический цикл как идиостилевая константа в творчестве Анны Ахматовой. Диссертация ... кандидата филологических наук: – М., 2011. – С. 12. (tarjima muallifniki)



Ayni vaqtda turkum tarkibidagi har bir she'r alohida mustaqil asar hamdir. "Donishqishloq latifalari" turkumi tarkibida "Matmusaning qishlog'i", "Matmusaning qalpog'i", "Matmusaning lagani", "Matmusaning charxpalagi", "Matmusaning tandiri", "Matmusaning uylanishi", "Qiziquvchan Matmusa", "Matmusa – rassom", "Matmusaning dutori", "Tandir kiygan Matmusa", "Matmusaning mehmondo'stligi", "Matmusaning qo'shig'i", "Matmusa va o'g'rilar", "Matmusaning Amerika ochishi", "Matmusaning haykali", "Matmusaning eshak sotgani", "Matmusaning bog'i" kabi jami o'n yetti she'r mavjud.

Mazkur turkumning umumiyligini ta'minlagan birinchi jihat barcha voqealarning Matmusa yashagan makon – Donishqishloqda Matmusa bilan yuz berayotganligi bois shu sarlavhaning tanlanganligida. Ikkinchi jihati o'n yetti she'rning ham bosh qahramoni Matmusa ekanligi. Uchinchi jihati – ularning barchasi voqeaband she'rlar bo'lganligi uchun syujet mavjudligi, to'rtinchi jihati – hammasi hajviy mazmunda ekanligi, beshinchi jihati – barcha she'rlarning umumiy mavzu va shoirning bir g'oyaviy niyati ostida birlashtirilganidadir.

Lekin ayni vaqtda ular alohida asarlar ekanligi she'rlardagi mustaqil sarlavha, unda barcha unsurlarlarga ega mustaqil syujetning mavjudligi, har biri o'ziga xos kompozitsion qurilishga egaligida ko'rinadi. "Donishqishloq latifalari" turkumidagi birinchi she'r bo'lgan "Matmusaning qishlog'i" she'rida qahramon yashayotgan qishloq xususida so'z yuritiladi. Shoirning badiiy maqsadi esa shu qishloq tasviri orqali Matmusa tabiatining ildizini ko'rsatish. She'rning mustaqil syujeti bitikning ekspozitsiyasidayoq ko'rinadi:

Donishqishloq degan joy  
Bordir bizning tomonda.  
O'sha qishloq ahlidek  
Dono xalq yo'q jahonda.  
Jo'yak tortib tomiga  
Makka ekkan o'shalar.  
Kalishini perronga  
Yechib ketgan o'shalar<sup>1</sup>.

Ya'ni ushbu qishloq xalqi o'ta sodda bo'lganidan tomga makka ekkan, kalishini perronga yechganligi haqidagi ma'lumot syujetdagi tugundir. Yuz qop ganchni suvga biryo'la qorgan, echkini sartaroshga olib borgan, minoralarni teskari turib qolgan quduqlarga o'xshatgan,

---

<sup>1</sup> Эркин Воҳидов. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2016. – Б. 505.

tomdan boshlab uy qurishni mo'ljallagan, devori yo'q uyga darvoza o'rnatgan, oyga chiqishning oson yo'li deb temiryo'lni tikka qilishni maslahat bergan, mashinani eshikka yem tashish uchun ishlatgan, pashshaga sopqon otib, chivinga qopqon qo'ygan, pishloq olish umidida oy nuriga xum tutib o'tirgan va hokazo teskari ishlarni qiluvchilar aynan shu qishloq odamlari ekanligi tasviri syujetning voqealar rivoji qismini aks ettiradi. Bu qishloqning Matmusaning qishlog'i ekanligi haqidagi tasvir kulminatsiya bo'lsa, she'rnin so'nggi bandi yechimdir. Ya'ni teskari ish qiluvchi qishloqning o'z qahramoni borligi va u latifalarga asos bo'lishi haqidagi fikr masalaga aniqlik kiritmoqda.

Kitob bo'lar ta'rifi,  
Yozsa ming bir sahifa.  
Donishqishloq ahlidan  
Tinglang uch-to'rt latifa<sup>1</sup>...

“Matmusaning qalpog'i” deb nomlangan she'rda ham syujet mavjud. Unga ko'ra Matmusa sotib olgan qalpoqni yuvish uchun ulfatlar bilan restoranga borib, ko'p ichganlaridan pul yetmay qolib o'sha qalpoqni restoranga tashlab kelganlari haqidadir. “Matmusaning lagani” she'rda uning bozordan lagan sotib olib, uni uyga olib borganida bolalari pishloq talashib sindirib qo'yishini tasavvur qilib chegachi qidirib sarson bo'lmaslikning oldini olish uchun laganni sindirib, o'sha yerda chegalatib olganidan butun qishloq ahli uning aqliga qoyil qolganligi aks ettirilgan.

“Donishqishloq latifalari” turkumi adabiyotshunoslar tomonidan xuddi Afandi latifalari ajratilganidek, yumoristik va satirik latifalarga ajratilgan. Mazkur latifalardagi Matmusaning kundalik turmushidagi kichik muammolarining yengil kulguga olinishi yumoristik she'rlar sanalsa, davr yoki ijtimoiy hayotdagi jiddiy muammolar achchiq, zaharxanda kulgu bilan hajv qilingan she'rlar satirik hisoblangan. Turkumdagi “Matmusaning qishlog'i”, “Matmusaning qalpog'i”, “Matmusaning lagani”, “Qiziquvchan Matmusa”, “Matmusa vao'g'rilar”, “Matmusaning eshak sotgani” kabilar yumoristik xarakterdagi she'rlar, qolgan o'n bir she'r esa satirik xarakterga ega.

Eshqobil Shukur qalamiga mansub “Qadimgi bitiktoshlarga yozuvlar” turkumi tarkibida “So'z”, “Tashlab ketilgan mingyilliklar”, “Unutilgan so'zlar”, “Bitiktoshlar homilasi”, “O'lmas askarlar”, “Mag'astvi”, “Qoshg'ariy yodi”, “Mutolaadan so'ng” kabi sakkiz she'r mavjud. Turkumning birinchi she'ri “So'z”da so'zning qudrati haqida fikr yuritilgan:

---

<sup>1</sup> Эркин Воҳидов. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2016. – Б. 505.

Baridan muqaddas so‘z bo‘ldi faqat –  
Tangrilar insondan qizg‘angan daho.  
Boshi bir yoqadan chiqqan mamlakat,  
Mangulikni yo‘rgaklagan ibtido<sup>1</sup>.

Ya’ni hamma narsa yo‘qlikka mahkum bo‘lganda ham, toshbitiklardagi yozuvlar bizgacha yetib kelganligiga ishora qilinmoqda. Toshbitiklardagi so‘zlarning bugungi kunda ham qadrlanishi insoniyatning so‘z qudratiga hamisha ishonganligining dalolati sifatida tasvirlangan. Shuning uchun ham “so‘z”ga “mangulikni yo‘rgaklagan ibtido” deya ta’rif berilmoqda.

Ushbu turkumdagi she’rlardan yana biri “Tashlab ketilgan mingyilliklar” deb nomlangan bo‘lib, ushbu she’rga shoir Rauf Parfi qalamiga mansub “Bechora bo‘m-bo‘sh uy, ey, sag‘ir...” misrasi epigraf sifatida keltiradi. Chunki she’rda o‘tgan uzoq o‘tmishga nazar solgan lirik qahramonning ushbu cheksizlikdan so‘zlaguvchi tirik jon yo‘qligi xususida so‘zlaydi:

Cho‘kkan xarobaday mung‘ayib yotgan  
Mingyilliklar ichra tirik jon bormi?  
Barbod bo‘lgan ellar falakka otgan –  
Isyon qodiqdari yo fig‘on bormi?

Bu misralar orqali shoir tarixning tirik guvohlari yo‘qligini aytadi.

Eshqobil Shukurning “Qadimgi bitiktoshlarga yozuvlar” nomli turkumidagi har bir she’rda uzoq tariximizning biror jihatiga ishora mavjud. Ya’ni ular alohida mustaqil mazmunga ega bo‘lgan she’rlar, lekin ularni “qadimiy so‘zlarni fidokorlik bilan tiklash” degan badiiy niyat birlashtirib turganligi uchun ham ular turkum maqomiga egadir.

Ko‘rinadiki, turkumdagi she’rlarning har biri oshiqning biror kechinmasi tasviriga bag‘ishlangan mustaqil she’rlar ekan. Lekin barchasining lirik qahramoni oshiq yigit va asosiy poetik obraz ma’shuqa – Nilufar ekanligi va she’rlar mazmunan javobsiz muhabbat rozlari sifatida aks ettirilganidan ularni bir turkum tarkibidagi she’rlar hisoblash mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqoridagi ko‘rib o‘tilgan turkumlardagi kabi boshqa yuzlab turkumlarda ham ular tarkibidagi har bir she’r mustaqil asar ekani anglashiladi. Turkum tarkibidagi har bir she’rning mustaqilligini quyidagi holatlar ta’minlaydi:

- har bir she’r uchun tanlangan mavzu borligi;
- shoir badiiy niyatiga bo‘ysundirib tanlangan sarlavha mavjudligi;
- har bir she’rning o‘z poetik obrazlari bo‘lishi;

<sup>1</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. – Т.: Шарқ, 2002. – Б. 136.

- mustaqil mazmun;
- kechinma tasviri yoki alohida syujet chizig'iga ega bo'lishi.

Ayni vaqtda ushbu bitiklarda quyidagi turkumlilik belgilari ham mavjudligini qayd etish kerak bo'ladi:

- umumiy mazmunga bo'ysundirilganligi,
- bosh sarlavha ostida birlashtirilganligi,
- yaxlit tushunchani anglatishi;
- makon va zamonda (xronotop) bir ekanligi,
- yagona lirik qahramon ishtiroki kabi jihatlar ularga turkum tarkibidagi she'rlar tarzida qarash va tahlil qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, turkum tarkibidagi she'rlar mustaqil asar sanalsada, ularga alohida yondashilsa, umumiy mazmunga putur yetishi mumkin.

O'zbek adabiyotida she'riy turkum namunalari juda ko'plab uchraydi. Ma'lumki, yaxlit badiiy-estetik konsepsiya turkum tarkibidagi she'rlarni bir tizimga solib, birlashtirib turadi, ularga poetik monolitlik

baxsh etadi. Bir mavzu doirasidagi bir qancha she'rlar turkumlilikni tashkil etarkan, umumtipologik xususiyatlardan tashqari umumiy g'oya mushtarakligi, mustaqil kechinma xususiyatlari mavjud bo'lishi shart ekanligi ham ko'zda tutiladi. Shu ma'noda, Oybekning "Chimyon turkumi", Mirtemirning "Qoraqalpoq daftari", Erkin Vohidovning "Donishqishloq latifalari" turkumi kabilar mukammal tajriba namunalari sifatida e'tirof etiladi.

Turkum she'rlarni yozishdan maqsad inson ruhiyatidagi evrilishlar jarayonini tasvirlash, inson ruhiyatining o'ta murakkab va o'zgaruvchan qirralarini aks ettirish orqali odam deb atalmish mavjudotning qanday ruhiy-ma'naviy sifatlarga ega ekanligini ko'rsatib berishdan iborat, deyish mumkin.

She'riy turkumlardagi o'ziga xos jihatlardan biri turkum tarkibidagi she'rlarni mazmunan va mantiqan birlashtirib turgan umumiy g'oyaning mavjudligidir. G'oyaviylik tendensiyasi turkumlilik hodisasida har bir badiiy asarga xos jihat sifatida alohida ahamiyatga ega. Turkum she'rlarda badiiy g'oya uning tarkibidagi she'rlarni birlashtirib turuvchi tirgak kabidir. Xususan, Erkin Vohidovning "Kavkaz she'rlari" turkumi shunday xususiyatlarga ega. Ushbu turkum tarkibidagi she'rlarni Kavkaz o'lkasiga sayohat qilgan shoir yigitning ushbu fusunli o'lkadan olgan taassurotlaridan hayratlanish g'oyasi birlashtirib turadi.

Turkumdagi g'oyaviylik "Yelkan" she'ri Boku ko'rfazida suzib ketayotgan oq yelkanli qayiq tasviri bilan, "Ararat cho'qqisiga" she'ri bulutlarga bo'y cho'zgan yuksak tog' cho'qqisiga lirik qahramonning

murojaati bilan, “Azganush” she’ri go‘zal arman qiziga oshiq yigitning dil izhori bilan, “Ayrilish” she’ri oshiq o‘zbek yigitining Kavkazdagi suyukli yori bilan o‘z yurtiga ketish oldidagi azobli iztiroblari ifodasi bilan, “Fuzuliy haykali qoshida” she’ri ushbu buyuk ozar shoiriga o‘zbek shoirining yuksak ehtiromi izhori bilan, “Xayrlashuv” she’ri Kavkaz yurti bilan lirik qahramon bo‘lgan shoirning xayrlashuv onlari tasviri bilan aks ettirilganligi ko‘zga tashlanadi.

Turkum tarkibidagi she’rlarning lirik qahramoni bo‘lgan o‘zbek shoiri o‘zga maftunkor yurtning manzaralaridan hayratini yashira olmaganligi, shu yurt go‘zallari tavsifiga ham o‘rin ajratganligi, bir oshiq yigit sifatida ularga ko‘ngil berganligi va qisqa muddatli safar chog‘ida unga istaganiday izhori dil qilishga ulgurolmaganligi kabi jihatlar ushbu she’riy turkumdagi bosh g‘oyaga xizmat qiluvchi voqelikni gavdalantiradi.

Erkin Vohidovning yana bir turkumi “Kanada turkumi” bo‘lib, turkum tarkibiga shoirning “Kalgarida soat o‘n ikki”, “Auksion”, “Arslon o‘rgatuvchi”, “Ko‘cha chetidagi ayol” kabi she’rlari kirgan. Ushbu she’rlarda ham bosh g‘oya lirik qahramon Kanadaga safari taassurotlarini tasvirlash ekani she’rlar mazmunidan oydinlashadi.

Shoirning “Auksion” she’rida bozorning ulgurji savdo ko‘rinishi bo‘lgan bu shaklida yuz berayotgan voqelik xususida so‘z boradi. Undagi g‘ovur-g‘uvur, ishbilarmonlar uchun har bir lahzaning g‘animatligi kabi jihatlar ishonarli va ta’sirli ko‘rsatilgan.

Erkin Vohidovning “Arslon o‘rgatuvchi” nomli mashhur she’ri ham shu turkumdan bo‘lib, u “Vankuver tomoshagohida” degan izoh bilan chop etilgan. She’rning asosiy g‘oyasi insoniyatning abadiy muammolaridan biri bo‘lgan erk tushunchasi bo‘lib, shoir ushbu she’rda o‘rmonlar shohi bo‘lgan arslonning erkini insonning tirikchilik ko‘yidagi erki bilan yonma-yon qo‘yib, hayotning ayanchli va achchiq haqiqatini ochib ko‘rsatishga erishadi. Shoir she’rdan nazarda tutilgan g‘oyaviy maqsadni amalga oshirish uchun intoq san’atidan unumli foydalanadi. Olovli halqadan qamchi yordamida sakrashga da’vat qilayotganga qarata:

– Ojiz odam! Bas, boshimdan qamchi o‘ynatma! ... Bor! Olovdan sakramasman! Bo‘lma ovora! Bilasanmi – Men kimmanu sen kim, bechora!<sup>1</sup> kabi vahshatli so‘zlar bilan tahdid qilishi va unga inson bergan javob muammoning hal bo‘lishiga olib kelgani ta’sirli aks ettiriladi. Arslon o‘rgatuvchi ham – o‘z xo‘jasi oldida ojiz, u ham – tirikchiligi uchun “qand”, ya’ni maosh berishlarini kutib, o‘shanga intiq bo‘lib

<sup>1</sup> Эркин Воҳидов. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2016. – Б. 293.

yashashga mahkum banda. She'r ham o'z xojasi bo'lgan arslon o'rgatuvchidan yemak kutadi, usiz halok bo'lishi aniq. Har ikkalasining ham yashash uchun kimgadir bo'ysunishi, o'z yemagiga yarasha xizmat qilishi zarurati ulardagi umumiy jihat bo'lib, ushbu hayot haqiqati sherday ulug'vor jonivorni ham larzaga keltiradi:

– Bo'ldi, bas qil!  
Yuragimni qon qilma, inson!  
O't olsin bu charxi falak  
Risqu ro'zini!..  
Arslon olov chambarakka  
Otdi o'zini<sup>1</sup>.

Ko'rinadiki, arslon oddiy hayot haqiqati bo'lgan Erk tushunchasi tirikchilik va yemak muammosi oldida oyoqosti bo'lishi hech gap emas ekanligini anglab yetadi. Insonlar o'z erkini o'z qo'llari bilan sohiblarga, boshliqlarga, xojalarga berib qo'yishga majbur ekanidan iztirobga tushadi.

Umuman, Kanada turkumidagi she'rlarda ushbu yurtga qilingan safarning turfa taassurotlari aks ettirilgani, lekin turkumdagi she'rlarda yagona lirik qahramon nutqigina qo'llanilmasdan, poetik obrazlar nutqidan ham foydalanilgani, shoirning bu she'rlarining bosh maqsadidan kelib chiqqanini ko'rsatadi.

Sonet janridagi asarlarda kompozitsiya va syujet unsurlarining joylashuvidagi mutanosiblik turkumlilikni asoslaydi. Sonetlar miqdoridan qat'i nazar, ularni bog'lab turuvchi umumiy kompozitsion tuzilish mavjud. Bunga mos ravishdagi syujet unsurlarining shartli joylashuvini ham sezish mumkin. Ya'ni har bir sonet lirik qahramon kechinmalari tavsifi va ilgari surilgan g'oyaga ko'ra biror vazifani bajaradi. Har bir turkumda o'zining yakka lirik qahramoni mavjud bo'ladi. tasvir markazida esa aynan shu lirik qahramon ruhiyatidagievrilishlar jarayoni va uning oqibatlari turadi.

Rauf Parfi va Faxriyorlarning sonet turkumlari mazmun-mohiyati va badiiyati yuksakligi bilan o'zbek sonetnavisligining ajoyib yutug'i sanaladi. Hamid Mirzayev Rauf Parfi she'riyatidagi sonetlar turkumlari xususida to'xtalib, ularda, asosan, falsafiy ruh yetakchi ekanligini ta'kidlaydi va turkumlarga shoirning "Sunbula", "Barnobonu", "Og'riq", "Mikelanjelo sevgisi" kabi aksar sonet majmualarini kiritadi. Turkumlarning o'ziga xos jihatlaridan biri unda kompozitsion yaxlitlik ham shaklga, ham mazmunga taalluqli ekanidir. Rauf Parfining "Sensiz",

---

<sup>1</sup> Эркин Воҳидов. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2016. – Б. 294.

“Tangri sog‘inchi”, “Qora devor”, “Thakurning oxirgi she’ri”, “Yo‘lovchi”, “Hamlet”, “U dunyoga onamga maktub” kabi majmualarini ham sonet turkumi namunalari deyish mumkin. Shoirning “Sensiz” turkumi tarkibida uchta sonet jamlangan.

Rauf Parfi yaratgan sonet turkumlarining o‘ziga xos jihati shundaki, har bir sonetda mavjud bo‘lgan kompozitsion yaxlitlik unsurlari turkum uchun ham xos bo‘ladi. Ya’ni, birinchi sonetda ilgari surilgan g‘oya tasviri keltirilsa, ikkinchi sonetda kechinma rivoji va uchinchi sonetda esa yechim va qulf berilgan. Rauf Parfi yaratgan sonet turkumlarining o‘ziga xos jihati shundaki, har bir sonetda mavjud bo‘lgan kompozitsion yaxlitlik turkum uchun ham xos bo‘ladi. Ya’ni, birinchi sonetda muammo tasviri, ikkinchi sonetda kechinma rivoji va uchinchi sonetda esa yechim va qulf berilgan. “Sensiz” turkumidagi ilk sonetda kompozitsion unsurlardan tashqari umumiy mazmunga ko‘ra noma’lum bo‘lib turgan tuyg‘u sonet qulfida “sevgi” ekanligi ma’lum bo‘ladi. Sonetdagi muammo, ya’ni tugun lirik qahramon bo‘lgan oshiq ko‘ngilning muhabbatsizlikdan iztirob chekishi, deyish mumkin. Ikkinchi sonetda kechinma rivojiga ko‘ra sevgining jonlantirilishi, uni dengizda kema orqali keltirilishi, noxush bir holatini sezgandek tabiatdagi gullar va qushlar ham hadik holatida ekani, kemadan tushgan “sevgi”ga oshiq ko‘ngilni yaqinlashtirmaslik uchun uni kishanband qilishlari tasvirlanadi. Uchinchi sonetda ruhi so‘nik bo‘lgan “sevgi”ni uyg‘otishga, uning iztirobi-yu dardlari oshiqqa hamroh bo‘lishiga da’vat aks ettiriladi. Yechim – sonetdagi mazmundan sevgi abadiy tuyg‘u ekanligi, asl inson esa o‘tkinchi, omonat xilqat bo‘lib, shu oz fursati uchun ana shu ilohiy tuyg‘udan bahramand bo‘lish baxtidan benasib qilmaslik orzusi lirik qahramon tomonidan bildiriladi.

Fursat o‘tmakdadir. Vaqt bu – beomon,  
Omonat dunyoda omonat odam –  
Vijdon shevasi bor, mehrobi iymon –  
Asl insonlarin chorlaydi bu dam<sup>1</sup>

Abdulla Sherning sonetlarida sevgi sururi va hijron iztiroblari aks etgan bo‘lsa, Mirpo‘lat Mirzoning “Onajon” turkumidagi sonetlarda an’anaviy sonetga xos yuqoridagi kabi muhabbat talqinlari emas, balki o‘ziga xos ijtimoiy mazmunga ega bo‘lgan ona siymosiga topinish g‘oyasi ilgari surilgan. Bunday mavzudagi sonet namunasi Rauf Parfi she’riyatida ham mavjud bo‘lib, ushbu turkum “U dunyoga onamga

<sup>1</sup> Рауф Парфи. Сўнгги видо. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б. 90.

maktub” deya nomlanadi. Turkumda uchta sonet jamlangan bo‘lib, ushbu sonetlar yadro vazifasini o‘tovchi asosiy g‘oyaga bo‘ysundirilgan. Ya’ni onaning buyuk mehri va qadri tasvirlangan. Xuddi mana shu maqsadning mushtarakligi “Onajon” turkumining ham yadrosini tashkil etadi. Bu turkumda sonetlar ham yagona maqsadga bo‘ysundirilgan. Uning mazmunidan mushfiq xilqat bo‘lgan Onaga nisbatan yuksak ehtirom kuzatiladi.

Turkumlarning o‘ziga xos jihatlaridan biri unda kompozitsion yaxlitlik ham shaklga, ham mazmunga taalluqli bo‘lishidir. M.Mirzoning “Onajon” turkumida ham aynan o‘sha kompozitsion yaxlitlikka farzand kechinmalari tasviri orqali erishilgan. Ushbu sonetlar turkumida she’rlar yakka holda sonetning spesifik talablariga o‘ziga xos tarzda javob beradi. Lekin sonetlar badiiyati yuzasidan yo‘l qo‘yilgan ifodaviy g‘alizliklar ham uchraydi. Xususan, sonetlarda muallifning oila muhiti tasviri lirik qahramonning kechinmalaridan ustunlik qilgan o‘rinlar mavjud. Shoir she’riyatini uning shaxsiyatidan ayri tasavvur qilib bo‘lmasligi hisobga olinganda, ushbu o‘ziga xos turkumni shakliy izlanishlar yo‘lidagi muvaffaqiyatli tajriba deya hisoblash mumkin.

“Lirik turkum shoirga voqelikning yaxlit tushunchasini, dunyo va odamning yaxlit nuqtai nazarini ifoda etishga imkon beradi, shu bilan birga lirikaga xos xususiyatlarni saqlab qoladi”<sup>1</sup>. O‘zbek sonetnavisligida turkumlilik badiiy-estetik xususiyatga ko‘ra ham, nazariy jihatdan asoslanishiga ko‘ra ham shakllanib ulgurgan hodisadir. Sonet turkumlarining o‘ziga xos tipologik xususiyatlari mavjud, albatta.

Xullas, mavjud she’riy turkumlarda voqelik yaxlit va bosh g‘oyaga bo‘ysundirilgan holda aks ettirilgan. Inson va borliqning yaxlitligi ham she’rlardagi lirik qahramonlarning o‘zi harakatlanayotgan muhitga munosabatlarida ifodasini topgan. Turkumning asosiy g‘oyasi va mavzusi, xarakterli tasvirlari, matnning subyektiv tashkil etilishi, intertekstuallik aloqalari, kompozitsiyasi, mavzu dinamikasi va xronotopi kabi jihatlarida yaxlitlikning mavjudligi uning turkum ekanligining yaqqol isboti bo‘la oladi. Umuman, quyidagicha xulosalash mumkin:

- She’riy turkum – bu yaxlit badiiy tizim, uning mazmuni va turkumni tashkil etuvchi asarlarning o‘zaro bog‘liqligi turkumlilikni hosil qiladi. Turkumni tashkil etuvchi unsurlar estetik, ifodaviy va tuzilmaviy vazifalarni ham bajaradi. Lirik turkum ijodkorning

---

<sup>1</sup> Мирзаев Х. Ўзбек шеърлятида сонетлар туркуми// Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. 1-сон. – Б. 65.



- qarashlari, janr holati, tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlik, muallifning badiiy niyati va tuzilmaning yaxlitligiga asoslanadi.
- O'zbek she'riyatida lirik turkumlarning rivojlanishi tarixiy va adabiy jarayon bilan bog'liq bo'lgan, ya'ni turkumlarning tipologik xususiyatlarining shakllanishiga ijtimoiy-tarixiy hodisalar, milliy she'riyat rivojlanishining asosiy yo'nalishlari ta'sir ko'rsatgan. Xususan, turli davrda yetakchi bo'lgan janrlar tabiatiga qarab turkumlar yaratilgani, o'z davridagi turli ijtimoiy hodisalarni aks ettirish kabilar bunga misoldir.
  - Turkumlilik mustaqil asarlar guruhlarini yangi ko'p komponentli badiiy birliklar – turkumlarga birlashtirish jarayoni sifatida muhim ahamiyatga ega. Chunki turkumlilikdan foydalanib, ijodkor dunyoning yaxlit suratini aks ettirish uchun janr chegaralarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.
  - XX asr adabiyotshunosligida “turkum” tushunchasi bir butun yaxlitlik sifatida tipologik xususiyatlari, xususan, mazmunan o'zaro bog'langan bir nechta asarlar jamlanmasi ekanligi; tarkibiy yaxlitlikning mavjudligi; matnlar o'rtasida assotsiativ bog'liqlik; she'rlar tartibi; yagona motivga, g'oyaga asoslanish; turkumning tizimli unsurlari: uslubiy, ritmik, majoziy-metaforik, intonatsion umumiylik kabilar bilan zamonaviy poeziyaning “katta shakli” hisoblanadi. Unda estetik butunlik, konseptual birlik, unsurlarning matniy bog'liqligi, badiiy-estetik umumiylik, sarlavha, epigraf, mavzu, janr, umumiy mazmun, vaqt, joy va ichki g'oya birligi mavjud.
  - Sonetlar she'rsevarni kurashga, kelajakka umid bilan qarashga chaqiradi, inson sevgisining achinarli, g'am-anduhli, tragik tasviri sonetlar turkumining umrboqiyiligini ta'minlagan. Turkumlarning mohiyati ularda shoir kechinmalarining izchil va o'ziga xos ketma-ketlikda bayon qilinishi imkoniyati kengligida, muallif o'y-fikri mavzudan kelib chiqqan holda jarangdor tarzda bayon qilinishida ko'rinadi. Sonet turkumlar, sonet-gulchambarlar va sonet-dostonlar ham o'zbek sonetining barkamollashuvida o'ziga xos bosqich vazifasini o'tagan.
  - Turkumlar tarkibidagi she'rlar mustaqil asarlar ekanligi ulardagi har bir she'r uchun tanlangan mavzuda; qo'yilgan sarlavhasida; she'rning o'z poetik obrazlari bo'lishida; mustaqil mazmunida; kechinma tasviri yoki alohida syujet chizig'iga ega bo'lishi kabilarda ko'rinadi. Turkumlarning asosiy belgilari ularning

umumiy mazmunga bo‘ysundirilganida; bosh sarlavha ostida birlashtirilganida; yaxlit mazmun anglatishida; makon va zamonda bir ekanida; yagona lirik qahramon ishtiroki kabi jihatlarda ko‘rinadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. She‘riy turkumlarning genezisi va taraqqiyot tamoyillari haqida nimalar bilasiz?
2. She‘riy turkumlarda shakl va mazmun uyg‘unligi nimalarda ko‘rinadi?
3. Turkumlar tarkibidagi she‘rlarga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
4. Badiiy g‘oya ifodasi turkumlilikni qay darajada hosil qiladi?
5. Turkumni tashkil etuvchi unsurlar nimalardan iborat?
6. Turkumlarning tipologik xususiyatlarining shakllanishiga nimalar ta‘sir ko‘rsatgan?
7. Turkumlilik mustaqil asarlar birligi ekanligini nimalar orqali isbotlash mumkin?
8. XX asr adabiyotshunosligida “turkum” tushunchasiga qanday tavsif berilgan?
9. Turkum she‘rlar tarkibiy tuzilmasida nimalarga ahamiyat qaratiladi?
10. Sonetlar turkumining mohiyati nimada?
11. Sonet-gulchambarlar haqida nimalar bilasiz?
12. Sonet-dostonlar tuzilishi va mohiyati haqida so‘zlang.

### **TESTLAR**

- 1. Jahon adabiyotidagi quyidagi turkumlardan qaysi biri she‘riy tarzda yozilgan?**
  - A. I.S.Turgenevning “Ovchi haqida eslatmalar” hikoyalari
  - B. Artur Konan Doylning Sherlok Xolms haqidagi hikoyalari nasr sohasidagi turkumlar
  - C. A.A.Blokning “Qor niqobi”, Pushkinning kichik fojialari, M.Prustning “Yo‘qotilgan vaqtni izlashda” asarlari
  - D. Artur turkumi
- 2. L.Y.Lyapinaning “Lirik sikl yaxlitligi muammosi” nomli asaridir. Unda she‘riy turkumni yuzaga keltiruvchi xossalar sifatida qaysi xususiyatlarni keltiriladi?**

- A. tarkibni tayinlash va lirik turkumga kiritilgan she'rlarning mustaqilligi;
- B. "bir markazli" lirik turkumning markazlashtirilgan tarkibi;
- C. lirik turkumda she'rlarni birlashtirishning lirik tabiati;
- D. javoblarning barchasi to'g'ri
- 3. "Gomerdagi Troya urushi an'anasi va epik turkum" nomli tadqiqot ishi kimning qalamiga mansub?**
- A. Nensi Lin Kuper
- B. Olivia Xolms
- C. Kristin Greys Borovek
- D. Jonatan S. Burgess
- 4. She'riy turkumlarning janr xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar yaratishgan olimni aniqlang.**
- A. A.S.Yanushkevich
- B. Y.V.Lebedev
- C. M.N.Darvin
- D. I.V.Fomenko
- 5. "Lirik sikl poetikasi" nomli ilmiy ishida turkumga janr sifatida yondashishni ma'qul ko'rgan olimni aniqlang.**
- A. I.V.Fomenko
- B. V.Y.Xalizev
- C. Ye.S.Yanushkevich
- D. Y.V.Lebedev
- 6. "Go'ro'g'li" eposi silsila dostonlar jamlanmasi ekanligi, unda asosiy obraz Go'ro'g'li cheksiz kuch-qudratga ega bo'lgan afsonaviy qahramon sifatida talqin etilishi haqidagi fikrlar qaysi o'zbek olimining tadqiqotlarida uchraydi?**
- A. To'ra Mirzayev
- B. Salimaxon Mirzayeva
- C. No'mon Rahimjonov
- D. Nasimxon Rahmonov
- 7. Liro-epik janr namunalari bo'lgan she'riy dostonlarda ham turkum asarlar tajribasini kuzatish mumkinligi haqidagi mulohazalar qaysi adabiyotshunos olim tadqiqotlarida uchraydi?**
- A. No'mon Rahimjonov
- B. To'ra Mirzayev
- C. Salimaxon Mirzayeva
- D. Mamatqul Jo'raev

8. **“Turkumda mavzuning yangi qirralari ochila boradi, lirik kechinmalar esa ana shu turkumning yadrosi. Mavzuga taalluqli barcha narsa shoir kechinmalaridan kuch oladi, emotsional ta’sir quvvatiga erishadi. Biz barcha narsani shoir shaxsiyati orqali qabul qilamiz, mavzuga uning nigohi orqali qaray boshlaymiz” kabi fikrlar qaysi olim tadqiqotlarida keltirilgan?**
- A. Sayyora Rahmonova
  - B. Hamid Mirzayev
  - C. No‘mon Rahimjonov
  - D. To‘ra Mirzayev
9. **“Sonetlar turkumida poetik struktura va badiiy konsepsiya” deb nomlanib, unda o‘zbek sonet turkumlari haqida mulohaza yuritgan olim kim?**
- A. Sayyora Rahmonova
  - B. Hamid Mirzayev
  - C. No‘mon Rahimjonov
  - D. To‘ra Mirzayev
10. **Rauf Parfi she’riyatidagi sonetlar turkumlari xususida so‘zlab, ularda, asosan, falsafiy ruh yetakchi ekanligini ta’kidlaydi va ushbu turkumlarga shoirning “Sunbula”, “Barnobonu”, “Og‘riq”, “Mikelanjelo sevgisi” kabi sonet to‘plamlarini kiritgan olim kim?**
- A. Sayyora Rahmonova
  - B. Hamid Mirzayev
  - C. No‘mon Rahimjonov
  - D. To‘ra Mirzayev
11. **Quyidagi turkumlardan qaysi biri sonet turkumlari sanaladi?**
- A. Oybekning “Chimyon turkumi”,
  - B. Mirtemirning “Qoraqalpoq daftari” turkumi,
  - C. Erkin Vohidovning “Donishqishloq latifalari
  - D. Rauf Parfining “Sensiz” turkumi
12. **O‘zbek sonetnavislaridan Abdulla Sher ijodida “Sevgi olmoshi” nomi ostidagi “Men”, “Sen”, “U”, “Biz” nomli turkumi nechta sonetni jamlagan?**
- A. 11
  - B. 28
  - C. 44
  - D. 22

## **2-MAVZU: SHE'RIY TURKUMLARNING YANGILANISH TENDENSIYALARI**

### **REJA:**

1. She'riy turkumlarda vorisiylik va tafakkur yangilanishi
2. She'riy turkumlardagi shakliy-poetik izlanishlar

**Tayanch soʻz va birikmalar:** vorisiylik va yangilanish, an'ana (traditsiya) va novatorlik, yaxlitlashtirish, islomiy-axloqiy yoʻnalishd, poetik jamlanma, tasavvuf gʻoyalari talqini, yaxlit konstruksiya, yagona lirik qahramon, kechinmalar tavsifi, tadrijiylik va izchillik, poetik birlik va h.k.

### **Mavzuning bayoni:**

#### **1. She'riy turkumlarda vorisiylik va tafakkur yangilanishi**

Badiiy adabiyotdagi vorisiylik va yangilanish, avvalgi tushunchalarga koʻra an'ana (traditsiya) va novatorlik she'riy turkumlilikning ham xos jihatlaridandir. Chunki turkumlilik ham oʻz tarixiy taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtgan badiiy shakllardan biri boʻlib, unda ham asrlar osha davom etib kelayotgan an'ana va ijodkorlar kashshofligi mujassamligi kuzatiladi.

Traditsiyaning dunyoni badiiy idrok etish, bilish va oʻzgartirish sohasida davrdan-davrga, avloddan-avlodga oʻtib kelgan, zamon talabiga javob beradigan adabiy tajribalar ekanligi ma'lum. "U klassiklar ijodiy laboratoriyasida sinalgan, oʻz qimmatini yoʻqotmagan, ilgʻor estetik idealni, aktual tematikani, tasviriy vositalarni, uslubdagi rang-baranglikni, xalqchil badiiy nutq san'atini keyingi avlod tomonidan qabul qilinib, amalda qoʻllanishini nazarda tutadi"<sup>1</sup>. Ya'ni an'anaviylik ungacha boʻlgan davrda shakllanib kelayotgan adabiy mahsul boʻlgan ijod namunalarini oʻziday shaklda qabul qilib, unga individuallik baxsh etgan holda qaytadan shakllantirish demakdir. Vorisiylik va yangilanish badiiy ijoddagi mahorat va zamonaviylik tushunchalarini oʻz ichiga oladigan muhim nazariy masalalarni qamraydi.

Novatorlik esa badiiy adabiyotning mazmunini ham, shaklini ham yangi badiiy yutuq va kashfiyotlar: yangi qahramonlar, taraqqiyot, gʻoyalar, yangi ijodiy usul, yangi badiiy uslub va vositalar bilan yangilaydi va boyitadi<sup>2</sup>. Ya'ni u badiiy ijoddagi yangilanish jarayoni

<sup>1</sup> Жамоа. Адабиёт назарияси. Икки томлик. 2-том. – Т.: Фан, 1979. – В. 26-27.

<sup>2</sup> Краткая литературная энциклопедия. – М: Советская энциклопедия, 1972. – С. 599. (tarjima muallifniki)

bo‘lib, bunda adabiy janr yoki shaklning ham shaklan, ham mazmunan boyitilishi, yangicha qiyofalar va tasvir vositalari orqali namoyon etilishi nazarda tutiladi. Yangilikka intilish har qaysi tarixiy davrning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti taqozo qiladigan estetik talablardan biri bo‘lganidan u zamonning aks-sadosi, badiiy taraqqiyotning yuqori ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. “Novatorlik – adabiy jarayon bilan bog‘liq kategoriya, adabiy jarayonda an‘ana bilan har vaqt dialektik aloqada mavjud bo‘lgan hodisa, adabiyot taraqqiyotining muhim ichki omili, badiiy tafakkur rivojiga sezilardi ta‘sir o‘tkazib, keyinchalik an‘anaga aylanuvchi muhim badiiy-estetik yangilik. Adabiy an‘anaga saylab va tanqidiy munosabatda bo‘lolgan, o‘z davrining badiiy-estetik ehtiyojlarini teran his etolgan ijodkorgina yangilik yaratishga qobil bo‘la oladi”<sup>1</sup>. Ushbu ta‘rifdan novatorlikning mavjud adabiy jarayon bilan aloqadorligi va uning badiiy tafakkur taraqqiyotiga sezilarli ta‘sir eta olish xususiyati alohida ta‘kidlanishi orqali uni yaratayotgan ijodkorning ham kelajak uchun an‘anaviylikni yuzaga keltiruvchi ijod mahsuli yarata olish qobiliyatiga alohida urg‘u berilmoqda. Ya‘ni ijodkor yangilanishni kashf eta bilishi uchun an‘analarni yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi, salaflardan farqli va mukammal ijod mahsulini yaratishi uchun yuksak qobiliyat sohibi bo‘lishi, mashaqqatli izlanishlar jarayonini boshidan kechira bilishi nazarda tutilmoqda.

She‘riy turkumlar strukturasiidagi sifat o‘zgarishlari ijtimoiy, ma‘naviy-axloqiy muammolarni badiiy idrok va ifoda etishdagi xilma-xil uslubiy izlanishlar hamda obrazli vositalar poetik tafakkur imkoniyatlarining kengayib borayotganidan dalolatdir. Lirik janrlarining olam va odamni birgalikda o‘rganish jarayonida kasb etgan yetakchi xususiyatlariga ko‘ra, o‘ziga xos poetik shakllari, mavzulari, muammolari ham mavjuddir. Falsafiy miniatyuralar, she‘riy turkumlar singari poetik shakllar tadriji ular tizimining takomil jarayoni ham demakdir. Bunda poetik shakllar va she‘riy turkumlarning mavzu-muammolar ko‘lami ustuvor yo‘nalish kasb etganligini kuzatish mumkin.

Shoirlar tabiat – jamiyat – inson mavzusi tasviri orqali ezgulik va zulm-zalolat, yaxshilik va yomonlik, fano va baqo, tiriklik va o‘lim, nur va zulmat, inson umrining tunlari va tonglari, go‘zallik va razolat, imon butunligi va beburdlik, sadoqat va xiyonat singari boqiy muammolarning turfa qirralarini badiiy idrok va ifoda etishgan va etishmoqda.

---

<sup>1</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – Б. 204.

“Adabiy asar (bir butun bo‘lishiga qaramay) bir xil monolit emas. Bu – turli qirralar (tomonlar, burchaklar, darajalar, jihatlar)ga ega bo‘lgan ko‘p qirrali hodisa. Uning tarkibi va tuzilishi, ko‘pincha juda murakkab bo‘lib, adabiyotshunos olimlar tomonidan bir qator tushuncha va atamalar orqali ifodalanadi”<sup>1</sup>. Adabiy asarlar davrlar silsilasida o‘zlarining yangicha shakl-shamoyiliga ega bo‘lib boradi. Ular orasida o‘zaro aralashgan yoki birlashgan turlar ham mavjud bo‘lib, aynan ular turkumlilikning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan.

Umuman, shu kabi poetik jarayon namunalari she‘riyatimiz tarixini, badiiyat tarixini tashkil etishi jihatidan ham e‘tiborlidir. Turfa poetik shakllar, she‘riy turkumlarda olib borilgan ijodiy izlanishlar, badiiy tafakkur ko‘rinishlari adabiy-tarixiy jarayonda muhim o‘rin tutishiga, yetakchi taraqqiyot tendensiyalarini belgilab berishiga ko‘ra ham nufuzlidir.

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlariga kelib, milliy adabiyotning mazmun doirasi o‘tmishda qalamga olinmagan yangi mavzular bilan boyidi. Bu davrga kelib, millatni uyg‘onishga da‘vat etish mazmunidagi asarlar yuzaga kela bordi. Ushbu adabiyotning vakillari bo‘lgan xalqparvar ijodkorlarning tashabbuslari bilan o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot tarzi, davrga xos dolzarb masalalarga bag‘ishlangan ko‘plab she‘riy turkumlar ham yaratildi.

Milliy uyg‘onish davri adiblaridan Muqimiy, Muhyi, Furqat, Ibrat, Zavqiy, Zoriy, Nodim kabi ijodkorlar tomonidan yozilgan she‘riy turkumlarda yuqorida aytib o‘tilgan jihatlar aks ettirilganligini ko‘rish mumkin. Xususan, Zavqiy she‘riyatida “Pashshalar” sarlavhasi ostida ikkita she‘r keltirilgan bo‘lsa, buni Muqimiy ijodida shu nomdagi hajviya, Sidqiy Xondayliqiyda esa “Burgalar” nomi bilan she‘r bitilganligi, yoki Muqimiyda mavjud bo‘lgan “Ot” turkumi Zavqiy ijodida ham “Oting” va “Otim” sarlavhalari bilan uchrashi, Sidqiy Xondayliqiyda esa “Dar hajvi toy” shaklida uchrashi yuqorida aytib o‘tilgan mushtarakliknidalolatlaydi. Ulardan tashqari, Muqimiy ijodidagi “Ko‘sa” turkumi o‘shadavr mashhur san’atkoriga bag‘ishlangan she‘rlardan iborat bo‘lgani ma’lum.

Eng ko‘p uchraydigan poetik turkumlar zamona muammolari bilan bog‘liq bo‘lib, davrning deyarli barcha ijodkorlarida ularga bag‘ishlangan she‘rlar mavjud. Xususan, Zavqiy ijodida “Dar mazammati zamona”, “Ey

---

<sup>1</sup>В.Е. Хализев. Теория литературы. – Москва: Высшая школа. 1999. – С. 93. (tarjima muallifniki)

zamona”, “Ko‘p qiziq”, “Afandilar” kabi she‘rlar zamon tanqidiga bag‘ishlangan bo‘lsa, Ibrat ijodida ham “Shikoyati zamona” she‘ri bor.

Sidqiy Xondayliqiy ijodidagi “Rabo(t)chiylar namoyishi” va “Rabo(t)chiylar kelishi” turkumlari esa ijtimoiy lirikaning o‘ziga xos namunasi bo‘lib, ulardagi ko‘tarilayotgan muammo 1916-yilgi mardikorlik voqealari va ulardan kelib chiqqan oqibatlarining aks ettirilishida ko‘rinadi. Xuddi shu mardikorlik mavzusi Abdulla Avloniyda “Mardikorlar ashulasi” nomi ostidagi to‘rtta she‘rlarga turkumlangan bo‘lsa, ushbu mavzu Hamza Hakimzoda Niyoziy she‘riyatida bir mavzu doirasidagi alohida she‘rlar shaklida aks ettirilgan.

Shu davr ijodkori Zoriy ijodidagi turkum she‘rlar mavzusidagi mufassal tadqiqot adabiyotshunos D.Abdullayeva tomonidan tadqiq etilgan<sup>1</sup>: “Mumtoz adabiyotda ko‘zga tashlangan bir mavzu, bir yo‘nalish, bir ohangdagi asarlar bitish davr adabiyotida ustuvor an‘analarga aylandi; ijtimoiy-siyosiy va hayotiy-tarixiy mavzuda bir necha she‘riy turkum yaratildi. Bu ijobiy hodisada Zoriyning ko‘rinarli rol o‘ynaganligi, alohida xizmati borligini uning boy merosi dalillaydi. ...Hajman yirik she‘riy turkumlar Xudoyorxon taqdiri mavzusi, Andijon zilzilasi, Viktorboy hajviyasi kabilardir. Xususan, Xudoyorxon mavzusini Zoriy birinchilardan bo‘lib qalamga oldi va shu ruhdagi qator she‘rlarning maydonga kelishiga asos soldi. N.Ostroumovning bergan izohiga ko‘ra Zoriyning shu mazmundagi muxammasi xalq tomonidan ijro etilgan. Davr adabiyotida yaratilgan bunday turkumlar shoirlarning ijodiy hamkorligidan dalolat beradi”<sup>2</sup>. Ya‘ni bu davr ijodkorlarining o‘zida o‘zaro vorisiylik kuzatiladi.

Turkumlilik jadid adabiyotida ham o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. U ham she‘riyatning boshqa shakllari kabi davr muammolarini insonlar qalbiga tezroq va chuqurroq kirib borishida ko‘maklashuvchi vositalardan biriga aylandi. Jadid she‘riyatidagi turkumlilik jamiyat muammolariga urg‘u berib, diqqatni jalb qilish uchun ham kerak edi.

1917-yilda Abdurauf Fitrat o‘zi muharrirlik qilgan “Hurriyat” gazetasida “Yurt qayg‘usi” nomi bilan bir turkum she‘rlar e‘lon qildi. “Yurt qayg‘usi” nomli turkumi sochma she‘r shaklida bo‘lib, u “Hurriyat” gazetasining 1917-yil 28-iyul, 18-avgust, 31-oktabr va 29-dekabr sonlarida e‘lon qilingan. Sochma she‘r aruziy she‘r, “Yurt qayg‘usi, “Bir o‘zbek tilidan”, “Temur oldinda” kabi qismlardan tashkil topgan. Ularning har birida Ona Vatan – Turon (Turkiston)ni uyg‘otish, uni

<sup>1</sup> Abdullayeva D.Z. Usmonxo‘ja Zoriy hayoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – B. 64.

<sup>2</sup> Абдуллаева Д. Усмонхўжа Зорий ҳаёти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 62-63.



yuksaltirishga da'vat g'oyasi ilgari surilgan. Aruziy she'rdagi mazmun aynan ona Vatanni qutqarmoq g'oyasini aks ettirgan:

Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir?

Nomusmi, vijdon bila imonmi kerakdir?

Temur bila Chingiz qoni toshdi tomirimizdan,

Aytgil! Seni qutqarmoq uchun qonmi kerakdir?<sup>1</sup>

Turkumdagi qolgan she'rlarda ham ushbu mazmun yetakchilik qilib, ular orqali shoir xalqning ko'zi ochilishiga umid qilgan. Qolgan uchta she'ring sochma shaklda yozilganligi Fitratning turkum she'rlar borasidagi novatorligini ko'rsatgan.

“Badiiy asarlar orasidagi chegaralarni buzishning eng muhim shakli ularning turkumlanishi hisoblanadi. Shoir o'z she'rlarini turkumlarga birlashtirishi ko'pincha ilgari yaratilganlarni birlashtirgan yangi asarning paydo bo'lishi bo'lib chiqadi. Boshqacha aytganda, she'riy turkumlar aynan mustaqil asarlarga aylanadi”<sup>2</sup>. Ko'rinadiki, she'riy turkumlar yaxlit ma'no doirasidagi mustaqil asar maqomini olishi ham mumkin bo'lgan she'riy asarlardir. Fitratning alohida holdagi mustaqil she'rlarining yagona badiiy g'oya uchun xizmat qilganligi ularning turkum ekanligini dalolatlaydi.

XX asr boshlarida ham turkum she'rlar ko'plab yaratildi. 1936-yili O'zbekistonda Pushkin yubileyiga tayyorgarlik boshlangan. Shu munosabat bilan bir qancha adiblar qatorida Oybek ham Chimyonda bir necha oy mobaynida Pushkin asarlarini tarjima qilish bilan shug'ullanganlar. Oybekka “Yevgeniy Onegin” she'riy romanining tarjimasi topshirilgan. Shoir Chimyonning ko'rkam tabiatidan ilhomlanib, “Chimyon daftari” turkumini aynan shu yerda yaratdi. “Na'matak” ana shu turkumdagi asarlardan biri bo'lib, u birinchi marta “Guliston” jurnalida 1936-yili bosilgan. Sho'ro davri adabiyotshunosligi ham bu falsafiy she'ni Oybek ijodining yutuqlaridan biri sifatida baholagan. Uni hayotsevar shoirning his-tuyg'ularini yorqin aks ettiruvchi asar, deb talqin etganlar. Tahlillarda “Na'matak” she'rining badiiy dunyosiga chuqur nazar tashlangan, uning mohiyati, zamiridagi haqiqat va joziba teran his qilingan.

Oybekning “Chimyon daftari” turkumiga kirgan, o'zbek tabiatining fusunkor tarovati va betakror ranglarini o'ziga simirgan she'rlari nafaqat shoir she'riy ijodining, balki umuman, o'zbek lirikasining shoh

---

<sup>1</sup> Abdurauf Fitrat. Saylanma. – T.: Zabardast-media, 2022. – B. 31.

<sup>2</sup> Хализев В.Е. Теория литературы. – Москва: Высшая школа. 1999. – С. 93-95. (tarjima muallifniki)

namunalaridan biri bo‘ldi. Shoir bu she‘rlari bilan o‘zbek she‘riyatiga oybekona nafis lirizmni olib kirdi, nozik tuyg‘u va kechinmalarni tasvirlash madaniyatini yanada mukammallashtirdi, lirik she‘riyat tilini nafosat yog‘dulari bilan jilolantirib yubordi.

Ammo sho‘ro davlatining adabiy-madaniy siyosati natijasida 1937-1938-yillarda yozuvchilar va ularning asarlariga vulgar sotsiologizm nuqtai nazaridan yondashish tamoyili kuchaydi. Oybekning „Chimyon daftari“ turkumiga kirgan lirik she‘rlari burjua she‘riyati namunalari deb baholandi.

Ikkinchi jahon urushi mavzusi Shuhrat ijodida o‘zgacha ahamiyat kasb etadi. Uning “Jangchi bloknotidan” turkum she‘rlarida tasvirlangan jangchi obrazi vatan uchun jon fido qiladigan, uning tuprog‘ini ko‘ziga to‘tiyo aylagan inson obrazidir. Bu turkumga kirgan “Sening albomingga”, “Okopda”, “Gul ko‘chat”, “Ukrain qiziga”, “Quvonch”, “Ne gunohi bor!”, “Qilichini ol”, “Jangchi qabri”, “Polyak qiziga”, “Men tirik”, “Do‘stimning xotirasi”, “Nishona”, “Yo‘ldan maktub”, “Iltimos”, “Prussiyadan maktub”, “To‘rt lavha”, “G‘alaba daqiqasi”, “G‘alaba”, “Endi bilsam” kabi yigirmata she‘rda, insoniy fazilatlar, yorga muhabbat, hijron, visol onlari, shuning bilan birga fashistlar qilgan xunrezliklar badiiy tasvirlangan.

“Jangchi bloknotidan” turkumidan o‘rin olgan ba‘zi she‘rlarida, xususan, “Sening albomingga” she‘rida jangga ketayotgan qahramonning o‘z yoriga jo‘shqin muhabbati hamda uni hijron onlariga bardosh berishga da‘vat etishlari lirik bayon etilsa, boshqa she‘rlarida fashistlarning qilgan vahshiyliklarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan jangchining alam va iztirob lahzalari ishonarli bayon etiladi. Jangchi okopda yotar ekan, dastlab uning xayolidan urushgacha bo‘lgan davrdagi jonli lavhalar, hayotning orombaxsh lahzalari o‘tadi. So‘ngra uning xayoli fashistlar tomonidan otib tashlangan go‘dakning murdasi tomon yo‘naladi. Bosqinchilar tomonidan haydab ketilayotgan ming-minglab kelinchaklar, yurakni ezadigan holatga tushirilgan bog‘lar, shahar va qishloqlar lirik qahramon ko‘zi o‘ngida namoyon bo‘ladi.

Shoir Shuhratning turli yillarda yozilgan she‘rlari jamlanmasi orasida “Kavkaz daftari”, “Dunay sohillarida”, “Odamlar va obidalar” turkumlari ham uning ijodida alohida bosqich bo‘ldi. Bu majmualardan uning bolalarga atalgan she‘rlari, hajvlari, to‘rtliklari va tarjimalari o‘rin olgan.

O‘zbek she‘riyatida deyarli hamma shoirlar turkum asarlar yaratganlar. Mirtemirning “Qoraqalpoq daftari”, Zulfiyaning “Vodiy

tuhfasi”, Hamid G‘ulomning “Qit‘alar uyg‘oq”, Shuhratning “Kavkaz daftari” kabi turkum asarlari mavjud. Uni tashkil etuvchi har bir asar mustaqil badiiy qimmatga ega bo‘ladi, biroq ular birlashib, hayotning biror tomoni haqida mukammal tasavvur beruvchi tugallangan yaxlit asarni vujudga keltiradi.

Turkum she‘rlar shoir Mirtemir ijodida ham mavjud. Ikkinchi jahon urushidan keyingi-yillardagi adabiy siyosat natijasida Mirtemirga ijod etish va yozgan asarlarini e‘lon qilish imkoni berilmagan. Natijada u tarjima va tahrir ishlari bilan shug‘ullanishga majbur bo‘lgan. Uning qoraqalpoq she‘riyatidan qilgan tarjimalari va “Qoraqalpoq daftari” (1959) she‘riy turkumi katta muvaffaqiyat qozongan. “Qoraqalpoq daftari”da namoyon bo‘lgan xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlik g‘oyalari shoirning qozoq, qirg‘iz va turkman diyorlariga qilgan safarlari ta‘sirida yozilgan she‘rlarida katta mahorat bilan davom ettirilgan.

Shoira Zulfiya XX asrning ikkinchi yarmida Osiyo va Afrika yozuvchilarining tinchlik va xalqaro birdamlik shiori ostida o‘tgan harakatida faol qatnashib, jahonning ko‘pgina mamlakatlarida bo‘ldi. Hindiston, Misr, Yaponiya va qo‘shni respublikalarga qilgan safari shoira ijodida chuqur iz qoldirdi. “Mushoira”, “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush”, “Qozog‘iston o‘lanlari”, “Men chizolmagan surat” singari she‘rlari unga shuhrat keltirdi<sup>1</sup>. Zulfiya she‘rlarida tasvir etilayotgan hayot ko‘lami kengayib, uning ijodiga xorijiy xalqlar hayoti manzaralari ham kirib keldi. 70-yillardan boshlab Zulfiya ijodidagi milliy hayot tasvirida yangi ranglar kamalagi paydo bo‘ldi, haqqoniylik va his-hayajon kuchaydi. “O‘ylar” (1965) she‘riy guldastasi bilan boshlangan voqelikni falsafiy idrok etish tamoyili “Visol” (1972), “Yillar, yillar...” (1975) she‘riy kitoblarida davom etib, Zulfiya ijodida chinakam badiiy yuksalish davri boshlanganini namoyish etdi. O‘sha paytda, ya‘ni 1975-yilda shoira “Lolaqizg‘aldoq” nomli bolalarga bag‘ishlangan turkum she‘rlar ham yozdi. Mana shu sanab o‘tilgan she‘riy asarlar turkumlilikdagi an‘anaviylikni yuzaga keltirdi.

Ko‘rinadiki, XX asr she‘riy turkumlaridagi mavzular ijodkorlarning biror yurtga safarlari yoki biror jabhadagi faoliyati, undagi ishtiroki bilan bog‘liq mavzularni qamragan ekan. Bu holat an‘anaviylikni yuzaga keltirgan va salaflarning davomchilari sifatida keyingi avlod ijodkorlari ushbu mavzularni davom ettirish bilan birga yangicha mavzularni ham kashf etdilar. Xususan, XX asrning 70-yillarida Erkin Vohidovning “Donishqishloq latifalari”, “Qumursqalar jangi”, “Kanada turkumi”,

<sup>1</sup> Зулфия. Танланган асарлар. 3-жилд. – Т.: Фан, 1985. – Б. 7.

Abdulla Oripovning “Haj daftari”, “Hikmat sadolari”, “Dunyo” turkumlari vorisiylik an’anasiga ko’ra yuqoridagi salaflar ijodining davomi va ayni paytda tafakkurdagi yangilanishlar samarasi o’laroq vujudga keldi. Ushbu turkumlarda voqeabandlik, o’nliklar, sakkizliklar, to’rtliklar borasidagi izlanishlar kuzatiladigan bo’lsa, shoirlarning badiiy tafakkur salohiyati poetik shakllar kanoralarini kengaytirib yuborganligi, lirik monologning turfa ko’rinishlarini vujudga kelganligi, she’riyat tarixida qoladigan badiiy barkamol asarlar dunyoga kelganligi ularning yangilanishlarini ko’rsatadi. Ijtimoiy voqelikni, shaxs va jamiyat psixologiyasini poetik idrok va ifoda etishda lirik janrlar, poetik shakllar nechog’lik katta imkoniyatlarga egaligi shular orqali yaqqol ko’rinadi.

Milliy uyg’onish davri shoirlari, asosan, zamona nosozligi va ijtimoiy muammolarni o’z turkumlariga mavzu qilib tanlagan bo’lsalar, jadid shoirlari millatni uyg’otish, Vatan kelajagidan xavotir mazmunidagi turkumlar yaratganlar. XX asr she’riy turkumlari ham shu davr uchun dolzarb bo’lgan mavzularni aks ettirgan. XXI asrga kelib mavzular ham turfalashdi. Mavzuviy vorisiylik tushunchasi barcha insonlar uchun xos bo’lgan mavzular uchungina saqlandi.

Istiqlol davri she’riy turkumlarida islomiy yoki tasavvufiy mazmun yetakchilik qildi. Xususan, Ahmad Yassaviy hikmatlaridan boshlanib, ko’plab salaflar ijodiyoti orqali davom ettirilib kelinayotgan ushbu mavzu munosib vorislar sifatida Rauf Parfining “Muhabbat”, “Tangri sog’inchi” kabi sonetlar turkumlarini, Oydin Hojiyevaning “Muborak tunlar munojoti” turkumini, Eshqobil Shukurning “Nasoyimul muhabbat”ga sayr” turkumini, Nodir Jonuzoqning “Chilla” turkumini yoki Farida Afro’zning “Tasbeh” kabi uchliklar turkumlarini ko’rsatish mumkin. Ushbu turkumlardagi umumiylik ulardagi lirik qahramonning Yaratganga tavallolari, imyon va Alloh vasliga musharraf bo’lish orzusi zaminiga qurilganligida ko’rinadi.

Mazkur turkumlarda mavzuviy umumiylik an’anaviylik kabi ko’rinsa-da, aksar turkumlar yangicha shakllar asosida tuzilgan. Xususan, Rauf Parfi sonet janridan, Oydin Hojiyeva ham ko’hna g’azal janridan, ham barmoq tizimidagi to’rtlik bandli shakldan, Nodir Jonuzoq qirqta to’rtlikdan, Farida Afro’z esa o’ttiz uchtadan qilib yettita turkumga jamlangan uchliklardan foydalanganliklari shuni ko’rsatadi.

Ushbu turkumlarda yangi janr va she’riy shakllardan foydalanibgina qolmay, yangicha fikrlash, ya’ni tafakkurdagi yangilanishlarni ham kuzatish mumkin. Xususan, Rauf Parfi: “Dunyolari yolg’on, men o’ldim chindan... Ulug’ Tangrim, seni achchiq sog’indim”

tarzida lirik qahramonning Yaratganga yetishish istagi va ungacha chekkan iztiroblarini bayon etsa, Oydin Hojiyeva: “Yaxshi-yomon ko‘rding – bahosi tufroq, Manzili Haq aro qanotga aylan” holatida ancha sodda shaklda aks ettiradi.

Eshqobil Shukurning “Nasoyimul muhabbat”ga sayr” turkumidagi “Me’roj” she’rida so‘fiyning maslagi bo‘lgan Haq vasliga yetmoq istagi va u haqidagi tasavvur o‘ziga xos tarzda bayon qilinadi:

Mumkindir chaqmoqni tish bilan tutmak,  
Til tishlab, dunyoni ko‘z bilan yutmak,  
Jarayon kelmakdur, mohiyat – ketmak,  
O‘zungdan o‘tmak bu – Ollohga yetmak<sup>1</sup>.

Nodir Jonuzoqning “Chilla” turkumi lirik qahramoni ham qirqta to‘rtlikning har birida Haq ismini tilga oladi va unga eltuvchi tazarru yo‘llarini o‘ziga xos tarzda aks ettiradi. So‘nggi qirqinchi she’rda so‘fiy bo‘lgan lirik qahramonning qirq kunlik chilla orqali Haqning inoyatiga musharraf bo‘lganligining o‘zi uning tilaklari amalga oshganligidan dalolat ekanligi ko‘rsatiladi:

Ollohim, lutf etding: “Orzung ne – tila”,  
Senga maqsudimni aytay qay til-la?  
Aslida Olami Kubrodan edim –  
Qaytdimmi?! Bu umrim – kichik bir chilla<sup>2</sup>...

Farida Afro‘zning “Tasbeh”larida lirik qahramonning hayotning achchiq haqiqatlari borasidagi mushohadalari va insonning tazarrulari aks ettirilgan:

Yodga tushsa onam allasi,  
Ruhim uchar arshi-a’loga,  
Vujud qolar yerda sudralib<sup>3</sup>.

Ko‘rinadiki, vorisiylik tafakkurdagi yangilanishlar tufayli o‘zgacha mazmun kasb eta borgan. Bunda janriy va shakliy xilma-xillikning badiiy niyatga bo‘ysundirilganligi ham ahamiyatlidir.

Mavzudagi vorisiylik yoki uning an’anaga aylanish jarayoni Fitratning sochma turkumidagi millat va uning kelajagiga qayg‘urish mavzusi Eshqobil Shukurning “Surgun” turkumidagi qatag‘on-yillari qurbonlari, ya’ni millat farzandlariga qayg‘urish shaklida yana davom ettirilgan. XX asr taniqli shoiri Shuhratning urush mavzusidagi turkumlari

<sup>1</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. – Т.: Шарқ, 2002. – Б. 208.

<sup>2</sup> Нодир Жонузоқ. Мехрибоним. – Т.: Шарқ, 2008. – Б. 29.

<sup>3</sup> Farida Afro‘z. Tasbeh. – Т.: Sharq, 2007. – Б. 30.

yana Eshqobil Shukurning “Urushdan keyingi urush” turkumi orqali davom ettirilgan.

Eshqobil Shukurning tasavvuf va bu tariqat namoyandalari xususidagi “Nasoyimul muhabbat”ga sayr” turkumining mantiqiy davomi yoki uning tugal shakli sifatida shoirning “Naqshband” nomli dostoni yaratilgan, ya’ni she’riy turkum poemaning paydo bo‘lishiga asos vazifasini o‘tagan. Turkumda tavsiflangan Shayx Uvays Qaraniy, Shayx Boyazid Bistomiy, Shayx Zunnun Misriy, Yassaviylar qatorida buyuk mutasavvuf Bahouddin Naqshband nomi ham alohida yodga olinadi. Dostondagi ilk satrlar: *Bu – Semurg‘ qoni bilan yozilgan kitob, Quyosh tomog‘ida pishirilgan taom*<sup>1</sup>... deyilishidan ham unda so‘fiy xususida so‘z borishini anglash mumkin. Undagi “*Nuroniy chehradan yog‘ardi iymon, Uning atrofida olti ulug‘ pir. Oltita osmondan bir-bir farishta. Yetti osmon bo‘ylab aytardi zikr*”, deyilishida pirlarning Naqshband oldida nozir bo‘lishlari va unga ilohiy mujdani yetkazish holati aks ettirilgan.

Usmon Azimning “Tazarru bog‘lari” turkumi O‘tkir Rahmatning “Bog‘ suvratlari” turkumi bilan o‘xshash tarzda yaratilgan va har ikkalasi ham sulukning tazarrulari va Haqqa yetishish yo‘lidagi qalb tug‘yonlari ifodasiga bag‘ishlanganlari bu turkumlarning ham yuqorida ta’kidlangan mavzuda ekanligini ko‘rsatadi. Xuddi shunday Mirpo‘lat Mirzoning “Onajon” va Oydinnisoning “Onamsiz” turkumlari ham an’anaviy mavzuning davomchisi ekanliklarini, lekin mushohalashdagi o‘zgachalik, poetik tafakkur qirralarida evrilishlar, yangicha tafakkur shakllari yuzaga kelayotganligini ham ko‘rsatadi.

Usmon Azim she’riyatida o‘n beshta balladadan iborat turkum mavjud bo‘lib, ushbu turkum shoirning “Baxshiyona” turkumidagi she’rlari ta’sirida vujudga kelganligi anglashiladi. Chunki ushbu balladalarining qahramonlari ham turkumdagi kabi Elbek baxshi, Alpomish, Boychibor, Oq va Qora botirlardan iborat. Balladalar mazmuni ham shoirning inson erki va yurt qayg‘usi borasidagi qarashlarini aks ettirgan. “Baxshiyona” turkumida boshlangan dolzarb mavzulardan bo‘lgan insoniylikning yo‘qolib borayotganligi, kishilarning mol-dunyo uchun hamma narsaga tayyor ekanliklari haqidagi fikrlar “Balladalar” turkumidagi she’rlarda yanada dramatik tasvirlar va fojealar zamiriga singdirilgan.

Abdulla Oripov qalamiga mansub “Jeneva turkumi” va “O‘zbekison uchun dengiz o‘zingiz” nomli to‘rtliklar turkumlari tarkibidagi she’rlar

---

<sup>1</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. – Т.: Шарқ, 2002. – Б. 229.

asosida uning “Istiqlol manzaralari” nomli doston yaratilgan deyish mumkin.

“Istiqlol manzaralari” dostonida: Jenevada yo‘limda Do‘stlar jamuljam chiqmish. Xush keldingiz, og‘a deb Elchixonim ham chiqmish. Har yig‘inda o‘rnim bor, Erta kundan ko‘nglim to‘q. Ma‘qul kelsa, ha, deyman, Noma‘qulga hushim yo‘q<sup>1</sup> kabi so‘zlari zamirida O‘zbekistonning istiqloq tufayli dunyo hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lganligidan faxr tuyg‘usi akslantirilgan. Demak, har ikkala she‘rda istiqloq tufayli yurtimiz nufuzi yuksalganidan g‘ururlanish tavsiflanmoqda.

Turkum she‘rlar ta‘sirida poemalar paydo bo‘lganligi haqidagi fikrda jon bor. Bunga misol sifatida Mirtemirning “Qoraqalpoq turkumi”ning mantiqiy davomi sifatida “Surat” dostoni yaratilganligini eslatib o‘tish mumkin. Chunki “Surat” lirik poemasi Toshlon va Oysuluvlar ham aynan qoraqalpoq elining farzandlari.

Xullas, o‘zbek she‘riyatida turkum she‘rlar qadimdan to bugungacha o‘z taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan va takomillashgan. Turkumlilik o‘zi yaratilayotgan davr muammolari bilan bog‘liq tarzda mazmunan va shaklan boyib borgan. Turkumlarda vorisiylik an‘anaviy shakllarning davom ettirilganligida ko‘rinsa, novatorlik turkumlilikdagi yangicha izlanishlarda o‘z aksini topadi. Turkumning deyarli har bir shoir ijodida mavjudligi uning lirikaning xos shakllaridan biri ekanligini dalolatlaydi. Turkum she‘rlarning mustaqilligi, ularning bir markazga yagona mavzu va maqsad orqali birlashtirilishi, tasvirdagi makon va zamon birligi singari xususiyatlari uning doston janri shakllanishiga asos bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Turkum asarlar badiiy adabiyotning, xususan, she‘riyatning deyarli barcha janrlarida mavjud. She‘riyatimizdagi turkum dostonlar, dramatik poema, she‘riy drama, she‘riy qissa, she‘riy ertak, reportaj doston kabi asarlarning janr ko‘rinishlari tabiatini o‘rganish, poetik shakllar borasidagi ijodiy izlanishlarni nazariy jihatdan umumlashtirish adabiyotshunoslik ilmi oldidagi muhim masalalardan biridir.

## **2. She‘riy turkumlardagi shakliy-poetik izlanishlar**

“Zamonaviy adabiy tanqidida “turkum” va “turkum” tushunchalarining nazariy mazmuni poetik butunlikning tipologik xususiyatlari, shakllarini o‘z ichiga oladi. Turkumlarning qanday xususiyatlarga ega ekani rus olimasi A.Voronsova-Maralina tomonidan quyidagicha ko‘rsatib berilgan:

---

<sup>1</sup> Abdulla Oripov. Ranglar va ohanglar. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2012. – B. 76-77.

- “o‘zaro ichki semantik birikmalar asosida bog‘langan bir nechta asarlarning birlashtirilgani;
- tarkibiy yaxlitlikka egaligi;
- matnlar o‘rtasida assotsiativ bog‘liqlik mavjud bo‘lgan kompozitsiyaga egalik;
- turkumdagi asarlarning tartibiga qarab, muallifning atrofdagi olamga aniq munosabati aks etgan konseptuallik;
- ma’lum bir markaziy motivga egalik”<sup>1</sup>.

Chindan ham she’riy turkumlarda mazmunan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir necha asar birlashadi, ushbu she’rlar jamlanmasida tarkibiy yaxlitlanish kuzatiladi va o‘ziga xos kompozitsion qurilishi, muallifning ma’lum bir hodisa va muhitga aniq munosabati aks etadi.

A.Oripovning “Haj daftari” turkumida ham yuqorida tilga olingan xususiyatlarni kuzatish mumkin. Bu turkum tarkibidan “Ka’batulloh”, “Payg‘ambar”, “Tilanchi bola”, “Alloh dargohi”, “Hasrat”, “Ona”, “Arofat”, “Hojilar”, “Asliyat”, “Shayton” kabi she’rlar o‘rin olgan. Ushbu she’rlarni haj ziyorati tafsilotlari va undan olingan taassurotlar ifodasi o‘zaro bog‘lab turadi. She’rlarda turkumlilikning yana bir xususiyati bo‘lmish muallifning atrof olamga munosabati ham aks ettirilgan. Har bir munosabat makon va zamon tushunchalari bilan hamohang tasvirlangan.

Turkumda birinchi bo‘lib kelayotgan “Ka’batulloh” she’ri mazmunan butun turkum uchun shartli muqaddima vazifasini o‘tagan, deyish mumkin. Chunki unda haj ziyorati maqsadida arab zaminiga ilk qadam qo‘ygan ziyoratchining Ollohning uyi bo‘lgan Ka’batullohga murojaati ifodalangan.

Shukrona ayturman o‘zingga, yo rab,  
Yuz burdik hidoyat yo‘liga qarab.  
Haq degan yurtimning baxtini so‘rab  
Keldim, madad bergil, yo Ka’batulloh<sup>2</sup>.

Ushbu turkumdagi she’rlarning lirik qahramoni muallifning o‘zi bo‘lib, bunda muallif konsepsiyasi va qahramon kechinmalarining uyg‘unlashgan ifodasi berilgan. Abdulla Oripovning haj ziyoratiga borishi bilan bog‘liq hayotiy jarayon tasviri va taassurotlari asnosida yuzaga kelgan she’rlarning lirik qahramoni qalb kechinmalari uyg‘unlashuvi turkumning asosiy mazmunini tashkil etgan.

<sup>1</sup> Воронцова-Маралина А.А. Проза Сергея Довлатова: поэтика цикла: диссертация ... кандидата филологических наук. – Москва, 2004. – С. 401. (tarjima muallifniki)

<sup>2</sup> Абдулла Орипов. Танланган асарлар. 4 жилдлик. 2-жилд. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 182.



Tadqiqotchilar lirik turkumni uning tarkibidagi she'rlarni mavzuviy jihatdan saralashdan, she'rdan ajralib turadigan bir qator xususiyatlarni aniqlashdan boshlashni ma'qul ko'radilar. Ko'rinadiki, A.Oripovning "Haj daftari" turkumi tarkibidagi she'rlar turkumlilikka xos bo'lgan qator xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Ushbu xususiyatlarning nisbatan to'liq to'plami tarkibni shakllantirish, lirik turkumga kiritilgan she'rlarning mustaqilligi, ularning bir markazga yagona mavzu va maqsad orqali birlashtirilgani, she'rlarda lirik qahramonning yagonaligi, tasvirdagi makon va zamon birligi va boshqalarda ko'rinadi. Mana shu jihatlarning barchasi yuqorida tahlil etilgan turkum she'rlarda kuzatildi.

Abdulla Oripov ellik bir she'ni birlashtirib, "Hikmat sadolari" sarlavhali poetik turkum ham yaratgan. Ushbu turkum shoirning islomiy-axloqiy she'rlari jamlanmasi bo'lib, ularda ham inson kamoloti bosqichlari hikmatlar tarzida ko'rsatiladi. Qizig'i shundaki, ushbu turkum tarkibiga kiritilgan she'rlarning elliktasi bir xil miqdorda, ya'ni to'rt misralik uch band, ya'ni o'n ikki qatordan qilib shakllantirilgan. Faqat birgina she'r to'rt qator miqdorida. Bu holat turkumdagi she'rlarni bog'lab turuvchi yana bir shakliy xususiyat deyish mumkin. Turkum mazmunan Alisher Navoiy hazratlari va So'fi Olloyorlarning bir xilda nomlangan "Siroj ul muslimin" asarlarini eslatadi. Mumtoz adabiyot namunalari bo'lgan har ikkala asar ham din ahkomlari, shariat qoidalariga bag'ishlangan she'rlar jamlanmasi bo'lganligidan ularni ham she'riy turkumlar deb atash mumkin. Bundan Abdulla Oripovni an'anaviy mumtoz she'riyat davomchisi sifatida e'tirof etish mumkin.

Ma'lumki, lirik asarlardagi sifat o'zgarishlari shoirning badiiy mahorati va lirik qahramon kechinmalarini tasvirlash ko'lami tufayli yuzaga keladi. She'riyatdagi turfa mavzularni, hayot muammolarini badiiy idrok va ifoda etishdagi xilma-xil uslubiy izlanishlar hamda obrazli ifodalar poetik tafakkur imkoniyatlarining nechog'lik keng ekanligini dalolatlaydi. Poetik shakllarning o'ziga xos ko'rinishlaridan biri bu – she'riy turkumlardir. Ularning tadrijiy taraqqiyoti shu kungacha yaratilgan shu turdagi asarlarning kompozitsion strukturasi, badiiy xususiyatlaridagi o'zgarishlarda ham ko'rinadi. She'riy turkumlarning mavzusi va unda aks ettirilayotgan shoirning g'oyaviy niyati turkumlardagi umumbashariy g'oyalarning ifodalanishi kabi jihatlar asarning badiiy ifoda usuliga ta'sir ko'rsatadi.

She'riy turkumlilikning shakllanishi uzoq o'tmish bilan bog'liq bo'lsa-da, uning o'rganilishi XX asrga to'g'ri keldi. Bugungi kun o'zbek adabiyotshunosligida ushbu masala atroflicha o'rganilmagan. Lekin

jahon adabiyotshunosligida, xususan, rus adabiyotshunosligida masala yetarlicha o'rganilgan va bu mavzuga daxldor aksar badiiy asarlar tadqiq etilgan.

Turkumlilik qadimdan mavjud bo'lgan o'zbek she'riyatida bu boradagi yuqori cho'qqilar XX asrda zabt etildi. She'riy turkumning poemadan asosiy farqi uning tarkibidagi she'rlar mustaqil holatda ham alohida asar bo'la olishida. Poema esa bir butun yaxlitlik. Lekin she'riy turkum tarkibidagi she'rlarni yagona g'oya, yagona mavzu, yagona asos birlashtirib turadi.

Shunday turkumlar xalqimizning sevimli shoiri Usmon Azim ijodida ham mavjud. Uning "Turmush suratlari", "Tazarru bog'lari", "Bolalikdan ikki xotira", "Sevgi haqida", "Yana sevgi haqida she'rlar", "Chapani yoki jaydari she'rlar", "Xamsa"ga tatabbu", "Ko'ngil", "Erk haqida she'rlar" kabi turkumlari shular jumlasidan. Shoirning "Turmush suratlari" deb nomlangan turkumi tarkibiga o'n ikki mustaqil she'rlar jamlangan bo'lib, ular raqamlar bilan ajratilgan.

Usmon Azimning yana bir yirik turkumi "Tazarru bog'lari" deya nomlanadi. Ushbu turkum yetti qismdan iborat bo'lib, ular ham o'z navbatida mayda bo'limlarni o'z ichiga olgan. "Muqaddima" turkumning birinchi bo'limi bo'lib, unda turkum uchun asos vazifasini o'tagan asosiy tushuncha – bog' xususida so'z boradi. Bunda saratonning ketish vaqtidagi bog'ning holati "Otashin taxtidan qular saraton, Samoda titranar hazin tiniqlik", – deya ta'riflanishi orqali inson umrining ham zavol sari enishi, o'z kuziga tomon qadam qo'yishi holati aks ettiriladi. Shuning uchun ham shoir ushbu holatni:

Tunlar zavol bilan quraman suhbat,  
Xuddi hayot bilan gaplashgan kabi<sup>1</sup>

yo'sinida ifodalaydi. Muqaddimaning ikkinchi she'rida lirik qahramon bo'lgan shoirning inson Yaratgan oldida qiladigan tazarrulari mohiyatiga to'xtaladi:

O'zni tanish fursati – uzoq,  
Qanday qiyin yonadi gunoh...  
Sen o'zingni taniganing chog',  
Jamolini ko'rsatar Oллоh<sup>2</sup>...

Turkumning ikkinchi bo'limi "Qishki bog'" deb nomlanadi. Ushbu bo'lim to'qqiz qismdan iborat bo'lib, undagi kuzdan qishga o'tish tasviri insonning gunohlarga botgan holatiga mengzaladi va inson tazarru

<sup>1</sup> Усмон Азим. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1995. – Б. 351.

<sup>2</sup> Усмон Азим. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1995. – Б. 352.

onlaridagi o‘zidagi gunohlarni his etish chog‘ida qanday tushkunlikka tushsa, o‘sha holat shoir tomonidan “Tong otmadi – zabt etdi armon Miyamning qat-qatlarigacha”<sup>1</sup> tarzida ifoda etiladi.

“Tazarru bog‘lari” turkumining navbatdgi qismi “Kuzgi bog‘” bo‘lib, bu turkumning o‘zi uch qismdan iborat. “Kuzgi bog‘ II” deb nomlangan qismda saratonning noxos cho‘kkanligi holati aks ettiriladi. Ikkinchi she‘r qirq-yil yashagan lirik qahramon o‘z umrining yana bir kuzini yig‘lab qarshi olishi va kuzning dardiga dardmand sifatida qahramonning ham uning izidan borishga shoshilishi holati aks ettirilgan. Uchinchi she‘rda umrning kuzi xususidagi shoir mulohazalari turfa xil holatlar va tashbehtar orqali ifodalangan. Shoir, asosan, hayotdagi iz qoldirmaslik, yashashning asl mohiyatini anglamaslik, beshik va qabr orasi bo‘lgan umrni behuda o‘tkazish kabi holatlar haqida falsafiy qarashlarini ifodalaydi. She‘rda “Kuz ko‘ksing yurakni mixlar – Yurak – Iso payg‘ambar kabi”<sup>2</sup> misralari orqali kuz fasli kishini jiddiy hayotiy masalalar xususida mushohada qilishga chorlaydigan fasl ekanligi ta‘kidlanadi.

Turkumning “Kuzgi bog‘ III” nomli to‘plamidan o‘n bitta she‘r o‘rin olgan bo‘lib, ularda ham kuzning yurakka og‘ir tuyg‘ular solishi va insonning o‘z yuragi bilan kurashda, albatta, yengilishi singari inja ruhiy holatlar aks etadi. Ularda o‘zligidan ayrilib, qaro yerga kirgan lirik qahramon bir nido bilan yotgan joyidan bosh ko‘tarib, o‘zi mavjudligini eslatgani tasvirlanadi. “So‘nggi so‘z” deb atalgan so‘nggi she‘rda:

Hayotdan hech qachon qilmaymiz gina,  
Savol bersak hamki, kajraftor jimdir.  
Ukajon, aslida o‘lim-ku NIMA,  
Ammo bevaqt o‘lim hamisha KIMDIR<sup>3</sup>

deya bevaqt o‘lim topgan insonga befarq bo‘lmaslik insonlar tabiatida borligi, bunday o‘lim odamlarda hamdardlik uyg‘otishini tasvirlaydi. She‘rning “Xotima” qismida shitob bilan ketib borayotgan umr karvoniga xitob qiladi:

Bog‘im ketdi – qolgan ko‘nglim yoboni,  
Oldida qum, ortidadir dovoni,  
Kelayotgan o‘zgalarning davroni –  
To‘xta-ya, to‘xtagin, umrim karvoni<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Usmon Azim. O‘sha kitob. – B. 353.

<sup>2</sup> Usmon Azim. O‘sha kitob. – B. 365.

<sup>3</sup> Usmon Azim. O‘sha kitob. – B. 402.

<sup>4</sup> Usmon Azim. O‘sha kitob. – B. 403.

Yuqorida aytilganlarni xulosalaganda, Abdulla Oripovning she'riy turkumlari bir xil taassurot asnosida yaratilgan turli she'rlarning birlashmasi hisoblanadi, ushbu turkumga mustaqil lirik she'rlarning yuqori darajada yaxlitlashtirish sabab hosil bo'lgan poetik birlikning o'ziga xos shakli sifatida yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shoirning "Hikmat sadolari" she'rlar turkumi islomiy-axloqiy yo'nalishdagi poetik jamlanma bo'lib, unda inson kamoloti bosqichlari hikmat shaklida aks ettirilgan va bu salaflar ijodiga vorisiylik sifatida talqin etilishi mumkin.

Usmon Azim she'riy turkumlari ijtimoiy hayot muammolari tasviridan tashqari tasavvuf g'oyalari talqiniga bag'ishlangani bilan ajralib turadi. Turkumlar tarkibidagi barcha she'rlarda yagona lirik qahramon bo'lishi ham uning yaxlit konstruktsiya ekanligini ko'rsatadi. Bu she'riy turkumlar yuksak badiiyati va yuqori turkumlilik darajasi bilan o'zbek she'riyatida o'z o'rniga ega bitiklardir.

Yuqoridagilardan quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- O'zbek she'riy turkumliligida vorisiylik va badiiy tafakkurdagi yangilanishlar ijodkorlarning o'zgarishlarga munosabati va badiiy-estetik tafakkur tarzidagi o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan. Turkumlarda mushtarak g'oyaviy niyat, umumiy mavzu va qahramon, shuningdek, muayyan kompozitsion yaxlitlik kuzatiladi. Ulardagi vorisiylik an'anaviylikda ko'rinib, novatorlik turkumlilikdagi yangicha shakliy va mazmuniy izlanishlarda o'z aksini topgan.
- Lirik asarlardagi sifat o'zgarishlari shoirning badiiy mahorati va lirik qahramon kechinmalarini tasvirlash ko'lami tufayli yuzaga keladi. She'riyatdagi turfa mavzularni, hayot muammolarini badiiy idrok va ifoda etishdagi xilma-xil uslubiy izlanishlar hamda obrazli ifodalar poetik tafakkur imkoniyatlarining nechog'lik keng ekanligini dalolatlaydi. Poetik shakllarning o'ziga xos ko'rinishlaridan biri bo'lgan she'riy turkumlarning tadrijiy taraqqiyoti shu kungacha yaratilgan shu turdagi asarlarning kompozitsion strukturasi, badiiy xususiyatlaridagi o'zgarishlarda ham ko'rinadi. She'riy turkumlarning mavzusi va unda aks ettirilayotgan shoirning g'oyaviy niyati turkumlardagi umumbashariy g'oyalarning ifodalanishi kabi jihatlar asarning badiiy ifoda usuliga ta'sir ko'rsatadi.
- Turkumning deyarli har bir shoir ijodida mavjudligi, uning lirikaning xos shakllaridan biri ekanligini dalolatlaydi. Turkum

she'rlarning o'ziga xos jihatlaridan bo'lgan nisbiy mustaqilligi, yagona mavzu va maqsad orqali birlashtirilgani, tasvirdagi makonu zamon birligi va boshqa ko'plab xususiyatlari bu shaklning poema janri shakllanishiga asos bo'lganligini ko'rsatadi.

- Abdulla Oripov va Usmon Azim she'riy turkumlari bir xil taassurot asnosida yaratilgan mustaqil lirik she'rlarning yuqori darajadagi yaxlitlikka birlashtirilganidan hosil bo'lganligini anglatadi. Turkumlar tarkibidagi barcha she'rlarda yagona lirik qahramon bo'lishi ham uning yaxlit konstruksiya ekanini ko'rsatadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. O'zbek she'riy turkumliligida vorisiylik qaysi ijodkorlarda ko'rinadi?
2. O'zbek she'riy turkumliligida badiiy tafakkurdagi yangilanishlar qaysi ijodkorlar asarlarida?
3. Lirik asarlardagi sifat o'zgarishlari nimalar tufayli yuzaga keladi?
4. Tasvirdagi makonu zamon birligi va boshqa ko'plab xususiyatlari bu shaklning qaysi janri shakllanishiga asos bo'lgan?
5. She'riy turkumlarda shakl va mazmun uyg'unligi nimalarda ko'rinadi?
6. Abdulla Oripov she'riyatida qanday turkumlar mavjud?
7. Usmon Azim turkumlari haqida nimalar bilasiz?
8. Turkumni tashkil etuvchi birliklar nimalardan iborat?
9. Turkumlar tarkibidagi lirik qahramon masalasi qanday hal etiladi?
10. Turkumlilik o'zbek adabiyotida kimlar ijodida uchraydi?

### **TESTLAR**

#### **1. O'zbek she'riyatigi ikkilik turkum shakli qaysi asar tarkibida uchraydi?**

- A. Mahmud Qoshg'ariyning "Devon"i
- B. Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat"i
- C. XIX asr shartli she'riy turkumlar
- D. XX asrdagi to'rtlik va ikkilik shaklidagi turkumlar.

#### **2. Alisher Navoiyning she'riy turkumlarini belgilang.**

- A. "Sittai zaruriya" ("Olti zarurat"); "Fusuli arbaa" (To'rt fasl);
- B. "Kurash", "Poyga", "Poyga ta'rifida", "To'ynoma";
- C. "Qush ovi", "O'rmonda ov", "To'qayda ov".
- D. "Ta'rixlar", "Ziyofat", "Shikor".

**3. XIX asrning 2-yarmi, XX asr boshlari turkumlarida qaysi janrlar ko‘plab uchraydi?**

- A. masnaviy, muxammas, qit‘a, g‘azal;
- B. ruboiy, tuyuq, masnasiy;
- C. muxammas, musaddas, musamman;
- D. murabba‘, qit‘a-tarkibband, g‘azal.

**4. G‘azal va masnaviy shaklida yaratilgan turkumlarni aniqlang.**

- A. Zavqiy va Muqimiylarning “Pashshalar” she‘rlari;
- B. Muqimiya mavjud bo‘lgan “Ot” turkumi;
- C. Zavqiy ijodida ham “Oting” va “Otim” sarlavhalaridagi turkumlari;
- D. Sidqiy Xodayliqiyda esa “Dar hajvi toy” shaklidagi turkumlari.

**5. Muqimiy ijodidagi turkumni belgilang.**

- A. “Ko‘sa” turkumi;
- B. “Dar mazammati zamona” turkumi;
- C. Is‘hoqxon Ibrat ijodida “Shikoyati zamona” turkumi;
- D. Sidqiy Xodayliqiy ijodidagi “Rabo(t)chiylar namoyishi”.

**6. Abdulla Avloniy to‘plagan “Mardikorlar ashuvlasi” nomi ostidagi**

**to‘rtta she‘rlar**

- A. g‘azal va qit‘a shakllari,
- B. masnaviy, muxammas shakllari;
- C. ruboiy, tuyuq, masnasiy shakllari;
- D. muxammas, musaddas shakllari;

**7. Hamza Hakimzoda Niyoziy she‘riyatida “Mardikorlik she‘rlari” (“Sog‘inib”, “Salom ayting”) turkumlari qanday shaklda yaratilgan?**

- A. to‘rtlik – murabba‘
- B. qit‘a-tarkibband
- C. masnaviy, g‘azal;
- D. tuyuq, masnasiy

**8. Abdurauf Fitrat o‘zining “Yurt qayg‘usi” nomli turkumida qaysi shaklidan foydalangan?**

- A. sochma she‘r;
- B. an‘naviy shakllar;
- C. azuziy she‘r;
- D. oq she‘r.

**9. Qaysi turkum Oybek qalamiga mansub?**

- A. “Chimyon turkumi” turkumi;
- B. “Qoraqalpoq daftari” turkumi;

C. “Kavkaz daftari turkumlari;

D. “Vodiy tuhfası”.

**10. Rauf Parfining she’riy turkumlarini belgilang.**

A. “Sunbula”, “Barnobonu”, “Og‘riq”, “Sensiz”;

B. “Nomozshomgul” va “Sensizlik” turkumlari;

C. “Sevgi olmoshi”, “Ko‘ngil”;

D. “Turmush suratlari”, “Tazarru bog‘lari”.

**11. Usmon Azimning she’riy turkumlarini toping.**

A. “Turmush suratlari”, “Tazarru bog‘lari”

B. “Sevgi olmoshi”, “Ko‘ngil”;

C. “Qoraqalpoq daftari”, “Jangchi bloknoti”;

D. “Chimyon turkumi”, “Vodiy tuhfası”.

**12. Usmon Azimning “Turmush suratlari” deb nomlangan turkumi tarkibiga nechta mustaqil she’rlar jamlangan?**

A. o‘n ikki

B. sakkiz

C. to‘rt

D. o‘n olti

### **3-MAVZU: TURKUMNI SHAKLLANTIRUVCHI KOMPONENTLARNING ESTETIK VAZIFALARI**

#### **REJA:**

1. Turkumni shakllantiruvchi birliklar
2. Turkumlarning badiiy-estetik xususiyatlari

**Tayanch soʻz va iboralar.** Badiiy-estetik xususiyat, shakllantiruvchi birlik, kompensatorlik, kommunikativlik, sheʼriy matn, aloqadorlik, lirik qahramon, tafsil – detal, poetik mahorat, umumiy lirik qahramon, umumiy kechinma, umumiy joy, makon, tasvirlanayotgan vaqtdagi davomiylik, davr kishilari obrazlari, muhit tushunchalari, majoziy tasvirlar va boshqalar.

#### **Mavzuning bayoni:**

##### **1. Turkumni shakllantiruvchi birliklar**

XX asr adabiyotshunosligida “siki” – turkum tushunchasining asosiy xususiyati poetik butunlikning bir turi sifatida uning tipologik xususiyatlari, shakllarini oʻz ichiga olgan aniqlashtirilgan. Ilmiy tadqiqotlarda turkumning xos xususiyatlari sifatida mazmunan oʻzaro bogʻliq bir necha asarning mavjudligi; tarkibiy yaxlitlik borligi; matnlar oʻrtasida assotsiativ bogʻliqlik; turkumdagi sheʼrlarning tartibi va muallifning atrofdagi olamga munosabati; muayyan markaziy motivga asoslanish; turkumdagi bitiklarning uslubiy, ritmik, majoziy-metaforik, intonatsion umumiylik singari bir qator tizimli unsurlari borligi bilan poeziyaning “katta shakli” hisoblanishi koʻrsatib oʻtilgan.

Turkumning eng muhim vazifasi kompensatorligi va kommunikativligi, yaʼni badiiy asarlarni bir-biriga bogʻlay olishi, uning barcha elementlarining oʻzaro aloqadorligida koʻrinadi.

Turkumni shakllantirishning oʻziga xos mezonlari sifatida turkumlar mazmunidan anglashilayotgan umumiy kayfiyat, tabiat tasviri, sheʼriy matnlarni tashkil etishning oʻxshashligini ham koʻrsatish mumkin.

Turkumni shakllantiruvchi birliklarni Mirtemirning mashhur “Qoraqalpoq daftari” turkumi misolida koʻrib oʻtish maqsadga muvofiq.

Mazkur turkum shoirning Qoraqalpogʻistonga safari natijasi oʻlaroq yozilgan boʻlib, turkum tarkibida yigirmata sheʼr mavjud. Sheʼrlar hajmi har xil boʻlsa-da, ularning lirik qahramoni shoirning oʻzi boʻlib, uning safar taassurotlari, oʻy-kechinmalari sheʼrlarning asosiy mavzusini tashkil etgan. Turkumdagi birinchi sheʼr “Daryo jimir-jimir, osmon lojuvard”



deb boshlangan. Ushbu peyzaj lirikasi namunasi bo‘lgan she‘r Qoraqalpog‘istonning o‘ziga xos tabiatini aks ettirgandir.

Daryo jimir-jimir, osmon lojuvard,  
Bog‘lar mudramoqda, dala bepoyon.  
Kuyla, to‘lib-toshib, ko‘rmagin hech dard,  
Kuylasang balqiydi zaminu zamon;  
Bog‘lar mudramoqda, dala bepoyon<sup>1</sup>.

Lirik qahramon qalbidagi cheksizlikni qamrash va bepoyonliklikdan bahramand bo‘lish hissi ifodasi tabiat tasviri bilan omuxta tarzda berilgan. Unda shoir “daryo jimir-jimir”, “osmon lojuvard”, “dala bepoyon” kabi sifatlashlardan, “bog‘lar mudramoqda” kabi jonlantirishlardan unumli foydalangan. She‘rga besh misralik band shakli tanlangan bo‘lib, u tuzilmasiga ko‘ra uch banddan iborat. Keyingi bandda esa shoir tasvir vositalarini biroz murakkablashtiradi:

Suvda qalqib o‘ynar kumush tangalar,  
Yorug‘ tun sharpasi kelar Amudan.  
Cho‘chitmasin to‘qay, ho‘v ko‘lankalar,  
Ko‘nglim qo‘shiq istar senday suluvdan,  
Yorug‘ tun sharpasi kelar Amudan<sup>2</sup>.

“Kumush tangalar” majoziy tasvir talabiga ko‘ra shakllantirilgan istiora bo‘lib, u yog‘duning suvdagi aksi ma‘nosini bermoqda. Ularning o‘ynayotgani va “tun sharpasi”ning kelishi, “to‘qayning cho‘chitishi” ifodalari jonlantirish bo‘lib kelmoqda. Bu bandda “Yorug‘ tun sharpasi kelar Amudan” misrasining takror qo‘llanishi ma‘noni kuchaytirishga xizmat qilgan. She‘rning uchinchi bandi endi yuqorida aytilgan “yorug‘ tun sharpasi”ning oydinligidan foydalanib, o‘sha oydinga suluvdan qo‘shiq eshitish istagi ma‘nosini ifodalagan. “Berdaq to‘qiyolmay ketgan sho‘x g‘azal; Kuyla, kuylash uchun oydin – soz mahal...” deyish orqali Qoraqalpoq yurtining sevimli shoiri Berdaq nomi esga olinadi, bu esa asosiy mazmun shu yurt safari taassurotlari ifodasi ekanligini esga soluvchi tafsil – detal vazifasini o‘taydi.

Turkumdagi navbatdagi she‘r “Amu qirg‘oqlari” deb nomlangan bo‘lib, sarlavhasi uning Amudaryo haqidalgini anglatadi. She‘r tuzilmasi bandlarga ajratilmagan ikki qismdan tashkil topgan. Birinchi qismda ajratilmagan qirq satr bo‘lsa, ikkinchi qism to‘rt satrdan iborat.

---

<sup>1</sup> Миртемир. Асарлар. 4 жилдлик, 3-жилд. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 68.

<sup>2</sup> Mirtemir. O‘sha kitob. – B. 68.

Ey sen, suluv daryo, azamat daryo.  
Ey sen, tentak to‘lqin, tizginsiz to‘lqin,  
Ey sen saholarning dardiga davo,  
Ey qudrati jahon, ey qalbi jo‘shqin<sup>1</sup>.

She’rda qo‘llanilgan “ey sen” anaforasi ma’noni kuchaytirishga xizmat qilgan. Ushbu parchada shoir Amudaryo ta’rifi uchun to‘lig‘icha sifatlash – epitetlardan foydalangan. O‘zining Sirdaryo sohillaridan ekanini ta’kidlash orqali lirik qahramon bu diyorga daryoga qadrdonlik sabab kelganini bildiradi. She’rda “Oyning kokillari halqayu halqa”, “oltin qirg‘oq”, “to‘lqinlarning mudhish quchog‘i”, “ezgu qatra”, “sahrolarning asriy dardiga doru” kabi tashbehlar qo‘llaniladi. She’rnihojasida katta qism ichidagi to‘rt satrning alohida takrorlanishi orqali Amudaryoning o‘zligiga urg‘u beriladi:

Girdoblarning mudhish quchoqlarida  
Asov nahang kabi kechmak istayman.  
Va sening muborak, loyqa suvingni  
Sharob kabi to‘yib ichmak istayman<sup>2</sup>,

Bu tasvirlarda Amudaryoning suvi loyqaligi, asovlanib betizgin oqishi aks etgan.

Turkumdagi “Ko‘l bo‘yida” she’ri ikki qismdan tashkil topgan. Unda shoir xalq og‘zaki ijodida ko‘p uchraydigan  $4+4=8$  va  $2+3=5$  kabi qo‘shma vaznga xos bo‘lgan turoqlanish tartibidan foydalangan:

Yashil shahar yonboshida  
Zumrad ko‘l ko‘rdim.  
Zumrad ko‘lning naq qoshida  
Qumloq cho‘l ko‘rdim<sup>3</sup>.

“Sajda emas” she’ri esa sakkiz misralik o‘n to‘qqiz band yig‘indisi bo‘lgan yirik hajmli bitikdir. Unda cho‘pon yigitning o‘z baxtini topish jarayoni aks ettirilgan. “Qora soch” she’ri sakkiz satrlik olti band birlashuvidan tashkil topgan. Unda Qora sochli malakka oshiqning dil rozlari tasvirlangan. “Bulut” she’ri an’anaviy to‘rt satrlik ikki banddan iborat. Sof peyzaj lirikasi namunasi bo‘lgan ushbu she’rda Qoraqalpog‘istondagi tabiat lavhalari aks ettirilgan:

Ko‘k yuzida pag‘a bulut – oq bulut,  
Oq bulutdan sut yog‘armi yoki qut?

<sup>1</sup> Mirtemir. Asarlar. 4 jilddik, 3-jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1982. – B. 68.

<sup>2</sup> Миртемир. Асарлар. 4 жилдик, 3-жилд. – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – В. 69.

<sup>3</sup> Mirtemir. O‘sha kitob. – B. 79.

Pag‘a bulut – yaxshi ko‘klam elchisi,  
Havolarda yomg‘ir isi, sel isi<sup>1</sup>...

Osmondan suzib o‘tayotgan oq bulutdan sut yoki qut yog‘ishida o‘zgacha ma‘no bor. Ya‘ni sut – chorvachilikning, qut – dehqonchilikning yaxshi bo‘lishiga ishora ma‘nosida kelmoqda. Qoraqalpoqlarda keng yaylovlar hisobiga chorvachilik asosiy mashg‘ulot turi bo‘lganidan sut va qut tushunchalari she‘r davomida yonma-yon qo‘llanilgan. Mazkur she‘rda shoir anaforik kompozitsiya turidan unumli foydalangan:

Ko‘k yuzida pag‘a bulut – oq bulut...  
Bir qarasang – osmon to‘la oqquvlar,  
Bir qarasang – baland qorli cho‘qqilar,  
Bir qarasang – ko‘z ilg‘amas oq barqut<sup>2</sup>.

Oq va pag‘a bulut tasviri navbati bilan bir oqquv (oq qush)ga, bir baland qorli cho‘qqiga, bir oq barqutga o‘xshatilgan. “Bir qarasang” anaforasi uchta misraning boshida kelishi orqali ma‘no kuchaytirilishiga erishilgan. “Ko‘k yuzida” birligining keyingi qismda yana bir bor kelishi esa anaforik kompozitsiyani yuzaga keltiradi:

Ko‘k yuzida – yorug‘, oydin bir ro‘yo...  
Usta rassom chizmish ajib manzara –  
Tepa-tepa paxta – beg‘ubor, sara,  
Kuzgi xirmonlarning akslari go‘yo<sup>3</sup>...

Ushbu badda bulut bu safar “yorug‘ va oydin ro‘yo”ga, “beg‘ubor va sara tepa-tepa paxta”ga o‘xshatilishi orqali uning kuzgi xirmonni mo‘l qiluvchi sehrli kuchiga ishora qilinmoqda. She‘rdagi majoziytasvirlarning barchasi yomg‘irning – suvning hayotbaxshlik xususiyatiga ishora tarzida shakllantirilgan.

Turkumdagi “Tongdan ham chiroyli” she‘ri to‘rtta to‘rt satrlik bandlar yig‘masi bo‘lib, unda bir go‘zal qizning tongdan ham chiroyli ekanligi ta‘rifi beriladi:

Tong shu‘lasi sochin har bir tolasi,  
Yuzlari go‘yoki tog‘lar lolasi.  
Husni – tong husniday toza va tengsiz  
Suluv tabiatning so‘lim bolasi<sup>4</sup>.

Ushbu tasvirda istiora, o‘xshatish, sifatlash kabi badiiy vositalardan o‘rinli foydalanilgan. “Suluv yoz” she‘ri ham to‘rt satrlik besh banddan

<sup>1</sup> Mirtemir. O‘sha kitob. – B. 95.

<sup>2</sup> Mirtemir. O‘sha kitob. – B. 95.

<sup>3</sup> Mirtemir. O‘sha kitob. – B. 95.

<sup>4</sup> Mirtemir. O‘sha kitob. – B. 96.

tashkil topgan. Unda Qoraqalpoq o'lkasi yozining o'zgacha tarovati aks ettirilgan. Turkumdagi so'nggi she'r "Qoraqalpoqda Toshkentni sog'inish" deb nomlangan bo'lib, katta hajmli ushbu she'rda shoir Qoraqalpog'iston safariga yakun yasab, Toshkentga qaytish istagi bilan birga har ikkala maskanning cheksiz o'ziga xosliklarini esga oladi.

Shoirning "Qirg'iz she'rlari" deb nomlangan turkumida "Qirg'izlar", "Chag'alay", "Men seni...", "Qirg'iz xalqiga", "Azalik", "To'qtag'ulga", "Bovurdoshlik" kabi o'n bitta she'r jamlangan. Ularda qirg'iz xalqining o'zligini ifoda etuvchi jihatlar tilga olingan. Ushbu she'rlarning lirik qahramoni bu yurtga safar qilgan shoirning o'zidir. She'rlar kompozitsion jihatdan turfa xil tuzilmaga ega.

Turkumning birinchi she'ri bo'lgan "Qirg'iziston"da shoir anaforik kompozitsiya – "qayoniga borma" va yarim satrlik kompozitsion yechim – Qirg'iziston bu!"dan unumli foydalangan:

O'tloqlar tizzadan, daralar suluv,  
Ko'llarida yuzar suqsur va oqquv,  
Qayoniga borma – buloq, tiniq suv,  
Qayoniga borma – omon-omon bu –  
Qirg'iziston bu!<sup>1</sup>

Turkumdan shoirning mashhur she'rlaridan biri "Men seni..." ham joy olgan bo'lib, unda lirik qahramon – oshiq yigitning dil rozlari bayon qilingan. She'r: "*Men seni injitmayman Va lekin tinchitmayman...*" shaklidagi 3+4=7 turoqlanishga ega bo'lsa, undan keyingi she'r uning ikki baravari hajmidagi o'n to'rt bo'g'inlik satrlarning 3+4+4+3=14 shaklida turoqlangan:

Charx urib, bo'z to'rg'ayday bo'zlashim bor boshingda  
Ey sochlaring to'liqini tun singari sim-siyoh.

She'rning nihoyasi yana boshidagi ikki misra bilan yakunlangani, uning kompozitsion halqa asosida bitilganini ko'rsatadi.

Shoir poetik mahorati uning "Qirg'iz xalqiga" nomli she'rida yaqqol namoyon bo'lgan:

Ko'k gumbazin silkitganday qaldiraq,  
Tog'dan tushar sho'x shovvalar oqini.  
Bo'z qirlarda – suv mavjida sho'x-quvnoq  
Lov-lov yonar yorug' tonglar yolqini<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Миртемир. Асарлар. 4 жилдлик, 3-жилд. – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 101.

<sup>2</sup> Миртемир. О'sha kitob. – В. 105.

Sheʼrdagi “koʻk gumbazi” – istiora, “shoʻx shovvalar”, “boʻz qirlar”, “yorugʻ tonglar” kabilar sifatlash, qaldiroqning silkitishi – jonlantirish kabi tasvir vositalardan oʻrinli foydalanilgani shoir sanʼatkorligining isbotidir.

Turkumning soʻnggi “Sirboyga bagʻishlaganim” sheʼri oʻn satrlik olti banddan iborat. Bandlardagi sakkiz misra a-b, d-b, e-b, f-b tarzida qofiyalangan, toʻqqizinchi va oʻninchi misralar esa j-j shaklida alohida qofiyalangan. Mana shu ikki misra sheʼr barcha olti bandning oxirida birdek takrorlangan. Soʻnggi ikki misraning bandlar soʻngidatakrorlanishi kompozitsion yechim shakliga mos keladi.

Yuqoridagi tahlillardan ham koʻrinib turganidek, Mirtemir qalamiga mansub “Qoraqalpoq daftari” va “Qirgʻiz sheʼrlari” turkumlari tarkibidagi sheʼrlar bandlar miqdori yoki misralar miqdori jihatidan ham umumiylik xususiyatiga ega emas. Turkumlar tarkibida turli miqdordagi va turfa shakllardagi band turlaridan foydalanilgan. Mirtemir turkumlarini bogʻlab turuvchi unsurlar sifatida undagi umumiy badiiy niyatni, safar taassurotlari mazmunini, mavzuni, lirik qahramon kechinma va oʻy-xayollari ifodasini, makon va zamonning, yaʼni xronotopningyagonaligini koʻrsatish mumkin.

Mirtemir mazkur turkumlarda kompozitsiyaning anaforali, yechimli va xalqa shaklidagi usullaridan oʻrinli foydalana bilgan. Turkum tarkibidagi sheʼrlarga alohida sarlavhalar tanlangani va ayrimlariga alohida epigraflar bergani ushbu sheʼrlarning mustaqil asar sifatidagi maqomini koʻrsatgan.

Mirtemir turkumlari tarkibidagi poetik obrazlar ham shoirning gʻoyaviy niyatiga xizmat qilgan, chunki ular ham turkum mavzusi va mazmuniga mos ravishda tasvirlanayotgan hudud kishilari yoki majoziy tasvirlarda esa oʻsha hudud bilan bogʻliq tushunchalar sifatida aks ettirilganligi fikrimiz dalilidir.

Sonetlar mazmunidagi yaxlitlik va tadrijiylik ham, sonetlar qulflaridagi xulosa fikrlardagi izchillik ham, asosiy mazmunga daxldor epigraf ham turkumning xossalariidan sanaladi.

Rauf Parfi sheʼriyatida sonet turkumlarining alohida oʻrni borligi xususida yuqoridagi boblarda ham aytilgan edi. Uning bunday turkum sheʼrlari yigirmadan ortiq boʻlib, kompozitsion tuzilmasiga koʻra uchtdan oltitagacha sonetlarni oʻz ichiga olgan. Jumladan, “Muhabbat”, “Qora devor” – olti sonet, “Sunbula”, “Mikelanjelo sevgisi”, “Ogʻriq”, “Aleksandr Blok”, “Abdulhamid Sulaymon Choʻlpon”, “Ona tilim”, “Koʻzlar”, “Yoʻlovchi”, “U dunyoga, onamga maktub”, “Abdurauf

Fitrat”, “Yer farzandi”, “Ona Turkiston”, “Sensiz”, “Tangri sog‘inchi”, “Munajjim”, “Tavba”, “Hamlet” turkumlari uch sonetdan; “Thakurning oxirgi she’ri”, “Alaniya”, “Siyovush”, “Tuhmat – 1985” asarlari to‘rt sonetdan; “Toshtemir Qahramon o‘g‘li she’rlaridan” – besh sonetdan iborat holda turkumlashtirilgan. Bu turkum sonetlarni o‘zaro bog‘lab turuvchi kompozitsion unsurlar sifatida umumiy sarlavha, epigraf, makon va zamon birligi, qismlar birligini ko‘rsatish mumkin.

Rauf Parfi sonet-turkumlari ichida eng yiriklari “Muhabbat” va “Qora devor” bo‘lib, har ikkalasi olti qismdan tashkil topgan. Turkumlarda shoirning badiiy niyatini asoslaydigan sarlavhalar undagi umumiy mazmunga aloqador bo‘lishi tabiiy hol. Mazmunni birlashtiruvchi yana bir jihat lirik qahramon kechinmasining tadriji hamdir. Shular hisobga olinsa, “Muhabbat” turkumining birinchi sonetida lirik qahramon o‘z ruhiy holatini “Shunday iztirobda sevgan yuragim, Muhabbat dastidan yo‘q majol, imkon” tarzida bildirsa, ikkinchi sonetda: “Sevgilim, sevgilim, javob ber axir, Sovuq jismim ichra alahsitar jon”, – deya ma’shuqasidan najot istashi aks etadi. Uchinchi sonetda lirik qahramonning yoriga o‘tinchi: “Faqat inson bo‘lgin sadoqatda sen, Mening vafodirim bo‘lgin tanho” shaklida bildiriladi. To‘rtinchi sonetda shoir: “Sevgilim, men senga inondim nechun, Seni o‘zgalardan o‘zga, deb bildim”, – deyish orqali ishongan insonining aldoviga qurbon bo‘lgani anglatiladi. Beshinchi sonetda:

Qayda u sadoqat, poklik degan so‘z?!

Hayhot! Xiyonatning yetimi bo‘lib

Faqat yig‘lab qoldi ikki qora ko‘z<sup>1</sup>,

satrlari orqali xiyonatga uchragan qalbning iztirobli, alamli holati aks ettiriladi. Turkumning so‘nggi oltinchi sonetida lirik qahramon sevgilisining xiyonatini kechiradi, bunga bardoshi yetishini aytib o‘tadi, uning baxtli bo‘lishini xohlaydi:

Afsus-nadomatning bordir-ku cheki,

Sening gunohingni yuvsin ko‘z yoshim,

Ayni jasoratdir har qanday sevgi,

Senga oq yo‘l tilar mening bardoshim<sup>2</sup>.

Sonetning ikkinchi tersetida turkumning umumiy xulosasi bayon qilinadi, ya’ni lirik qahramon bo‘lgan oshiq yigit hayot davom etishiga, g‘amlar asta-sekin unut bo‘lishiga, qalb yaralari ham sekinlik bilan

<sup>1</sup> Рауф Парфи. Сакина. Сайланма. – Т.: Мухаррир, 2013. – Б. 128.

<sup>2</sup> Rauf Parfi. O‘sha kitob. – B. 128.

bo'lsa-da bitib ketishiga umid bildiradi va Alloh ham hech kimdan evaz talab etmaydigan buyuk muhabbat timsoli ekanligini esga oladi:

Men senga inonmoq istayman, evoh,  
Barcha ko'rgulikka ko'nikkan hayot.  
Buyuk muhabbat deb atalgan Alloh<sup>1</sup>.

Rauf Parfining "Qora devor" nomli majoziy tasvirga asoslangan sonetlar turkumida ham lirik qahramonning kechinmalari tadrijiyyo'sinda aks ettirilib, turkumdagi bog'liqlik, davomiylik va uzviylikni ta'minlashga erishilgan. She'rdagi "qora devor" – bu dunyo bilan u dunyo o'rtasidagi yoki Alloh bilan bandasi o'rtasidagi dunyo ma'nosini bergan. She'rda qora devor mudhish joy ekanligi, u yerda vatanini bilmaydigan manfur va xoin kimsalar mavjudligi haqida so'zlanadi, shuning uchun ham lirik qahramon ushbu devorda "sanqib" yurib, ruhiga solingan kalitlar tufayli erkinlik his qilmagan holga tushadi:

Qora devor qa'ri, sotqinlar yurti,  
Tilsiz, vatansizlar vatani qoldi.  
Sanqigan jasad-la telbarib yurdim,  
Aqlimga ro'yolar kalolat soldi<sup>2</sup>.

Turkumdagi ikkinchi sonetda o'sha qora devorda ham o'zining qondosh ayollarini topgandek bo'ladi, adolatsizliklar qurboni bo'lgan bu ayollarga achinadi. Topgan kishilariga nisbatan "sof gulim", "xo'rlangan onam", "mangu sevgilim" kabi epitetlar qo'llash orqali ularga hamdard ekanligini izhor etadi. Uchinchi sonetda esa o'zi izlayotgan narsani topganlik, uning yuragini o'rtayotgan ishq – zahri qotil ekanligini anglagan holati ifodalangan. Turkumning to'rtinchi sonetida:

Bir qudrat nash'asi tentir izimda.  
Xilqatni anglagan zotdek xomushman.  
Yetti vodiy aylanadir izmimda<sup>3</sup>,

deyish orqali lirik qahramon tasavvuf tariqatidagi "analhaq" g'oyasini eslatadi. Ya'ni Alloh bilan birlik hosil qilgan vujud o'zida uning qudratini his etadi va shu sababli ham yetti vodiy uning izmida aylangandek bo'ladi. Lekin bunday qudratga egalikni ko'tarish oson bo'lmaganligidano'zini bir "sarob" yoki "tush" kabi mavhum tushunchalar sifatida ko'radi. Bunga ham qoniqmagandan so'ng o'zini bo'g'zida so'zi qolib ketgan "chala so'yilgan qush" kabi his etadi.

---

<sup>1</sup> Rauf Parfi. O'sha kitob. – B. 128.

<sup>2</sup> Rauf Parfi. O'sha kitob. – B. 248.

<sup>3</sup> Rauf Parfi. O'sha kitob. – B. 249.

Turkumning beshinchi sonetida lirik qahramonning “ko‘zining jarida” qora devor ko‘rinayotganligi, u tarafdagi zulumot va mavhumlik uni qiynayotganligi, lekin dunyo zaharini ichgach, ya’ni barcha azoblar va iztiroblarni o‘z qalbidan o‘tkazgach yana yengillashib, “qanot bog‘lab” ko‘klarga uchganligi tasvirlangan.

So‘nggi oltinchi sonetda esa lirik qahramonning “jismini ajal shamoli sindirganligi”, chunki “Ko‘zimga to‘ldi yolg‘iz Alloh jamoli” deya xuddi Mashrab kabi Yaratganga yetish uchun yo‘l olganligi, ya’ni bu dunyoni tark etgandan so‘nggina u uchun qayg‘uradigan insoni – dunyoning eng go‘zal ayoli bor bor ekanligini his etishi aks ettirilgan.

Rauf Parfining “Yer farzandi” sonetlar turkumi bag‘ishlov shaklida bo‘lib, unga “Habib Abdulloh xotirasiga” degan izoh berilgan. Sarlavha ham ushbu yershunoslik sohasidagi olimning kashfiyotlariga mos ravishda tanlangan. Elning fidoyi farzandlari bo‘lmish mashhur shaxslarga bag‘ishlangan she‘rlarida har doimgiday ularning ismlari keltirilmaydi, balki ezgu amallari bilan bog‘liq va ularning o‘zligini anglatuvchi tushunchalargina berilishi shoirning o‘ziga xos uslubidir. Shu ma’noda turkumning birinchi sonetida “Axir bilardi ul tuproq ilmini, Axir bilardi ul, so‘qirmi tuproq?” degan so‘zlar bilan olimning bevaqt vafot etganligidan iztirobdagi lirik qahramonning bu olimning yer bag‘rini ochishga doir amalga oshirgan ishlariga ishora qilinadi.

“Ona Turkiston” sonetlar turkumi ham bag‘ishlov shaklida bo‘lib, unga “Abdulla Qodiriy xotirasiga” degan izoh berilgan. Turkumning birinchi sonetida lirik qahramon xotirasi qa‘ridagi tarixda aks etayotgan ezgin hikoya “Olisda miltillab so‘nayotgan sha‘m” haqida ekanligi, u “Ko‘hna hasratning mash‘um yarasi” ekanligi xususidagi fikrlari bilan boshlanadi.

Uchinchi sonetda umr obrazining o‘ziga xos talqini orqali qahramon vaqt o‘tishi bilan qasos o‘ti so‘nib, Qodiriylarning umrboqiy ijod namunalарining barhayotligi diliga taskin berishini aytadi:

Umr deganlari o‘tmakda shoshqin,  
Tilla barglarini elab yo‘limga.  
Sening manguliging beradi taskin,  
Erta uzilguvchi mening umrimga<sup>1</sup>.

“Umrning tilla barglari” epiteti vaqtning tillaga teng har daqiqasining g‘animat ekaniga ishora. Lekin Qodiriy kabilar o‘lmas asarlari orqali ajdodlar qalbida mangu yashaydi. Shu narsa shoirga taskin beradi. Chunki o‘zi haqida, o‘zining asarlari haqida u bunday fikrda emas. Ko‘rinadiki,

<sup>1</sup> Рауф Парфи. Сакина. Сайланма. – Т.: Мухаррир, 2013. – Б. 256.



fidoyilik ardoqli millat farzandlarining erta xazon bo‘lganidan iztirob chekayotgan lirik qahramonning o‘ziga ham xos ekan.

Shoirning “Munajjim” sonetlar turkumiga shoir Asqad Muxtorning “Sen mening erkimsan, mening qafasim” misrasini epigraf sifatida tanlagan va va birinchi sonet tarkibida ushbu misra qo‘llanilgan:

Bahorning o‘tkinchi, gizli sirlari  
Aniq nishon olur, o‘char nafasim.  
Rostin ayt, yolg‘on de bu gaplar bari,  
Mening erkim sensan, mening qafasim<sup>1</sup>.

Lirik qahramon uchun muhabbat tuyg‘usi ham erk, ham erksizlik ma’nosini berishi ta’kidlanmoqda. Turkumga “Munajjim” sarlavhasi qo‘yilishiga sabab taqdir bitigi oldida ojiz qolgan, lekin kelajakdan taskin izlaganlarga nimadir aytish uchun samolardan Haqiqatni izlashga uringan ojiz inson ruhiyati tasviri berilganligi, deb izohlash mumkin. Uning taqdiri haqida ikkinchi sonet qulfida ham ma’lumot beriladi:

Buncha osmon yiroq, buncha yer qattiq?!  
Aqlu hushdan ayro, vola munajjim,  
Rad bo‘lmish olamdan ko‘zin yumdi jim<sup>2</sup>.

Munajjim “behuda dunyoning kibru havosi”dan zada bo‘lib, buyuk Haqiqatni buzishga urinayotganlarga qarshi kurashishga ojizlik qilib, razilliklar sabab uning ezgu bashoratlari amalga oshmaganligidan alamzada holatda o‘zi “rad bo‘lmish” olamdan “ko‘zini yumib” ketishi tasvirlanadi.

Turkumning uchinchi sonetida lirik qahramon o‘ziga murojaat qilib, munajjim kabi tushkunlikka tushmaslikni, Allohga muhabbat o‘lim kabi haqiqat ekanligini ta’kidlaydi. Yaratgan uchun dunyolarni kezish hayot mazmuni bo‘lishi ham Undan ayrilmaslik uchun eng yirik asos ekani uqtiriladi:

O‘lim kabi haqdir bu – muhabbat, bas,  
Tanho seni deya dunyolar kezdim.  
Ayirma Borliqdan meni bir nafas<sup>3</sup>.

Rauf Parfi ijodidagi ikkita sonetlar jamlanmasi ham o‘zaro turkumni hosil qiladi. Chunki har ikkalasi ham shoirning do‘sti bo‘lgan “Mash’um “Lefertovo” turmasining tutquni” Toshtemir Qahramon o‘g‘liga bag‘ishlangan. Birinchi turkum “Tuhmat – 1985” deb nomlanganbo‘lsa, ikkinchi turkum “Toshtemir Qahramon o‘g‘li she’rlaridan” deb

<sup>1</sup> Rauf Parfi. O‘sha kitob. – B. 272.

<sup>2</sup> Rauf Parfi. O‘sha kitob. – B. 272.

<sup>3</sup> Rauf Parfi. O‘sha kitob. – B. 273.

atalgan. Ushbu ikkita majmuaning bir turkumga birlashtirilmaganiga sabab esa ularning lirik qahramoni har xil kishilar ekanligida.

Birinchi turkumda, ya'ni "Tuhmat – 1985"da ushbu she'r kimga bag'ishlanganligi haqidagi izoh bilan birga Shekspirning: "Ey ajal, jonimni tez olg'il faqat, Yolg'onga qul emish, yorab, haqiqat",– degan satrlari epigraf sifatida tanlangan. She'r sarlavhasidagi insonning nohaq ayblanishi mazmuniga mos ravishda Haqiqat yolg'onga qul bo'lgan holatda inson ojiz qolishi muqarrar ekanligi qayd etiladi. XX asrning 80-yillarida "o'zbek ishi", "paxta ishi" nomlari bilan mashhur bo'lgan mash'um qatag'onning oqibatlarini sonetlarda aks ettirilgan. Millatga qilingan tuhmatlarning o'ta jirkanch va manfur qiyofasi shoir tomonidan majoziy yo'lda tasvirlangan:

Ay tuhmat! Ayri til, sudrangan ilon,  
Taninga chirmanib yirtar bo'g'zimni.  
Tuhmat changalida bir puldir iymon,  
Chalpir o'zligimni, haqqon so'zimni<sup>1</sup>.

Tuhmat tushunchasining ilonga majoz etilishi bejiz emas, haqiqatdan ham u ayri tilli sudralgan ilon kabi insonlarning bo'g'zidan olib, uni nobud qilmaguncha qo'ymaslik xususiyatiga ega ekani ma'lum. Tuhmat oldida insoniy tuyg'ular, ayniqsa, iymon tushunchasi chekinishi ham ayon. Agar tuhmat butun bir millatga chang solsa, undan qutulish imkonsiz, noma'lum ekani shoirning anaforik kompozitsiya usulidan foydalanib yaratgan misralarida aks ettirilgan:

Yovuz shaytanatning chirkin a'moli,  
Nahot bir millatning boshiga yetar.  
Nahot chekinmasdir vabo shamoli,  
Nahotki o'zbekning Borligi bitar?<sup>2</sup>

Shoir tuhmat tushunchasi uchun "vabo shamoli" istiorasini qo'llash orqali uning insonlar boshiga keltiradigan fojealari zalvorini ko'rsatadi.

Haqiqat uchun kurashish orqali elning asl farzandlarini qutqarishga da'vat qiladi. So'nggi to'rtinchi sonet o'ziga xos majoziy tashbeh bilan boshlanadi:

Milkda mangumidir zaharli tikon?  
Avval Yolg'onmidir, so'ngra Qutlug' So'z?  
Qo'li uzun ekan, yo'li ko'p ekan,  
Umri uzoq ekan yolg'onning, afsus<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Rauf Parfi. O'sha kitob. – B. 275.

<sup>2</sup> Rauf Parfi. O'sha kitob. – B. 275.

<sup>3</sup> Rauf Parfi. O'sha kitob. – B. 277.

Darhaqiqat, milikka kirib qolgan tikanning mangu qolishi dargumon. Bunda qo‘llanilgan “tikan” istiorasi tuhmatlar ma’nosini bermoqda. Yolg‘onning “qutlug‘ so‘z”ga aylanish jarayoni ham xuddi shunday majoz bo‘lib, tuhmat tarkibida qo‘llaniladigan yolg‘onlar nazarda tutilmoqda. Lirik qahramon nazdida yolg‘onning umri kaltaligi haqidagi xalqona bashoratning ojizligi, yolg‘onning umri uzun ekanidan qalbi iztirob chekkani tasvirlangan.

Sonet so‘ngidagi qulf qismida lirik qahramon, nihoyat, Yaratganga iltijo qilib, o‘zbek millatini bunday balolardan asrashini yolboradi.

Haq birlan birga bo‘l! Yo mutlaq – Bitgil!

O‘zbek ildizining ohidir – ohim,

Sendan bo‘lak suyanchim yo‘q, Allohim!<sup>1</sup>

“Toshtemir Qahramon o‘g‘li she’rlaridan” nomli sonetlar turkumi uchun ijodkor “Rusiya. Lefertovo turmasi. 24.02.1986” degan izoh qoldirish orqali she’rning tarixiy haqiqat bilan uyg‘un ekanligiga urg‘u beradi. Unda Toshtemir Qahramon o‘g‘li aynan izohda qayd etilgan sanada halok etilgani haqida so‘z boradi. Turkumdagi she’rlarning qahramoni shu inson bo‘lib, birinchi sonetda uning yurtimiz o‘z farzandlari holidan bexabar ekani borasidagi anduhlari aks etgan. Ikkinchi sonetda ayrimlarning Vatanini sotib, xiyonat orqasidan kun ko‘rayotgani, elini yirtqich shoqollarga yem qilib berayotgani xususidagi iztirobli so‘zlari ifodalangan. Uchinchi sonetda Vatanning mardlari uyg‘onishiga umid bog‘layotgan lirik qahramonning hushidan ayrilish chog‘idagi tuyg‘ulari tasvirlanadi:

Simyog‘ochda xonish qilar oq qushim.

Turmani to‘ldirdi bolalik chog‘lar.

Yodimga sanchildi qadimiy tushim,

Yodimni yoritdi ul g‘arib bog‘lar<sup>2</sup>.

Xonish qilayotgan oq qush – erkinlik ramzi bo‘lsa-da, bu o‘rinda qahramonning tanasini tark etayotgan jon ma’nosini ham bermoqda. Shu sababli uning yodiga bolalik chog‘lari, qadimiy tushlar va usiz qolayotgan g‘arib bog‘lar asta-sekin kela boshlagan.

So‘nggi to‘rtinchi sonetda lirik qahramonning o‘likzor – qabristondagi ruhiy holati tasvir etilgan. Unga ko‘ra yalang‘och yobonda Ahraman dev ko‘rinib, unga sariq alvastilar o‘lim raqsini ijro etgan holda namoyon bo‘lgani kabi mifologik tasvirlar orqali shoir bir pokiza ruhning

---

<sup>1</sup> Рауф Парфи. Сакина. Сайланма. – Т.: Мухаррир, 2013. – Б. 277.

<sup>2</sup> Rauf Parfi. O‘sha kitob. – B. 279.

bu dunyoni tark etganini aks ettiradi. Poetik qahramonning soʻnggi soʻzlari quyidagicha jaranglagan:

Xayr! Tishlarimda gʻijirlagan qum,  
Xayr! Shivirlagan, singragan bayot,  
Xayr! Burdalangan, chirpangan xalqim,  
Xayr! Sheʻriyatga koʻmilgan hayot<sup>1</sup>.

Lirik qahramonning vido soʻzlari uning oʻz xalqining fidoyi farzandi va hayotini sheʻriyatsiz tasavvur qila olmaydigan inson ekanini koʻrsatadi.

Rauf Parfining “Alaniya”<sup>2</sup> deb nomlangan sonetlar turkumi ham mavjud. Ushbu turkumga mashhur osetin shoiri Konstantin Xetogurovning toʻrt misra sheʻri epigraf qilib olingan:

Koʻz yoshim yulduzlar kabi sochilsin,  
Falakda yorilsin bu fandur – navo.  
Bu oʻlik jonlarning koʻzi ochilsin,  
Mening faryodimdan tirilsin dunyo<sup>3</sup>.

Bu sheʻrda shoirning faryodi dunyoni tiriltirishi, odamlarni adolat uchun kurashga shaylashi kerakligi ifoda etilgan. Chunki adolatsizlik hukmron boʻlgan zamonda yashayotgan shoir unga qarshi kurashmoq uchun chorlovlarini elga yetkazishi, ularning koʻzini ochishi lozimligi aks etadi. Shunga koʻra ushbu sonetlar turkumida lirik qahramon – osetin shoiri Koʻsta Hetogʻuri (Konstantin Xetogurov) boʻlib, sheʻr mazmunida u zulmat va hayotdagi adolatsizliklar bilan kurashish uchun miskin iymonni kuchlantirish zarurligi xususida fikr yuritadi:

Ay Zulm zumrasi, yovuz, oʻlik toj,  
Ay Yolgʻon yalogʻi, ay soʻqir sarvat.  
Ay Sen miskin Iymon, ay sen shoʻrlik Xoch,  
Tur, uygʻon, ay Hurmuz, chalqindi Charvat<sup>4</sup>.

Ikkinchi sonetda hayotdagi barcha chirkinliklar insonlarni erkdan mahrum qilishi haqida soʻz boradi. Uchinchi sonetda esa lirik qahramon ojiz insonga murojaat qilib, undan bunchalar zaifligi sababini soʻraydi. Zulmlar dastidan zaminning qiynalayotgani, insonlar sarson boʻlayotgani

---

<sup>1</sup> Rauf Parfi. Oʻsha kitob. – B. 280.

<sup>2</sup> Qarang: Alaniya – Shimoliy Kavkaz togʻ etaklaridagi alanlarning oʻrta asrdagi davlatining nomi boʻlgan. Alaniya IX asr oxiri – X asr boshlarida, xazar qaramligidan ozod boʻlganidan soʻng, 1230-yillargacha, tatar-moʻgʻullar bosqiniga tushgunga qadar qirollik hukmronligi ostida mavjud boʻlgan. Alanlar zoʻr jangchilar sifatida obroʻ qozongan. XIII asrning oxiriga kelib, ular boʻysundirilgan. Alanlarning urushlardan omon qolganlari janubga, Kavkaz togʻlariga surilib, mahalliy kavkazliklar bilan qoʻshilib ketgan.

<sup>3</sup> Рауф Парфи. Сакина. Сайланма. – Т.: Мухаррир, 2013. – Б. 282.

<sup>4</sup> Rauf Parfi. Oʻsha kitob. – B. 282.

bayon etiladi. To‘rtinchi sonetda esa qadim Alaniya yurtiga murojaat qilib, uning yo‘q bo‘lib ketishi sababini anglashga urinadi:

Yetim Alaniya, yig‘lama Baslox,  
Toshlarga yukunma, o‘tlarga yukun.  
Sen kimga yomonlik sog‘inding? Aslo!  
Kimlarning bojini to‘larsan bukun?<sup>1</sup>

Rauf Parfining “Ona tilim” nomli sonetlar turkumi tarkibida uchta sonet mavjud bo‘lib, ular bitta umumiy badiiy g‘oya ifodasi uchun xizmat qilgan. Birinchi sonetda Abut-Turk tarixi yodga olinadi:

Abut-Turk tarixdan balki bir hikmat,  
Biroq sen borsan-ku Turon elinda.  
Shoir, So‘z aytmakka sen shoshma faqat  
Ulug‘ Alisherning qutlug‘ tilinda<sup>2</sup>.

Shoir bu she’rda inson so‘z qo‘llashda mas’uliyat his etishi, Alisher Navoiy ijod etgan tilini xor qilishga hech kimning haqqi yo‘qligi haqidagi fikrlarini ilgari suradi. Ikkinchi sonetda lirik qahramon ona tilini “ruhining qoni” deb ataydi va undan “bir imdod” so‘rab iltijo qiladi. Chunki XX asrning “buzg‘un a‘mollari” tilning buzilishiga, uning qashshoqlashuviga olib kelgani yodga olinadi.

Mening ona tilim, munis, mehribon,  
Sen Turkiy dunyoning g‘olib xayoli –  
Seni yozajakman, tirilgan jahon<sup>3</sup>.

Lirik qahramon “Ona tilim” deb atayotgan o‘zbek tilining fidoyi insonlar, buyuk ijodkorlarning shon-shuhrati va asarlari orqali elga taralganini qayd etilgan. Oxirgi uchinchi sonetda o‘zbek tilining o‘z xalqi ardog‘idagi til ekani, uning jozibasi onalar allasida aks etishi tasvirlanadi:

Ulug‘ Turkistonim, oltin dalalar,  
Oftob sochqi sochar bosh uzra balqib.  
U sening tilingda aytar allalar,  
Qonim, ona tilim, oh, ona xalqim<sup>4</sup>.

Ona tilining boyligiga sabab – yurtning “oltin dalalar”i va “oftob sochqi sochishi” ekani ifoda etiladi. Ushbu sifatlash va epitet ona tilining boyishi omillarini ko‘rsatish uchun qo‘llangan.

Ko‘rinadiki, Rauf Parfining sonet turkumlari uchtadan oltitagacha miqdordagi sonetlardan tarkib topgan. Kompozitsion qurilish jihatidan

---

<sup>1</sup> Rauf Parfi. O‘sha kitob. – B. 284.

<sup>2</sup> Rauf Parfi. O‘sha kitob. – B. 210.

<sup>3</sup> Rauf Parfi. O‘sha kitob. – B. 211.

<sup>4</sup> Rauf Parfi. O‘sha kitob. – B. 211.

sonetlarga xos bo‘lgan ikkita katren va ikkita terset jamlanmasidan iborat bo‘lib, mazmun jihatdan “tezis – antitezis – kechinma rivoji – sintez” shaklida yaratilgan. Bundan tashqari, sonet turkumlarda umumiy sarlavha, umumiy epigraf, lirik qahramonning umumiy kechinmalari aks ettirilgan. Kechinma tasviridagi izchillik turkum tarkibidagi sonetlarni bir-biriga bog‘lab turadi. Sonetlarda aks ettirilayotgan poetik obraz yoki tushuncha obrazlari ham umumiy, ularning tasviri ham sonetlar davomida izchillikni tashkil etgan.

“Lirik asarda kompozitsiya ijodkor diqqat markazining, uning oldida turgan badiiy vazifaning aniqligi, shunga nisbatan asardagi qismlar va obrazlar joylashuvi va ijodkor tomonidan o‘sha markaz va badiiy vazifaga nisbatan tasvir me‘yori va muvofiqligiga rioya qilishdan iborat deb qarash kerak”<sup>1</sup>. Ma’lumki, kompozitsiya asar strukturasi bilan bog‘liq, uning komponentlariga aloqador hodisa. Kompozitsiya – asarning qurilishi, uning tarkibiy qismlarining joylashishi, voqealarni bayon qilish tartibi – asosiy badiiy vositalardan biri bo‘lib, yozuvchi orqali asarda ishtirok etuvchi kishilarni xarakterlaydi, o‘zini qiziqtirgan hayotiy voqealarni o‘zi tushunganicha tasvirlaydi. Darhaqiqat, kompozitsiya, ijodkorning asar qismlari joylashuvidan, obrazlar talqinidan kelib chiqib, ularning muvofiqlashtirilishi o‘z g‘oyaviy niyatiga moslash jarayonidir.

Lirik kompozitsiya oldiga ijtimoiy ko‘zlanishi, poetik g‘oyaning hayotiy vaziyatga asoslanganligi, kompozitsion shaklning ichki qonuniyatlarga buysundirilganligi, lirik asarda shakl va mazmun mutanosibligi, lirik tuyg‘uning ifoda shakli uyg‘unligi kabi talablar qo‘yiladi va sanalmish talablar ijrosi lirik asar badiiyati yuksakligini ta’minlaydigan muhim omillardan sanaladi.

She’riy turkumlarni shakllantiruvchi vositalar tarkibida umumiy lirik qahramon, umumiy kechinma, umumiy joy yoki makon tasvirlanayotgan vaqtdagi davomiylik, shu davr kishilari obrazlari yoki shu muhit tushunchalarining majoziy tasvirlari kabilar mavjud bo‘ladi.

Shu ma’noda shoir Azim Suyun qalamiga mansub “O‘ldirsang ham o‘zing o‘ldir, muhabbat!” nomli turkum tadqiq etilganda, uning tarkibidagi o‘nta she’rning barchasida lirik qahramon – oshiqona qalb sohibi bo‘lgan yigit, tasvirlanayotgan tushuncha – “muhabbat”, asosiy poetik obraz esa ma’shuqa ekanligi ayonlashadi. Shoir turkum she’rlariga alohida sarlavhalar qo‘ymagan, balki ularni o‘ngacha bo‘lgan raqamlar

---

<sup>1</sup> Камолов Ж. Лирик шеърятда композиция. Фил. фан. номз... диссертацияси. – Т., 1970. – Б 28.

bilan belgilagan. Turkumdagi birinchi she'r an'anaviy to'rt qatorlik besh banddan iborat. Bu she'rda shoir anaforik kompozitsiya turidan foydalangan bo'lib, undagi "Seni tanidimu muhabbat" misrasi shu zaylda she'r bo'ylab har ikki misraning boshida qaytadan takrorlanib kelgan.

Seni tanidimu muhabbat,  
Tanidim gullarning ismini.  
Seni tanidimu muhabbat,  
Yashashga tutindim sig'inib<sup>1</sup>.

Turkumdagi to'rtinchi she'r to'rt qatorlik uchta banddan tashkil topgan. Ushbu she'rda shoir kompozitsion xalqa usulini qo'llash orqali undagi ma'no nozikliklariga alohida e'tibor qaratishga muvaffaq bo'lgan. Ya'ni she'rdagi "Qaydan seni uchratdim, ohu" misrasi har uchala bandning ham bosh qismida takror qo'llangan:

Qaydan seni uchratdim, ohu,  
Umr – o'lja, bu dunyo – sayyod,  
Yuragingda jodugar uyqu,  
Ko'zlarida yonar muhabbat<sup>2</sup>.

She'rdagi "ohu" istiorasi, "umr – o'lja, "dunyo – sayyod", "jodugar uyqu" epitellari she'r badiiyatini ta'minlash uchun o'rinli qo'llanilgan.

Turkumning beshinchi she'ri ham lirik qahramonning qalbiga muhabbat tashrifidan keyingi holat bayoniga bag'ishlangan. Sevgi kelishi bilan dunyo ravshanlashib, bog'lar jarangga to'lganligi, oshiq rangi qirmizi bo'lib, jayronlarni quvlashga-da qodir bo'lganligi tasvirlanadi. To'rt qatorlik to'rt banddan iborat ushbu she'r nihoyasida:

Toshlar erib oqdi-yey,  
Qiqir-qiqir kuldi oy.  
Bir gulgun o't yoqdi-yey,  
Kun va tun tutashgan joy<sup>3</sup>,

misralari orqali muhabbatdan sarmast qalb uchun toshlar erib oqayotgandek, oy kulayotganday tuyulishii aks ettirilgan. Gulgun (istiora) – ma'shuqa uning qalbiga o't tashlagani uchun ufqdagi qizillik oshiqning qalbiga ko'chganligi tasvirlangan. Turkumda muhabbatning ta'rifiga bag'ishlangan oltinchi she'r to'rt qatorlik to'rtta bandning hammasi "muhabbat" so'zining uch marta takrorlanishi bilan yakunlangan.

---

<sup>1</sup> Азим Суюн. Куйганим – суйганим. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – Б. 199.

<sup>2</sup> Azim Suyun. O'sha kitob. – B. 201.

<sup>3</sup> Azim Suyun. O'sha kitob. – B. 202.

Yuragim – bevafo, bevafo – qadrim,  
Muallaq dunyoda muallaq qaddim.  
Qaddimni tik tutdi vafodor hayot –  
Muhabbat, muhabbat, muhabbat<sup>1</sup>.

Bundagi qo‘llanilgan sifatlash va jonlantirishlar lirik qahramonning holati va unda muhabbat tufayli yuz bergan o‘zgarishlarni obrazli qilib bayon etishiga ko‘maklashgan.

Turkumdagi yettinchi she‘r anaforik kompozitsiya shaklida yaratilgan. To‘rt qatordan iborat to‘rt bandning uchtasi “o‘rtamizda” so‘zi bilan boshlangan. Anafora ishlatilmagan bandda esa “bu muhabbat” birikmasi orqali epifora qo‘llanilgan.

Suydirdi bu muhabbat,  
Kuydirdi bu muhabbat.  
Yuraginga qat-qat nafrat  
Tuydirdi bu muhabbat<sup>2</sup>.

Turkumning sakkizinchi she‘ri olti misralik beshta banddan tashkil topgan bo‘lib, undagi “O‘ldirsang ham o‘zing o‘ldir, muhabbat!” misrasi har beshala bandining so‘ngida ham takrorlangan. Demak, she‘rda kompozitsion yechim usulidan foydalanilgan.

Majnunlarga el bo‘libon kuylayman,  
Oqinlarga sel bo‘libon kuylayman,  
Kuz guliday gul bo‘libon kuylayman,  
Kuyib kulgan kul bo‘libon kuylayman;  
O‘ldirsang ham o‘zing o‘ldir, muhabbat!<sup>3</sup>

Shoir ma‘noni yanada kuchaytirish uchun o‘ziga xos istioralar: “majnunlar” – oshiqalar, “oqinlar” – muhabbat dostonlari kuychilari, “kuz guli” – kech muhabbatga oshufta bo‘lgan qalb, kul – muhabbatdan ado bo‘lgan qalb kabi obrazlardan mahorat bilan foydalangan. Bu she‘rda qo‘llanilgan “oqshom – oq shom” birliklari tajnis bo‘lib, kechasi va shom payti ma‘nolari uchun xizmat qilmoqda. She‘rdagi “marjon”, “munchoq”, “oq boda” istioralari hovuz betidagi suvdan hosil bo‘lgan shakllarning oy nurida tovlanishi ifodasi uchun qo‘llanilgan.

Turkumdagi so‘nggi o‘ninchi she‘rda shoir kompozitsion halqa usulidan o‘rinli foydalangan. “Men seni tog‘larga olib ketaman” misrasi

---

<sup>1</sup> Azim Suyun. Kuyganim – suyganim. – T.: Faфur Фулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – Б 203.

<sup>2</sup> Azim Suyun. O‘sha kitob. – B. 203.

<sup>3</sup> Azim Suyun. O‘sha kitob. – B. 205.



besh qatorlik olti banddan iborat she'rda har bandning boshi va oxirida takrorlanishi orqali asosiy mazmun-mohiyatga urg'u berishga erishilgan:

Men seni tog'larga olib ketaman,  
Men SIRman – asragum, jonim muhabbat!  
Yodda tut, men senga bir so'z aytaman,  
Senga chin oshiqlar yeturlar faqat!  
Men seni tog'larga olib ketaman<sup>1</sup>.

Ko'rinadiki, bu she'r ham muhabbat tarannumiga bag'ishlangan bo'lib, lirik qahramon yashayotgan talotum dunyoda bunday pokiza tuyg'uni asrashga ehtiyoj borligi tasvirlanadi. Shu sababli shoir uni tog'larga olib borib yashirib qo'ymoqchi. Toki unga faqat chin oshiqlargina mashaqqatlar bilan erishsinlar.

Azim Suyunning "Kuz" deb nomlangan turkumi ham o'ziga xos kompozitsion qurilishga ega bo'lib, u sakkiz qatorlik o'n sakkiz banddan tashkil topgan. Turkumning lirik qahramoni kuz xayollari bilan band bo'lgan shoirning kuzga mehri alohida ekani bandlar davomida ayonlashadi. Ushbu turkumda ham shoir she'riy xalqa usulidan foydalangan:

El-yurt ko'chib endi tog' etagiga.  
Yozgi chorbog'larda namxushdir xazon.  
Kech qolgan cho'pon ham haydar suruvni,  
Serka yo'l boshlaydi chalib qo'ng'iroq,  
Jaranglab turar u uzoq va uzoq,  
Ufqlarga singib ketar oxiri<sup>2</sup>...

Birinchi banddagi sakkiz qatorni she'r so'ngida o'zgartirmasdan to'liq takrorlash orqali kompozitsion yoki she'riy halqa usuli qo'llangan.

Umuman olganda, Azim Suyun ijodidagi "O'ldirsang ham o'zing o'ldir, muhabbat!" va "Kuz" she'riy turkumlarining tarkibidagi she'rlarga alohida sarlavhalar qo'yilmasa-da, ularda lirik qahramon kechinmasining tadriji to'laqonli aks ettirilganligi ko'rinadi.

"O'ldirsang ham o'zing o'ldir, muhabbat!" turkumidagi asosiy poetik obraz "muhabbat" tushunchasi bo'lgan bo'lsa, "Kuz" turkumida o'z nomidan ham ma'lum bo'lib turgan "kuz fasli" asosiy poetik obraz vazifasini o'taganligidan mazkur turkumlar tarkibidagi barcha she'rlarda poetik obrazlar umumiyliги ayonlashadi. Azim Suyun turkumlarda

<sup>1</sup> Azim Suyun. Куйганим – суйганим. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – Б. 207.

<sup>2</sup> Azim Suyun. O'sha kitob. – B.122.

anafirik kompozitsiya, ambey kompozitsiya, kompozitsion yechim, kompozitsion xalqa kabi ko‘plab kompozitsion usullardan foydalangan.

Taniqli shoir O‘roz Haydar ijodida “Mana, ishq maktubim yoqmoqdasan jim” deb boshlanuvchi sonetlar turkumi mavjud bo‘lib, uning tarkibida o‘n oltita sonet mavjud. Ularning barchasi muhabbat iztiroblariga bag‘ishlangan. Turkumning lirik qahramoni ham sevgi iztiroblarida ozurda bo‘lgan qalb sohibidir.

Turkum tarkibidagi sonetlar bir xil shaklda yaratilgan bo‘lib, bu shakl “shekspirona sonet” nomi bilan mashhur bo‘lgan uchta katren va bitta distixdan tashkil topgan. Sonetlar uchun shoir bitta umumiy epigraf tanlagan bo‘lib, ushbu epigraf Pushkinning “Erkalar va charchatar ovozim seni” misrasidir. Ya’ni she’rlarda ma’shuqani takroriy ishq izhorlari zada qilishi tasviriga ishora qilinmoqda. Shunga ko‘ra hamturkumdagi birinchi sonetning birinchi katreni:

Mana, ishq maktubim yoqmoqdasan jim,  
Kuydirilgan so‘zlar jarangi tinar.  
Qarg‘aysan, go‘ringa qadab yetmish chim,  
Hayot shamim abad nazdingda so‘nar<sup>1</sup>,

tarzida boshlanib, ma’shuqaning oshiq maktubini kuydirishi holati aks ettirilgan. Keyingi sonetlarda kechinma tasviri voqealar rivoji kabi tadrijiy holatda tasvirlanadi va barchasida bu fojeiy sevgi oqibatlari ko‘rsatib beriladi. Birida “Bo‘m-bo‘sh chiziqalarda titraydi yurak” deyish orqali shoir oshiq qalbining bo‘shab qolganligini bildirsa, keyingi sonet qulfida “Oftob – zulmat, deya chinqirar ko‘zim” satrlari orqali oshiq yigitning ko‘ziga bu dunyo qorong‘u bo‘lib borayotganligini ta’kidlaydi.

So‘nggi oltinchi sonetda ma’shuqadan oshiqqa nisbatan mehr ko‘rsatilmagach, dunyoni yoqimsiz turg‘un holatda ko‘rayotgan lirik qahramon tasavvuri bayon qilingan:

Turg‘unlik – olovda muzlayotgan suv,  
Qahraton ohida yonayotgan jon.  
Oyning shu’lasidan kuyayotgan huv,  
Etagin qoqayotgan kengliklar – giryon<sup>2</sup>.

She’rdagi “olovda muzlash”, “qahratonda yonish” oksimoronlari lirik qahramon holatini bo‘rttirish uchun qo‘llanilgan. Oyning shu’lasi ham hech qachon kengliklarni jizg‘anak qilmasligi ayon. Shunday bo‘lishiga qaramay, oshiq ko‘ngil iztiroblari tufayli yuzaga kelgan

<sup>1</sup> Ўроз Ҳайдар. Кечиккан фасл. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2010. – Б. 130.

<sup>2</sup> O‘roz Haydar. Kechikkan fasl. Saylanma. – Т.: Sharq, 2010. – Б. 137.

vaznsizlik holati dunyodagi mavjud tartibning buzib ko‘rinishiga sabab bo‘lmoqda. Sonet qulfidagi:

Chaqmoq chaqqanda ham yashin beayov,  
Gugurt chaqmog‘icha purkolmas olov,

tarzidagi xulosa fikr oshiq qalbidagi iztirob olovining o‘ti bilan hech qanday kuch tenglasha olmasligi ma’nosini bermoqda. Yana bir ma’nosiga ko‘ra esa muhabbat tufayli qallda paydo bo‘ladigan yolqin butun olamni ostin-ustun qilganidek, bir dona gugurt chaqmog‘idan chiqqan olov butun yer yuzini yoqib kul qilishga qodir ekanligini uqtirmoqda shoir.

O‘roz Haydar qalamiga mansub “Mana, ishq maktubim yoqmoqdasan jim” turkumi o‘n olti sonetdan iborat yirik majmua bo‘lib, undagi yagona ishq mavzusi va hijronzada oshiq qalbning iztiroblarini aks ettirishday yagona mazmun barcha sonetlarning umumiy mohiyatini tashkil etgan. Yagona lirik qahramon kechinmalari tasviri, muhabbat va ma’shuqaning poetik obrazlar sifatidagi ishtiroki ham she’rlardagi umumiylik jihatlarini kuchaytirgan. Turkumni shakllantiruvchi komponentlar shaklan va mazmunan uyg‘un bo‘lgan unsurlardantuzilgan.

Xullas, turkumlarning shakliga xos komponentlar sirasiga ulardagi umumiy sarlavha, epigraf, qismlarning raqamlanishi yoki nomlanishi, kompozitsion vosita yoki usullarning mavjudligi kabilar kirsam, mazmunga xos unsurlar shoirning badiiy niyati asosida shakllantirilgan g‘oya, mazmun, lirik qahramon kechinmasi tasviridagi izchillik, poetik obraz ishtirokidagi ketma-ketlik va davomiylikdan iborat bo‘ladi.

Zamonaviy o‘zbek sonet turkumlaridagi she’rlar o‘trasidagi bog‘liqlik “tezis – antitezis – kechinma rivoji – sintez” tarzida shakllantirilgan bo‘lib, o‘z ichiga uchtadan o‘ntagacha, ba’zi sonetlarda 28, 44 va 100 tagacha bo‘lgan sonetni oladi. Ular umumiy obraz, kechinma tadriji nuqtai nazaridan birlashtiriladi. Umuman, turkumlarni birlashtiruvchi komponentlar mazmun va shakl dialektikasi asosida shakllantiriladi.

## **2. Turkumlarning badiiy-estetik xususiyatlari**

“Syujet masalasi lirik turda ham zamon va makon masalasi demakdir, zamon va makon masalasi esa tasvir joy-sharoiti, vaqt va hajm bilan aloqadordir”<sup>1</sup>. Adabiyotshunos olim Ummat To‘ychiyev lirikada syujet masalasini tadqiq etar ekan, syujetning she’rda aks etayotgan

<sup>1</sup> Тўйчиев У. Адабий тур ва жанрлар. 3 томлик, 2-том. – Т.: Фан, 1992. – Б. 27.

kechinmaning zamon va makonga aloqador ekanligiga e'tibor qaratdi. "Syujet lirik asarlarning ham mazmun, ham shakl xarakteriga ega bo'lgan unsurlaridan biridir"<sup>1</sup>. Chunki lirik syujetda mazmun kechinmaning xarakter-xususiyati, uning zamon va makonga nisbatan obyektiv aloqadorligiga bog'liq bo'ladi. Yanayam aniqrog'i, lirik qahramonning xayoli, o'yi, kechinmalari ruhiy holatiga bog'liq ravishda aks ettirilayotgan subyektning ruhiy harakati lirik asarning syujetini tashkil etadi.

Ushbu holatdan kelib chiqib, syujet meditatif lirika uchun ham xos ekanligini e'tirof etish zarur. "Sof lirika" ham deb yuritiladigan ushbu she'r turlarida, asosan, kechinma mavjud bo'lib, sharoiti aniqlashtirilmagan holat aks ettiriladi. Mana shu tur lirikada "fabula mavjud bo'ladi... Bunday lirikadagi syujet "psixologik syujet" deb ham yuritilayotir"<sup>2</sup>. Olim Ummat To'ychiyev lirikaning tasviriy ko'rinishida ham lirik syujet o'zining asosiy syujet unsurlari izchilligida namoyon bo'lishi xususida so'zlamogda.

Lirik syujet turkumlar tarkibida ham mavjud bo'lib, uning o'ziga xos jihatlari turkum tarkibidagi she'rlarning kechinma tasvirida namoyon bo'ladi. Kechinma tasvirining badiiy-estetik jihatlari she'rning barcha unsurlari, xususan, shoirning badiiy niyati, obrazlilik, unda badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishi kabilar orqali amalga oshiriladi.

Xususan, XX asr she'riyatida o'z o'rniga ega shoira Oydin Hojiyevaning "Muborak tunlar munojoti", "Dard" nomli turkumlari mavjud bo'lib, ularda istiqlol tufayli yurtga kelgan tinchlik, farovonlik va barakot uchun Yaratganga shukronalik hislari aks ettirilgan. Xususan, "Muborak tunlar munojoti" nomli turkum tarkibidagi sakkizta she'rning hech qaysisiga alohida sarlavhalar qo'yilmagan. Boshidagi ikkita she'r g'azalga o'xshatma tarzida yozilgan, chunki ular ikkilik bandlarga ajratilib, a-a, b-a, d-a, e-a tarzida qofiyalangan. She'rlarning lirik qahramoni shoiraning o'zi bo'lib, hayotda yo'l qo'ygan xatolari uchun tazarru va istig'for qilayotgan banda tarzida ko'rinadi:

Tazarru chog'idir: salotga aylan,  
Ko'zing yum, bir nafas sabotga aylan.  
Yaxshi-yomon ko'rding – bahosi tufroq,  
Manzili Haq aro qanotga aylan<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> To'ychiyev U. O'sha kitob. – B. 28.

<sup>2</sup> To'ychiyev U. O'sha kitob. – B. 29.

<sup>3</sup> Ойдин Ҳожијева. Паноҳим. – Т.: Шарқ, 1998. – Б. 76.

Dunyoda ko‘rgan barcha narsasining bahosi tuproq ekan, ya’ni pokiza vijdon va iymondan boshqasi bekor ekan, ulardan voz kechib, Tangri sari yuz burish, undagina najot tilash chog‘i kelgani ta’kidlanadi.

Turkumdagi bir she’r murabba’ shaklida yozilgan bo‘lib, qofiyalanish tartibi a-a-a-b, d-d-d-b tarzidadir. Uning mazmuni lirik qahramonning o‘tgan davrlarni yod etib, bugunga shukronalik keltirishidan iborat. Boshqa bir she’ri a-b-a-b, d-b-d-b tarzida qofiyalangan bo‘lib, bundagi lirik qahramonning holati:

Yurak qaqshar, yomg‘ir yo‘q,

Qor elamas osmon ham.

Tushlarimda urar do‘q

Shayton bo‘lib xazon g‘am<sup>1</sup>

tarzida tasvirlanadi. Shoiraning ko‘ngliga hech narsa sig‘maydi, atrofi qaqragan sahrosidek taassurot qoldiradi. Bunga sabab esa uning qalbida shayton bo‘lib do‘q urayotgan g‘am mavjud ekani. Bu o‘rinda “xazon urar do‘q”, “qor elamas” kabi jonlantirishlar o‘rinli qo‘llanilgan.

Turkumdagi so‘nggi she’rda shoira “farishtalar qanotidan to‘kilgan shabnamlar dur ekan”ligi, ular nazar solgan zahoti go‘daklar hur bo‘lishi, tog‘lar kongga to‘lishi, har yantoq va yaproqlar salovot ayta boshlashi, quduqdagi zanjirband devlar nur tushgach parizodga aylanishi va ruhning ming yillik sirlari chashmai munojot bo‘lishi haqidagi poetik mushohadalar silsilasini taqdim etgan. She’r so‘ngida:

Yeru ko‘k aro Nur ko‘prigi.

Farishta yog‘ilgan lak-lak.

G‘aflatga ilinma, kiprigim,

Bu ko‘prik Haqqa yo‘l bo‘lajak...

Farishta yog‘ilgan oy kecha<sup>2</sup>...

Nur ko‘prigi, ya’ni farishtalardan taralayotgan nur ma’nosidagi istiora, farishtalar lak-lak yog‘ilishi – mubolag‘a, oy kecha – sifatlash o‘laroq qo‘llanilgan. Umuman, Oydin Hojiyevaning ushbu turkumga kirgan she’rlarida Haqqa yetishmoq istagidagi insonning tavba-tazarrusi va bunga olib boradigan yo‘llar haqidagi mushohadalari aks ettirilgan.

Shoir va tarjimon Jamol Kamolning “Alvido”, “Nido” nomli turkumlari mavjud bo‘lib, “Alvido” turkumi har biri sakkiz qatorlik (faqat oltinchi she’rgina o‘n ikki qator) yetti she’rdan tashkil topgan bo‘lib, u ustoz shoir Oybek vafoti munosabati bilan yozilgan. Ushbu turkumdagi

<sup>1</sup> Oydin Hojiyeva.O‘sha kitob. – B. 76.

<sup>2</sup> Oydin Hojiyeva.O‘sha kitob. – B. 81.

birinchi she’rda shoir o‘z ko‘z yoshlariga, sabriga murojaat qilib yuz bergan fojeaning zalvorini his etishga chaqiradi:

Ey ko‘zim bulog‘i, qayna beomon,  
Ey sabrim qo‘rg‘oni, yemril sarbasar,  
Mening fayodlarim, yuksalib chunon  
Olamga qazodan yetkazing xabar<sup>1</sup>.

Bu o‘rinda qo‘llanilgan “ko‘z bulog‘i” – ko‘z yoshlar, “sabr qo‘rg‘oni” – o‘zidagi bardosh kuchi ma’nosidagi istiora va jonlantirishlardir. Turkumdagi ikkinchi she’rda Oybekning vafot etishi ishonib bo‘lmas haqiqat va cheksiz fojea ekanligi ta’kidlansa, uchinchi she’rda esa anaforik kompozitsiya qo‘llash orqali shoir ma’noni yanada kuchaytirgan:

Hali ketmay turib dillardagi dog‘,  
Hali bitmay turib ko‘ksimiz choki,  
Hali tinmay turib ko‘zlarda bulog‘,  
Hali sovumasdan marhumlar xoki,  
Bu ne jafo tag‘in, bu ne balo g‘am<sup>2</sup>.

To‘rtinchi she’rda lirik qahramon Oybek siymosida hayotning vidosini ko‘rayotganligini aytish orqali fojeaning o‘z qalbiga yetkazgan ozorini baholaydi. Beshinchi she’rda Oybek ijodi bilan bog‘liq tushunchalardan istioralar hosil qilib ular bilan vidolashish orqali buyuk ustoz shoir bilan ham vidolashadi:

Alvido, senga ham, ey yorug‘ timsol,  
Dunyolarni qamrab porlagan ufuq.  
Senga ham. Alvido, ey dengiz – xayol  
Ki. Aslo cheki yo‘q, chegarasi yo‘q<sup>3</sup>.

Bu parchadagi “yorug‘ timsol”, “porlagan ufuq”, “dengiz – xayol” kabilar Oybek ijodiga xos istioralardir. Oltinchi she’rda ustoz shoirning tengsiz zako, buyuk e’tiqod va iymon sohibi ekanligi, shu sababli ham ushbu daho shoir insonlar qalbida manguga qolayotganligi aks ettirilgan. So‘nggi yettinchi she’rda shoir marhumning pokiza ruhiga murojaat qilib, undan o‘z eli osmonida mangu porlashini o‘tinadi.

Demak, Jamol Kamolning “Alvido” turkumi elegiya tarzida yaratilgan vidolashuv she’rlari turkumi bo‘lib, uning lirik qahramoni ustoz va el ardoqlagan shoirning vafotidan qayg‘udagi inson shaklida

<sup>1</sup> Жамол Камол. Аср билан видолашув. Сайланма. – Т: Фан, 2007. – Б. 55.

<sup>2</sup> Jamol Kamol. O‘sha kitob. – B. 56.

<sup>3</sup> Jamol Kamol. O‘sha kitob. – B. 56.

namoyon bo‘lgan. Turkum she‘rlariin aynan shu mazmun bog‘lab turadi, kechinma tadriji ham shunga qaratilgan.

Salim Ashur ijodida “Notinch bog‘” va “Mening eng sevikli ayolim” nomli turkumlari mavjud bo‘lib, ularning har biri besh qismdan iborat. “Notinch bog‘” she‘rining lirik qahramoni oshiq yigit bo‘lib, u shu‘lagulni sevib qolganligi haqidagi xabar bilan turkumning birinchi she‘ri boshlanadi:

Beli nozik barmog‘idan ingichkaroq,  
Kafti gulning yaprog‘idan kichkinaroq,  
Oddiy qizmas, yo notinch, yo tinchgina bog‘,  
Men o‘zimni qayta-qayta o‘tga soldim,  
Borib ayting, shu‘lagulni sevib qoldim<sup>1</sup>.

Ko‘rinadiki, lirik qahramon bog‘dagi shu‘lagulga oshiq bo‘lgan. Oshiqni uning barmoqdan nozik beli-yu gulning yaprog‘idan kichik kafti maftun qilgan. Bu o‘rinda shoir mubolag‘a, istiora san‘atlaridan unumli foydalangan.

Turkumdagi so‘nggi beshinchi she‘rda lirik qahramonning hijron o‘tidan yonish darajasi yanada kuchaygani, endi ma‘shuqasiz yashashga imkon yo‘qligi haqidagi kechinmalari bayon qilinadi:

Ishq sharpasi qisib kelsa har yondan,  
Najot bordir faqatgina jonondan.  
Soqchi qo‘yib qo‘riqlay to‘rt tomondan,  
Bir befarqdan, bir yaxshi, bir yomondan,  
Shu‘lagulsiz o‘tgan kunim kun emas,  
Shu‘lagulsiz ko‘nglim ham butun emas<sup>2</sup>.

Ko‘rinadiki, Salim Ashurning “Notinch bog‘” she‘riy turkumi majoziy tasvirlar orqali shakllantirilgan. Unda sevgi bog‘i va unda shu‘lagulga oshiq bo‘lgan yigitning hijronzada qalbi kechinmalari bayoni aks ettirilgan. She‘rdagi ma‘shuqa – shu‘lagul ham inson emas, bog‘dagi bir gulning nomidek taassurot qoldiradi, bu ham majoziy poetik obrazga misol bo‘ladi.

Zamonaviy o‘zbek she‘riyatidagi ko‘plab she‘riy turkumlarda o‘ziga xos yangilanishlar kuzatiladi. Ayniqsa, kechinma tasviridagi rang-baranglik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ikrom Otamurodning “Bir odam” turkumi ana shunday izlanishlar samarasida yaratilgan bo‘lib, undagi o‘ziga xos shakl insonlarning turfa toifasini izohlashga xizmat qilgan:

<sup>1</sup> Salim Ashur. Muhabbat kitobi. – T.: Fafur Fulom nomiдаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б. 48.

<sup>2</sup> Salim Ashur. O‘sha kitob. – B. 52.

Bir odam... shunday yo‘lovchi edi:  
kutib-kutib,  
hammadan keyin chiqardi ulovga  
va tushib qolardi hammadan oldin<sup>1</sup>.

Ko‘rinadiki, lirik qahramon insonlarni kuzatish orqali ulardagi hislat va qusurlarni anglaydi va izohlaydi. Turkum tarkibida shunday izohlardan qirq to‘rttasi keltirilgan. Demak, turkumda shuncha kichik she‘r mujassam bo‘lgan. Ular asosan sochma she‘r shaklida yozilgan bo‘lib, buinsonlar tabiatini ta‘riflashda shoirga qo‘l kelgan. Lekin ayrim o‘rinlardavazn va qofiyaga tushgan barmoq vazni shaklidagi she‘rlar ham uchraydi:

Bir odam... tiniq suvga tuproq tashlar-da,  
mazza qilar loyqa bo‘lganin ko‘rib.

Yoki:

Bir odam... oyoqdan qarir bemahal,  
to‘g‘ri kelgan yo‘ldan yo‘rtib to‘rt tomon.  
Tikindi olar yo‘ldan har mahal,  
qismatidan birday bo‘ladi nolon<sup>2</sup>.

Bu o‘rindagi bemahal – mahal, tomon – nolon so‘zlari o‘zaro qofiyalangan. Bo‘g‘inlar miqdorida esa notekislik kuzatiladi, chunki birinchi misra 11, ikkinchi misra 11, uchinchi misra 10 va to‘rtinchi misra 11 bo‘g‘indan iborat bo‘lgan.

Ikrom Otamurodning “Ko‘hna sadolar” turkumi tarkibida o‘n bir she‘r jamlangan bo‘lib, ularning asosiy mavzusi o‘zbek xalqining o‘tmishi, yaqin o‘tmishidagi qora kunlar yodi va bugungi kuni tasviri deyish mumkin. She‘rlar barmoq vaznining bo‘g‘inlar miqdoriga ko‘ra turli ko‘rinishlarida bitilgan. Turkumdagi birinchi she‘r “Mayda gap” deb nomlangan bo‘lib, unda:

Axir, mayda gapga bepisand kimsa,  
Katta gapga sira el bo‘lmas. Ayon.  
Yo‘l olis. Mayda gap deb, bir kun o‘sha  
Elin ham, yurtin ham unutar oson<sup>3</sup>.

Ushbu she‘rda asosan, “mayda gap” tushunchasiga urg‘u berilgan va uning insonlar hayotini barbod qila olish xususiyati bo‘rttirib ko‘rsatilgan.

“Furqat fig‘oni” she‘ri kompozitsion halqa usulida shakllantirilgan.

Ya‘ni she‘r boshidagi misralar she‘r nihoyasida aynan takrorlangan. Ushbu she‘rni shoir Furqat she‘riga o‘xshatma tarzida shakllantirgan.

<sup>1</sup> Ikrom Otamurod. Ta‘azzul. – T.: Sharq, 2008. – B. 51.

<sup>2</sup> Ikrom Otamurod. O‘sha kitob. – B. 60.

<sup>3</sup> Ikrom Otamurod. O‘sha kitob. – B. 65.



Turkumdagi “Taassuf” she’ri yurtdagi guruhbozlik kuchayishi orqasida faqat quruq gap va maddohlikka berilish oqibatida asl haqiqat yo‘qolib borishi xususida taassuf bayonidir:

Guruhlar bir-birin olmas ekan tan,  
Qavmlar bir-biriga tutmas ekan qo‘l.  
Fidolik ne bilmay o‘tar bu Vatan.  
O‘tar Haqiqatni anglamay bu el<sup>1</sup>.

“37-xonadon” she’ri Abdulla Qodiriy yashagan uy raqami va uning hibsga olinish yiliga ishora ma’nosida nomlangan bo‘lib, unda xalqning ziyoli farzandlarining ayanchli taqdiri xususida so‘z borgan.

She’rdagi “Vodarig‘, dunyo g‘am, vodarig‘, dunyo g‘am” misrasi bandlarni bog‘lovchi halqa vazifasini o‘tagan va shu orqali kompozitsion halqa usulidan foydalanilgan.

She’rda lirik syujet yoki kechinma tasvirida ham izchillik kuzatiladi. Xususan, birinchi banddagi mazmunga ko‘ra soyning suvi o‘z o‘zanidan sirg‘alishi, tog‘ning eng chuqur joylari abadiy sukutda ekanligi kabilar o‘z-o‘zidan bo‘lmasdan, yurtdagi muammolar va ularning yechimsiz qolayotganligi bunga sabab bo‘lishi haqida so‘z boradi. Shu sababli bu bandni syujet unsurlaridan bo‘lgan ekspozitsiya deb olinadigan bo‘lsa, tugun dostonlar qahramonlarining nochor ahvolda qolib ketganligi tasviri, kechinma rivoji “botirsiz lashkar”, “sinoni qayrilgan nishon”, “tuman qoplagan qir boshi”, “Boychibor loshini talayotgan qarg‘alar”, “bir-biriga tish qayrayotgan tildoshlar”, “xalafsiz kulba”, “zahil tun mohi” kabi tushunchalar orqali tasvirlangan. Yechim esa so‘nggi bandda berilgan:

Xojaroy bo‘lsa yurtning taxchisi,  
Munfur so‘zlab, tilin tishlar yaxshisi,  
Qaqshab o‘tar bunday elning baxshisi.  
Vodarig‘, dunyo g‘am, vodarig‘, dunyo g‘am!<sup>2</sup>

She’rda yurtning “kattalari” beparvo bo‘lganidan so‘ng bu yurtning yaxshilari tilini tishlashi, baxshilari esa qaqshab o‘tishi ta’kidlanadi. Turkumning so‘nggi she’ri “G‘alat” deb nomlangan bo‘lib, unda ushbu turkumga o‘ziga xos yakun yasalgan:

Moshinlar yugurar erta sahardan,  
Qish chillasi qunshib, yoz hovri kuyib.  
Qishloq quvvatini berib shaharga,  
O‘zi madorsiz turar mung‘ayib<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Ikrom Otamurod. O‘sha kitob. – B. 72.

<sup>2</sup> Ikrom Otamurod. O‘sha kitob. – B. 68.

<sup>3</sup> Ikrom Otamurod. O‘sha kitob. – B. 68.

Qishloq ahli shaharga sarxil meva va sabzavotlarni, donni, paxtani yetishtirib beradi, shaharliklar uni arzonga olib ularga arzimagan haq to‘laganidan qishloq ahlining nochor axvoli yaxshilanmaydi. Shuning uchun ham qishloq “mung‘ayib” madorsiz turadi.

Umuman, Ikrom Otamurod turkumlarida kechinma tasviridagi holatlar ifodasidan syujetning ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, voqealar rivoji va yechim kabi unsurlarini anglash mumkin.

Bahrom Ro‘zimuhammadning “Qur‘onga tatabbu” turkumi sərbast she‘r shaklida yaratilgan. Besh qismli bu turkumda asosiy mazmun “Qur‘oni karim” mutolaasidan olingan taassurotlar ifodasi. Birinchi she‘rda lirik qahramon o‘zi bilmay Azozilning boshlagan yo‘lidan yurgan banda kabi taassurot qoldiradi. Ikkinchi she‘rda chittakdan ham kichik qushga aylantirilgan vujudga uchish buyurilganda, gunohlari zalvori qo‘rg‘oshincha bo‘lganidan ucholmaganligi, ya‘ni gunohkor banda parvoz qila olmasligi tasvirlanadi. Uchinchi she‘rda esa fir‘avanning gumrohligi sabab tavqi la‘natga uchraganligi aks ettirilgan bo‘lsa, to‘rtinchi she‘rda mahshar kuni Alloh bilan yuzma-yuz bo‘lganda o‘zini qanday tutish kerakligini bilmayotgan bandaning iztiroblari ifodasi berilgan. So‘nggi – beshinchi she‘rda Ollohning buyuk qudrati xususida so‘z boradi:

Tariqdek urug‘ga  
bahaybat olamni jo etding  
suv va olovni birlashtirding sen<sup>1</sup>

Bahrom Ro‘zimuhammadning “Qur‘onga tatabbu” turkumi modernistik she‘rlar turkumidir. Unda shoir erkin vaznda kechinma tasvifini istiora va majoziy tasvirlar bilan uyqash holatda ifoda etgan.

Nodir Jonuzoqning “Chilla” turkumi o‘z nomiga munosib tarzda qirq qismdan iborat bo‘lib, turkum tarkibidagi she‘rlar to‘rtliklar shaklida shakllantirilgan. Qofiyalanish tartibi a-a-b-a tarzida. Ushbu qirqta to‘rtlikda bitta umumiy mazmun Allohni tanish, uning marhamatiga musharraf bo‘lish uchun o‘zini gunohlardan poklash va tazarru qilish tasvirlangan. Birinchi she‘r ekspozitsiya vazifasida kelgan. Unda Ollohga o‘tinib, o‘z oshiqlik holi bayon etilgan:

Ollohim, kim aytdi, o‘yingdan kechdim?!  
Yo‘q, yo‘q, asrorimni bilmaydi hech kim.  
Ul qizning ko‘zlari – pokiza qadah,  
Quyoshni eritib, qadahlab ichdim<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Баҳром Рўзимуҳаммад. Кундуз сарҳадлари. – Т.: Мехнат, 1999. – Б. 115.

<sup>2</sup> Нодир Жонузоқ. Мехрибоним. – Т.: Шарқ, 2008. – Б. 23.

Dunyoviy ma'shuqaga ko'ngil bergan lirik qahramon uning ko'zlarida quyosh, ya'ni Ollah jamolini ko'rganligini va o'shandan bahramand bo'layotganligini ta'kidlaydi, mahbubada Ollahning zarrasini ko'rayotganligi aytmoqchi bo'ladi. Bu o'ziga xos tugun vazifasini o'tagan. Ko'rinadiki, ushbu turkum tasavvuf g'oyalariga asoslangan she'rlardan tashkil topgan ekan.

Tomirim bo'tana bo'lib toshadi,  
Qarog'im qirg'oqqa guhar sochadi:  
Qonimda irillar bir vahshiy yo'lbars,  
Ko'zimda bir o'rmon kiyik qochadi<sup>1</sup>.

Lirik qahramon qalbiga Ollahga bo'lgan cheksiz muhabbatni jo qilganida o'zini qudratli his etganidan tomiridagi qon bo'tana shakliga keladi, qarog'idan esa gavhar shaklida nurlar yog'iladi, o'zini yo'lbarsdek his etib, uning ko'z o'ngida bir o'rmon kiyik undan qochib ketayotgandek tuyuladi. Bu tasvirni o'ziga xos kulminatsiya deyish mumkin.

El mendan qochadi – qiladi gumon:  
“Uning otashidan qolmaymiz omon”.  
Holbuki, quritsam qirqta dengizni,  
Ko'zyoshim bo'ladi qirq mingta ummon<sup>2</sup>.

Bunda solik o'zligini unutganidan devona holatiga tushgan, uning ohu-nolalari o'tidan omon qolmasliklaridan qo'rqqan olomon undan qochishga harakat qiladi. Ana shu holati bilan yoki qalbidan chiqayotgan otash o'ti bilan qirqta dengizni quritishi yoki to'kkan ko'zyoshlaridan qirq mingta ummon hosil bo'lishi haqidagi shoirona mushohadalarda mubolag'a san'atining g'ulu darajasidan mohirona foydalanilgan. Bu syujet chizig'idagi yechim unsuriga to'g'ri keladigan mazmundir.

Ollohim, lutf etding: – “Orzung ne – tila”,  
Senga maqsudimni aytay qay til-la?  
Aslida Olami Kubrodan edim –  
Qaytdimmi?! Bu umrim – kichik bir chilla<sup>3</sup>...

Ushbu to'rtlikda lirik qahramonga tilagingni ayt deyilganda, Olami Kubrodan qaytib, o'zining oddiy bir banda ekanganligini bilganidan chekkan ulkan nadomati aks etgan. Nodir Jonuzoqning “Chilla” turkumi Ollahning vasliga oshufta qalbning qirq kunlik uzlatdagi holati va shu davrdagi o'y-kechinmalarining ifodasidir. Tasavvufiy talqindagi to'rtliklar so'fiyning tariqat bosqichlaridan o'tish jarayonini yodga soladi.

<sup>1</sup> Nodir Jonuzoq. O'sha kitob. – B. 24.

<sup>2</sup> Nodir Jonuzoq. O'sha kitob. – B. 28.

<sup>3</sup> Nodir Jonuzoq. O'sha kitob. – B. 29.

Kechinma tasviri ham qirq kunlik o‘ylar izchilligiga asoslangan, syujetning barcha unsurlari orqali shakllantirilgan.

Shoira Oydinnisoning “Men”, “Sen”, “Xat parchalari”, “Onamsiz” (olti qism), “Xirgoyi” (yuz qism) turkumlari mavjud bo‘lib, ular turli mavzulardagi turfa she‘rlar jamlanmasidir. Xususan, shoiraning “Sen” turkumi yetti qismdan tashkil topgan bo‘lib, undagi asosiy lirik qahramoni ishq o‘rtayotgan qalb sohibi deyish mumkin. Uning tilidan tasvirlanayotgan poetik obraz – qalbiga hukmron bo‘lgan “Sen” esa muhabbat tushunchasi va ma’shuq deyish mumkin.

Sen bo‘g‘zimga tiqilib qolgan,  
Yuragimda urgan tutqin qo‘shiqsan.  
Tomirimga ko‘mib qo‘yganman seni.  
Hech kimga aytmayman bu haqda.  
Ichimda yangraysan har kuni,  
Ichimda yig‘laysan har kuni<sup>1</sup>.

Ko‘rinadiki, oshiq qalb sohibasining tomir-tomirini zabt etgan tuyg‘u – muhabbat xususida so‘z bormoqda. Ushbu tuyg‘uning qalbga berayotgan og‘rig‘u iztiroblari, shodligu qayg‘ulari mazkur turkum tarkibidagi barcha she‘rlarni qamragan. “Sen” so‘zi va tushunchasi yettita she‘rning barchasida ta‘kid ma’nosini ifodalash va unga alohida urg‘u berish uchun bandlar boshida takror qo‘llanilgan. Bu – anaforik kompozitsiyaga misol bo‘la oladi. Yuqoridagi bandda lirik qahramon tuyg‘ulari makoni bo‘lgan qalb – yurak haqida so‘z bordi. Demak, bu lirik kompozitsiyadagi o‘ziga xos ekspozitsiya deyish mumkin. Lekin bandning so‘nggi misralaridagi antiteza (ichimda yangraysan – ichimda yig‘laysan) usulidagi qarama-qarshi mazmunning bir tushunchaga qaratilganligi syujet chizig‘idagi tugun – muammoning boshlanish nuqtasini hosil qiladi.

Sen – adashgan hayqiriqsan.  
Bo‘g‘zimdanda emas.  
ko‘zlarimdan kuyib chiqasan.  
Eshitmaydi o‘zimdanda o‘zga,  
mendanda boshqa hamma ko‘radi<sup>2</sup>.

Ushbu parchadagi “adashgan hayqiriq” deya nomlanayotgan tushuncha aynan lirik qahramon qalbiga og‘riq berayotgan tuyg‘u bo‘lib, u ham azob beradi, ham quvontiradi. She‘rning mana shu o‘rnini kulminatsiya sifatida talqin etish mumkin.

<sup>1</sup> Ойдиннисо. Қайтиш. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 135.

<sup>2</sup> Ойдиннисо. О‘sha kitob. – В. 137.

“Sen” tushunchasining “shirin tush”, “so‘nggi tomchi yosh”, “cheksiz va olis osmon”, “bag‘rikeng zamin”, “qaroqlarida otgan tong”, “namiqqan dili topgan quyosh”, “ko‘nglini to‘zg‘itib o‘tgan shabboda” kabi sifatlash shaklidagi tushunchalar bilan atalishi jarayoni kechinma rivoji bo‘lsa, eng so‘nggi band yechim bo‘la oladi:

Sen hayotsan – nafasi mangu,  
Yurakkinam intiqib kutgan.  
Sen dunyosan – bir umr meni  
Dunyoyimdan mosuvo etgan<sup>1</sup>.

She‘r nihoyasidagi qarama-qarshi tuyg‘u – “Sen”ning yuragi mangu intiqib kutgan” va “dunyosidan mosuvo etgan” kabilar bilan sharhlanishidan uning qalbdagi qo‘zg‘aydigan g‘alayonlari oshiqqa quvonch va qayg‘u keltirishiga ishorani ilg‘ash mumkin.

Shoiraning “Men” turkumi faqat ikki she‘rdan tashkil topgan bo‘lib, unda lirik qahramonning qarama-qarshi tuyg‘ular girdobidagi o‘ylari, o‘zligini tanish, atrofidagi g‘ala-g‘ovur va yolg‘on dunyoga ko‘nikish yo‘lidagi xulosalari jamlangan.

Yenggan ham o‘zimman,  
Yengilgan ham men.  
Shahid ketgan o‘zim,  
O‘zim qahramon.  
Qo‘lga kiritganim bir siqim Yolg‘on<sup>2</sup>...

Oydinnisoning “Onamsiz...” turkumi olti qismdan iborat bo‘lib, unda onasidan judo bo‘lgan farzandning iztrobli va armonli o‘y-xayollari hamda kechinmalari aks ettirilgan.

Oydinnisoning eng yirik turkumi “Hirgoyi” deb nomlangan va u bir yuz bitta she‘rdan iborat. Unga shoiraning o‘zi “Telba odamlar va odamlardan chiqqan telbalar tilidan 101 bitik” degan izoh ham keltirgan. So‘ngra Alisher Navoiy qalamiga mansub: “Bu korgohda xato kelmadi chu bir sari mo‘y, Xato mening nazarimdandurur xato ko‘rsam” bayti epigraf sifatida keltiriladi. She‘rning birinchi qismida dunyodagi cheklovlardan zada bo‘lgan ozurdajon lirik qahramon dunyo qonuniyatlari va cheklovlariga o‘ziga yarasha tashbehlar tanlash orqali ularning tasvirini chizishga urinishi aks ettirilgan. Xususan, “qurigan hislar”, “quyushqonlar”, “sotilgan fikr”, “ruhiston”, “makkor ko‘rgulik”, “haykal naqlar” kabilar shular jumlasidan. Shoiraning: “Jonga tegmadimi

<sup>1</sup> Oydinniso. O‘sha kitob. – B. 137.

<sup>2</sup> Ойдиннисо. Ховур. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б. 58.

qurigan hislar va ularning taraq-turuq ovozi”,– satrlari ushbu yirik turkumning ekspozitsiyasi hisoblanadi. Chunki “qurigan hislar” tushunchasi fikrlar rivojiga kirish uchun kalit vazifasini o‘tagan.

Turkumdagi o‘ttiz beshinchi she’rda lirik qahramon o‘zining ichi to‘la do‘st va g‘anim ekanini aytib, shuurini xo‘roz uyg‘otishi, tuyg‘ularini zog‘lar cho‘qishi, tushlarini sichqon kemirishi kabi absurd holatlarni sanash orqali buni his qilganidan baxtiyorligini tasvirlaydi. Navbatdagi she’rlarda o‘z fikri o‘zini chaqayotgani, dunyo undan qo‘rqib qochayotgani, tepaga chiqsa esi og‘ishi, suvga yaqin borsa hushi uchishi, o‘zgalarning fikridan o‘zga fikr izlayotgani va o‘zi o‘zidan qochayotgani haqidagi chigal ruhiy holat ifodasi taqdim etilgan. Turkumning birinchi bo‘limi qirq uchinchi she’r bilan yakunlanadi va unda o‘ziga Yaratgandan quvvat va shijoat so‘rash orqali hayotda o‘z o‘rnini topishga va o‘shishga imkon topish istagini ifodalaydi:

Yangi hayot qaytsin ko‘kraklarimga,  
Chin ulug‘lik qaytsin, qaytsin ezgulik.  
Quvvat, shijoat ber mag‘lub tanimga,  
Yana kurashgulik, yana o‘sgulik<sup>1</sup>.

Turkumning ikkinchi bo‘limi boshlangan qirq to‘rtinchi she’rda shoironing hayot falsafasi aks ettirilgan. Unda shoir muhabbat tuyg‘usi hayot mazmuni ekanini bildirgan.

Lirik qahramon bir she’rida “Meni yutib oldi yutilgan yurak, Men aqlimdan ozdim, cho‘pdayin ozdim, Aqlim arazlagan mendan men halak” kabi so‘z o‘yinlari orqali qahramon qalbidagi qarama-qarshi va murakkab tuyg‘ularni bayon qiladi. Yana bir she’rda ham “Men hayotga hech ko‘nikmadim, Hayot menga ko‘nikib qolar” kabi ifodalar orqali lirik qahramonning murakkab hayotning norasoliklaridan iztiroblari tasviri aks ettirilgan.

Turkumning uchinchi qismi oltmish yettinchi she’rdan boshlanadi. Unda lirik qahramonning: “Bu dunyo meniki!”– degan “da’vosi” ko‘zlariga qamab olingan “zarrin quyosh”, “ma’suma oy”, “zarbadan kun”, “baxmal tun” kabi tushunchalar bilan bog‘liq ekani tasvirlanadi. Tushunchalar uchun qo‘llanilgan epitetlar o‘ziga xos va yangicha tashbehlaridir. Bulardan lirik qahramonning shoir ekanligi ayonlashadi.

100-she’r shoironing shu turkum yozilguncha kechirgan umri sarhisobiga yoki turkum qahramonining o‘z yashab o‘tayotgan hayotidan mazmun izlashiga o‘xshaydi.

---

<sup>1</sup> Ойдиннисо. Қоралама. – Т.: Фафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – Б. 54.

Bulbul nola qildi ba'zan sozimda,  
Ba'zan itlik tutib, it bo'lib hurdim.  
Ne sasin istasam, roz aytib ko'rdim,  
Faqat so'zlamadim o'z ovozimda<sup>1</sup>.

She'rdan lirik qahramon qalbidagi kechinmalarini to'liq aks ettira olmaganidan norozi ekani holati aks etgan. Turkumning so'nggi bir yuzu birinchi she'rida shoira lirik qahramon o'z kechinma o'ylarini doimgiday qarama-qarshi tushunchalar orqali ifoda qiladi:

Yashadim o'nnglanib hamda tushlanib,  
Bahor yanglig' ikkilanib, uchlanib.  
Qishday birlanib ham aytdim so'zimni,  
Aytmay olib qochdim ba'zan o'zimni<sup>2</sup>.

Bu satrlarda yashash uchun turfa qiyofalar kasb etishga to'g'ri kelgani, hamisha ham o'z so'zini aytish imkoni bo'lavermagani aytilgan.

Men balki Kimningdir zavqli ermagi,  
Sog' kabi ko'ringan ajib tentagi –  
O'lishimni bila turib tug'ildim,  
Adashib yashadim, adashib o'ldim!<sup>3</sup>

Ya'ni hayotning murakkab ekanligi, har bir inson o'zining hayotga kelishdan maqsadi xususida o'ylab ko'rishi haqida so'z bormoqda. Lirik qahramon ham o'zining hayot yo'li to'g'risida o'ylab, kimningdir ermagi bo'lib yashash azobi, asl qiyofangni, o'zligingni namoyon etmay, rol o'ynab yashash iztirobini esga oladi. O'z ijod namunalarining umrboqiy bo'lishini istagan qalb sohibi hali o'zidan ko'ngli to'lmaganligidan o'zini adashib yashaganlar safida ko'rayotganligi o'ziga talabchan va o'zidan ko'ngli to'lmaydigan hassosqalb ijodkorlarga xos xislat ekani shu misralar orqali aks etgan. Shoira uchun o'lim – bu hayotdan izsiz ketishdir.

Xullas, Oydinnisoning she'riy turkumlarida shoira hayotda ko'rganlaridan chiqargan xulosalari va falsafiy mushohadalari ifoda etilgan. 101 she'rdan tashkil topgan "Hirgoyi" turkumi qarama-qarshi kechinma, tuyg'u va xulosalarning ifodasi aks ettirilgan turkumdur.

Shoir Abdunabi Boyqo'ziyevning besh qismdan tashkil topgan "Tun haqida qo'shiqlar" nomli turkumi mavjud bo'lib, undagi birinchi she'r "Ilhom og'ushida" deb nomlanadi va unda shoir tunga nisbatan charos tashbehini qo'llash orqali o'ziga xos yangilik qiladi:

<sup>1</sup> Oydinniso. O'sha kitob. – B. 90.

<sup>2</sup> Oydinniso. O'sha kitob. – B. 90.

<sup>3</sup> Oydinniso. O'sha kitob. – B. 91.

Charosim – Tun,  
Yana keldingmi?  
Yolg‘izlatib qo‘ymay, debsan-da,  
Sezdim. Zor talpindim, men ham,  
Ko‘rding-ku, rashkchi subh, azonda<sup>1</sup>...

She’rda shoir Tun ilhom manbai bo‘lganidan unga qattiq ko‘ngil qo‘ygani, rashkchi subh esa tunni undan qizg‘anib, Quyoshni chorlaganini ifodalaydi. Bunday o‘ziga xos voqebandlik kechinma tasviridagi tadrijiylikni yuzaga keltirgan. Chunki undagi voqelikda izchillik mavjud. Keyingi badda Tunni shoirdan qizg‘angan Quyosh uni butunlay mahv etganidan alamda qolgan lirik qahramon ingrab yuborishi, ana shu tadrij borligini dalolatlaydi. She’r so‘ngida: “Kunduz, sen ham yig‘latgil edi”, – deya ta’na qilinishi esa undan lirik qahramonga Tun singari mehr ko‘rsata olmasligini ifodalaydi.

Turkumdagi ikkinchi she’r “Shunday sevsin” deb nomlangan bo‘lib, unda endi lirik qahramon Tunga nisbatan o‘z mehrini namoyon etadi:

Tun, charosim,  
Ilhom siyohim,  
Tuyg‘ularda gullagan ohim.  
Sokinginam, sohirso‘zginam,  
Yolg‘izlikda yolg‘iz panohim<sup>2</sup>.

Shoirning ilhom manbasi bo‘lgan Tun unga sokin ijodiy sharoit yaratib beradi. Shu sabab unga nisbatan “ilhom siyohi”, “tuyg‘ularda gullagan ohim”, “sokingina”, “sohirso‘zgina” “yolg‘iz panoh” kabi sifatlashlar qo‘llanilgan. Lirik qahramon o‘zining “kunduzlardan bezor”ligini aytashi uning kunduzgi sershovqinlikdan zada bo‘lgani sabab Tunga talpinishi bildiradi. Agar kunduz ham uni shunday seva olganida unga ham ko‘ngil berishi mumkinligi she’rning: “Shunday sevsin edi, Kunduz ham” misrasidan anglashiladi.

Turkumdagi uchinchi she’r “Biz gina qilmaymiz” deb nomlangan bo‘lib, unda lirik qahramon Tunni orziqib kutishi, ular birgalikda tongni uyg‘otish uchun Sharqqa yo‘l olishlari va o‘zlarining quyoshni qutqarishlarini tasvirlaydi:

Biz  
gina qilmaymiz – bu hayot,  
Kerak bo‘lsa tikamiz boshni.  
Qutqaramiz bugun albatta,

<sup>1</sup> Абдунаби Бойқўзиев. Чўли роғим. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – Б. 125.

<sup>2</sup> Abdunabi Boyqo‘ziyev. O‘sha kitob. – B. 125.



Mag‘rib qamab qo‘ygan quyoshni<sup>1</sup>.

Tun qo‘ynida sokin ijod qilishini aytish orqali shoir kunduzni madh etadi, uni bor chiroyi bilan tasvirlaydi.

Turkumdagi to‘rtinchi she‘r “Tonglar kutadi” deb nomlangan bo‘lib, unda lirik qahramon Tunga uning ismini hanuz bilmasligidan hasrat qilib, uning oqshom kelib, nahor ketishi va har gal shoir yuragidan o‘tishini tasvirlaydi va unga hasratlarini to‘kib soladi:

Ellik besh-yil  
Sinog‘ingdaman.  
Kun-kun nurab boryapman o‘tib,  
Qancha shoshmay shum ajal tomon,  
Meni tonglar oladi kutib...  
Meni tonglar qoladir kutib<sup>2</sup>.

Shoir ellik besh yildan beri kun sayin qarilikka tomon qadam bosayotgani, har qadamini tunlar emas, tonglar qarshilashini aytadi. Turkumning so‘nggi she‘ri “Unutma meni” deb nomlangan bo‘lib, unda lirik qahramon Tun bilan xayrlashayotib u bilan o‘tgan damlarning tong va shomlar uchun ham xizmat qilganligini alohida ta‘kidlaydi:

Yaxshi bor, Tun,  
Unutma meni,  
Biz tonglarga sodiq yashadik,  
Shomlar ozor topmasin uchun  
Yo‘llariga oydin to‘shadik<sup>3</sup>.

She‘rda kechinma tasviri tadrijiy shaklda ifodalanganligi unda lirik syujet mavjudligini ko‘rsatadi. Turkum tarkibidagi beshta she‘r syujetning besh unsuri sifatida baholanishi mumkin.

Modernistik yo‘nalishda ijod qiladigan shoir Tursun Alida ham bir qator turkum she‘rlar mavjud bo‘lib, ular boshqa she‘rlar bilan birga alohida sarlavhali turkumlar sifatida shakllantirilgan. Xususan, “Yurak manzaralari” umumiy sarlavhasi ostida to‘qqiz qismli “Ruhiyat peyzaji”; har biri besh qismdan iborat “Eski daraxtlar”, “Ranglar ohangi”, “Oy siniqlari”, “Tun”, “So‘z”, “Sukunat tovushi”, “Onam qabridagi maysalar”; to‘rt qismli “Kunning umri”; “Ruhiyat suvratlari” umumiy nomi ostida har qaysisi to‘rt qismdan iborat “Uyg‘oq kechalar”, “Iltijo”; besh qismli “Sovuq”, “Sevgi”; sakkiz qismli “Ko‘ksimdagi qiyomat”; o‘n qismli “Binafsha”; yigirma qismli “Oq yelkanli kapalak”; “Rangin

<sup>1</sup> Абдунаби Бойқўзиев. Чўли ироғим. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – Б. 126.

<sup>2</sup> Abdunabi Boyqo‘ziyev. O‘sha kitob. – B. 127.

<sup>3</sup> Abdunabi Boyqo‘ziyev. O‘sha kitob. – B. 127.

fasllar” umumiy nomi ostidagi o‘n to‘rt qismli “Qish ruhiyati”; “Qora sukunat” nomi ostidagi o‘n besh qismli “Xayol chechaklari”; “Siniq tovush” nomi ostida har biri besh qismdan iborat “Muhabbat”, “Yolg‘izim”, “Kunduz ko‘zlari”, “G‘aroyib tuyg‘ular” she’riy turkumlari mavjud.

Tursun Alining “Ruhiyat peyzaji” nomli to‘qqiz qismli turkumi lirik qahramoni birinchi she’rda ushbu “behudud dunyo”dan hech nimani yoki hech kimni topa olmaganligini aytish orqali o‘z ruhiyatidagi mubhamlikka ishora qiladi. Ikkinchi she’rda shu holatdagi shoir ovozi dunyo qa’riga singib yo‘q bo‘lib ketayotganidan iztirobga tushgani aks ettiriladi. Uchinchi she’rda lirik qahramon qanot chiqarib boshqa yurtlarga uchib ketishni orzulaydi:

O‘zga bir vatanda, sog‘inib yashasam  
tug‘ilgan yurtimning har boshqoq, har maysasin.  
Qishda issiq yurtlarga  
uchib ketgan qushlardek<sup>1</sup>...

Bunda ona Vatanning qadriga yetmayotgan lirik qahramon uning qadrini musofirchilikda anglashi mumkinligidan umidlangani aks etadi.

Tursun Ali qalamiga mansub “Ranglar ohangi” nomli turkum ham shunga o‘xshash kechinma va kayfiyat ifodasiga bag‘ishlangan. Unda asosan beshta uchlik birlashtirilgan bo‘lib, birinchi uchlik:

Sen dunyoga kelding, boychechak,  
Mudrayotgan toshlar girdingda.  
Kim qadrlar seni bu yerda?!<sup>2</sup>

Toshga o‘xshash mudroq kimsalar go‘zallikning qadriga yetmasligi shoirni bezovta qilmoqda. Keyingi uchlikda uzoqdan kelayotgan qushlar bilan tillashish istagi aks etgan bo‘lsa, navbatdagsida rayhonning shirin hidi haqida so‘z boradi. Keyingisida daraxt shoxlarida o‘ynab mevalarini cho‘qiyotgan chumchuq tasvirlansa, so‘nggi uchlik oshiqning ma’shuqasiga aytar so‘zlari ifodasidir:

Sen Osmonsan, sevgilim,  
Men bag‘ringda turg‘un bo‘lolmay,  
Darbadar ko‘chguvchi bulutman<sup>3</sup>.

Shoirning “Oy siniqlari”, “Tun”, “So‘z”, “Sukunat tovushi” kabi turkumlari ham besh qismdan iborat bo‘lib, ularda kechinma tasviriasosan birgina tushuncha bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun boshqalaridan

<sup>1</sup> Турсун Али. Ой япроғи. – Т.: Шарқ, 2008. – Б. 11.

<sup>2</sup> Tursun Ali. O‘sha kitob. – B. 27.

<sup>3</sup> Tursun Ali. O‘sha kitob. – B. 27.

farqlanadi. Ya'ni "Oy siniqlari" turkumi oy tushunchasi bilan bog'liq jihatlar haqida bo'lib, uning so'nggi she'rida:

Oyning tilla siniqlari.  
Sharqirab oqayotgan suv uzra o'ynar,  
Ularni ilonlar yeb qo'ymasa bas<sup>1</sup>...

Bu satrlarda go'zallik va ezgulikning yovuzlik xunuklikka yem bo'lishidan xavotir aks etgan.

"Tun" turkumida uning "qop-qora tovushi", "oyning oyoq tovushlari", "yurakkka vahima solishi", "juda uzun kechayotgani" kabi tashbehlar vositasida berilgan tuyg'ular ifodasi modernistik shaklda, metaforik yo'sinda aks ettirilganini ko'rish mumkin.

Shoirning "Uyg'oq kechalar", "Onam qabridagi maysalar" kabi turkumlari tarkibiga uning nisbatan katta hajmdagi sərbast va barmoq vaznidagi she'rlari kirgan. "Uyg'oq kechalar" turkumidagi lirik qahramon qalbini tun manzaralari har yo'singa soladi. Tun poetik obraziga nisbatan "rutubatli tun", "yoz tuni", "zulmat kecha", "ruhimday qorong'u tun" epitetlari qo'llanilganligidan ham kechinmalarning turfa va zalvorli ekanini anglash mumkin:

Ruhimday qorong'u tun,  
Dilimning dog'lari to'kilar qog'oz uzra,  
Qirov bosgan zaif maysalar.  
Qora sovuq changalida atirgul,  
Boshlari kesilgan daraxtlar  
Siyoh bo'lib tomar satrlarimga.  
...Ochiq qoldiraman she'r daftarimni,  
Biroq, Shamolning uzun qo'llari  
Yopib qo'yar bag'ri qon satrlarimni,  
Yopib qo'yar yuragim dog'larini<sup>2</sup>.

Shoir ruhining qorong'iligi dilidagi alamlar va iztiroblar tufayli ekani she'rdagi "qirov bosgan zaif maysalar", "qora sovuq changalida atirgul", "boshlari kesilgan daraxtlar" kabi kayfiyatsizlik ulashuvchi epitetlardan ham anglashiladi. Lekin yurak qoni bilan yozilgan satrlarga Quyosh yoki Yorug'lik kabi tushunchalarning nazari tushishiga Shamolning to'sqinlik qilishi qahramonning qalbini yanada tundlashtiradi.

Tursun Alining "Oq yelkanli kapalak" turkumi yigirmata uchlikni o'z ichiga olgan. Uchliklar sərbastda bitilgan. Ular modernistik yo'nalishda yozilgani uchun izchillik kuzatilmaydi. Chunki bir she'r lirik

<sup>1</sup> Tursun Ali. O'sha kitob. – B. 28.

<sup>2</sup> Tursun Ali. O'sha kitob. – B. 40.

qahramonning o‘z yoriga murojaati tarzida bo‘lsa, ikkinchisi tun va yorug‘lik haqida, uchinchisi yomg‘ir, oftob va shamol haqida, to‘rtinchisi notinch va serg‘alva dunyo haqida, beshinchisi yarador qushchaga tasalli shaklida, oltinchisi qora qo‘lga guldan nari turishni buyurish ohangida, yettinchisi sevgilisining siniq ruhli bog‘iga bog‘bon bo‘lish o‘tinchi mazmunida, sakkizinchisi aytilmoqchi bo‘lgan so‘zlarning suvga cho‘kishi xususida, to‘qqizinchisi kapalak haqida bo‘lsa, o‘ninchi she‘r ma’shuqaning barmog‘idan ushlab olib yurilganda gullar unishiga umidvorlik ifodasiga bag‘ishlangan. To‘qqizinchi she‘rdagi kapalak obrazi o‘ziga xos ifodasi bilan e’tiborni tortadi:

Uzoqlarga chorladim seni,

O‘zim ham bilmayman, qayoqqa?!

Sen lom-mim demading, oq yelkanli kapalak<sup>1</sup>.

Shoir nazdida oq qanotli kapalak ilhom parisi bo‘lib, uning qanotining yelkan sifatida tasvirlanishi xayol ummoniga sayr etish istagi ifodasi uchun mos keladi. Demak, ushbu turkumdagi turfa xil mavzu va mazmun xuddi mozaika singari bir ma’no, ya’ni ijodkorning xayollar olamidagi oq yelkanli kapalakda sayr etish holati tasviri uchun qo‘llanilganidan ularni kechinma tasviri yoki lirik syujetning modernistik shakliga misol sifatida qabul etish mumkin.

Tursun Ali qalamiga mansub modernistik she‘rlarda ham turkumlilik ma’no izchilligi shaklida bo‘lmasa ham mozaika kabi xotiralar yoki xayolot olami parchalarini tiklagan kabi tasavvurni to‘ldirishga ko‘maklashadi. Ularda ham lirik syujet tasviri va kechinma tadriji kuzatiladi. Ayrim turkumlarida yagona poetik obraz va yagona mavzuga tayanilgan izchil lirik syujet shakllantirilgan. Tursun Ali turkumlari sərbast shaklidagi ikkiliklar, uchliklar, to‘rtliklar va erkin satrlar shaklida ham yaratilgan. Ayrim o‘rinlarda barmoq vazni asosida yaratilgan she‘rlar ham mavjud. Turkum tarkibidagi she‘rlar yangicha poetik mushohadakorlik, metaforalar orqali fikrlashga asoslangan. Lekin barcha turkumlarda lirik qahramon yagona ekanligi va turkumlar umumiy sarlavhalarga bo‘ysundirilganligi ularning o‘ziga xos jihatlaridir.

Xulosa qilinganda, Oydin Hojiyeva she‘riy turkumlari bir insonning tavba-tazarrusi va Haqqa yetishmog‘i uchun unga olib boradigan yo‘llar haqidagi mushohadalari aks ettirgan she‘rlar jamlanmasidir. Jamol Kamolning “Alvido” turkumi elegiya tarzida yaratilgan vidolashuv she‘rlari turkumi bo‘lsa, Salim Ashurning “Notinch bog‘” she‘riy turkumi majoziy tasvirlar orqali shakllantirilgan. Ikrom Otamurod turkumlarida

<sup>1</sup> Tursun Ali. O‘sha kitob.– B. 50.

kechinma tasviridagi holatlar ifodasidan syujet unsurlarini anglash mumkin.

Bahrom Ro‘zimuhammadning “Qur’onga tatabbu” turkumi modernistik shaklda yozilgan she’rlar turkumi bo‘lib, unda shoir kechinma tasvifini istiora va majoziy tasvirlar vositasida ifoda etgan. Nodir Jonuzoqning “Chilla” turkumi Ollohning vasliga oshufta qalbning qirq kunlik uzlatdagi holati mazmunida shakllantirilgan. Oydinniso, Abdunabi Boyqo‘ziyev, Tursun Ali qalamiga mansub modernistik she’rlarda turkumlilik ma’no izchilligi shaklida bo‘lmasa ham mozaika kabi xotiralar yoki xayolot olami parchalari tiklangan. Ruhiiy holat tasviri, kechinma tadriji ayrim turkumlarida yagona poetik obraz va yagona mavzuga tayanilgan holda izchillikda shakllantirilganligi kuzatiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- She’riy turkumlarni birlashtiruvchi komponentlar mazmun va shakl dialektikasi asosida shakllantirilgan. Bunday xos komponentlar sirasiga ulardagi umumiy sarlavha, epigraf, qismlarning raqamlanishi yoki nomlanishi, kompozitsiyasidagi o‘zigaxosliklarni kiritish mumkin.
- Mazmunga xos unsurlar sirasiga shoirning badiiy niyati asosida shakllantirilgan badiiy g‘oya, umumiy mazmun, lirik qahramon kechinmasi tasviridagi izchillik, poetik obraz ishtirokidagi ketma-ketlik kiradi. Sonet turkumlarida ular o‘rtasidagi bog‘liqlik “tezis – antitezis – kechinma rivoji – sintez” tarzida shakllantirilganida ko‘rinadi.
- Oydin Hojiyeva she’riy turkumlari insonning tavba-tazarrusi va Haqqa yetishmog‘i uchun unga olib boradigan yo‘llar haqidagi mushohadalari aks ettirilgan she’rlar jamlanmasi bo‘lsa, Jamol Kamol turkumlari elegiya tarzida yaratilgan vidolashuv she’rlari turkumi shaklida yaratilgan bo‘lib, kechinma tadriji ham shu mazmunga qaratilgan. Salim Ashurning “Notinch bog‘” she’riy turkumi majoziy tasvirlar orqali shakllantirilgan bo‘lsa, Ikrom Otamurod turkumlarida kechinma tasviridagi holatlar ifodasidan syujet unsurlari izchil joylashtirilganligini ko‘rish mumkin.
- Bahrom Ro‘zimuhammadning “Qur’onga tatabbu” turkumi modernistik shaklda yozilgan bo‘lib, unda shoir kechinma tavsifini istiora va majoziy tasvirlar bilan ifoda etgan. Nodir Jonuzoqning “Chilla” turkumi qirq kunlik o‘ylar izchilligiga asoslangan, syujetning barcha unsurlari orqali shakllantirilgan. Oydinnisoning

101 sheʼrdan iborat “Hirgoyi” turkumi shoiraning falsafiy mushohadalari ifodasidir. Abdunabi Boyqoʻziyevning sheʼriy turkumida kechinma tasviri tadrijiy shaklda ifodalanganligi uchun ham undagi beshta sheʼr syujet unsurlari sifatida baholanishi mumkin.

- Tursun Ali qalamiga mansub modernistik sheʼrlarda turkumlilik xotira yoki xayolot parchalarining mozaik birlashtirilishidan tashkillashtirilgan. Umuman, turkumni tashkil etgan komponentlar sheʼr badiiyatini yuzaga keltirishda mazmun va shakl dialektikasiga qatʼiy amal qilgan.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Turkumni shakllantiruvchi birliklar qaysilar?
2. Turkumning eng muhim vazifasi nimalarda koʻrinadi?
3. Turkumni shakllantirishning oʻziga xos mezonlar sifatida nimalarni aytish mumkin?
4. Turkum dagi sheʼlar voqeaband lirika namunasi boʻlishi mumkinmi?
5. Mirtemirning “Qirgʻiz sheʼrlari” deb nomlangan turkumi tarkibida nechta sheʼr bor?
6. Rauf Parfi sonet-turkumlari haqida nimalar bilasiz?
7. Sonet-turkumlar kompozitsiyasi qay tarzda shakllantiriladi?
8. Turkumlarning shakliy-uslubiy jihatlari nimalarga bogʻliq?
9. Rauf Parfi qaysi mavzularda turkumlar yaratgan?
10. Sheʼriy turkumlarni shakllantiruvchi vositalar qaysilar?
11. Oʻroz Haydar ijodida “Mana, ishq maktubim yoqmoqdasan jim” deb boshlanuvchi sonetlar turkumi nimaga bagʻishlab yozilgan?
12. Zamonaviy oʻzbek sonet turkumlaridagi sheʼrlar oʻtrasidagi bogʻliqlik nimalarda koʻrinadi?

### **TEST**

- 1. Mirtemirning mashhur “Shahar” sheʼri qaysi sheʼriy turkumi tarkibida kelgan?**
  - A. “Qoraqalpoq daftari”;
  - B. “Qirgʻiz sheʼrlari”;
  - C. “Chagʻalay”;
  - D. “Men seni...”.

- 2. Rauf Parfi she'riyatida sonet turkumlaridan qaysi biri ko'hna tamaddun bo'lgan hudud haqida?**
- A. "Qora devor";
  - B. "Mikelanjelo sevgisi";
  - C. "Yo'lovchi";
  - D. "Alaniya.
- 3. Rauf Parfining bag'ishlov shaklida sonetlar turkumlaridan qaysi biriga "Habib Abdulloh xotirasiga" degan izoh berilgan?**
- A. "Yer farzandi";
  - B. "Munajjim";
  - C. "Yo'lovchi";
  - D. "Sensiz".
- 4. Rauf Parfining "Ona Turkiston" sonetlar turkumi ham bag'ishlov shaklida bo'lib, ushbu she'r kimga bag'ishlangan?**
- A. Abdulla Qodiriya;
  - B. Abdulhamid Cho'lponga;
  - C. Abdurauf Fitratga;
  - D. Abdulla Avloniyga.
- 5. Rauf Parfining sonetlar turkumiga shoir Asqad Muxtorning "Sen mening erkimsan, mening qafasim" misrasini epigraf sifatida tanlagan va va birinchi sonet tarkibida ushbu misra qo'llanilgan?**
- A. "Munajjim"
  - B. "Qora devor";
  - C. "Mikelanjelo sevgisi";
  - D. "Yo'lovchi".
- 6. Rauf Parfining qaysi sonetlar turkumiga mashhur osetin shoiri Konstantin Xetogurovning to'rt misra she'ri epigraf qilib olingan?**
- A. "Alaniya";
  - B. "Mikelanjelo sevgisi";
  - C. "Yo'lovchi";
  - D. "Qora devor".
- 7. Shoir Azim Suyun qalamiga mansub "O'ldirsang ham o'zing o'ldir, muhabbat!" nomli turkumining tarkibida nechta she'r bor?**
- A. o'nta;
  - B. sakkizta;

- C. oltita;
- D. to‘rtta.

**8. Azim Suyunning “Kuz” deb nomlangan turkumi ham o‘ziga xos kompozitsion qurilishga ega bo‘lib, u qanday shakllantirilgan?**

- A. Sakkiz qatorlik o‘n sakkiz banddan tashkil topgan.
- B. Olti qatorlik o‘n ikki banddan tashkil topgan.
- C. To‘rt qatorlik o‘n banddan tashkil topgan.
- D. Besh qatorlik sakkiz banddan tashkil topgan.

**9. Taniqli shoir O‘roz Haydar ijodida “Mana, ishq maktubim yoqmoqdasan jim” deb boshlanuvchi sonetlar turkumi mavjud bo‘lib, u nechta sonetdan iborat?**

- A. o‘n oltita
- B. o‘n to‘rtta
- C. o‘n beshta
- D. o‘n sakkizta

**10. Turkumlardagi umumiy sarlavha, epigraf, qismlarning raqamlanishi yoki nomlanishi, kompozitsion vosita yoki usullarning mavjudligi kabilar uning qanday unsurlari sanaladi?**

- A. shakliga xos komponentlari;
- B. mazmunga xos unsurlar;
- C. ham shakliga, ham mazmunga xos unsurlar;
- D. har ikkalasiga kirmaydi.

**11. Turkumlardagi shoirning badiiy niyati asosida shakllantirilgan g‘oya, mazmun, lirik qahramon kechinmasi tasviridagi izchillik, poetik obraz ishtirokidagi ketma-ketlik va davomiylikdan iborat bo‘lgan unsurlar qanday nomlanadi?**

- A. mazmunga xos unsurlar;
- B. shakliga xos komponentlari;
- C. ham shakliga, ham mazmunga xos unsurlar;
- D. har ikkalasiga kirmaydi.

**12. Zamonaviy o‘zbek sonet turkumlaridagi she‘rlar o‘trasidagi bog‘liqlik asosida shakllantirilgan sonetlar hajmi qancha?**

- A. 2 tadan 100 tagacha
- B. 44 tadan 66 tagacha
- C. 60 tadan 70 tagacha
- D. 28 tadan 100 tagacha



## 4-MAVZU. POETIK TURKUMLARDA BADIY TIMSOLLAR TASVIRI

### Reja:

1. She'riy turkumlarda ramzlar va majoziy obrazlar tasviri
2. Turkumlarda badiiy shartlilik va ishoralarning poetik funksiyasi
3. Turkumlarda lirik "men" obrazi

**Tayanch so'z va iboralar:** she'riy turkumlar, ramzlar, majoziy obrazlar, tasvir mahorati, badiiy shartlilik, ishoraviylik, poetik funksiya, allegoriya, falsafiy-timsolli obrazlilik, badiiy tafakkur, tasavvufiy talqin va boshqalar.

### Mavzuning bayoni:

#### 1. She'riy turkumlarda ramzlar va majoziy obrazlar tasviri

Barcha badiiy asrlarda bo'lgani kabi she'riy turkumlarda ham obrazlilik juda muhim xususiyatlardan biridir. Ma'lumki, she'riyatda obrazlilik poetik timsollar, ramz va majozlar vositasida amalga oshiriladi. Timsolsiz san'at, adabiyot, umuman, ijod bo'lgan emas. Bugun xalq og'zaki ijodiga ham timsollar san'ati sifatida qaraladi va o'rganiladi.

"Timsol tashqi dunyo unsurlarining inson ichki dunyosi, qalbi va ongidagi aksidir. Demak, odamning ichki dunyosida tashqi dunyoni o'ziga xos yo'sinda qabul qilish xususiyati bor. U tashqi dunyoni ramzlar, timsollar orqali, ya'ni o'zicha "qayta ishlab" qabul qilishga moslashgan. Inson tug'ilgandayoq dunyoga shunday ruhiy imkoniyat bilan kelgan. Ilk odamlar tabiat va koinot sirlarini timsollar orqali qabul qilganlari bejiz emas"<sup>1</sup>. Ko'rinadiki, timsol tashqi dunyo unsurlarining inson tomonidan ularning o'ziga xos xossalariga ko'ra qabul qilingan shakli ekan. Shu jihatga ko'ra ham timsollar biror narsaning inson ongidagi zuhuri tarzida gul – ma'shuqa, bulbul – oshiq timoli ekanligi kabi taassurot qoldiradi.

"Ramz, simvol ko'chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi; obrazlilik turi. Ramz mohiyatan allegoriyaga yaqin, undan farqi shuki, ramz kontekst doirasida ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llaniladi. Ramzning ma'nosi kontekst doirasida va shartdan xabardorlik bo'lganda reallashadi"<sup>2</sup>. Ya'ni ramz majozdan ancha farq

<sup>1</sup> Жаббор Эшонкул. Туш семантикаси ва бадий вазифалари/ "Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини" китоби. – Тошкент: Фан, 2011. – Б. 34.

<sup>2</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – Б. 244.

qilib, ko‘pma’ noliligi bilan ajralib turadi. U o‘zbek xalq folklori va yozma adabiyotida ham qadimdan mavjud. “Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko‘pchilik xalqlar adabiyoti va san’atida mushtarak mazmuni ifodalaydi. Masalan, sher – mardlik, tulki – makkorlik, bo‘ri – ochko‘zlik va boshqalar. Adabiyot tarixida asrlar davomida ishlatilib kelinayotgan ramziy obrazlar tizimi ham mavjud; gul – go‘zallik, ma’shuqa; bulbul – oshiq; sariq rang – mahzunlik, qora rang – motam ramzi va boshqalar. Bunda u yoki bu narsa tasvir jarayonida yozuvchi maqsadiga xizmat qiluvchi muayyan ramziy ma’noga ega bo‘ladi”<sup>1</sup>. Xalq og‘zaki ijodiyoti va mumtoz adabiyotda keng ko‘lamda ishlatilgan ramziy tasvir usuli hozirgi adabiyotda ham muvaffaqiyatli qo‘llanilayotgani sir emas.

Allegoriyaning mavhum tushuncha yoki hodisani konkret narsa orqali ifodalashga asoslangan ko‘chim turi ekanligi, bu holda konkret narsani ifodalovchi so‘z (masalan, tulki) mavhum tushunchani (tulki – ayyorlik) ifodalash uchun ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi ma’lum. Yana bir ma’nosi obrazlilikning tipi ekanligidir. “Allegorik obrazning tasvir plani bilan mazmun plani bir-biriga mos kelmaydi. Ya’ni allegorik obrazda tasvirlanayotgan narsa o‘zini emas, muallif ko‘zda tutgan ma’noni ifodalaydi”<sup>2</sup>. Anglashiladiki, allegoriya badiiy tasvir, obrazlilik turi bo‘lib, mavhum tushuncha yoki g‘oyalarni muayyan narsa, voqea va hodisa orqali ifodalar ekan.

So‘z bilan obraz o‘rtasidagi aloqa o‘xshashlik yoki uyg‘unlikka asoslanadi (masalan, qalb – sevgi). Yana bir nazariy ma’lumotda bu tushuncha yanada oydinlashtirilgan. Ya’ni allegoriyaning majoz ekanligi, uning ramzning bir ko‘rinishi bo‘lib, voqea-hodisa yoki narsa-buyumning mavhum tushunchasi o‘rnida aniq tasvirni ifodalovchi ramziy so‘z (obraz)ni qo‘llash, ya’ni adabiy asarda o‘quvchiga noaniq bo‘lgan tushunchani ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan narsalarga xos belgilar bilan ifodalash usuli ekanligi xususida ma’lumot berilgan<sup>3</sup>. Ushbu ta’rifdagi uning majoz ekanligi va ramzning bir ko‘rinishi sifatida anglashilish haqidagi fikrlar lirika sohasidagi majoziy obraz va tasvirlar mohiyatiga to‘g‘ri keladi. She’riy turkumlarda ham ramzlar yoki majoziy timsollar o‘ziga xos ma’no-mazmun va vazifa anglatish uchun xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> <https://qomus.info/oz/encyclopedia/r/ramz/pg1>

<sup>2</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – Б. 26.

<sup>3</sup> <https://qomus.info/oz/encyclopedia/r/ramz/pg1>

Turkum she'rlar tarkibidagi ramz-obrazlar, ayniqsa, sonet turkumlari tarkibida ko'proq ko'zga tashlanadi.

“Falsafiy-timsolli obrazlilik badiiy tafakkurning o'ziga xos mustaqil ko'rinishi. U kecha yoki bugun paydo bo'lgani yo'q. Timsollarga, ramzlarga asoslangan badiiy idrok va ifoda madaniyatidagi falsafiy umumlashmalar o'zining hikmatli, dono, ibratli ma'nodorligiga ko'ra insoniyat madaniyati tarixini bezab keladi”<sup>1</sup>. Aynan mana shu bezak shakl o'zbek sonet turkumlarini ham chetlab o'tmagan. Adabiy tanqidchilik tomonidan qo'llanilib kelinayotgan ramzli obraz<sup>2</sup>, ramz – obraz<sup>3</sup> kabi bir mazmunning kichik farqli shakllari sanalmish atamalarning turkum she'rlar badiiyatida tutgan o'rni masalasi o'zbek soneti uchun xarakterli xususiyatlardandir. Chunki Rauf Parfi va Faxriyor kabi sonetchi shoirlar ijodida bunday obrazlar ko'plab uchraydi.

Rauf Parfi sonet turkumlarida ramz-obrazlarining original shakllarini mavjud. “So'z”, “o'lim”, “qora devor” kabi ramz-obrazlar mazkur ramzli lirikada o'zgacha o'rin tutadi.

Qandayin sirdir bu, bu qanday tushdir,  
Bu qanday uyqudir, uyg'ongan uyqu.  
Ko'zlarimdan qora quzg'unlar uchdi  
Mudhish qora devor ortida, yohu<sup>4</sup>.

She'rdagi deyarli barcha poetik obrazlar ramzlar hisoblanadi. Unda aks etgan murakkab ruhiy holat o'zining turfa evrilishlari orqali namoyon bo'lgan. Yuqoridagi misralarda muhabbatsiz bo'shliqqa aylanayotgan qalb uchun yurak devorlari to'siq vazifasini o'tayotgandek tuyuladi. Lirik qahramon ana shu devorni yo'q qilish uchun Yaratgandan madad tilab o'z ishqini – o'zligini qaytarishini o'tinadi. “Uyg'ongan uyqu” oksimoroni orqali esa lirik qahramon qalbiga ham sokinlik, ham g'avg'olar soluvchi, uni hayotga qaytaruvchi tuyg'uga turtki bo'ladigan biror so'z so'raydi. So'z ham bu yerda ramz, ya'ni u ham umid, ham ilinj, ham ilohiy ishqdan darak beruvchi kalit ramzidir. O'sha so'zning kelishi oshiq qalbida inja tuyg'ular uyg'onishiga turtki bo'ladi.

So'zimga to'ldi sog'inch, so'zim-da yolg'iz.  
Ko'zimga to'ldi yolg'iz Alloh jamoli.

<sup>1</sup> Акрамов Б. Оламнинг бутунлиги. – Т.: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 21.

<sup>2</sup> Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Т.: Фан, 2007. – Б. 112

<sup>3</sup> Акрамов Б. Оламнинг бутунлиги. – Т.: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 21.

<sup>4</sup> Рауф Парфи. Сўнгги видо. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б. 86.

Belgi berdi falak. Noma'lum bir iz.  
Jismimni sindirdi – ajal shamoli.  
Tobutimni quchib yig'ladingiz Siz,  
Nechun, Dunyoning eng Go'zal Ayoli?!<sup>1</sup>

Shu damda lirik qahramon uchun zarur bo'lgan tuyg'ularning qalbda paydo bo'lishi, ya'ni maqsadga erishuv hayotning nihoyasiga o'xshash holatni yuzaga keltirayapti. Bu holat qalbga to'siq bo'layotgan jism (qora devor)ning ajal shamoli (o'lim ramzi) orqali sindirilganidan so'ng yuz berayapti. Bu holdan lirik qahramon tiynatida barq urayotgan ishq tasavvufiy – ilohiy ekanligi ayonlashadi, bunday nihoya “analhaq” g'oyasiga to'g'ri keladi. Ruhning Yaratgan bilan birlashuvi ushbu tariqatning mohiyatini anglatadi. Rauf Parfining lirik qahramoni kechinmalar tadriji jarayonida goh oshiq inson, goh ma'shuq – Olloh nomidan ham so'zlash orqali ruhiyatdagi tavhidni ko'rsatayotgani anglashiladi:

Yondi tun charog'im, kuldi jahonim,  
Men qanot bog'ladim, ko'klarga uchdim.  
Assalom, sevgili Insonim, qonim<sup>2</sup>

Mazkur tasavvufiy talqindagi evrilish ruhiyat birligida qon – gen (qondoshlik) unsurining ham qo'llanishida ko'rinadi. Chunki ruhhaqidagi tasavvurga ko'ra qon o'rinsiz. Lekin bunda avval pokiza ruh tomon intilgan insonga, o'zi yaratgan xilqatga mehr ma'nosidagi “sevgili insonim, qonim” so'zlarining ishlatilishi oshiq fidoyiligiga Ilohning javobi tarzidagi holat sifatida baholanishi mumkin. Bu o'rinda qon – birlikning o'ziga xos vositasi vazifasini o'tamoqda. Tasavvufiy talqindan tashqari shoir tiynati bilan bog'liq falsafiy mazmun aks etgan she'rlarda ham ayrim o'ziga xos ramzlar ko'zga tashlanadi. Xususan, “Avval xayol eding...” deb boshlanuvchi sonetida Rauf Parfi xayol so'zi orqali orzular, umidlar ramzi bo'lgan tushunchani nazarda tutadi. Chunki inson xayollar og'ushida oldinga intiladi, to'siqlarni yengadi. Shuning uchun ham xayol inson bosib o'tadigan yo'lning tarhiga aylanishi ham mumkin:

Avval xayol eding, bir xayol, xolos,  
Avval xayol eding. Yo'limsan endi.  
Poyonsiz yo'limsan, qo'rqinch, beqiyos,  
G'arib dunyolarning shovuri tindi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Rauf Parfi. O'sha kitob. – B. 88.

<sup>2</sup> Rauf Parfi. O'sha kitob. – B. 87.

<sup>3</sup> Рауф Парфи. Сўнги видо. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б. 97.

Ramz – obrazlar hozirgi o‘zbek turkum sonetlarida, xususan, Faxriyor she‘riyatida ham ko‘plab uchraydi. Masalan, an‘anaviy gul – ma‘shuqa obrazini shoir turkumlarida ham mavjud:

Na gul bor singrarga otini aytib,  
Na kul bor boshingga sochmoqqa zorli,  
Na yo‘l bor bosh olib ketarga daydib<sup>1</sup>.

Bu o‘rinda gulning vazifasi bir oz o‘zgartirilgandek, ya‘ni unga parvona bo‘ladigan kapalak yoki bulbul shaklidagi oshiq intilishi emas, balki hajrga ham zor bo‘lgan, ko‘nglida o‘sha go‘zal – ishq tuyg‘usining iztirobu rohatlarini his etmayotgan hijronzada lirik qahramon tasviri berilgan. Faxriyor she‘riyatidagi “Namozshomgul” sonetlar turkumida gul timsoli o‘ziga xos vazifa bajarganini ko‘rish mumkin. Bunda ham gul obrazi Rauf Parfi sonetlaridagi kabi ma‘shuqa ramzi, lekin u armonli ishqning qurboni sifatida tasvirlanadi. Lirik qahramon gulning holatidan kelib chiqib, uning iztiroblarini his eta boradi. U gulni (ma‘shuqani) o‘z singlisidek ko‘radi va uning ko‘z yoshlarini artib qo‘yishni, uning g‘amiga sherik bo‘lishni istaydi. Uning dardlarini o‘ziniki deb biladi.

Ko‘ngil cho‘mdi oqar yoshingga,  
qoshlaring bag‘rimga botmadi.  
Toshlari botdimi boshingga?  
Gulim, seni qay vido yengdi?  
Qay judoliq dilda yotmadi?  
Qay muhabbat azangga tengdir?<sup>2</sup>

Sonet turkumlarida ramzli obrazlar qo‘llanilgani “o‘zbek soneti” taraqqiyoti darajasini ko‘rsatuvchi muhim omillardandir. Timsollarga, ramzlarga asoslangan badiiy idrok va ifoda madaniyatidagi falsafiy umumlashmalar o‘zlashma janr hisoblangan sonetda ham o‘z ifodasini topgan. Ramz – obrazlar talqinida original tashbehlar, oksimoronlardan foydalana bilish ham yuqori saviyali badiiyat namunalari yaratilishida ahamiyat kasb etadi. Ayrim turkumlarda lirik qahramonning ”Olloh oshig‘i” yoki “oshiq” ramzi sifatida talqin etilishiga shoirlarga xos inja tuyg‘ular chigalliklari og‘ushida bo‘lish holatini sabab sifatida keltirish mumkin. Faxriyor sonetlarida “gul” obrazi doimgi ma‘shuqani emas, hijronzada oshiq timsoli vazifasini bajargani “gul”ning yangicha talqinini ko‘rsatadi. Shu kabi timsollarni shoir sonet turkumlarida ko‘plab uchratish mumkin.

<sup>1</sup> Фахриёр. Геометрик баҳор. – Т.: Маънавият, 2004. – Б. 121.

<sup>2</sup> Фахриёр. Геометрик баҳор. – Т.: Маънавият, 2004. – Б. 115.

Umuman, poetik obrazlar sonet-turkumlarda o‘ziga xos tarzda talqin etiladi. Bu barcha sonetnavis shoirlar ijodida bir xil shaklda uchramasada, bu aynan Rauf Parfi va Faxriyor ijodi uchun xos bo‘lgan xususiyatlardandir. Poetik obrazlar tizimida timsoldan foydalanish ijod jarayonidagi murakkab xayolot olami ruhiy-psixologik tasvir ustunligi va sonet badiiy-estetik tabiatidagi originallikdan, obrazlar tasviridagi serqirralikdan dalolat beradi. Shu kabi jihatlarga ko‘ra ham, o‘zbek soneti badiiyatning yetuk namunalari sifatida e‘tirofqa loyiqdir.

Abdulla Oripovning “Ranglar va ohanglar” turkumiga kirgan she‘rlari shoirning hayotdagi turfa evrilishlar haqidagi falsafiy qarashlarining ifodasi ekani bilan ahamiyatlidir. “Ko‘rganin yetkazay Qalb degan joyga, Tafakkurga aytgay eshitganlarin” ramziy obrazlar asosida yozilgan bu ikki qator she‘r, o‘n bandli she‘r bera olmaydigan ma‘no-mazmunni berishi bilan inson qalbini larzaga soladi. Ko‘z ko‘rganini Qalbg, quloq eshitganini Tafakkurga bayon qilyapti. Ya‘ni, insonni borliqdan xabardor qilish orqali kamolot sari yetaklamoqda.

Abdulla Oripov she‘riyatini millat ruhining timsoliga aylantirgan jihatlardan yana biri undagi obrazlarning teran xalqchil tomirlarga egaligida. Eng murakkab holatlarni ham g‘oyat ulkan nazokat va yuksak madaniyat bilan ta‘sirli qilib ifodalay bilish shoir she‘rlarining qimmatini oshirgan.

Shoir deyarli hamisha she‘riy ifodaning aniq va tuyg‘ularga ta‘sir ko‘rsata oladigan bo‘lishiga erishadi. Uning:

*“Oyoqlangan qo‘ziday dovdidar yelda maysa,*

*Ko‘m-ko‘k moviy osmonda kezib yurar oq bulut”* kabi satrlarida qo‘llangan tashbehtar hayotiy asosi chuqur hamda hissiy qudrati tengsizligi bilan kishini hayratga soladi.

“Ranglar va ohanglar” turkumi uchun shoir Alisher Navoiyning “Shu‘lai ohim chiqar har yon qizil, sorig‘, yashil” misrasi epigraf qilib tanlashi orqali insonning – shoirning anglamlarining aks-sadolari olamdagi mavjud ranglar bilan ifodalanadigan bo‘lsa, ular yetmasligiga ishora qilmoqda.

Oq dengizdan oq shamollar essalar,

Qizilidan kelsa alvon shabboda,

Qora dengizdan-chi tim qora nasim<sup>1</sup>.

Barcha narsalarning mazmun-mohiyati ko‘ringani kabi emas, demak, ularning xossalari, insonlarga ta‘sir darajasi ham shunga yarasha:

---

<sup>1</sup> Abdulla Oripov. Ranglar va ohanglar. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2012. – B. 22.

Bilib qo‘y, rangi bor armonning hatto,  
Orzularning ajib shamoyillari,  
Inson qancha bo‘lsa, ular ham shuncha<sup>1</sup>.

Har bir narsaning rangi mavjudligi, ayniqsa, armon va orzuday mavhum tushunchalarning ham rangi borligi har bir inson hayotining mazmuni, yashashdan maqsadi kabi ma’nodarga ega bo‘lishi kerakligini anglatadi. Xususan, armonning rangi uning amalga oshmaganligidan insonlar qalbiga solgan jarohatida ko‘rinsa, orzuning ajib shamoyili esa u amalga oshishi uchun intilayotgan insonlarning xatti-harakatida ko‘rinishi nazarda tutiladi:

Qara, na’ matakning quruq shoxida  
Bir qush sayrab turar sahardan to kech,  
Sergak bo‘lolsaydik o‘sha qush kabi<sup>2</sup>.

Ushbu parchadagi qurigan shox ramziy timsol bo‘lib, she’rda u hayotdagi biror halokatli holatni ifodalaydi. Qush ham ramziy timsol, u – insonlarni xushyorlik va ogohlikka chaqirayotgan xilqat. Bularning har ikkisi insoniyatni loqaydlik deb ataladigan ulkan illatdan ogoh etishga intiladigan obrazlardir.

Turkumdagi “Tafakkur” nomli she’rida fikrlashning Olloh tomonidan tortiq etilgan mo‘jiza va oliy ne’mat ekani tilga olinadi:

Mash’alaning asl nomi Tafakkur erur!  
Koinotda unga teng kuch yaralgan emas.  
U belgidir parvardigor irodasidan<sup>3</sup>.

Tafakkur boshqa jonzotlarga emas, faqat odamzodga berilganidan u maxluqotlar ichida ulug‘lanishi sababi anglatiladi. “Millat” she’rida muallif:

Odamzodning poyoni yo‘q, sarguzashti bor,  
Insoniyat – ildizi bir yaxlit chinordir  
Yashnab turgan barglaridir ellar, millatlar<sup>4</sup>.

She’rda chinor – insoniyatning ramzi sifatida tasvirlangan obrazdir. Elatlar va millatlar esa uning barglari sifatida talqin qilingan. “Hikoyat” she’rida shoir Hasad – jaholatning pinhon belgisi” ma’nosiga amal qilgan holda:

Allohim, hayratdan ayirma meni,  
Benasib qilmagin iftixoringdan.

<sup>1</sup> Abdulla Oripov. Ranglar va ohanglar. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2012. – B. 23.

<sup>2</sup> Abdulla Oripov. O‘sha kitob. – B. 23.

<sup>3</sup> Abdulla Oripov. O‘sha kitob. – B. 29.

<sup>4</sup> Abdulla Oripov. O‘sha kitob. – B. 31.

Havas g‘unchalari guldek ochilsin<sup>1</sup>,–  
deydi va havasni loqaydlikka qarshi qo‘yib, uning g‘unchalari guldek ochilishi tarafdori ekanini bildiradi. Bu yerda havas va hasad singari ikki mavhum tushunchaning bir-biriga qarshi qo‘yilishi orqali ma’no kuchaytirilgan.

“Sinov” she’ri turkumdagi so‘nggi she’r bo‘lib, unda bu dunyoning sinov dunyo ekanligi xususidagi diniy manbalardagi fikrlar qanchalar to‘g‘ri ekani, insonning shu sinovlarga bardosh berib, ularda charxlanishi ham katta yutuq ekani aks ettiriladi. Lekin hayotda mavjud bo‘lgan hasadgo‘y kimsalarning ham bir kun kelib sinovlarga mustahih bo‘lishini aytish orqali she’r yakunlanadi.

Payt yetib nokomil o‘tmishing eslab

Nogoh duch kelarsan nadomatlarga.

Shunda sen uchun ham boshlangay sinov<sup>2</sup>.

Ushbu turkum tarkibidagi o‘n besh she’rda inson hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega o‘n besh tushunchaga munosabat bildirilgan. Har bir tushunchaning mohiyati hayotiy misollar asosida ochib berilgan. Xullas, mazkur turkumda aksar mavhum tushunchalar obraz darajasiga ko‘tarilgan. Ularning ayrimlari ramz-obrazlar bo‘lsa, ba’zilari majoziy obraz darajasida tasvirlangan.

Taniqli shoir Abduvali Qutbiddin qalamiga mansub “Tasavvur lahzalari” turkumi o‘ttiz yetti qismdan iborat bo‘lib, raqamlar bilan ajratilgan. Turkumdagi she’rlar hajman kichik bo‘lib, asosan, erkin vaznda yaratilgan. Turkumdagi birinchi she’r:

Qafasdagi bedana...

Chumchuqlar shoxlardan shoxlarga o‘tarlar...

Olmani teshib chiqar qurt... (Osmon keng)<sup>3</sup>,

tarzida boshlanadi va shoirning tasavvurlar olamini ifodalaydi. Bu olam shoirda alag‘da tush kabi mavhumotlarga noaniq tasvirlarga boy bo‘lib, undagi noizchilik keng xayolot olamining mahsuli ekanligini dalolatlaydi. Undagi G‘ayb, Ko‘hi Qof, Borsa kelmas kabi sirli manzillar tasviri, qor gulxani, temir kovush, po‘lat ko‘ylak, suvpufakli buloq, illatsiz baliq, vaqt chinori, mo‘rtlangan toshhikmatlar, ibtido to‘rg‘ayi, intiho bulbuli, zarlangan daryo, rangikamon baxt kabi o‘ziga xos sifatlashlar qo‘llanilishi orqali ushbu tushunchalarga o‘ziga xos yangi

<sup>1</sup> Abdulla Oripov. O‘sha kitob. – B. 33.

<sup>2</sup> Abdulla Oripov. O‘sha kitob. – B. 51.

<sup>3</sup> Абдували Қутбиддин. Бор. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б. 5.



ma'no yuklanadi. Va aksari yangicha poetik obrazlar vazifasini ham o'taydi. Turkumdagi she'rlarda keltirilgan tasavvurlarning hammasi insonning kamoloti uchun zarurat bo'lgan jihatlar xususidagi mushohadalar ekani ayonlashadi.

Shoir Eshqobil Shukurning "Nasoyim ul muhabbat"ga sayr" turkumidagi she'rlar "Munojot" she'ri bilan boshlangan. Unda Yaratgan karamidan umidvorlik aks ettirilgan. "Bizga birga xitob" deb nomlangan keyingi she'rda o'zini she'r yozmoqqa shaylagan shoir holati tasvirlanadi. Turkumdagi qolgan she'rlarda "Shayx Uvays Qaraniy", "Shayx Boyazid Bistomiy", "Shayx Zunnun Misriy", "Yassaviy" kabi mutasavvuflar obrazlari yaratiladi. Har bir she'r ushbu mutasavvuflarning o'ziga xos xislatlari yoki fazilatlarini xususidagi ramziy-majoziy tasvirlarga yo'g'rilgan. Xususan, Uvays Qaraniy haqida shunday deyilgan:

Shayx Uvays tishlarin sug'urar tezlab,  
Havoda qanotday ko'karar har tish.  
So'ng yetti vodiyan Simurg'ni izlab,  
Uchib borayotir o'ttiz ikki qush<sup>1</sup>.

Tarixdan Uvays Qaraniy Uhud jangida payg'ambarimizning muborak tishlari sindirilganini eshitib, o'zining o'ttiz ikkita tishini sindirgani ma'lum. Shoir aynan shu hodisani she'rda aks ettirib, o'ttiz ikki tishni Simurg' qush sari uchayotgan o'ttiz ikki qushga o'xshatadi. Ya'ni tish-qushlar shayxni Olloh dargohiga eltuvchi vositalar vazifasini o'tovchi ramz-obrazlardir.

"Shayx Boyazid Bistomiy"ga atalgan she'r tarkibida "Namoz", "Ahvoli ruhiya", "Me'roj", "Oshiq" kabi she'rlar kiritilgan bo'lib, ularda shayx obrazi yorqinroq namoyon bo'lishi uchun uning namoz o'qiyotgan vaqtdagi holati:

"Ollohu akbar" deb berganda ovoz,  
Har tuki tubida qo'zg'oldi yurak<sup>2</sup>,

tarzida tasvirlanishi orqali Bistomiyning dil-dili, vujudi bilan Ollohnikiga aylanganlik holati aks ettirilgan bo'lsa, "Ahvoli ruhiya" she'rida lirik qahramon shayxning o'zi bo'lib, u o'zining Olloh mulki ekanini, o'zi ushbu mulkning faqat ziyoratchisiligini aytish orqali o'zining axvoli ruhiyasidan darak beradi.

"Me'roj" she'ri Boyazid Bistomiyning tushida Ollohni ko'rgani, ya'ni me'roj qilgani haqida bo'lib, undagi tasvirlar o'ziga xos:

<sup>1</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. – Т.: Шарқ, 2002. – Б. 207.

<sup>2</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. – Т.: Шарқ, 2002. – Б. 208.

Mumkindir chaqmoqni tish bilan tutmak,  
Til tishlab, dunyoni ko‘z bilan yutmak,  
Jarayon kelmakdur, mohiyat – ketmak,  
O‘zungdan o‘tmak bu – Oллоhga yetmak<sup>1</sup>.

O‘zini Oллоhning bir zarrasi his etish va Uniki bo‘lib, o‘zligini unutmagan so‘ng Undagi qudratni his eta bilishi, xususan, “chaqmoqni tish bilan tutish”i, “dunyoni ko‘z bilan yutmak” mumkinligi kabi tasvirlar Yaravtgan jamoliga yaqinlashgan zot holatining ishonarli ifodasi bo‘lgan. Chin oshiq o‘zligini unutmagan chog‘da Oллоh bilan birlashadi va shu uning vaslga doxil bo‘lishi sanalishi ushbu she‘r mohiyatini tashkil etgan. Bu – Shayx amal qilib yashagan hayot falsafasining tub mohiyatibo‘lganligidan shoir uni ushbu obrazni ochib berishdagi asosiy jihatlardan biri sifatida ko‘rsatadi.

Turkumdagi keyingi she‘r “Ishq va talab qayg‘usi” deb nomlangan bo‘lib, unda ishqning holati va vasl talabi tezroq Haqqa yetishish bo‘lganidan “Mansur kabi dorga tortilgan bu dil”,– deya ta‘riflanadi. Ya‘ni bunda Haqqa tezroq yetishish uchun oshiq o‘z dilini dorga tortishi, ya‘ni ruhi va jismidan voz kechishi anglashiladi.

“Yo‘qlov” she‘ri lirik qahramoni buyuk mutasavvufning amallarini aytish, vasf etish orqali ularni yo‘qlaydi. “Semurg‘ni o‘zidan izlab topgan”, “Qadr kechasida o‘ttiz hur tuqqan”, “Dil o‘tida et va suyagin yoqqan” ta‘riflari ham ularning o‘zligini ayonroq anglatish uchun qo‘llanilgan.

Turkum so‘ngidagi “Yassaviy” she‘rida ushbu obrazning o‘zligini ko‘rsatish uchun tasavvufona tasvir va tafsillardan foydalaniladi:

Men endi yig‘lasam –  
Nuhning kemasiday qiblaga tomon  
Qayg‘uli-qayg‘uli suza boshlaydi  
Shilqillab ho‘l bo‘lgan qari joynamoz<sup>2</sup>.

Yassaviy hazratning namoz o‘qish chog‘ida to‘kkan ko‘z yoshlaridan ho‘l bo‘lgan eski joynamoz insoniyatni qutqarib, qibla tomon suzayotgan Nuh kemasiga o‘xshatiladi.

Umuman, Eshqobil Shukurning “Nasoyim ul muhabbat”ga sayr” nomli turkumi zamonaviy she‘riyatda tasavvufona mazmun aks ettirilgan she‘rlar jamlanmasi bo‘lib, shoirning mahorati va yaratgan obrazlariga berilgan to‘g‘ri tafsillar va tasvirlar tufayli ushbu mohiyat aniq va obrazli tarzda yoritilib berilgan.

<sup>1</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. – Т.: Шарқ, 2002. – Б. 208.

<sup>2</sup> Eshqobil Shukur. O‘sha kitob. – B. 210.

Shoir Eshqobil Shukur qalamiga mansub “Qadimgi bitiktoshga yozuvlar”, “Surgun”, “Urushdan keyingi urush”. “Qadimgi daftar” kabi yana bir necha turkum ham mavjud. Uning “Surgun” va “Urushdan keyingi urush” turkumlari hajman kichik bo‘lib, “Surgun” turkumida nohaq ayblovlar bilan surgun qilingan momolarimizning og‘ir axvoli tasvirlangan bo‘lsa, “Urushdan keyingi urush” turkumida esa urushning insonlar hayotida qoldirgan mudhish izlari ifoda etiladi.

“Surgun” turkumiga shoir “Qirmiz momo va Qurbon momo bilan muloqotlar” degan qo‘shimcha izoh sarlavha ham berdi. Ushbu turkumdagi she‘rlarda shoir o‘rni bilan nasrdan ham foydalangan. Bu xalq og‘zaki ijodidagi dostonlarimiz uslubini eslatadi. Sarlavhada tilga olingan ikki momoning surgunda boshidan kechirganlari turkum uchun asos vazifasini o‘taganidan uning tarkibidagi she‘rlar ham aynan ular so‘zlayotgan holatga moslashtirilgan.

Turkum tarkibidagi birinchi asar “Haydov” deb nomlangan. Unda insonlarning o‘z yurtidan quvg‘in etilishi aks ettirilgan. Turkumdagi keyingi qismlar “Bitlar”, “Palaxmon”, “Chorlov” kabi nomlar bilan atalgan.

Turkumdagi “Ochlik” she‘rida ochligidan kesakni non deb tishlagan bolaga aytilgan so‘zlarda o‘ziga xos obrazlar qo‘llanilgan:

Mag‘zi kul bir bug‘doy qobig‘i – olam,

Zamin – to‘kilmagan bir kosa sabr.

Tandir kesagimas yeganing, bolam,

Yeganing kimningdir suyagi – ko‘mir<sup>1</sup>.

Bu o‘rinda qo‘llanilgan “mag‘zi kul bir bug‘doy qobig‘i” epiteti shunday go‘daklarga vafo qilmagan dunyo ichi bo‘sh, bo‘shgina emas, balki kul bo‘lgan bug‘doyning mag‘ziga o‘xshatilgan. Bunday adolatsizliklardan hamon ag‘darilib ketmagan Yer to‘lgan-u to‘kilmay turgan sabr kosasi, och bola og‘ziga solgan kesak esa azoblardan kuyib ko‘mir bo‘lgan bir sho‘rlikning suyagi sifatida tasvirlanadi.

Turkumdagi so‘nggi she‘r “Naqshigulning tushlari” deb nomlanadi. Ushbu she‘rda Xorazmlik qizning surgundagi va tutqunlikdagi iztiroblari, Vatan sog‘inchi aks ettirilgan. Ushbu obrazni tasvirlashda shoir “yer guli”, “tushovli kiyik”, “ma‘yus xushro‘y” kabi sifatlashlar qo‘llagan.

Eshqobil Shukurning “Urushdan keyingi urush” turkumidagi “Asorat”, “Urush”, “Qaytish”, “O‘zbek otaning qirq uchinchi yildagi faryodlari”, “Qirq uchinchi yil qo‘shiq-lari”, “To‘lg‘onoy”, “Xotiralar” kabi she‘rlarda Ikkinchi jahon urushining o‘zbek xalqi boshiga keltirgan jafolari va ulardan qolgan asoratlar xususida so‘z boradi.

---

<sup>1</sup> Eshqobil Shukur. O‘sha kitob. – B. 180.

Turkumdagi birinchi she'r urushdan qaytmagan farzand tilidan bitilgan. "Urush" she'rida esa ushbu halokatli jarayon obrazini aniq ko'rsatish uchun "askar suyangan qo'ltiqtayoq", "o'ng qo'li vujudan olisda", "maydalab tashlangan qorxatlar" kabi tashbehlardan foydalanilgan.

"Qaytish" she'rida urush obraziga boshqacha ta'rif berilgan: "urush sudraladi, urush sudralar..." deyilganda, uning qoldirgan alamli asoratlari nazarda tutilgan bo'lsa, "suyulgan qonimni so'radi bitlar..." deyilganda odamlarning urushdan keyingi og'ir ahvoli, "ivirsiq falakni qarg'aydi itlar" deyilganda jonivorlarning ham bunday baloyi ofatdan zada bo'lganliklari, "tug'ildi urushda o'lgan erkaklar" deyilganda esa urushda halok bo'lganlar o'rniga tug'ilgan bolakaylar va ularning qalbidagi urushga bo'lgan kuchli nafrat ifodalangan.

"O'zbek otaning qirq uchinchi yildagi faryodlari" she'rini farzandi urushdan qaytmagan otaning yig'i-yo'qlovi deyish mumkin. She'rdan lirik qahramon bo'lgan ota obrazining kechinmalarini ifodalash uchun shoir ko'plab tasvir vositalaridan foydalangan:

Qonli kafan hilpirar,  
Bo'g'zimda kuygan shamol.  
Tun... Yulduzlar dildirab,  
Qo'ynimda muzlar behol.  
Itday uvlaydi oqshom  
G'arib qolgan darchada,  
Ko'zimda qon to'la shom,  
Huvillaydi ko'chalar<sup>1</sup>.

She'rdan keltirilgan "qonli kafan", "kuygan shamol", "muzlagan yulduzlar", "itday uvlaydi oqshom", "g'arib qolgan darcha", "qon to'la shom", "huvillagan ko'chalar" kabi sifatlashlar urushda halok bo'lgan farzandi dog'ida kuygan ota ruhiyatini ko'rsatishda katta ahamiyat kasb etgan.

Azador eshigimda  
Qushday osilgan ko'nglim,  
Tobutmas, beshigingda  
Tebranib yotar o'lim<sup>2</sup>.

Ushbu parchadagi inson ko'nglining o'sal qush kabi osilib turishi va hali beshikda ekanidayoq o'limga mahkum etilgan bola tasviri she'rxonda urushga nisbatan kuchli nafrat uyg'onishiga sabab bo'ladi. Shoirning keyingi she'rida yana "o'lim" obrazi uchraydi. Oldingi she'rdan go'dak

<sup>1</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. – Т.: Шарқ, 2002. – Б. 196.

<sup>2</sup> Eshqobil Shukur. O'sha kitob. – B. 197.

o‘rnida beshikda yotgan o‘lim bu safar lirik qahramon imkonidan tashqari qudrat sifatida tasvirlanadi:

Tun bezovta, yo‘llar yig‘laydi,  
Yurakka sanchaman qo‘limni.  
Ne qilay, qo‘limdan kelmaydi,  
O‘ldira olmayman o‘limni<sup>1</sup>.

Lirik qahramon o‘ldirgan insonlarni qaytarishning ham, o‘zini o‘ldirishning ham ilojini topolmaganidan azobda. Turkumdagi so‘nggi “Xotiralar” she‘rida shoir “xotira”day mavhum tushunchani ham jonlantirib, obraz darajasiga ko‘taradi:

Meni xotiralar qiynaydi og‘ir,  
Befarzand ayolday xotiralar...  
Yetimlarday izlar qaynoq bir bag‘ir  
Ko‘zlari shamolday xotiralar.  
Meni xotiralar qiynaydi og‘ir<sup>2</sup>...

Shoir “xotira” tushunchasiga “befarzand ayolday”, “ko‘zlari shamolday” kabi tashbehlar qo‘llash orqali uning befarzand ayolning iztiroblari tarzidagi azobli lahzalar yodi va ko‘zlarga qadalgan yoqimsiz shamol kabi alamli ekanini tasvirlaydi. She‘rda urush davri xotiralari yaxshi bo‘lishi mumkin emasligi, u hamisha o‘lim va yo‘qotish bilan bog‘liq ekani ko‘rsatiladi. Urushning oqibatlarini va qalblarda qoldirgan og‘riqlari tuzalmas ekanligi aks ettiriladi.

Eshqobil Shukur qalamiga mansub turkum she‘rlarda asosan mavhum tushunchalar obraz darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, ularni tasvirlashda shoir yangicha tashbehlar va sifatlashlardan o‘rinli hamda unumli foydalana bilgan.

Shoir Bahrom Ro‘zimuhammad she‘riyatida ham o‘ziga xos turkumlar mavjud bo‘lib, ulardan biri “Bir rangdagi ohanglar” deb nomlangan. Ushbu turkumdagi she‘rlarga alohida sarlavhalar qo‘yilmasdan faqat raqamlangan bo‘lib, birinchi she‘r quyidagicha boshlanadi:

Kuydek kuydirilgan sahro  
ovozni yutishga shay kenglik  
bulutlar tuyalar safida  
qum osmon qum osmon  
ey sarbon bon bon bon<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Eshqobil Shukur. O‘sha kitob. – B. 199.

<sup>2</sup> Eshqobil Shukur. O‘sha kitob. – B. 202.

<sup>3</sup> Баҳром Рўзимухаммад. Кундуз сарҳадлари. – Т.: Меҳнат, 1999. – Б. 120.

She'rdagi "kuy – ohangdek kuydirilgan sahro" tashbehidan cho'ldagi ohang shu joyning o'ziga yarasha, ya'ni suvsizlik hukmron bo'ladigan sahroda qaqragan bo'g'izdan chiqadigan ohang, albatta, kuyning kuydirilgan holatiga o'xshatilishi tabiiydek tuyuladi. Qaqragan bo'g'izdan ovoz chiqqanda ham uni cho'ldagi "kenglik" yutib yuborishi odatdagi hol. Osmonning qum shaklida ifodalanishi esa sahrodagi bo'ronlar oqibati yoki atrofda faqat qum bo'lgani sabab lirik qahramon ko'ziga faqat qum ko'rinayotgan yoxud issiq zo'ridan quyoshga qaray olmaslik oqibati bo'lishi mumkin.

Turkum she'rlardagi obrazlar tasvirida har xil holat uchraydi, ayrim turkumlarda bir mazmun doirasidagi turfa xil obrazlar mujassamlansa, ba'zilarida bir obrazning turfa qirralari ochib berilgani oydinlashadi.

She'riy turkumlarda tarixiy shaxslar, shayx-pirlar, oddiy xalq vakillari turfa toifa insonlar obrazlaridan tortib, armon, orzu, o'lim, qayg'u, muhabbat kabi mavhum tushunchalar ham obraz darajasida tasvirlangan. Turkumlarda kechinma-obrazlar ham ko'plab qo'llangan bo'lib, bu muallif kechinmalarining davomli ifodasi uchun qulay vosita ekanida ko'rinadi.

O'zbek she'riy turkumlarida ramzli obrazlar lirik qahramon kechinmalari yoki shoir badiiy maqsadi ifodasi uchun ko'p qo'llangan. Majoziy obrazlar esa turkumda ko'zda tutilgan g'oyaviy maqsad uchun ishlatilgan va shoirlarning tasvir mahoratini ko'rsatishga xizmat qilgan.

## **2. Turkumlarda badiiy shartlilik va ishoralarning poetik funksiyasi**

Badiiylikning asosiy mezoni, ko'plab adabiyotshunoslar qarashlariga ko'ra, asarda badiiy obrazning bor yoki yo'qligi bo'lib qolgan. Fan borliqni tushunchalar yordamida bilib olsa, san'atda bu ish obrazlar vositasida amalga oshirilishi barchaga ayon. "Adabiy obrazlar til yordamida yaratiladi. Obraz matn va asarni bitta organik butunlikka bog'lovchi halqadir"<sup>1</sup>. Yozuvchi rassomga o'xshab o'z ismini "chizadi", u chizgan olam odamga dunyoni va o'zini bilib olishga ko'mak beradi. Obraz atamasi keng ma'noda odamning ongida tashqi olamni aks ettirish yoki biror narsa haqida aniq his qilish orqali hosil bo'lgan tasavvurni anglatadi.

"Badiiy obraz, – degan edi o'zining "Badiiy matn nima?" deb nomlangan maqolasida adabiyotshunos S.Orlov, – ma'lum yuksak estetik

---

<sup>1</sup> Карпантер Дж. Движение художественного текста в исторической среде. Н.Й.: Серека – Пейкурс. 2009. – С. 11. (tarjima muallifniki)

idealdan aniq shakldagi badiiy voqelik yaratishdir. U umumlashtirishning mavjudligi bilangina emas, balki rassomning tanqidiy obrazga xos emotsiya – hissiyotlar va badiiy go‘zallikni baholash pozitsiyasi borligi bilan ham ajralib turadi”<sup>1</sup>. Ilmiy qarashlarning barchasida tushunchalar mantiqiy kategoriyalar sirasiga kiritiladi. Obyekt, ya’ni o‘rganilayotgan narsa butunni tashkil qiluvchi bo‘laklarga, alohida unsurlarga ajratiladi. Adabiy – obrazli o‘zlashtirish ham borliq haqidagi bilimlar kabi barcha belgilarning ta’sir etishida o‘ziga xos xususiyatlarning inson ongiga bir vaqtda ta’sir ko‘rsatishi tufayli yuzaga keladi.

Obrazlilikda butunlik taassuroti o‘ziga xos shartli usul bilan tashkil etiladi, ya’ni bu yerda inson tasavvuri nazarda tutilgan. “Badiiy obrazlar – odam tabiatining asosiy kuchi – xayol, tasavvur qilishga asoslanadi”, – degan edi fransuz ruhshunosi T.Batler. Unga ko‘ra, xayol qilish nafaqat tashkil qilish qobiliyati, balki obrazlarni o‘zgartirish qobiliyati hamdir<sup>2</sup>.

Ma’lumki, umumiy sarlavha, matnning barqarorligi, she’rlarning mavzuga ko‘ra yaqinligi, motivlar va ramziy tasvirlar orqali kompozitsiyaning umumlashtirilgani, makon va zamonda uyg‘unlik (xronotop), umumiy belgilar va ohangdoshlik kabilar she’riy turkumlarning o‘ziga xos jihatlaridir. Turkum shoirga voqelikning yaxlit tushunchasini, dunyo va insonning yaxlit nuqtai nazarini ifoda etishga imkon beradi, shu bilan birga lirikaga xos xususiyatlarni saqlab qoladi.

Turkum she’rlarni shakllantirishning o‘ziga xos tamoyillari sifatida turkumning asosiy mavzusini, xarakterli tasvirlarni, matnning subyektiv tashkil etilishini, matnlarni o‘zaro bog‘lovchi vositalarni, kompozitsiyani, mavzuning yaxlitligini va xronotopni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mavzuviy yaqinlik, motiv yoki g‘oya birligi, lirik qahramon birligi, xronotop birligi, kompozitsion uyg‘unlik, turkumning sarlavhasi, she’rlarning strukturasi va ritmi va eng asosiysi obrazlilik kabilar poetik turkumning asosiy xossalari.

Turkumlilikda badiiy shartlilik masalasi ham aynan uning yuqorida tilga olingan xossalarga bog‘liq ravishda tadqiq etilishi maqsadga muvofiq. Realistik asarlarda badiiy shartlilik salmog‘ining ortishi, ya’ni ramziy-majoziy obrazlarning keng qo‘llana boshlashi norealistik yo‘nalishdagi asarlarning paydo bo‘lishidan dalolatdir.

---

<sup>1</sup> Орлов С. Введения в общую филологию. Ст. Что такое художественный текст? – М.: РГГУ, 2009. – С. 24.

<sup>2</sup> Батлер Т. Воображение и создаваемые им образы. – П.: Централь, 2002. – С. 76. (tarjimalar muallifniki)

Usmon Azimning “Tazarru bog‘lari” nomli yirik turkumida ham badiiy shartlilik ramzlar va ishoralar vositasida amalga oshirilgan. Uning “Muqaddima” qismida:

Otashin taxtidan qular saraton,  
Samoda titranar hazin tiniqlik  
Qaydandir adashib qaytadi armon –  
Ruhingga kiradi mubham siniqlik<sup>1</sup>

deyish orqali shoir issiq kunlar ketib, kuzning rutubati boshlanishini sezgan qalbning hissiyotlarini tasvir vositalari yordamida aks ettirmoqda. “Otashin taxt” saraton uchun sifatlash bo‘lsa, “hazin tiniqlik” kuz fasli uchun keltirilayotgan tashbeh. Armonning “adashishi” jonlantirish bo‘lsa, lirik qahramonning ruhiga kirayotgan “mubham siniqlik”da ham jonlantirish, ham sifatlash, ham istiora qo‘llanilgan.

O, uchmoqlik qanday xavaddir!  
Umid qushi toldi intilib.  
Axir, osmon juda ham pastdir –  
Yurakkacha kelgan bostirib<sup>2</sup>.

Bundagi “umid qushi” metaforasi shu tuyg‘uning ifodasi uchun o‘rinli qo‘llanilgan. Umid uchmoqchi bo‘lishi va osmonning yurakkacha bostirib yetib kelishi ham jonlantirishdir.

Tiriklikning ters ummonidan  
Qiyaldik biz – peshona sho‘rlar.  
Ana, qishloq qabristonida  
To‘ntarilgan qayiqdir go‘rlar<sup>3</sup>,

misralarida muallif “ters ummon” epiteti orqali hayotni teskari oquvchi ummonga o‘xshatayotgan bo‘lsa, “biz – peshona sho‘rlar” parafrasasini qo‘llash orqali yashash uchun kurashayotgan barcha insonlar umumlashma tarzda tasvirlanmoqda. Qablarning “to‘ntarilgan qayiq”qa o‘xshatilishi yuqorida aytilgan teskari oquvchi hayot ummonida halokatga uchraganlar, ya‘ni qayig‘i to‘ntarilib ketib, ummonga cho‘kkanlar nazarda tutilmoqda. Bundagi ishoraviy mazmun uchun qo‘llanilgan “ters ummon” – hayot”, “peshona sho‘rlar” – insonlar va “to‘ntarilgan qayiq” kabi birliklar ham epitet, ham metafora sifatida qo‘llanilgan.

Turkumning “Bahorgi bog‘” nomli bo‘limining birinchi she‘ridagi tasvirlar ham o‘ziga xos tarzda amalga oshirilgan:

<sup>1</sup> Usmon Azim. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1995. – Б. 351.

<sup>2</sup> Usmon Azim. O‘sha kitob. – B. 355.

<sup>3</sup> Usmon Azim. O‘sha kitob. – B. 357.



Sen – saxiysan, mehrdir boring...  
Gullashingu yig‘lashing – oshkor...  
Men – bir to‘zg‘in maysangman, tangrim,  
Men – bir qatra yoshingman, jabbor<sup>1</sup>.

Lirik qahramonning Yaratgan egamga qarata aytayotgan tashbehlarida uning saxiyligi, mehribonligi ta’kidlanmoqda, chunki borliqning gulga burkanishi yoki ko‘karishi uning marhamati bilan yuz beradigan holat. Uning gullashi va yig‘lashi bandasining uning uchun chekkan “oh”lariga javobi tarzda shakllantirilgan.

Turkumdagi keyingi she’rlarda ham “Zirqiradi ildizim – tuproq Zarrasini arang ko‘tardim”, “Sabrim yetmay tangrim, ko‘kardim” kabi misralarda Yaratganning bir giyohi sifatida yuzaga kelayotgan insonning tozargan, poklangan ruhi aks etgani seziladi.

Xayolimning adirlarida  
Bag‘rini qon etdi qizg‘aldoq.  
Mening g‘amgin satrlarimda  
Qanot qoqdi bir qushcha sayroq<sup>2</sup>.

Turkumning keyingi bo‘limi bo‘lgan “Yozgi bog‘”da olis yo‘lga otlangan so‘fiyning sinov dunyosidagi mashaqqatlari aks ettirilgan, ya’ni eng katta mashaqqat yoz fasli tasvirlari orqali aks ettirilgan.

O, ilonlar o‘rmalagan qum,  
Saksovullar bukchaygan barhan...  
Lorsillagan quyosh bus-butun,  
Yong‘in otar yongan falakdan<sup>3</sup>.

Bundagi “ilonlar o‘rmalagan qum”, “saksovullar bukchaygan barhan”, “lorsillagan bus-butun quyosh” kabi epitetlar saratondagi jizg‘anak sahroni yetakchi tafsilotlari bilan jonli aks ettirish imkonini bergan.

Ushbu turkum tarkibidagi she’rlarni bog‘lab turuvchi asosiy jihat ulardagi voqeabandlikdir. Chunki lirik qahramonning tutumlari ketma-ketligi she’rlardagi davomiyligni ta’minlagan va oldingi she’rda uchraydigan satrlar, tasvirlar, ayrim poetik obrazlar keyingi she’rlarda ham ko‘zga tashlanishi, ulardagi sayyorlikni ham izohlaydi. Shuningdek, she’rlardagi yaxlitlikni ta’minlayotgan asosiy unsur – bu so‘fiy shaklidagi lirik qahramonning kechinmalari ifodasidir.

<sup>1</sup> Усмон Азим. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1995. – Б. 55.

<sup>2</sup> Usmon Azim. O‘sha kitob. – B. 363.

<sup>3</sup> Usmon Azim. O‘sha kitob. – B. 369.

Ariq bo‘ldim yoz bog‘larida –  
Yo‘ng‘ichqalar aro taraldim.  
Daraxtlarning yaproqlarida,  
Mevasida qayta yaraldim<sup>1</sup>.

Lirik qahramon avvalgi she‘rlarda giyoh bo‘lgan bo‘lsa, endi ariqdagi suv bo‘lib oqib, yo‘ng‘ichqalardan taralib, daraxtlarga jon ato etib, ularning tanasiga kirib, meva shaklida yaraladi. Bu holat dunyo yaralish jarayonining o‘ziga xos tasviriga o‘xshaydi. Faqat bunda so‘fiy lirik qahramon Ollohning har bir yaratig‘ini borlig‘i bilan his etish orqali ularning vujudiga singa oladi va ularni ham o‘zida his eta oladi.

Turkumlardagi voqeabandlik davom ettirilib, navbatdagi she‘rda tungi dovulda Chinor daraxtining o‘zini dast ko‘tarib kelib lirik qahramon bilan chog‘ir bazmida suhbat qurgani va tongda yana hamma narsa joyiga qaytganligi xususidagi hikoyaning aks ettirilishida ko‘rinadi.

Bundagi shamolning ko‘pkari chopishi, hovuzning osmonni to‘ntarib qo‘yishi holatlari jonlantirish bo‘lsa, “yulduz ichiga to‘la hovuz” tasviri esa epitet sifatida kelgan.

Yoz hovlida kezar tun bo‘yi –  
Va yoshini artadi vazmin...  
Kuygan oyning o‘rog‘i kabi –  
Odam yuzin kesmoqda ajin<sup>2</sup>.

Ushbu she‘rda insonlar hayoti, ularning yoz faslida to‘y-tomosha o‘tkazishi tasvirlangan. Undagi tasvirga ko‘ra Yoz to‘y o‘tgan hovlini aylanib yurgan chog‘ida uchratgan odami ko‘z yoshlarini vazmin artayotganligini ko‘radi, o‘sha ko‘z yoshning oy yog‘dusida yaltirashidan uning yuzidagi ajin ham oyning o‘rog‘i kabi shaklda aks etadi. Bu ham shoir tomonidan qo‘llanilgan yangicha poetik topilma deyish mumkin. Ajinning odam yuzini kesib o‘tishi esa bu ajin butun yuz bo‘ylab o‘tganligini, ushbu inson umri davomida ko‘p mashaqqatlar chekib, endi mana shu to‘y orqali rohatini ko‘rayotganligidan uning ko‘zlari quvonch yoshlaridan namlanayotganligini anglatadi. Bu parchada shoir jonlantirish, o‘xshatish, sifatlash kabi tasvir vositalaridan unumli foydalangan.

“Kuzgi bog‘” nomli navbatdagi bo‘limdagi birinchi she‘rda “vaqt daryosida noxos yiqilib cho‘kkan saraton” haqidagi she‘r bilan boshlanadi. Navbatdagi she‘rlarda kuzning tasviri shoir tomonidan musavvirona chizilgan:

<sup>1</sup> Усмон Азим. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1995. – Б. 371.

<sup>2</sup> Usmon Azim. O‘sha kitob. – B. 375.

Kuz qo‘ynida sochilib yotar  
Zamin – yerda to‘zg‘igan sholcha  
Unga qonli uchqunlar otar  
Barglaridan qon tomgan olcha.  
Qirov qo‘ngan xoru xashakka,  
Ariqlarning to‘nglagan labi...  
Kuz to‘liqib kirdi yurakka  
Hushdan ayri farishta kabi<sup>1</sup>.

“Zamin – yerda to‘zg‘igan sholcha” shaklida parafraza bilan yerning kuzgi xazonlardan to‘zg‘igan holatiga ishora qilingan. “Barglaridan qon tomgan olcha” barglar orasida mevalari qizarib pishgan olcha daraxtining mevalari yer uzra tushayotgani tasviri bo‘lsa, “ariqlarning labi to‘nglashi” unga qirov tushganligini anglatgan. Kuzning “hushdan ayri farishta”ga o‘xshatilishi esa undagi mahzunlik, parishonlik holati ifodasi uchun qo‘llangan sifatlash, deyish mumkin. Turkumdagi yana bir she’rda:

Kuz keldi – har bargni qontalosh etdi,  
Bog‘lar bog‘lar bilan qon talosh etdi.  
Qon o‘ldi olchalar, o‘riklar qon o‘ldi,  
Hatto shaftolilar xun qarosh etdi<sup>2</sup>.

Ushbu tasvirda shoir tajnis san’atidan unumli foydalangan. Matndagi “qontalosh” va “qon talosh” so‘zlari o‘zaro tajnis bo‘lib, biri qirmizi ma’nosida, ikkinchisi esa bellashish ma’nosida qo‘llanilgan. Parchada mukarrar san’ati ham ma’noni kuchaytirish, ya’ni barcha mevalar alvonlanib yetilib pishganligini ko‘rsatish uchun o‘rinli qo‘llanilgan.

Bog‘larga qaytgisi kelmoqda yurak...  
Taqdir – temir dunyo sinib ketsaydi –  
Yurak pinhon yoshday oqib jonsarak,  
Kuzning yelkasiga singib ketsaydi<sup>3</sup>.

Ushbu parchadagi “*taqdir – temir dunyo*” parafrazasi ushbu tushunchaning, ya’ni taqdir bitigining o‘zgartib bo‘lmaslik xususiyatiga ishora qilingan. Umrning xazonli lahzalari kelishi aniq bo‘lgani kabi kuzakning kelishi ham aniq bo‘lganidan lirik qahramon uning yelkasiga bosh qo‘yib yig‘lashni, u bilan dardlashishni xohlaydi.

<sup>1</sup> Усмон Азим. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1995. – Б. 380.

<sup>2</sup> Usmon Azim. O‘sha kitob. – B. 384.

<sup>3</sup> Usmon Azim. O‘sha kitob. – B. 387.

Turkumdagi “Kuzgi bog‘ II” nomli bo‘limda kuzgi daraxtlar tasvirida o‘ziga xos tashbehlar qo‘llanilgan:

Vazminlik bor ular o‘yida  
Vaqt oldida fidoyilik bor.  
Xazonrezning g‘amgin to‘yida  
Hasrat bergan xudo-yilik bor<sup>1</sup>.

Vazminlik, fidoyilik kabi hislatlar og‘ochlarga xos bo‘lgan jihatlardir. Xazonrez esa bu o‘rinda kuzakning boshqa bir nomi bo‘lib, uning g‘amgin to‘yida Hasrat ham o‘z ehsonlarini ulashmoqda. Ushbu parchada jonlantirish, sifatlash, istiora san’atlaridan unumli foydalanilgan. Turkumning “Xotima” qismida lirik qahramonning o‘tayotgan umr karvoniga qarata aytganlari aks etgan:

G‘am selini tun-kun kechib o‘tding sen,  
Kishanlarni uzib, yechib o‘tding sen,  
Ko‘z yoshlarni ichib-ichib o‘tding sen –  
To‘xta-ya, to‘xtagin, umrim karvoni<sup>2</sup>.

She’rdagi “g‘am seli”, “kishan”, “ko‘z yoshlar”, “umr karvoni” birikmalari istioralar bo‘lib, “g‘am seli” – lirik qahramonning jafalarda o‘tgan hayot yo‘li, “kishan” – hayotdagi to‘siqlar ma’nosida, “ko‘z yoshlar” – g‘amgin damlar yodi, “umr karvoni” – bir insonning hayot yo‘li ma’nolarida qo‘llanilgan.

Umuman olganda, Usmon Azim qalamiga mansub “Tazarru bog‘lari” turkumi lirik qahramoni olam hodisalari ma’nosini anglashga uringan so‘fiynamo shaxs bo‘lgani uchun ham uning tarkibidagi she’rlarda Ollohga yetishish, uning vaslidan bahramand bo‘lish uchun bosib o‘tgan yo‘l, o‘sha yo‘lda ruhiyatidagi o‘zgarishlar so‘fiyona kechinmalar tarzida aks ettirilgan. Solikning tavba-tazarru yo‘li yil fasllariga mengzalgan holatda tasvirlangan. Har bir faslda lirik qahramon tobora tozarib, poklanib, Olloh sari qadam tashlashga urinadi. Ushbu mashaqqatli yo‘l shoir tomonidan badiiy shartlilikning ishoraviy unsurlari bo‘lgan tasvir vositalari yordamida aks ettirilgan.

Abdulla Sher qalamiga mansub “Sevgi olmoshi” she’riy turkumidagi “Men”, “Sen”, “U” va “Biz” olmoshlarining ramziy sarlavhalar sifatida qo‘llanilgani, unda shartlilik yetakchiligini anglatadi. Turkumning har bir qismi o‘n bir sonetlar jamlanmasidan iborat bo‘lib, bu orqali o‘z ichida yana kichik turkumlarni ham tashkil etgan deyish mumkin. Turkum tarkibidagi qirq to‘rt sonetning barchasining lirik

<sup>1</sup> Usmon Azim. O‘sha kitob. – B. 395.

<sup>2</sup> Usmon Azim. O‘sha kitob. – B. 403.

qahramoni umumiy sarlavhadan ham ma'lum bo'lgan "oshiq" obrazidir. Turkumning "Men" deb nomlangan qismida:

Garchandki shoiri sohir bo'lmadim,

Munojot bobida mohir bo'lmadim

Va lekin oh ursam – engashur osmon!<sup>1</sup> deyilgan.

She'ning lirik qahramoni bo'lgan oshiq yigit holatining mubolag'aviy tasviri u "oh" urgan chog'da osmon ham uning ohiga engashishi aks etgan. Shoir badiiy shartlilik talabiga ko'ra mubolag'a va jonlantirishdan o'rinli foydalangan.

Turkumning "Sen" deb boshlangan ikkinchi qismida asosan lirik qahramon – oshiq tomonidan ma'shuqaning ta'rif-tasviri keltiriladi. Yorning chiroyi eng go'zal tashbehlar bilan tasvirlanadi:

Qaddingni bahorda ko'rsa kechagi

Shamollar ortiga bugun qayrilar;

Oltin yoz suluvi, qish kelinchagi –

Fasllar bekasi, kuydi g'ayrilar<sup>2</sup>.

Tashbehlariga ko'ra ma'shuqaga quyosh singil, u bir boqqanda ming yillik muzlar erib, daryo bo'lib oqadi, uning boshida tarix va vaqt tushunchalari ham charx urib o'z yo'llaridan chalg'iydi. Bunda shoir tashxis – jonlantirish, mubolag'a, sifatlash, parafrazalardan unumli foydalangan.

Ushbu bo'limdagi birinchi sonetda oshiqning ma'shuqadan ayrilganlik holati aks ettiriladi va "U" nomli uchinchi bo'lim boshlanadi. Bundagi "u", endi oshiq uchun begonaga aylanayotgan ma'shuqa bo'lib, bo'lim nihoyasigacha ular ayrilishgani ma'lum bo'ladi. She'rdagi kuzning tarovati original tashbehlar orqali o'ziga xos yo'sinda tasvirlangan:

Kuz cho'pchak aytadi bog' aro g'uluv,

Yaproqlar ishonib, yayrar barchasi:

"Yaproqmas – biz endi quyosh parchasi,

Daraxtga osig'liq bir olov tuyg'u"<sup>3</sup>.

Kuzning ertagi – esayotgan shamol bo'lsa, yaproqlar unda tebranib, yayraydi, o'zlarini quyosh parchasidek his etishlari esa borgan sari quyoshga o'xshab olovrang tusga kirishlari ifodasidir. Bunda ham muallif tashxis, intoq, istiora kabi mumtoz badiiy san'atlardan o'rinli foydalana bilgan.

<sup>1</sup> Абдулла Шер. Севги олмоши. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа уйи, 2010. – Б. 9.

<sup>2</sup> Abdulla Sher. O'sha kitob. – B. 22.

<sup>3</sup> Abdulla Sher. O'sha kitob. – B. 37.

Ushbu bo‘limdagi o‘ninchi sonetda ham shoir o‘ziga xos poetik obrazlar yaratgan:

Xotirot darchasi ochildi: yoshlik  
Sochlari qo‘ng‘iroq – jarangdor yashar,  
Gulga – hid, lolaga ranglar ulashar,  
Ko‘zlar – cho‘g‘, qalb – olov, boqish tik, bosh tik.

Bundagi xotirot darchasida ko‘zga tashlanayotgan sochlari qo‘ng‘iroq yoshlikning gullarga hid, lola-gullarga rang ulasha olish darajasida navqiron va o‘zini yaratishga qodir his etganligidan uning ko‘zlaridan cho‘g‘, qalbidan esa olov taralgandek tuyuladi. Yoshlik poetik obrazi uchun qo‘llanilgan sifatlash – epitetlar va mubolag‘alar o‘rinli va o‘ziga xosdir.

Turkumning to‘rtinchi bo‘limi “Biz” deb nomlangan bo‘lib, unda uzoq yillik ayriliqdan so‘ng uchrashgan sevrishganlar kechinmalari oshiq yigit tilidan bayon qilingan. Ushbu bo‘lim va turkumning so‘nggi she’rida o‘tli muhabbat sohiblarining sevgi qissasi xotiralarda qolajagi, u yoqqan olov tafti his etilajagiga ishonch bilan yakunlangan:

Bu foniy dunyoda cho‘g‘dek yashadik.  
Gumonu yolg‘onni yoqib tashladik:  
Olovning suvrati qolajak bizdan!<sup>1</sup>

Ko‘rinadiki, shoir Abdulla Sher qalamiga mansub “Sevgi olmoshi” sonetlar turkumi muhabbat mavzusida bo‘lib, unda lirik qahramon – oshiqning kechinmalari atroflicha tasvirlangan. Turkumdagi she’rlarda ma’shuqa ta’rifi yoki oshiqning holati ifodasi uchun badiiy shartlilik talabiga ko‘ra ko‘plab tasvir vositalari, xususan, tashbehlar, sifatlashlar, jonlantirishlar, istiora, mubolag‘a, parafraza kabilardan unumli foydalangan. Ayrim tashbehlar yoki poetik obrazlar sonetlarda takror qo‘llanilishi orqali turkumlilikning umumiy belgilari namoyon bo‘lgan.

Taniqli shoir To‘ra Sulaymon qalamiga mansub turkumlar ham badiiy shartlilik talabiga ko‘ra shaklantirilgan asarlar sirasiga kiradi. Shoirning turkumlari boshqalarnikidan farq qilib, ular bir sarlavha ostida raqamlangan ikkitadan she’rlar jamlanmasi holatida yoki ta’bir joiz bo‘lsa, sochma turkumlar deb atalishi mumkin bo‘lgan asarlardir. Bularga shoirning “Ergash Jumanbulbul o‘g‘li el kezadi” turkumi tarkibidagi “Aylanib I”, “Aylanib II”, “Yig‘lar I”, “Yig‘lar II”, “Holinda I”, “Holinda II” kabi she’rlarini kiritish mumkin.

---

<sup>1</sup> Абдулла Шер. Севги олмоши. – Т.: Фафур Гулом номидаги нашриёт матбаа уйи, 2010. – Б. 54.

“Aylanib I” she’ri sof nazmiy shaklda yozilgan bo‘lib, u “Ergash Jumanbulbul o‘g‘li el kezadi” turkumi tarkibida berilmagan. Unda ko‘p kutilgan va kelajak mevasi bo‘lgan istiqlol tufayli lirik qahramon qalbidan kechayotgan hissiyotlar bayon qilingan:

Tug‘rosiga qo‘nmish Humo mustahkam Qo‘rg‘on aylanib,  
Chor atrofga zog‘ yo‘latmas Semurg‘ devon aylanib.

Amir Temur ruhi shodmon izzatli Sulton aylanib.

Bu ne baxtkim, yursa Hud-hud To‘ra Sulaymon aylanib!<sup>1</sup>

Ushbu she’rdagi Humo – afsonaviy qush; baxt-saodat, davlat ramzi. Qo‘rg‘on – mamlakat, Semurg‘ – o‘zbek xalq ertak va afsonalarida ijobiy qahramonning do‘sti, himoyachisi, hamrohi ma’nolarini bergan afsonaviy qush bo‘lganidan bu o‘rinda mamlakat himoyachisi ma’nosini bermoqda. Hudhud qushning ham xislatlari bisyor u Qur’oni karimda zikr etilgan qush, musulmonchilikka da’vatchi va xabarchi qushlik sifati ham bor. Bu o‘rinda esa To‘ra Sulaymonga istiqloldan xabar bergan xabarchi ma’nosida qo‘llanmoqda. Ko‘rinadiki, badiiy shartlilik talabiga ko‘ra Humo, Semurg‘ va Hudhud obrazlari mamlakatda yuz bergan istiqlolga daxldor timsollar sifatida talqin etilmoqda.

“Yig‘lar I”, “Yig‘lar II” she’rlari ham nasriy parchalardan yoki biror bir syujetdan keyin unga ilova tarzida shakllantirilgan.

Nelardandir ko‘ngil bo‘lib g‘ash,  
Ham egilib bu egilmas bosh,  
Ko‘zlarimda qalqib tursa yosh,  
Bu holimga berolmay bardosh  
Mushtipar bir onam yig‘laydir,  
Qolganlari yolg‘on yig‘laydir<sup>2</sup>...

“Egilmas bosh” epitetidagi “bosh” so‘zi sinekdoxa ko‘chim turiga misol bo‘lib, u orqali muallifning o‘zi va o‘ziga o‘xshagan mag‘rur insonlar nazarda tutilmoqda. Oxirgi ikki misrada shoir ham parallelizmdan ham qarshilantirishdan unumli foydalana bilgan. Chunki ushbu misralarda ona va qolganlarning yig‘lashi parallel qo‘yilmoqda, ayni vaqtda, shu ikki tushuncha bir-biriga zidlanmoqda.

“Holinda I”, “Holinda II” she’rlari ham shoirning shu turkum tarkibidagi nasriy parchalardan keyin keltirilgan she’rlari sanaladi. Ularda ijtimoiy tuzumdagi nohaqliklar, xalqning og‘ir axvoli bayon etilgan. Shu bilan birga baxshi-shoirning elni farovon ko‘rish orzulari ham aks ettirilgan:

<sup>1</sup> Тўра Сулаймон. Сайхон. – Т.: Шарқ, 2003. – Б. 4.

<sup>2</sup> То‘ра Сулаймон. О‘sha kitob. – Б. 61.

Taxt tomondin kelgan borliq va'dalar yolg'on holinda.  
Ko'rsam armonim qolmasdi bu elni omon holinda.  
Har ovul, qishloq, muzofot, kentni farovon holinda.  
O'z tug'i, tug'rosi birla mustaqil makon holinda<sup>1</sup>.

Umuman, "Ergash Jumanbulbul o'g'li el kezadi" majmuasi tarkibida berilgan ushbu kichik turkumlarda shoir o'tgan zamon va istiqloq davrini solishtirish orqali xalqning bugungi farovon hayotga yetishuvi oson bo'lmaganligini, bugungi kunga shukronalik keltirish kerakligini eslatmoqchi bo'ladi.

Shoir Mirpo'lat Mirzoning "Istibdod manzaralari", "Gazli manzaralari" va "Do'st qadri" nomli turkumlari ham mavjud bo'lib, "Istibdod manzaralari" turkumi tarkibidagi "Oshoba", "Samarqand yonmoqda...", "Vereshchagin armoni", "O'likfurushlar", "Abdullatif o'limi", "Qatag'on yillari", "Oq bayroq", "Sanjar Siddiq", "Fayzulla Xo'jayev", "Akmal Ikromov", "Cho'lpon", "Xayolimda" kabi she'rlarida o'zbek xalqi va uning tarixi bilan bog'liq ko'plab voqeliklar esga olingan.

Turkumdagi "Oshoba" nomli birinchi she'r hozirgi kunda So'g'd viloyati Asht tumaniga qarashli Oshoba nomli tarixiy manzilga bag'ishlab yozilgan. Mazmundan baland tog'lar bilan o'ralgan bu joy ham o'z boshidan ne-ne bosqinlarni o'tkazganligi ayonlashadi.

Hamon yuragimga soladi titroq  
Har shahid ketgan jon, har bir xaroba  
Moziy qatlarida yonar bir qishloq,  
Baland tog'lar bag'ri – mag'zur Oshoba.

Bu joy qonxo'r Skobelev, makkor Kaufman kabi ko'plab bosqinchilarni ko'rgan. She'r vatanparvarlikka da'vat sifatida bitilgan asarlar sirasidan. Parchadagi "shahid ketgan jon" ham sifatlash, ham sinekdoxa ko'chim turiga misol bo'ladi.

Turkumdagi "Samarqand yonmoqda..." she'rida chor Rossiyasi bosqini, xususan, 1868-yilning dahshatlari tilga olingan. Unga ko'ra qadimiy Samarqand shahri dushman tomonidan to'pga tutilgan va shahar yong'in ichida qolgan:

O't sochar zambarak, titrar Registon,  
Naqshlar to'kilar, minorlar parkand.  
Zangori gumbazlar yarqirar alvon,  
Samarqand yonmoqda, yonar Samarqand!<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Тўра Сулаймон. Сайхон. – Т.: Шарқ, 2003. – Б. 72.

<sup>2</sup> Мирпўлат Мирзо. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2004. – Б. 16.



Umuman, Mirpo‘lat Mirzo qalamiga mansub mazkur turkum rus istibdodining o‘lkamiz boshiga solgan jafolariga bag‘ishlangan bo‘lib, undagi badiiy shartlilik shoirning zarur o‘rinlarda qo‘llangan badiiy san’atlar, ko‘chimlar kabi tasvir vositalari orqali amalga oshirilgan.

Xulosa qilinganda, she‘riy asarlarda badiiy shartlilik ramziy-majoziy obrazlarning keng qo‘llana boshlashi, ularni ishoraviy tasvirlash bilan bog‘liq tarzda yuzaga chiqar ekan. Turkumlar tarkibidagi she‘rlar voqeabandlik asosida bog‘lanadi, lirik qahramonning tutumlari ketma-ketligi she‘rlardagi davomiylikni ta‘minlaydi. Oldingi she‘rda uchraydigan satrlar, tasvirlar, ayrim poetik obrazlarning keyingi she‘rlarda ham ko‘zga tashlanishi, ulardagi sayyorlikni izohlaydi.

Usmon Azim qalamiga mansub “Tazarru bog‘lari” turkumi lirik qahramon bo‘lgan so‘fiy kechinmalari, Ollohga yetishish, uning vaslidan bahramand bo‘lishgacha bosib o‘tgan yo‘li, o‘sha yo‘ldagi ruhiyati kechimlari aks ettirilgan asarlar jamlanmasidir. Abdulla Sher, To‘ra Sulaymon, Mirpo‘lat Mirzo qalamiga mansub turkumlar badiiy shartlilik talabiga ko‘ra ko‘plab tasvir vositalaridan unumli foydalangan holda shakllantirilgan.

### **3. Turkumlarda lirik “men” obrazi**

“Badiiy asar hamma vaqt ijodkorning obyektiv voqelikka bo‘lgan subyektiv-estetik munosabatidan tug‘iladi”<sup>1</sup>. Adabiy asarda bu munosabat biror ko‘rinishda o‘z ifodasini topadi. Obrazli poetik nutq orqali o‘sha ko‘rinishlar in‘ikos etadi. Lirik asarlarda ham qahramon mavjud ekani sabab “she‘rning g‘oyaviy mazmuni, adabiyotning tabiatiga ko‘ra, qahramon orqali ifodalanadi”<sup>2</sup>. Ya‘ni lirik asarlarda ham poetik nutq qahramonlar tilidan ifodalanadi. Bunda subyektiv-estetik munosabat egasi bo‘lgan shaxs nazarda tutiladi.

Lirikadagi qahramon masalasi hali ham adabiyotshunoslar o‘rtasida ko‘plab baxs-munozaralarga sabab bo‘layotgan va aniq xulosaga kelinmagan masaladir. Qadimda Aristotel lirikada qahramonni faqat “avtor” bo‘ladi desa, Gegel “lirik subyekt”, G.N.Pospelov ham Gegelga ergashib, lirik meditatsiya subyektini “lirik subyekt”, N.G.Chernishevskiy “men” atamasi orqali, Y.N.Tinyanov “lirik qahramon” deya atalishini taklif qilishgan. Lekin ba‘zi lirik asarlarda lirik qahramon yo “men”, yoki “biz”dan tashqari boshqa obrazlar ham uchraydi. Lekin lirik qahramon poeziyada “markaziy siymo” vazifasini o‘taydi. “Lirik qahramon ham

<sup>1</sup> Жамоа. Адабиёт назарияси. 1-том. – Т.: Фан, 1978. – Б.102.

<sup>2</sup> Тўйчиев У. Адабий турлар ва жанрлар. – Т.: Фан, 1992. – Б. 14.

tipik obrazdir, u subyektiv va obyektiv olamining birlashgan timsoli, chunki obyektiv borliq hodisalari lirikada “men”ning dunyoqarashi orqali saralanadi”<sup>1</sup>. Lekin men hamisha ham o‘z ruhiyati, o‘z kechinmalarini tasvirlamaydi. U she’rdagi boshqa lirik personajlar bilan suhbatlashishi, ularga murojaat etishi va ularning tuyg‘ularini ifodalashi ham mumkin. Bu yuqorida ta’kidlaganimizdek, she’rning faqat monolog emasligidan darak beradi.

Turkum she’rlarda ham lirik qahramon va lirik personaj tushunchalari o‘z zuhurini topgan. Bunday obrazlar badiiy to‘qima shaklida yaratiladi, o‘z xossasiga ko‘ra estetik qiymat kasb etib, kishilar hayotining umumlashma yoki aniq manzarasini aks ettiradi, tasvirlanayotgan voqelikka munosabati va kechinmalari ifodasi orqali hayot bilan mustahkam bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Milliy she’riyat tajribasidan yuqorida tilga olingan qarashlarning har birini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladigan ko‘plab misollar topish mumkin. Jumladan, shoira Zulfiya she’riyatida alohida o‘rin tutadigan hijron turkumiga kirgan she’rlarning aksari shoira turmush o‘rtog‘i Hamid Olimjondan ayrilganligi haqidadir. “Hijron kunlarida” deb nomlangan ushbu turkumdagi she’rlarning lirik qahramoni shoira o‘zi. Zulfiyaxonimning bevaqt vafot etgan yori tufayli chekayotgan iztiroblari mazkur turkumning mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Turkum tarkibidagi she’rlardagi aks ettirilayotgan yoki lirik qahramon murojaat etayotgan asosiy poetik obraz Hamid Olimjondir. Turkum boshlanishiga shoira bir to‘rtlikni joylashtiradi va ushbu she’r turkum tarkibidagi barcha she’rlarning umumiy mazmuninini ifodalay olgan.

Baxtiyor sevgini kuylardi hayot,  
O‘lim xanjariga tegdi-yu sindi.  
Hijron faryodiday sovuq ovozim,  
Nahot, lirikaning yolqini tindi<sup>2</sup>.

Ko‘rinadiki, she’rning lirik qahramoni bo‘lgan shoira endi yaratadigan ijod namunalari “sovuq ovoz”dan yaratilishini aytish orqali o‘z ijodidagi yangi qirra ochilayotganligiga ishora qiladi. Turkum tarkibidagi “Yulduz”, “Bahor keldi seni so‘roqlab...”, “Ne baloga etding mubtalo”, “Ko‘rganmiding ko‘zlarimda yosh?”, “Sen qaydasan,

---

<sup>1</sup> Тимофеев Л.Н. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1966. – С. 198. (tarjima muallifniki)

<sup>2</sup> Зулфия. Сайланма. – Тошкент: Шарк, 2006. – Б. 11.

yuragim?”, “Hayot jilosi”, “O‘rik gullaganda”, “Haykal” kabi she’rldar shular jumlasidan.

Turkumdagi she’rlarda tadrijiylik mavjud bo‘lib, ularning makon va zamonda ham uyg‘unligi ularni birlashtirib turgan belgilardan sanaladi. Xususan, turkumdagi “Yulduz” nomli birinchi she’r hijron iztirobidan o‘rtanayotgan qalbning oqshom chog‘i bu og‘riqlardan zada bo‘lib tashqariga chiqishi va osmondagi yorqin yulduzni o‘z yoriga o‘xshatishi orqali uning mangu yashashiga ishorani anglashimiz mumkin:

Xuddi senday uzoq va senday yorqin,  
Avji chaqnaganda so‘nadi u ham,  
Bir yupanch: sevgimning osmonidan  
O‘chmasdan yonasan, ey go‘zal hamdam!<sup>1</sup>

Shoira bahor poetik obrazi orqali Hamid Olimjonning bahorni kuylagani, baxtni tarannum etganligini aks ettiradi va bahor kelaverar ekan, Hamid Olimjon ham o‘zining hayotbaxsh she’rlari bilan hayotga qaytaveradi, degan g‘oyani ilgari suradi. She’r nihoyasidagi:

Hijroning qalbimda, sozing qo‘limda,  
Hayotni kuylayman, chekinar alam,  
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,  
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!<sup>2</sup>

kabi umidli misralari lirik qahramon qalbidagi yupanchni, hayotga intilishni, umidsizlikdan chiqish holatini anglatadi.

“Hayot jilosi” she’rida hayot ramzi bo‘lgan quyoshga intilgan shoira sozini yana qayta sozlab, jilvagar hayotni kuylashda davom etishni maqsad qilganini ifodalaydi:

Qaradimu, ko‘zimni ortiq  
Uzolmadim tirik hayotdan.  
Sozim, qalbim, qo‘shig‘im bilan  
Maftun bo‘ldim men qayta, boshdan<sup>3</sup>.

Turkumdagi navbatdagi she’r “O‘rik gullaganda” deb nomlanadi. U Hamid Olimjonning shu nomli she’riga nazira tarzida bitilgan. She’rdagi kechinma tasvirida lirik qahramon Hamid Olimjon bilan yashagan uylarida uni xotirlab, shoirning hayotsevarlik bilan bitilgan baytlarini o‘qir chog‘idagi hayajonlarni yana bir bor tuyganligi va tong chog‘i iziga qaytar ekan, unga eng yaxshi xotiralar hamroh bo‘lganini ta’kidlaydi:

---

<sup>1</sup> Зулфия. Сайланма. – Тошкент: Шарк, 2006. – Б. 12.

<sup>2</sup> Zulfiya. O‘sha kitob. – B. 13.

<sup>3</sup> Zulfiya. O‘sha kitob. – B. 15.

Sen kuylagan o‘rik shu kecha  
Burkandi oq – oppoq chechakka.  
Men qadrdon xotira bilan  
Jo‘nab ketdim uyimga yakka<sup>1</sup>.

Turkumdagi “Haykal” she‘rida shoir siymosining qad ko‘targanidan uni ko‘rib turish imkoni borligi tufayli paydo bo‘lgan taskin hissi aks ettirilgan. Ushbu she‘rga intim kechinmadan ko‘ra ijtimoiy mazmun ko‘proq yuklanganday tuyuladi. Buni she‘rning oxirgi bandida yaqqol ko‘rinadi:

Mag‘rur ko‘tarilding boshqday o‘sib,  
Sen bilan safimiz yana zich, azim.  
Mangulik-chun taqdir, she‘rimni tutib  
Xalqingga va senga qilaman ta‘zim<sup>2</sup>.

Turkumdagi so‘nggi she‘r “Sensiz” deb nomlangan. Ushbu she‘rda lirik qahramon yorsiz yashagan umrini sarhisob qilib, bir umr yorning hijroni sabab tug‘ilgan qalb iztiroblarni yashab o‘tayotganini bildiradi:

Mana bir umrni yashadim sensiz,  
Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib,  
Tobuting boshida cho‘kkanimda tiz,  
Farzandlar ko‘tardi qo‘limdan tutib<sup>3</sup>.

Yuqoridagi tahlillardan Zulfiyaxonim she‘riyatidagi hijron motivlari aks ettirgan she‘rlarini yagona turkum doirasida tadqiq etish maqsadga muvofiq ekanligini, ushbu she‘rlardagi lirik qahramon yoridan ayrilgan ozurda yurak shoira Zulfiya she‘rlaridagi asosiy poetik obraz shoir Hamid Olimjon ekanligi anglashiladi. Turkum tarkibidagi barcha she‘rlardagi lirik qahramon kechinmasidagi umumiylik va hijron mavzusi, mushtarak g‘oya, ya‘ni iztirobli qalb nolalari ifodasi va boshqa ko‘plab jihatlar ushbu she‘rlarning turkum sifatida tekshirilishi to‘g‘ri ekanligini asoslaydi.

Xassosqalb shoira Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida ham turkum she‘rlarda lirik qahramon kechinmalari o‘ziga xos tarzda ifodalangan. Ushbu she‘rlardagi lirik “men” ko‘p hollarda ijodkorning o‘zi yoki kechinmasi tasvirlanayotgan inson sifatida aks ettirilgan. Shoiraning “Avtoportret” nomli turkumi tarkibidagi uch she‘rda ham sevgi iztiroblari aks ettirilgan. Birinchi she‘r “Yolg‘izlik” deb nomlangan va unda sevgi dardiga muhtalo bo‘lgan ma‘shuqaning o‘z yori bilan avval xayollarda, so‘ngra hayotda birga yashaganligi, lekin o‘rtadagi muhabbat

<sup>1</sup> Zulfiya. O‘sha kitob. – B. 17.

<sup>2</sup> Zulfiya. O‘sha kitob. – B. 19.

<sup>3</sup> Zulfiya. O‘sha kitob. – B. 19.

alangasi soʻnganligidan birga yashashdan maʼno qolmagani, ularning joni-joniga tutash boʻlmaganidan oʻzini yolgʻiz his etayotgan maʼshuqa kechinmalari aks ettirilgan:

Garchand endi ketmoqqa – yoʻl topmoqqa shoshmassan,  
Ayt, qachon bulut yangligʻ qoplading osmonimni?  
Birgasanu, yoʻq, yoʻq, jon-jonimga tutashmassan,  
Qaygʻusin qilaman shu yolgʻizgina jonimni<sup>1</sup>.

Turkumdagi ikkinchi sheʼr “Alanga” deb nomlangan boʻlib, unda lirik qahramon boʻlgan maʼshuqaning sevgi alangasida oʻz “umrining butogʻi va yaproqlarini sekin-sekin kuydirayotganligini” oshiq sezmagani, ana shunday alangaga mushtoq qalbi esa oʻzining xazon boʻlayotganligini bilmaganligi haqidagi kechinmalarini bayon etadi. Ushbu sheʼrning nihoyasidagi:

Va bir xayol oʻylarimga oʻrnashib olgan  
Takror etib ishqning oʻtligʻ, mungligʻ sasini:  
Chiroq yoʻqmi bu dunyoda saqlab qololgan  
Kuydirmasdan oʻzin urgan parvonasini?<sup>2</sup>

satrlarida lirik qahramon muhabbat alangasi tasvirida qoʻllaniladigan anʼanaviy sham va parvona birligiga ishora qilayotgani, oshigʻini shamga, oʻzini parvonaga oʻxshatish orqali oʻz hayotining parvonaning qismatiga qiyoslayotganligi aks etadi.

Turkumdagi uchinchi sheʼr “Hijron kunlarida” deb nomlanib, unda lirik qahramon oʻzi uchun hijron tole ekanligini tasvirlaydi:

Tole ekan, tushdim bir soʻz, qorlik, muzlikka,  
Qoʻrqdim, tagʻin aldanmay deb ayri soʻzlikka,  
Men toabad koʻngil berdim shul – Yolgʻizlikka.  
Hech kimsani chaqirmayman<sup>3</sup>...

Ushbu turkum muhabbat va hijron mavzusida boʻlganidan uning lirik qahramoni shoiraning oʻzi ekanligi ayonlashadi. Sevgi mavzusidagi sheʼrlarda ishq iztiroblarini aks ettirilsa, ijodkor ayol kishi boʻlgan hollarda u hijronzada maʼshuqa obrazida namoyon boʻladi.

Adabiyotshunos olim L.I.Timofeev obraz “badiiy toʻqima yordamida yaratilgan, estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma va ayni chogʻda, aniq manzarasi ekanligi”ni qayd etish orqali uning ijtimoiy muhit, zamon va makon bilan qanchalar bogʻliq ekanligini uqtiradi.

<sup>1</sup> Худойбердиева Ҳалима. Буюк кушлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 278.

<sup>2</sup> Худойбердиева Н. Оʻsha kitob. – В. 278.

<sup>3</sup> Худойбердиева Н. Оʻsha kitob. – В. 279.

O‘zbek she’riyatida o‘ziga xos maktab yaratgan shoir Rauf Parfi she’riy turkumlarida ham lirik qahramon dard va iztirob kuychisi sifatida maydonga chiqadi. U hech qachon quruq maddohlik va tilyog‘lamalik qilmaydi. Qalb kechinmalarining tug‘yonli daqiqalarini boricha namoyish etadi. Lekin bu jarayonda o‘zigagina xos raufona qo‘llanimlardan, original qahramonlar galareyasidan foydalanadi. Badiiy adabiyotning, xususan, poeziyaning obrazlilik tendensiyasi Rauf Parfi she’riyati uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki shoir qo‘llagan timsollar o‘zining betakrorligi, originalligi bilan she’rxonda o‘zgacha taassurot qoldiradi.

Rauf Parfi turkumlarida obrazlilikni yuzaga keltiruvchi omillar va obrazlilik vositalari o‘zgacha. Masalan, shoirning oltita sonetdan iborat “Muhabbat” sonetlar turkumida lirik qahramon hayotning mazmuni, uning xossalari muhabbatda deb bilguvchi e’tiqod sohibi bo‘lgan nuktadon inson. Muhabbat deyilganda faqat sevishganlar o‘rtasidagi tuyg‘u emas, balki barcha narsaga bo‘lgan ijobiy tuyg‘u nazarda tutiladi. Shuningdek, ana shu tuyg‘uga bo‘lgan ishonch, e’tiqod barcha qiyinchiliklarni yengib o‘tishda ko‘maklashishi, ya’ni orzular ro‘yobiga intilishni kuchaytiradi.

Shoir turkum sonetlarida uchraydigan ma’shuqa obrazi hayotiy asosga ega bo‘lib, uning rafiqasi Dilorom ekanligi “Diloromning ko‘zlari” sonetlar majmuidan ayonlashadi. Unda shoir “ko‘z” detalidan foydalanib, boqiylikka daxldor samimiy muhabbatini lirik qahramon sifatida talqin etadi:

Ko‘zingning qa’rida yukinar, izlar,  
Yorug‘ sohillarin asrdiyda jon...  
Mangulik osmonni – bu teran ko‘zlar<sup>1</sup>.

“Og‘riq” sonetlar turkumida esa lirik qahramon bo‘lgan shoir ijod ahli uchun xos bo‘lgan intuitiv holat kechinmasini ifodalaydi. Ijodkor uchun ilhomi jo‘shgan on uning ruhiyatini kemiradigan o‘y-xayollar beradigan og‘riq tuyg‘usni yengishning birgina yo‘li – uni ifodalashxolos. Ana shu onlarni boshidan kechirayotgan lirik qahramon har bir ijodkor uchun ana shu og‘riqni ko‘taruvchi va asrovchi qalb najot qal’asiekanini tasvirlaydi. Lekin ana shu og‘riqni ko‘tarishda, albatta, hayotningham o‘rni beqiyos. Yashayotgan qalb iymon nuri bilan yo‘g‘rilgan bo‘lsa undan-da a’lo. Chunki ifoda uchun muqaddas so‘zni izlayotgan ijodkorga imonli qalb darkor.

Qizg‘anma samoviy sehrning sasin...  
Yurak deb atalgan og‘riq bu – najot.

---

<sup>1</sup> Рауф Парфи. Сакина. –Т.: Мухаррир, 2013. – Б. 207.

Ko'krak qafasimiz – najot qal'asi<sup>1</sup>.

She'rdagi lirik qahramonning og'riqni kechirish jarayoni barcha murakkabliklari bilan tasvirlangan. Xususan, she'riyat yoki ijodkorning ilhomi alamlar keltirishi bilan birga ayrimlar uchun shon-shuhrat manbai bo'lib qolishi ham hayot haqiqati ekani aks ettiriladi. Ilhomning qalbni yolqinlantirish onlari “sohir yuragingni chaqmoq urdi-ku” yo'sinida ta'riflanadi. Hayot sinovlari chaqmoq bilan nurlangan qalbdagi yaralar hosil qiladi. Lekin lirik qahramon yaralardan ungan chechaklar, ya'ni she'rlarni bag'riga bosib, qalb hissiyotlari bilan kuchli nurga limmo-lim ko'z orqali dunyoga qaraydi, dunyoviy alamning toshlariga ko'zi tushadi. She'rlar qalbdan chiqqanligidan, najot qal'asiga – yurakka o'sha nur qaytadan joylanadi.

Shoirning barcha sonetlaridagi lirik qahramonlar hayotga, oilaga, ilohga muhabbatli insongina haqiqiy ma'nodagi tirik insonligini ta'kidlanadi. Muhabbatni his etmagan chog'ida o'zini tanasida joni yo'qdek his etgan lirik qahramon Oллоhdan jonining parvozi bo'la oladigan biror ilinj berishini o'tinadi. Chunki u:

Zaharga aylandim, og'ochdek sindim,  
Qayta o'ldim, ruhim qaytmadi tanga.  
Hazrat Sultonimga singrab sig'indim<sup>2</sup>

holatida edi. Faqat ishqgina uni hayotga qaytara oladi. Shuning uchun lirik qahramon:

Allohim madad ber. Bir So'z ber menga,  
Jonimning parvozin bergil, sog'indim,  
Ishq ber! Qaytar meni yorug' Vatanga<sup>3</sup>.

Ushbu ishq oddiy emas, balki ilohiy tuyg'u egasi bo'lgan qahramonning buyuk iztirobi va achchiq azoblari mevasi. Bunday devonavor ko'ngil Majnunning ishqini, Mashrabning oshiqligini eslatadi. Navoiyning “Majnun”ini Ka'batullohga toat uchun olib borishganda ishqining chandon ortishini, bu ishqdan ayirmasligini Oллоhdan so'ragan edi. Mashrab ham o'z ishqidan devona bo'lgan edi. Mana shu holat Rauf Parfi sonetlarining aksarida ko'zga tashlanadi, va barchasida ishqdan xoli ko'ngildan o'lim afzalligi ta'kidlanadi. Agar ishqsiz odam mavjud bo'lsa, u insonning hayot kechirishi o'lim holatidan-da yomon ekanligi ta'kidlanadi. Turkumning beshinchi sonetida lirik qahramon:

<sup>1</sup> Рауф Парфи. Сўнги видо. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б. 86.

<sup>2</sup> Rauf Parfi. O'sha kitob – B. 86.

<sup>3</sup> Rauf Parfi. O'sha kitob – B. 88.

Tiriklikdan kechdim, o‘limdan kechdim,  
Osmon deganlari mening fig‘onim,  
Dunyo zaharini bir o‘zim ichdim<sup>1</sup>

deyish orqali u inson bunday tiriklikdan kechish, ishqsiz hayotdan o‘limni afzal ko‘rish orqali ruhi yuksalib, falakka ko‘tarilishini tasvirlaydi. Foni dunyodan ketayotgan ruh ko‘nglida alam paydo bo‘ladi, chunki endi u hayotni sog‘ina boshlaydi. Ana shu sog‘inch iztirobni yuzaga keltiradi. Lirik qahramon ilojisizlikdan bu dunyoni tark etish orqali bo‘lsa-da o‘z maqsadiga erishadi. Sog‘inch tuyg‘usini, alam va hijronni shu orqali topadi. Ishqqa shu yo‘l bilan sazovor bo‘ladi. Mana shu holatning aksini, lirik qahramonning vafoti holati tasvirini shoirning “Tangri sog‘inchi” sonetlar turkumida uchratish mumkin:

Dunyolari yolg‘on, men o‘ldim chindan...  
Ulug‘ Tangrim, seni achchiq sog‘indim<sup>2</sup>.

Lirik qahramonning dunyo chirkinliklaridan zada ko‘ngli Olloh ishqiga muhtoj. Uning qalbida Ollohga muhabbat bor-u, hayotga muhabbat yo‘q. Shu holatni shoir chinakam o‘lim holatiga mengzaydi.

Oybek lirikasida portret faqat tasviriylikni ta‘minlabgina qolmay, balki obraz xarakterini, uning ruhiyatini ham yoritadi, Rauf Parfi she‘riyatida konkret shaxs portreti tasvir orqali chizilmaydi, balki o‘sha shaxs lirik qahramon vazifasida kelib kechinma lirik qahramon tilidan bayon etiladi. Lirik qahramon tuyg‘ulari, orzu-armonlarini o‘zi bayon etadi va bunda shoirning badiiy-estetik pozitsiyasi oydinlashadi. Turkum shaklidagi sonetlariga shoirning “Siyovush”, “Siyovush faryodi”, “Qora devor”, “Muhabbat” kabi she‘rlari kiradi. Ushbu sonetlarda lirik qahramon – shoirning o‘zi. Sonetlarda tilga olingan boshqa obrazlarning ayrimlari buyuk ijodkorlar bo‘lsa, ba‘zilar badiiy asar qahramonlari yoki tarixiy shaxslardir.

Rauf Parfining “Siyovush faryodi” soneti lirik qahramoni – afsonaviy shaxs Siyovush. U o‘zligini namoyon etish uchun podshoh bilan bahsga kirishadi. Chunki uning podshoh otasi toju-taxt va nafsga berilib ko‘p xatolarga yo‘l qo‘ygan. Toju taxtga sig‘inarlicha munosabatning natijasidagi xatoliklar farzandi – Siyovushning o‘limiga sabab bo‘lgan. Siyovush Rauf Parfi uchun alohida ahamiyatga ega. Shoir unda xalq farovonligi va yurt tinchiligini boylikdan ustun qo‘yuvchi, xunrezlikdan ogoh etuvchi zotni ko‘radi.

<sup>1</sup> Рауф Парфи. Сўнги видо. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б. 88.

<sup>2</sup> Rauf Parfi. O‘sha kitob. – B. 93.



Siyovush siymosini shoir oyog‘idan yer qa‘riga tortayotgan, muz tog‘lari ko‘z yoshidan o‘sayotgan shaklda namoyon qiladi. U mana shu holatda ham “olampanoh”ni e‘zoz etmoqni istaydi. U yana o‘z g‘oyalari kurashi uchun qayta tirilajagi haqida ogohlantirish beradi.

Ko‘z ochib ochunga qayta urildim,  
To‘xta, Siyovushman, men yana hayot –  
Qayta o‘lish uchun qayta tirildim<sup>1</sup>.

Ushbu timsol orqali shoir inson uchun barhayot bo‘lgan bunyodkorlik g‘oyalari zamonlar o‘tsa-da abadiyatga daxldorligicha qolishi, ya‘ni ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashda ezgulik yovuzlikka butunlay yengilmasligi, yovuzlikni yo‘q qilish uchun xalqning Siyovush kabi qahramonlari qayta-qayta dunyoga kelaverishi kabilarni yana bir bor eslatadi.

Rauf Parfining ushbu timsolga murojaat aks etgan ikkinchi soneti “Siyovush” deya nomlanadi. Unda lirik qahramon – Siyovush endi “olampanohning tashvishi” bo‘lgan taxtga murojaat etadi. Lirik qahramon – Siyovush taxtni “so‘qir quvva” deya ataydi. Bu orqali u toju taxt uchun insonlarning qanchalar razilliklarga borishiga ishora qiladi. Chunki ana shu “chirkin taxt”ning “nafsi” deya “o‘liklar ustinda mashvarat”, “*Tog‘ kelbat o‘g‘lonlar mayiti maydon*”, “*irfonning qo‘llari, qanoti kesilgan*” borliqqa esa vabo tarqalgan. Taxtning amalga oshirgan razilliklari uning portretini yanada mukammallashtiradi. U Oyning ham ajalini o‘z qo‘liga olgan, otaning tig‘i bilan o‘g‘ilni, o‘g‘ilning hanjari bilan otani o‘ldirishga qodir. Haqiqatni esa etu-ustixonini bilan yeb bitirgan. Bag‘ri razolatdan pora bo‘lgan Siyovush tuyg‘ularini, uning qalb iztiroblarini shoir anafora usulidan foydalanib ifodalaydi:

Nechun yurakda tosh, ko‘zlarda huzun,  
Nechun?! Xo‘rlangan insonlar faryodi?  
Nechun?! Nechun yolg‘onning umri uzun?  
Nechun?! Tirilmasmi o‘tkanlar yodi?<sup>2</sup>

Inson zotini taxqirlash holati: “toshinda palaxmon, jigarinda o‘q, yutgani og‘udir, topgani cho‘g‘dir”, – deya tasvirlanadi. Mazlum portreti shu tarzda xo‘rlangan va toptalgan holatda aks ettiriladi. “Zulmat ahkomi”ning portreti esa shoqoldek uvlayotgan, itdek hurayotgan, boyqushning qafasi va ajdahoning komiga tashbehlanadi. Razolat va zulmkorlik o‘chog‘i bo‘lgan taxt timsoli, uning shoir ilg‘agan mohiyati

<sup>1</sup> Rauf Parfi. O‘sha kitob – B. 179.

